

IV

ҚОДИР бахши РАҲИМОВ



I

САЙЛАНМА



RESPUBLIKA BAXSHICHILIK SAN'ATI MARKAZI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qodir baxshi Rahimov

SAYLANMA

(Termalar va dostonlar)

I kitob

Yozib oluvchi, nashrga tayyorlovchi
va so'z boshi muallifi
Abdiolim Ergashev,
filologiya fanlari doktori



TERMIZ-2023

Mashhur xalq baxshisi Qodir baxshi Rahimov ijodidan yozib olib, nashr etilayotgan ushbu to‘plamda baxshining turli yillarda ijro etgan termalaridan namunalar, Qodir baxshi iqtidori tufayli yaxlit syujet va kompozitsiyaga ega bo‘lgan va ilk bor e’lon qilinayotgan “Kelinoy”, “Yozi bilan Zebo” hamda baxshining o‘z individual ijod mahsuli bo‘lgan “Jahon pahlavoni” dostonlari jamlangan. Termalar va dostonlar o‘quvchilarini Qodir baxshi ijodi va mahorati bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Mas’ul muharrir:

Shomirza Turdimov, filologiya
fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Umid Norboyev,
Baxtiyor Axmedov

Ushbu kitob xalqimizning mashhur baxshisi Qodir Rahimovning 85 yillik yubileyiga bag‘ishlab Respublikasi baxshichilik san’ati markazi tomonidan chop etishga tayyorlandi.

ISBN 978-9943-7735-5-4

© Qodir baxshi Rahimov, 2023 y.
©“KITOB NASHR” nashriyoti, 2023 y.

QODIR BAXSHI HAQIDA

O‘zbek baxshichilik maktabi dunyoga Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Islom shoir, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Bola baxshi, Esemurat Jirov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Qodir baxshi Rahimov singari mashhur namoyondalarni bergani bilan har qancha faxrlansa arziyi.

SH.M. Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.



Qodir baxshi XX asrning eng zo‘r baxshisi edi. Hali bunaqangi iqtidorli, hafizasi qudratli, sehrli sozli va sirli ovoz sohibi yana necha asrda tug‘ilishi dargumon.

Abdulla ORIPOV,
O‘zbekiston xalq shoiri.



Men uzoq yillar xalq baxshilari ijodini o‘rganib Qodir baxshidek ohangrabo sasga, soz chertishda, soz va so‘zni qo‘sishda yuksak mahoratga ega boshqa baxshiga duch kelmadim. U o‘tkir xotirasi, repertuarining nihoyatda boyligi bilan mo‘jiza edi.

Malik Murodov, professor, fan arbobi.

Qodir baxshining ijodiy merosi

O'zbek xalq baxshichilik san'ati an'analarini asrash, rivojlantirish ilk bor uchinchi uyg'onish davri poydevorini qurishga kirishgan yangi O'zbekistonda umumdaylat ishi darajasiga ko'tarildi.

Prezidentimizning 2018-yil 25-apreldagi "Baxshichilik va dostonchilikni yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 1-noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori. 2019-yil 14-maydagi Xalqaro baxshichilik san'ati "baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori va 2019 yil 6 apreldagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali"ning ochilishi tantanalarida so'zlagan nutqida hamda boshqa me'yoriy hujjatlarda qadim baxshichilik va dostonchilik san'atini saqlab qolishda asosiy vazifalarini beradi.

Bu tarixiy qarorlarda universitet va institatlarda yangidan tashkil qilingan baxshichilik va dostonchilik san'ati vakillarini yoshlarini tarbiyalash, bu sohada ustoz-shogirdchilik an'analarini tiklash va izchil yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berildi. Shu sababli Termiz shahrida "Respublika baxshichilik san'at maktab internati" respublikamizning barcha tumanlaridagi musiqa va san'at dargohlarida "Baxshchilik sinflari" ochildi va bugungi kunda samarali faoliyat olib bormoqda. Oliy ta'limda baxshichilik va folklor bo'limlariga yoshlar o'qishga qabul qilinib, shu sohalarning mutaxassislarini tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston madaniyat vazirligi huzurida tashkil etilgan Respublika baxshichilik san'at markazi faoliyati ko'zga ko'rinish qoldi.

San'atning barcha sohasida, xususan baxshichilikda barhayot baxshilarning repertuari, ijro usullarini o'rganishgina xalq eposini hozirda ijod qilayotgan ustoz baxshilargacha yetkazib, bu olamdan o'tgan mashhur baxshilar qoldirgan boy ma'naviy merosini o'rganish, bilish zaruriyati hamisha bor. Buni yaxshi anglagan Prezidentimiz 2022 yil xalqimizning mashhur kuychilari baxshi-shoir Fozil Yo'ldosh o'g'lining 150 yillik, Qodir baxshi Rahimovning 85 yillik yubileylarini ko'tarinki ruhda respublika miqyosida nishonlashini ta'kidladi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li o'zbek dostonchiligi gullagan payti Ergash Jumanbulbul, Po'lkan shoir, Islom shoir, Abdulla shoir Nurali o'g'li, Bola baxshi, Umir shoir kabi baxshilarga zamondosh bo'lib yashagan bo'lsa, Qodir baxshi yuqorida nomi zikr etilgan baxshilar olam dan o'tib folklorshunoslar dostonchilik tugadi deb xulosaga kelgingan bir paytda o'tgan asrning 60 yillarning yarmida sozi va sehrli ovoz bilan davralarga kirib kelgan. Aytishlaricha, Qodir baxshi bir eshitganni-yo o'qiganni yodda olib qolishdek tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan. Qodir baxshi Qashqadaryo, Surxondaryodagi iste'dodli keksa baxshilarning huzurida bo'lib ularning

repertuaridagi dostonlar, ijro etish usul va yo'llarini ovoz tovlanishlarini o'rganib chiqandi. Ergash Jumanbulbul, Fozil shoir, Po'lkan shoir, Islom shoirlarning nashr etilgan dostonlarini o'qib o'zlashtirgan.

Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchiligiga Xorazmnинг dostonlari ko'p sozda aytish usullarini olib kirgan va bu kabi izlanishlar Qodir baxshini tezda xalq o'rtasida mashhur qilgan.

Qodir baxshi 70-80 yillarda respublika, sobiq ittifoq, xalqaro miqyoslarda bo'lib o'tgan tanlovlarda ko'p bor g'olib bo'lsa-da, unga hukumat rag'bat bermagan biror bor taqdirlanmagan, aksincha termalar-u dostonlarini nashr etishga monelik qilgan.

Mana mustaqillik tufayli yangi O'zbekistonda prezidentimizning e'tibori sababli Qodir baxshining 85 yillik yubileyi nishonlanadigan bo'ldi. Shu tantanaga bag'ishlab Qodir baxshi bilan sal kam 20 yil ijodiy hamkorlikda ishlagan folklorshunos, filologiya fanlari doktori Abdualim Ergashev baxshining ikki jildlik termalar va dostonlar "Saylanma"sinи nashrga tayyorladi, "saylanma"dagи termalar va dostonlar folklorshunos tomonidan puxta yozib olingan.

Men "saylanma"lar qo'lyozmasidagi termalar "Kelinoy", "Yozi bilan Zebo", "Jahon paxlavoni", "Zaydinoy", "Joxun maston", "Oychinor" dostonlari bilan tanishib ularda yurtni sevish va uni bosqinchilardan asrashdek vatanparvarlik tuyg'usi, xalqparvarlik, mardlik jasorat, insonni qadrlash, milliy urf odatlar va qadriyatlar yuksak badiiylikda aks etganiga guvoh bo'ldim.

Bu tuyg'ularni yosh avlodga singdirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Shu sababli baxshichilik maktab va sinflarda umum ta'lim maktabları o'quvchilari o'rta maxsus bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlaridagi talabalarga Qodir baxshi ijodidan saboq berib "saylanma"larga kiritilgan she'rlar va dostonlarni o'qitish, o'rgatish ularni barkamol inson bo'lib voyaga yetishiga alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar yoshlarni ona vatan muqaddasligi, bunyodkor xalqimiz mehri ulug'ligi va fidoyiliginini, ota-onani ulug'lash, mehnatning qadriga yetish xalqimizni uzoq asrlardan buyon asrab—avaylab kelayotgan milliy an'analarimizni asrashni chuqr anglashga o'rgatadi.

Shu sababli Qodir baxshi repertuarlaridan yozib olib nashrga tayorlangan "Saylanma"ning har ikki jildini nashrga tavsiya etaman.

O.Nazarbekov

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri

Ulkan salohiyat sohibi

Necha yillarki, butun O'zbekistonda, Markaziy Osiyoda, Osiyo-yu Yevropada Qodir baxshi nomi aytildiganda, uni bilgan millionlab muxlislar bir qalqib tushadi. Hayotdan erta ko'z yumganiga afsus bilan yodga oladi. Yaratganning unga bergen salohiyati, shirador, goh mayin, goh guldurohli ovozi, do'mbirani yuzdan oshiq ohanglarda sehrli sayrata olish mahorati, dostonlar va termalar kuylaganda o'z ovozi va do'mbira ohanglarini uyg'unlashtira olish qobiliyat bilan barchani hayratlantira olardi.

O'n sakkiz yil ijodiy hamkorlikda ishlab, ko'plab uzoq-yaqin safarlar, respublika va xalqaro miqyosidagi turli tadbirdarda qatnashib angladimki, Qodir baxshining barcha e'tibor, obro', shon-shuhratga erishuvi, o'zining favqulotta kuchli xotirasiga, tinimsiz izlanishi, mashq qilishi, kitob o'qishi, ustoz baxshilarning ijro usullari, repertuarlari o'rganishi, maqsadi yo'lida tinim bilmay kurasha olishi tufayli ekan. Otadan erta yetim qolib, onasi Norxol Turdi qizi, bobosi Turdi baxshi, tog'asi Hazratqul baxshilar tarbiyasini oladi. Bobo va tog'a baxshilar u tilga kirishi bilan bor mehrini berib, do'mbira chertishga va termalar aytishga o'rgata boshlagan. Ilk manba.

Onasi Norxol Turdi qizi yolg'iz o'g'li va ikki qizini og'ir urush yillardagi ochlikdan olib o'tib, butun diqqat e'tiborini Qodirni baxshi qilib yetishtirishga sarflaydi. Unga to'rt yoshida maxsus do'mbira yasattirib berdi, yetti yoshida otasi va ukasidan zo'troq, elda dovrug'li amaki akasi Rajab baxshi Normurod o'g'liga shogirdlikka topshirdi. O'n to'rt yoshida esa Qashqadaryo, Surxondaryo, Turkmaniston va Tojikistonda mashhur dostonchi Umir shoir Safarovga shogirdlikka berdi. Yosh Qodir Umir shoirdan ko'plab do'mbira kuylarini, yigirmadan oshiq doston va o'nlab termalarni o'rganib, o'n olti yoshida ustozdan mustaqil baxshilik qilish duosini oldi. Bu ikkinchi manba.

O'zbek baxshilarining mashhur vakillari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil shoir, Po'llkan shoir, Islom shoirlarning nashr etilgan dostonlarini o'qib o'zlashtirib bordi. Ayniqsa, Ergash Jumanbulbul va Fozil shoirga ixlosi kuchli bo'lib: "Meni Ergash shoir va Fozil shoirning kitoblari odam bo'lishimga (baxshi bo'lishimga -A.E.) eng ko'p asos bo'lgan", -der edi. Bir umr dostonlarni Ergash Jumanbulbul darajasida yuksak badiiylikda kuylashga intildi va qayma'noda bunga erishdi ham. Bu uchinchi manba.

Yigitlik paytlarida Qodir baxshi o'zini goh shofyor, goho boshqa kasb egasi sifatida tanishtirib, eshitayotgan baxshining ixlosmandi ekanligini aytib, Qashqadaryo-Surxondaryoning o'ttizdan oshiq keksa yoshli baxshilaridan do'mbira chertish usullari, ijro etish yo'llari, repertuaridagi terma va dostonlarni o'zlashtirdi. Bu to'rtinchchi manba.

Ana shu izlanishlar, intilishlar, axtarib o'rganishlar sababli Qodir baxshining repertuaridan qirq ikki yoshida yuzdan oshiq do'mbira kuylari, bir yuz yigirmadan ziyod terma, sakson doston, bir yuz oltmish ertak va rivoyatlar, ko'plab qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, milliy o'yinlar jamlandi. Bu repertuar Qodir baxshining naqadar kuchli xotira va salohiyatga ega ekanligini asoslovchi dalil bo'lib, hali o'zbek folklorshunosligi tarixida bir baxshi repertuarida bunchalik rang-barang va boy og'zaki ijod namunalari qayd etilmagan.

Qodir baxshi o'zbek dostonchiligi so'nib bo'ldi (tugadi) deb markazdag'i folklorshunoslar xulosaga kelgan bir paytda, o'tgan asrning 60-yillar o'rtalarida yonib, momaqaldiroqday guldirab, hech kimda yo'q tabiiy jo'shqin ovoz va sehrli soz bilan hammani qoyil qoldirib davralarga kirib keldi. Bu payt baxshiga ixlosmandlar ham ancha kamaygan, yoshlar esa baxshini tinglashni chetga surib qo'yib, zamonaviy san'atkorlarni eshitishga o'tib ketgan edi. Shunday bir paytda Qodir baxshi yana yo'l topdi. To'ylarda, tadbirdarda Xorazm baxshilar usulini Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligiga moslab qo'llashga o'tdi. Do'mbira ohanglariga tor, doira, dutor, g'ijjak, chanqovuz ohanglarini kamarbasta qildi va qisqa fursatda yoshlarni ham dostonlar tinglashga qaytara oldi. Baxshi to'y-tomoshalarda, yoshlar davrasida shu usulni qo'llar, boshqa vaqt Janubiy O'zbekiston baxshilarining an'anaviy yo'lida kuylardi. Ammo, an'anaviylikni ham boshqa poetik maktablardan o'rgangan yo'llar bilan boyitib bordi.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib Qodir baxshi tinglovchilar uchun ham, o'zi tengi, o'zidan katta va kichik baxshilar uchun ham mo'jizaga aylandi. Ular baxshiga o'xshashga, baxshiday ijro etishga intila boshladilar. Shu bois Hazratqul baxshi, Azim baxshi, Ro'zi baxshi, Boborayim baxshi, O'sar baxshi, Shomurod baxshi, Qora baxshi, Xushvaqt baxshi, Chorshanbi baxshi, Shoberdi baxshi singari Qashqadaryo-Surxondaryoning yetakchi baxshilar Qodir baxshi atrofida birlashdi. Ayni paytda o'zi tengi, o'zidan katta o'zidan kichik o'ttiz ikki baxshi Qodir baxshini ustoz deb etagini ushladi va uning duosini olib, professional baxshi bo'lib yetishdi. Shulardan hozirgi kunda o'ntasi O'zbekiston xalq baxshisi faxriy unvoni, to'rttasi davlatimizning orden va medallarini olishga sazovor bo'lishdi.

Qodir baxshi 1970-1986 yillarda Respublika, Markaziy Osiyo, Hamdo'stlik malakatlari, Osiyo qit'asi va xalqaro miqyosidagi baxshichilik san'ati va musiqasi sohasidagi ko'rik tanlovlari, konfrensiyalar, kongresslarda mutazam qatnashib, har qachon sovrinli o'yinlardan birini, ko'p payt birinchilikni olishga erishgan, zo'r qobiliyatli va mahoratga ega ijodkor edi. Biroq o'sha davr masfurasinga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlarni o'z termalari va dostonlarida kuylaydigan baxshilar ham maqul kelmasdi, balki o'sha tuzum va uning rahnamochilarini madhiya

etuvchilar kerak edi. Madhiyabozlik qilmagani uchun esa Qodir baxshi goho taziyalardan ham chetda qolmadи.

Qodir baxshi atroflicha epik bilimga ega bo‘lganidan rivoyatlar asosida shoh va shoir Zahiriddin Bobur haqida “Oychinor” dostonini yaratdi. XVIII asrning 70-yillarigacha tarqoq holda yashab kelayotgan, baxshilar tomonidan parcha-parcha holda kuylanadigan “Kelinoy”, “Yozi bilan Zebo” dostonlarini qiziqarli suyjet asosida yaxlit kompozission qolipga tushurdiki, bu uning o‘zbek dostonchiligiga qo‘sghan katta hissasi bo‘ldi. Shuningdek, baxshi zamonaviy mavzularda “Oysha”, “Davrim farzandi”, “Eshqora bilan Do‘sqora” va ma’jозиј ма’нодаги “Jahon pahlavoni” kabi dostonlarni ijod qildi.

1937 yil 16 aprelda Dehqonobod tumanidagi Xo‘jamahmud qishlog‘ining Chalka ovulida o‘qituvchi Rahim Jabbor oilasida tug‘ilib, avval maktabda, so‘ngra Buxoro davlat universitetida tahsil olgan Qodir baxshi 25 yil qishlog‘идаги Bobur nomli maktabda o‘quvchilarga musiqa va jismoniy tarbiyadan dars berdi. Umrining so‘nggi ikki yilda tuman madaniyat bo‘limida faoliyat yuritdi. U 1986 yil 29 avgustda avtohalokatdan vafot etdi.

Biz ushbu kitobga Qodir baxshi bilan uzoq yillar hamkorlikda ishlab, o‘zimiz yozib olgan qirqdan oshiq termani va uch dostonni kiritdik. Ularda baxshining ijoddagi sehrli ovozi, do‘mbiraning dil tortar navolari yo‘q, balki faqatgina matn, so‘zlar qolgan. Ana shu so‘zlar orqali ham baxshining badiiy mahoratini, u olg‘a surgan e兹gulik, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni anglash, ulardan ruhiy estetik ta’sir olish qiyin emas.

Abdiolim Ergashev, filologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi.

TERMALAR AN’ANAVIY TERMALAR

Do‘mbiram

Seni chertsam ko‘nglim gulday yayraydi
Bulbuldayin sayrab chiqqin, do‘mbiram.
Qo‘shsha toring qo‘shilganda sayraydi.
Ko‘ksing ochib yayrab chiqqin, do‘mbiram.

Qahramonni ko‘rganingda maqtaysan,
Dangasaga duch kelganda to‘xtaysan.
Ohanglarga, o‘zing, kuylarga boysan,
Tovushingni soz chiqargin, do‘mbiram.

Maqtay-maqtay qo‘rqog‘ini mard qilgan,
Turta-turta eshagini ot qilgan.
Chertabersam el qo‘nglini shod qilgan,
Mayin tordan nozchiqargin, do‘mbiram.

Qo‘shsha toring bir-biriga eshilar,
Tovishingga qush bulbullar qo‘silar,
Suhbatlaring har kechada soz o‘tar
Bo‘lsa qishdan yoz chiqargin, do‘mbiram.

Sozlar bilan sen hamisha barobar
Sen kirgan xonada suhabat, kulgu bor.
O‘zing chertib, Qodir bo‘ldi baxtiyor,
Ozod yurtda qanot qoqqin, do‘mbiram.

Nima aytay

1. Sumbul sozim, kuyla bugun eshilib,
Qo‘shsha toring ohanglari qo‘silib,
El dardini o‘ksib-o‘ksib so‘ylagin,
Chanoqlaring uch joyidan teshilib.
2. Kel, do‘mbiram, so‘zga so‘zni qo‘s endi,
Baxshi ovoziga mos bo‘b tush endi,

Tinglamoqqa kebdi muna xaloyiq,
Menga ilhom berib, qani jo'sh endi.
3. Botirlar haydaydi maydonga otdi,
Elga-el qo'shilsa baxtdi(r), davlatdi(r).
O'n sakkiz yoshimda do'mbira berib,
Ustozlarim qo'shiq ayt deb o'rgatdi.

4. Quloq soling davradagi haloyiq,
Dostonlarni bir-bir qator qilaylik,
Yaxshisini qochirmayin ushlanglar,
Ko'payishib, xo'p aytishib ko'raylik.
5. Yomon doston kuylab, yaxshi qolmasin,
Tinglovchilar bo'lmaydi deb turmasin,
Ko'payishib bittasini ushlanglar,
Botir bo'lsin, aslo qo'rkoq bo'imasin.
6. Safda turar, mana "Shirin va Shakar",
Ot ustida qilich sermar "Suvkavzar",
Oshiq bo'lib oh deb o'tdi jahonda,
Mohna bilan yetisholmay "Oysavzar".
7. "Bastam" o'tdi ikki ko'zi ko'r bo'lib,
"Rustam" o'tdi bu dunyoda zo'r bo'lib,
YO aytaymi Qo'ng'irotning sheridan,
Dushmanini sermab otdi nor bo'lib.
8. Aytayinmi "Xolbeka" day oshiqdan,
"Tohir-Zuhra" gul uzatgan beshikdan.
"Yusuf-Zulayho" ham o'tgan oh urib,
"Layli-Majnun" zor yig'lagan yoshlikdan.
9. "Go'ro'g'li"ning o'zi o'ttizta doston,
O'n besh doston bo'lib yurar "Avazxon",
Ikki oyda yetolmagan ustozlar,
Aytganda ham qolib ketgan "Gulnozxon".
10. "Hasanxon"dan so'yayinmi, "Ravshan"dan,
YO "Nurali" kezgan bog'i gulshanda.

"Kuntug'mish"mi yoxud "Oychinor" bo'lsin,
YO davrimiz qozongan dovrug'i shondan?
11. Dostonlar safida turar "Zaydinoy",
Undan qolishmaydi aslo "G'upponoy".
Barchasidan go'zallikda benazir,
Nafosatli, nazokatl "Kelinoy".

12. Botir bilsam yursa tovning o'rini,
Qo'ng'irotning "Alpomish" day zo'rini,
"Barchin Bekach" o'zi bitta dostondir,
YO aytaymi "Yodgor" jonday sherini.
13. Alloh dedim men qo'limni quvshirdim,
Temur haqda dostonimni yashirdim,
"Olchinbek" u "Yozi-Zebo" dardlarin,
Kuylay-kuylay shogirdlarga oshirdim.
14. Gohi davralarda jo'shib kuyladim,
Inson dardin bor vujuddan so'yladim.
Qayg'u-g'amlar qolgan bugun orqada,
Oling zamon haqda doston tayladim.
15. "Otibaxd polvon" dan eshitining shu tob,
Erku baxt haqida qilinar xitob,
"Davrimiz farzandi" yangi bir doston,
Va uning mazmuni- ona yurt, oftob.
16. Kechasida yonar uyda chirog'i,
Ham kunduzi bo'ston bo'lar bir yog'i
Ulug'lardan aytayinmi bir maydon,
Odomzotning suyanchig'i, yuragi.
17. "Oysha" o'tdi g'anilmardan o'ch olib,
Omon o'tdi majnuntolday irg'alib,
"Eshqoraman-Do'stqora" dan aytaymi,
Olishganda chiqqan dashmandan g'olib.
18. Ertaklar ham oshar ikki bor izdan,
Termalaru, qo'shiqlar ham yuz-yuzdan.

Topishmoq maqollar sanog'i yo'qdir
Qaysidan aytay deb so'rayman sizdan.
19. Quyosh eritadi tovning qorini,
Sizga aytdim bisotimda borini.
Qaysisini ushlab ma'qul desangiz,
Maqtay-maqtay aytay o'sha zo'rini.

20. Qodir baxshi bu dam jo'shib boraman,
Aytay deyman selday toshib boraman.
Do'mbiramdan shod nag'malar keltirib,
Ohangga ma'noni qo'shib boraman.

Bulmasin-1

Ayo do'stlar aql bilan ish qilgin,
Gul deb eksang, o'sib tikan bo'lmasin.
Gar g'iybatchi oshga aytsa tez borgin,
El ichida noming qora bo'lmasin.

Til degani bilsang shirin ham zahar,
Sen degaman siz deganning farqi bor.
Tilingdan baloga bo'lma giriftor,
Shirin so'zing elga achchiq bo'lmasin.

Agar aytsang o'z labzingdan qaytmagin,
Uyingni bexabar qilib ketmagine,
Siringni sinamay do'stga aytmagin,
Do'st deb tutinganing dashman bo'lmasin.

Itga ber, yomonga berma oshingni,
Musht qo'ysa itarma qarindoshingni,
Avloding bilmayin egma boshingni,
Mard deb yurgan kishing nomard bo'lmasin.

Bulmasin-2

Ayo do'stlar aql bilan ish qilgin,
Yaxshi deb yurgan yomon bo'lmasin.

Qilar ishni yetti o'lchab bir kesgin,
Oltin deb yurgan somon bo'lmasin.
Ulug'ga atagin doim to'ringni,
Hurmat ayla na bo'lsada qaringni.
Sinamayin do'stga aytma siringni,
Do'stim deb yurgan dashman bo'lmasin.

Nomardga to'kmagin ko'zda yoshingni,
Yig'lasangda zaharlaydi oshingni,
Yomon deb itarma qarindoshingni,
Yomon deb yurgan orqa bo'lmasin.

Bemehnat bo'lmaydi hech joyda hayot,
Bilsang bu dunyoying azaldan sayyod,
Yoshlikdan farzanding ayla tarbiyat,
Ishyoqmas, dangasa, morqa bo'lmasin.

Egri qib solmagin aslo yo'lingni,
Odobga o'rgatgin har dam tilingni,
Yig'ishga o'rganma topgan molingni,
Vaqt kelib boshga balo bo'lmasin.

Aslo sotma nomusingni, oringni,
O'rtaga qo'y harna topgan molingni,
Xo'rlamagin sevib olgan yoringni,
O'ttizingda boshing ola bo'lmasin.

Hayotda izlangin aslo tik turma,
Birovning haqini yo'lidan burma,
Yomonni yaxshi deb zinhor lof urma,
Yorug' bo'lgan yuzing qaro bo'lmasin.

Ohuva-1

To'da-to'da qizlarga-ya, ohuva,
Bir to'dana tol kerag-a, ohuva,
Zahari bor zamburga-ya, ohuva,

Shirin-shirin tol kerag-a, ohuva.

Bol-bolgina, bolgina-ya, ohuva,
Soy bo'yida tolgina-ya, ohuva,
Qizni suluv ko'rsatar-a, ohuva,
O'ng betida xolgina-ya, ohuva.

Toldan ximcha sindirmang-a, ohuva,
Yaramaydi sabovga-ya, ohuva,
Agar boydan yor qilsang-a, ohuva,
Qo'shilasan maxovga-ya, ohuva.

Osmondag'i turnalar-a, ohuva,
Ikki o'tar bir yilda-ya, ohuva,
Ikki oshiq biriksa-ya, ohuva,
Bir yil bo'lmas bir kunicha-ya, ohuva.

Qushdan qo'rqqan bedana-ya, ohuva,
Chiqolmaydi dalaga-ya, ohuva,
Yuzi ochilgan qizlar-a, ohuva,
Ming yil qolar baloga-ya, ohuva.

Halinchagimning bog'i-ya, ohuva,
Bir-biriga intizor-a, ohuva,
Mollar bo'ldi izzatda-ya, ohuva,
Mehnat qilgan xoru zor-a, ohuva.

Ohuva-2

Xalginchagina,xalginchak,
Yig'lab bo'ldim kelinchak
Kuyov to'rani yosh desam
Soqoli ekan bir quchoq,
Ohuva, jonim, Ohuva
Ohuva, jonim, Ohuva.

Chanqovuzimni chalayin,

Ro'molin qo'lga olayin,
Bunday kunlarni ko'rguncha,
Zovdan jumalab ulayin,
Ohuva, jonim, Ohuva
Ohuva, jonim, Ohuva

Qaramay ota-enamga,
O'tlar soldiya tanama,
Qo'yga sotib-a qizini,
Boy qilib oldi-ya o'zini,
Ohuva, jonim, Ohuva
Ohuva, jonim, Ohuva

Alamlarning archasi,
Shundaymi qizlar barchasi,
Shunday bo'lqa-ya barchasi,
Qurib ketsin peshonasi,
Ohuva, jonim, Ohuva
Ohuva, jonim, Ohuva

Ayrilsa

Turnalar ucholmas xildan ayrilsa,
Bedovlar yurolmas yo'ldan ayrilsa,
Tog'lar bukchayadi beldan ayrilsa,
Bulbullar sayramas guldan ayrilsa.

Yigit bo'lqa bo'lsin unda nomus-or,
Yomon qursin keng dunyoni qilar tor,
Baland tog'da o'sgan giyoh sarg'ayar,
Agar havo bilan qordan ayrilsa.

Baland tog'lar yashin tushsa vayrona,
Bu falak ishiga hamma hayrona,
Mard yigitlar baxti ketsa devona,
Sevib olgan sanam yordan ayrilsa.

Sabab bilan ko'kdan havo to'kilar,
Yo'lni yaxshi bilmas bedov qoqlar.

Odamning shunda qaddi bukilar,
 Mehr qo‘ygan erka uldan ayrilsa.
 Bulutsiz bo‘lmaydi qaddili tog‘lar,
 Gul tilar doimo guli yo‘q bog‘lar,
 To‘sakka o‘tganda kampirlar yig‘lar,
 Birga yotib turgan choldan ayrilsa.

Arilar izg‘ishar boldan ayrilsa,
 Bedovlar bosh egar yoldan ayrilsa,
 Qarilik yetgani shudir yoronlar
 Darmon ketib norday beldan ayrilsa.

Keng dunyoni o‘tgani shul yoronlar,
 Ko‘rar ko‘zu aytar tildan ayrilsa.

Yaxshidir

Hosil bermagan bog‘dan,
 Suvsiz giyo yaxshidir.
 Ish bilmagan ustadan,
 Bo‘lsa asbob yaxshidir.

Aytay yaxshi yomondan
 Ishga chiqmagan sovdan
 Qo‘zi bermagan cho‘pondan
 Boquvsiz yurgan yaxshidir.

Bemahal o‘sgan loladan,
 Bir yog‘ib o‘tgan jaladan,
 Betartib bo‘lgan boladan,
 Tartibli hayvon yaxshidir.

Salqinlab soyada yotgandan
 Bir toqi nosni otgandan,
 Dankasa bo‘lgan ishchidan
 Ro‘yxatda bo‘limgan yaxshidir.

Befoyda bog‘ilgan otdan,
 Ishlasa eshak yaxshidir.

Mergan ov ovlar tovdan,
 El talaydigan yovdan,
 Foydasiz oqqan suvdan,
 Oqmay turgani yaxshidir.

Tartibsiz bo‘lgan jiyindan,
 Ichda saqlangan tuyundan,
 Injayib o‘sgan iyindan,
 Bo‘lmay ketgani yaxshidir.

Yigitga

Orqa tov deb suyangali,
 Yiqilganda tayangali
 Ko‘krak kerib so‘z aytgali,
 Oldidan dushman qaytgali

Ota ham kerak yigitga.
 Umringni tilagali,
 Qaytsang yulga qaragali,
 Mazang qochsa so‘ragali,

Usting sipo bo‘b yurgali,
 Ona ham kerak yigitga.
 O‘zga eldan yurt solgali,
 Yo‘q bersa berib olgali,

Yuraging doim to‘lgali,
 Qo‘shsha yurakli bo‘lgali.
 Do‘sit ham kerak yigitga.
 Kelmay ketsang izlagali,

O‘lsang boshda bo‘zlagali,
 Dushman bo‘lsa xezlagali,



Oru nomusing olgali
Og'a ham kerak yigitga.

O'lchab to'ningni bichgali,
Sen uchun jondan kechgali,
Ko'rib quchog'in ochgali,
Borin oldinga sochgali,

Singil ham kerak yigitga.
Olpinchoqli, solpinchoqli,
O'rta bo'yli, kengquchoqli,
Oq tushda sadaf munchoqli,

Sakson nozli tortinchoqli
Bir yor ham kerakdir yigitga.
O'ng tizzangga o'tirgali,
Orqangdan keb osilgali,

Oldinga chopib chiqqali,
Qariganingda boqqali,
O'chgan chirog'ing yoqqali
Farzand ham kerak yigitga.

Baland tog'lardan oshgani,
Olqishlab itlar qo'shgali,
Beklar bilan bellashgani,
Xonlar bilan tillashgani,
Orqa ham kerak yigitga.

Qolmadi

Xudoyim bergen bu davron
O'tar kuningdi bilmadim.
Tanamga bergen aziz jon.
Ketap kuningdi bilmadim.

Yaxshi yashar ulfat bilan,
Xudoy bergen davlat bilan.

Yomon bosh kulfat bilan,
O'lmasdan yomon qolmadi.

Nechovlar qilib dodu dod.
Xudo dedi qancha ummat,
Xudoning do'sti Muhammad,
Oi hazrat-ey qolmadi.

Dunyolarda yolg'iz bo'lgan
Yerning osti ustun olgan,
Devu pari dodin bergan,
Sulaymon sulton qolmadi.

Tilladan qildi-da, qal'a.
Xudoga qildi-da nola,
CHo'ldi qurdi Makkatilla,
Ibxorim caxiy qolmadi.

Odamzotdan sherlar o'tgan,
Zarbasi quyoshta yetgan.
Ishqirsa oyni hurkitgan,
Tosh qoldi ular qolmadi.

Qancha olimu donolar,
Qancha taxt, qancha xonalar,
Ketdi to'lib paymonalar,
Gul qoldi bo'ston qolmadi.

II

Tovda qorlar bo'lar ado,
Dunyodan qolding sen judo,
Na shohlar qoldi, na gado,
Qaridan birov qolmadi.

Xudo bersa bersin davlat,
Davlat degani ham farzand,
Siz-bizga keldi shu navbat,
Kelmasdan gumon qolmadi.

Bu dunyong asli xatara,
 Chalgan baxshing ham o'tara,
 Umirday sozlar ketara,
 Chalgan baxshiyam qolmadi.

III

Azvayishta bo'lgan tanang.
 Qora yerda yotar-a,
 Silablar yurganazibosh
 Kora qurtlar yutar-a,
 Ketmasdan odam qolmadi.

Osmondag'i uchgan qushlar,
 Bir kun kelib yerni tishlar,
 Yul chetida polvon toshlar,
 Bir tomoniga yonboshlar
 Ketmasdan jonzot qolmadi.

Tabib va giyoh

Qadim o'tgan zamonda
 Ulug' tabib yashardi,
 Men: "O'limni yengaman!" -deb,
 Dadil qadam bosardi.

Chunki tabib bilar edi,
 Ming bir giyoh tilini,
 Shuning uchun qattiq bo'g'ib,
 Ikki joydan belini.

Qancha niyat qildi
 Aytganiday bo'lmadi,
 Ba'zilari sog' bo'ldi-yu,
 Ba'zilari qolmadi.

Yengoljadi hech o'limni,
 Cho'lga safar ayladi.
 Ming bir giyoh o'sgan joyga
 Borib shunday so'yladi:

"Eh giyohlar aldadinglar
 Ne sababdan o'zimdi,
 O'lgan, o'ldi, qolgan qoldi
 Shuvit qilib yuzimdi.

Hayot degan dori berding,
 Bu ham foyda bermadi,
 Jon ayrimas do'stga berdim,
 Voh hasrato bo'lmadi".

Giyohlardan biri turib
 Dedi: "Tabib quloq sol,
 Aldamadiq bizlar aslo,
 Zahar nedur anglab ol.

Odamzodda manmanlik bor,
 Ayt nasihat olmaydi.
 Yolg'on bilan ezar o'g'li
 Onasini bilmaydi.

Bir-biriga alam otar,
 G'am otadi til bilan.
 Yuraklarni qora qilar
 Urmasada qo'l bilan.

G'iybat qilar bir-birini,
 Yerdan go'rga soladi.
 Og'a bilan inisini,
 So'z-la jonin oladi.

Eri-xotin bir yostiqda
 Bo'lsa edi vafodor,

Hurmat qilsa, hurmat ko'rsa
Unga dori na darkor.

Qariganin izzat qilib,
Olsa undan maslahat,
Bu falakda ming yil yashar
Aslo o'lmas odamzod.

Ichgan dori foyda berar,
Bo'lsa insonda vijdon,
Qora yurak ichsa qancha
Foyda bermas hech qachon."

Qaytar ekan o'ylar tabib:
"Endi qanday chora bor!"
Go'yo dengiz ostida xas
Suzib yurar zor, nochor.

Endi tabib kasal kelsa:
"Toza yurak bo'l"-derdi
"Qanday bo'lsa yo'lin topib-
Olti marta kul"-derdi.

Kelar Kuytanning kelini

Yerlar yorug' bo'lmayma,
Osmonning to'lgan oyidan.
Qo'y haydagan cho'ponlar
Ilhom olar qo'yidan

Har banda sahar turib
Tilaydi xudoyidan
Bir maydon aytib beray
Kuytanning Kelinoyidan

Kelinoy, Kelinoy deyishadi
Zulfini shamol eshadi,
Shamollar esgan Kelindi
Yaxshi bir kelin deyishadi

Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini
Oy Kelinoy himillab
Zar ko'ytagi jimillab,

Bo'ydoqlarni ko'rganda
Quloqda sirg'a qimillab
Uni bir ko'rgan cho'ponlar
Olti oy yotar ingillab

Ko'rib qolsa-ya bobolar
Joyidan turar dingillab
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini

O'ynoqlaydi yoshday bo'b
Oq badani toshday bo'b
Quloqlari sirg'asi
Yangi urchuqboshday bo'b

Sharpalarida qurgur
Ostondagi qushday bub
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini

Nargiz ko'zi suzilib
Bo'ynida munchoq tizilib,
O'ynoqlab turib jo'nasa
Ola munchog'i uzilib,

Uni bir ko'rgan bo'ydoqlar
Ketar yuragi ezilib
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini

Nomashomgulning shapog'i,
Bug'doy uning kepagi

Ikki to'rt eli
Qalpog'ining pupagi

Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini
Zulfini moylab tuydirar
Menman degan to'dorlar

Bir qarashda kuydirar
Xafa qilgan oshiqning
Boshiga ming dard iyidirar
O'ng betidan iskasang

Oltogyacha to'yidirar
Yangi uylangan yigitdan
Kelinchakni qo'yidirar
Qochib ham ketgan sigir

Sutginasin iyidirar
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini.
Ko'zga qo'yar surmani,

Buyam yigit darmoni
Shunday xushiro'y bo'lgan,
Bu ham Xudoning farmoni
Qabotida bir yotsa,

Bo'ydoqning yo'q armoni
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini.
Kovushining niholi,

Yangi qoqlgan tilladan,
Ta'lim olgan juvarmak
Bilmadim qanday mulladan
Qo'li tiysa bo'ydoqlar

Kalos bo'laman gunadan
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini
Ko'rgan bo'lar hayrona,

Bo'yniga taqqan tuvdona,
Xayollari begona,
Jamolini ko'rganlar
Oltoy bo'lar devona

Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini
Tishqol qo'ygan tishiga,
Ro'mol o'rар boshiga

Ko'rgan qoyil qoladi
Kanizaklarin ishiga.
Qarangda yonboshiga,
Oqsuyakni ko'tarib

Chiqli tovning boshiga
Kelar Kuytanning kelini
Bolg'ali deydi elini

Na foyda

Kasov olsang, qadrini bilib ol,
Beqadrsiz olganingdan na foyda.
Ustasiga tushsa oltindir sopol,
Bilmay loyin tepganingdan na foyda.

Hurmat qilar ishi ko'zini balganni,
Nafsi yomon, deydi topsa olganni.
Chin so'zga teng qilmang mingta yolg'oni,
Gapdaoyni olganingdan na foyda.

Oltin o'tda, odam ishda bilinar,
 Yigitga oz bo'lar qilsang ming hunar.
 Olisdan ko'rinsa tovlanib anor,
 Yotib qulinq imlashiigdan na fonda.

Kun uzog'u sursang kayfu safoni,
 Tushunmasang insonlarga vafoni,
 Sening uchun birov toptca jafoni,
 Oxir qilgan ming ohingdan na foyda.

Bemaqsad to'qson yil umr ko'rganing,
 Yashil yaproq bo'lib yerga tushganing,
 Izi yuq soyaday qirdan oshganing,
 YOrug'i yo'q chirog'ingdan na foyda.

Umring o'lchanar qilgan ishingdan,
 Ming yillab yaxshilar chiqmas safingdan,
 Mash'ala yoqilsa har qadamitingdan
 Shavkati yo'q sharafingdan na foyda.

Xaljni o'ylaganni hamkori bordir
 Demak, u hayotda bitta chinordir
 Mehnatdan ko'rinsa u ham shunqordir,
 Minnati bor ming ishingdan na foyda.

Beg'am bo'lsang o'tar umring osuda,
 Osudalik qilar xalqingdan judo,
 Qodir, aytgan qo'shig'ing bo'lmas ado,
 Bir yobonda toshganingdan na foyda.

Ne yomon

Bir yaxshi-yu, bir yomon,
 Bir deganda ne yomon,
 Odobi yuq ul yomon ,
 Ikkinchidan ne yomon,

Hayosi yuqqiz yomon.
 Ota so'zi olmasa,
 Aytar gapni qilmasa
 O'zbekmi, xind yo o'ris

O'z zotini bilmasa,
 Odamzotga shul yomon.
 Oltin bo'lsa qoshig'ing,
 Zumrad bo'lsa eshiging,

Bemahal bo'shab qolsa,
 Uy to'rida beshiging,
 Ko'rsatmasin shul yomon.
 Hayda-hayda deganda,

Ustingga yov kelganda,
 Minarga ot bo'lmasa,
 Izda davlat qolmasa,
 O'lib ketsang shul yomon.

Yuragingda chergining,
 Gumburlasa torginang,
 Birovga ko'zin qoqsa,
 Sevib olgan yorginang,

Hammasidan shul yomon.
 Qo'rg'onginang qulasa,
 Qora kuning tilasa,
 Bowqa erkak boshini,

Sevgan yoring silasa,
 Erni o'ldirar shu yomon.
 Dupyo shundayo'tsa-ya,
 Xolsirab lab qotsa-ya,

Molingni yegan do'stlaring,
 Izingda seni sotsa-ya.

Do'stlar, biling shu yomon.
Dunyo shundayo'tganda,

Yosh saksoga yetganda,
Xudo qo'shgan qo'shog'ing,
Seni tashlab ketganda,
Qariganda shu yomon.

Kun kelinga qolganda,
Oshin minnat qilganda,
O'rin solib irgadan,
YOt shu yerda deganda,

Bandasiga shu yomon.
Befayz bo'lgan xona yomon,
Yurishingda jona yomon,
Ne yomon dyesa aytayin.

Dushman qaytgan ena yomon.
Ayta bersam xato yomon,
Besoyib har bo'ta yomon,
Agar o'zingga yov kelsa,
Uyingdagi ota yomon.

II. ZAMONAVIY TERMALAR

Dehqonobodsan

Tilga olsam sening nomingni,
Qalbim jo'shgan, Dehqonobodsan.
Ko'ganimda oy jamolingni,
Ilhom toshgan, Dehqonobodsan.

Tarixingni aytsam bir doston,
Kundan kunga yashnagan bo'ston,
Bahor-yozing doim guliston,
Qadam bosgan, Dehqonobodsan.

To'n yopganda qabatma qabat,
Dehqon seni qilganda obod,
Sharbatlaring misoli nabot,
Olg'a yurgan, Dehqonobodsan.

Bir gul o'zing bu ona yerga,
Quchoq ochib chiqqanday qirga,
Yulduzlardan taqqansan sirg'a,
Kuchi toshgan, Dehqonobodsan.

Bir tomonda bog'u rog'laring,
Bir tomonda yuksak tog'laring,
Tovlanadi ol chirog'laring,
Ko'z qamashgan, Dehqonobodsan.

Bulbul sayrar senga she'r yozib,
Oltin topar yeringni qazib,
Boyliklaring ko'ksingdan uzib,
Elga bergen, Dehqonobodsan.

Tarvuzlaring yal-yal yonadi,
Qovunlaring tilni yoradi,
Gullaringdan bolni oladi,
Sharbat toshgan, Dehqonobodsan.

Uzumlaring shoda misoldir,
Mevalaring qandu asaldir,
Ra'no gullar yuzingda xoldir,
Chiroy ochgan, Dehqonobodsan.

Havolaring dard davosiday,
Qo'yu qo'zing ko'k navosiday,
Ma'rashganda shoir soziday,
Kuyga to'Igan, Dehqonobodsan.

Kaklik sayrar keng tog'laringda,
Zilol suvlar buloqlaringda,

Mehnatdan gul yanoqlaringda,
Bahring ochgan, Dehqonobodsan.

Qodir, seni jo'shib aytarman,
Zavqqa to'lib toshib aytarman,
Oydan nishon, quyoshdan orden,
Taqib olgan, Dehqonobodsan.

Qarshi cho'lin

Qarshi cho'lin cho'l demanglar, yoronlar,
Bulut quchgan qo'llari bor bu cho'lning
Uyum-uyum qum demanglar yoronlar,
Quchoq-quchoq gullari bor bu cho'lning.

Bunday o'lka yotsang tushga kirmaydi,
Bir ko'rganning hech ketgisi kelmaydi,
Yulduzlar termular nari jilmaydi,
Koshonadan uylari bor bu cho'lning.

Yigitlari bordir Farhod misoli,
Qizlari bor go'zallarning go'zali,
Paykalidan tomar qandu asali,
Shoxsuvorday sherlari bor bu cho'lning.

Bir yonda sharbati, bir yonda shoni,
Bir yonda oltinu bir yonda doni.
Lazzatlarga makon, javohir koni,
Ko'zga surtar yerlari bor bu cho'lning.

Yaratgan nazari tushgan bu cho'lga,
Dehqonning mehnati singan bu cho'lga,
Davlat qushi kelib qo'ngan bu cho'lga,
Dong'i ketgan dovrug'i bor bu cho'lning.

G'o'zasiga tuyu so'yib osguday,
Bir chanog'i bir tonnani bosguday,
Xirmonidan o'tolmay oy shoshguday,
Jahon aro rekordi bor bu cho'lning.

Zafarlardir bugun xalqning yo'ldoshi,
Porlayverar bunda tole quyoshi,
Shuning-uchun egilmas Qodirning boshi,
Dostonlardan darg'asi bor bu cho'lning.

Qashqadaryom

Cho'llaring chiroy ochdi, kelinchakday shaylanib,
Oq oltindan xirmoning – turna o'tolmas aylanib.
Kemaganlar keb ko'rsa – barmoq tishlar uylanib,
Shoir aytса aytguday, ming kechaga yetguday.

Go'zal Qashqadaryom, g'azal Qashqadaryom!...
Bir tomonda Qashqang bor- toplanar suluv qizday,
Qarshi bilan Shahrisabz kechasiyam kunduzday,
Kitob bilan G'uzoring – osmondagи yulduzday,

Shoir aytса aytguday, ming kechaga yetguday.
Go'zal Qashqadaryom, g'azal Qashqadaryom!...
Bir tomonda tog'laring, bir tomonda bog'laring,
Bir tomonda uylaring, bir tomonda sherlaring,

Bir tomonda qo'ylaring, bir tomonda yayloving,
Shoir aytса aytguday, ming kechaga yetguday.
Go'zal Qashqadaryom, g'azal Qashqadaryom!...

Go'zal Qashqadaryo

Go'zal Qashqadaryom,
Xushhol Qashqadaryom,
Shoir aytса aytguday,
G'azal Qashqadaryom.

Bir tomonga qarasam,
Katta-katta tog'laring,
Bir tomonga qarasam,
Shoda-shoda bog'laring.

Tog' boshida oppoq qor
 Tinmay sog'ar sutini,
 Bir tomonda Qashqang bor,
 Qamchilaydi otini.

Bir tomonga qarasam,
 Ko'm-ko'k bo'lgan dalalar.
 Har go'shangda o'ynaydi,
 Baxti kulgan bolalar.

Yigitlaring bahodir,
 Tog' bag'rini bukadi,
 Qizlaring shijoatkor,
 Cho'ldan oltin to'kadi.

Jilov bilmas Jayxuning,
 Cho'lga burding yo'lini,
 Kelindayin yashnatding,
 Qovjiragan cho'lini.

Qush ucholmas joylaring,
 Rayhon gullar terasan,
 Tushga kirmas yobondan,
 Tog'day oltin uyasan.

Tarvuzlaring uzganda,
 O'n besh odam ortolmas,
 Uch qovuning biriksa,
 Bir traktor tortolmas.

Qabatingda do'stlarling,
 Goh o'rgatib, o'rganar,
 Yurtim, tarovatingdan,
 Quyosh chiqmay tong otar.

Har kecha sho'xi navo,
 Farzandlaring uyg'otar,

Shogirdi ustoziga,
 Bu o'lkada o'rgatar.

Ko'rgan kishi ketolmas,
 Bo'ston Qashqadaryom,
 Shoир yozsa yozguday,
 Doston Qashqadaryom.

O'zbekistonimsan

Olamga tanilgan oltinistonsan,
 O'zbekistonimsan, sharafim-shonim.
 Ona Vatanimda bir gulistonsan,
 O'zbekistonimsan, bog'im-bahorim.

Ota-babolarga rizq bergen Vatan,
 Suv desa suv berding, non deganda non.
 Boyliklar maskani bo'lgan ey makon,
 O'zbekistonimsan, baxtim sururim.

Bo'stonlardan a'llo o'zing bir bo'ston,
 Bir kunlik himmatting bo'lar ming doston.
 Osmonga tiralgan oltinlarga kon,
 O'zbekistonimsan, baxtim g'ururim.

Bag'ringda pahlavon shunqorlaring bor,
 Barisi buniyodkor barisi zargar.
 O'g'il-qizlaringga kamdir ming hunar,
 O'zbekistonimsan, aziz padarim.

Bir yog'ingda Amu, bir yog'ingda Sir,
 Tomchi suvrarida bordir mingta sir.
 Toshkenting ko'ksingda oliy nishondir,
 O'zbekistonimsan, ko'zim qarog'im.

Turlasam ming turdan oshar boyliging,
 Sharqda mash'alliging, yorqin oyliging.

Mehnat shon-shuhrati, bu chiroyliging,
O'zbekistonimsan, bag'rim, makonim.

Cho'llaring uyqudan uyg'ondi bu kun,
Gulu gulistonga aylandi durkun.
Atlasga o'ralgan tog'laring butun,
O'zbekistonimsan, bog'im, xumorim.

Qoshingda saf tortgan do'stu yo'ldoshing,
Ozodlik nur bergen mangu quyoshing.
Shuning-chun osmonga yetgudek boshing,
O'zbekistonimsan, sherim, polvonim.

Shoirlar madhingga g'azal to'qiydi,
Baxshilar soz chalib doston to'qiydi.
Farzanding Qodir ham seni alqaydi,
O'zbekistonimsan, manim bo'stonim.

Mening O'zbekistonim

...Sher yurak o'g'lonlaring,
Qizlarining oy misoli,
Mehmon kelsa uyiga,
Suzgan oshi mazali.

Bog'laring mevasi,
Asallarning asali,
Oralasam bo'stonim,
Aytaversam dostonim,

Istiqloling muborak,
Mening O'zbekistonim.
Cho'llaring chiroy ochdi,
Kelinchakday shaylanib,

Oq oltindan xirmoning,
Qush o'tolmas aylanib.

Kelmaganlar keb ko'rsa,
Barmoq tishlar o'ylanib,

Oralasam bo'stonim,
Aytaversam dostonim,
Nurli kunlar muborak,
Mening O'zbekistonim.

Surxon bilan Qashqang bor,
Tovlanar suluv qizday,
Andijonu Farg'onang,
Nurin sochgan yulduzday,

Samarqandu Buxoro,
Kechasi ham kunduzday,
Oralasam bo'stonim,
Aytaversam dostonim,

Istiqloling muborak,
Nurli O'zbekistonim.
Qavatingda qardoshlar,
Qadding tikka samoda,

Jahon seni biladi,
Nomining doston dunyoda,
Ona yurtim, bo'stonim,
Yana ham bo'l ziyoda,

Aytsam bitmas dostonim,
Sajdagoh gulistonim,
Nurli kunlar muborak,
Mening O'zbekistonim.

Muborak

Ezilgan millatlar ko'zin yoshladi.
Ezgulik yo'lini doim izlaydi
Zaminda har kim ham baxtin ko'zlaydi
Har ulug' kunlaring muborak yurtim

Keksaygan dunyoning sohasin olib
O'tgansan olamda jahongir bo'lib
Mehnating quvonchi ko'ksingda to'lib
Zafarli kunlaring muborak yurtim

Toshqin daryolar ham sening izmigdan
Yuksalgan tog'lar ham chiqmas so'zingdan
Bog'lar chiroy ochar izma-izingdan
Omadli kunlaring muborak yurtim.

Yig'lamagin, onajon

Onajon, qo'y oppoq qorday sochingadan
Gullar yig'lasa ham, sen yig'lamagin
Posbon bo'lay doim ko'zu qoshingdan
Cho'llar yig'lasa ham, sen yig'lamagin.

Otamni eslading bag'ring titilib,
Ko'zda yoshing oqar selday otilib,
Xolsiraysan yurak-bag'ring sitilib,
Qushlar yig'lasa ham, sen yig'lamagin.

Sen yig'lasang, ona tog'lar bo'shaydi,
Po'lat yurak suvday bo'lib shovshaydi.
Sen yig'lasang, qora toshlar qaqlaydi
Toshlar yig'lasa ham sen yig'lamagin.

Ota Vatan uchun to'kkan qonini,
Million sherlar bilan bergen jonini,
Eshitmasin yorning yig'laganini
Bahor yig'lasa ham, sen yig'lamagin.

Urush qursin bitmas yara sob ketdi,
Har yurakda uning dog'i qob ketdi,
Qonxo'rlnari yer qa'riga ob ketdi,
Daryo yig'lasa ham, sen yig'lamagin.

...Ona joydan turdi sochi eshilib,
Duo qildi ikki qo'lin quvshirib,

Tinchlik bo'lsin dedi borliq bosh egib,
Bog'lar yig'lasa ham, sen yig'lamagin.

Onajon sen zamin, sen oyu oftob,
Urush hech qahringga berolmaydi tob,
Xalqimiz bor ekan tinchlik barqaror,
Qodir aytar, ona, sen yig'lamagin.

Keladi

Birov borki, taxtda turib pul olgisi keladi,
Birov borki, sulton bo'lib yo'l solgisi keladi.

Bir xil ayol eri bo'lib, to'l bo'lgisi keladi,
Birov borki, sochi bo'lib kal bo'lgisi keladi.

Shuning uchun besh panja teng emaskan avvaldan,
Birov borki, haqiqatda nur bo'lgisi keladi.

Agar qadding tik bo'lsada, yiqilish ham keladi,
Asta yoursang, qattiq yoursang qoqlish ham keladi,

Burgut bo'lsang qanot yozib ketma odamdan yiroq,
Qayga uchsang, qayga qo'nsang, yiqilish ham keladi.

To'rtliklar.

Bir mansabdar valilikdan "xudo" bo'ldi,
Mensimadi odamlardan judo bo'ldi,
Davlat ketdi, mansab ketdi, qo'Ining kiri
O'z jinsiga qaytolmaydi ado bo'ldi.

Bu dunyo avval boshdan qizib kelgan,
Kattarog'i maydasini ezib kelgan,
Bittisining qurib ketgan imoratin
Ikkinchisi qayta boshdan buzib kelgan.

Mansabdoring yolg'on gapin tug'ri dyoymiz,
Unga qarshi chiqsa birov o'g'ri deymiz,
Gar o'g'ri odam bo'lsa, baxti chopib,
Oldingisin avval boshdan bukri deymiz.

Qo'l quvshirib bukilishi xup bilasan,
 Goh supurgi, goho cho'tka tez bo'lasan,
 YUqoriga chiqishuchun yo'l bermagan,
 Gar kesmasang bu iyningii ne qilasan?

Qancha dono bo'lsa hamki aziz boshing,
 Yomon kunda holing so'rmas bir yuldoihiq,
 Gar qo'lingga davlat qushi kelib qo'nsa,
 Borgan joydan mingta chiqar qarindoshing.

Magazinchi savdo qilib urib qoldi,
 Nazoratchi bir tomondan ko'ribqoldi,
 Bu foydadan kistasiga kirib edi
 Gap topolmay qotgan toshday turib qoldi.

Shoda-shoda oltin yig'ib to'yungan bu ko'z,
 Dunyoning borin olib to'yungan bu ko'z,
 Gar xaroba qishloq tomon borib qolsa,
 Anjom tashlab, qadam taylab kelmagan bu ko'z.

Odam sirin odam aslo bilolmaydi,
 O'zi aytsha bosh ko'tarib yurolmaydi
 Odam qalbi ochiq bo'lsa oy singari,
 Birovini biri yomon deyolmaydi.

Gar o'tdi qo'ysangdabordir chorasi,
 Suvdan omon qolsang ketar qorasi,
 Davolab yotsangda kecha kunduzi
 Aslo bitmas ekan tuhmat yarasi.

Tuhmatchi aslida odam bolasi.

Odam bolasining ichi olasi.

Ilon ham, chayon ham undan yaxshiroq,
 Qoch undan, ko'rinsa agar qorasasi.

Tog' pastida qolsang bukilishing bor,
 Tog' ustiga chiqsang yiqilishing bor.
 Mehnatdan halol non topib ye, do'stim,
 Bir umr dimog'ii chog' qilishing bor.

Nima kerak, do'stim, birovga kuloq,
 Bittasi daryodir, bittasi ko'lmak,
 Biz ham odamdanmiz, odam qatorni
 Nasib qilarmikan daryodan bo'lmoq.

Behosdan to'kildi yul ustiga don
 Ikkita yumron jang qilardi chunon.
 Tulki asta keldi, ikkisin tutdi,
 Donni esa kelib chumchuqlar yutdi.

Bilim, fazilatdir hayotning naqshi,
 Hayotni hech kimsa qilolmas shaxsi(y)
 Betayin, betutruq, safsata gapdan
 Bir tuyur bulsa-da, issiq non yaxish.

Dunyoning tutqasin tutib yurmassan,
 Yoki archa misol ko'klab turmassan,
 Qo'lingdan gar kelsa qilgin yaxshilik.
 YOmon dyeganinham erta ko'rmassan.

Yomonlik o'zingga tog' bo'lib kelar
 Yamlab yutish uchun chog' bo'lib kelar.
 Yaxshilik qilsang ham qaytar bir kuni
 Kichigi soyali bog' bo'lib kelar.

Tog'da ko'rib kiyiklarni hurkak deymiz,
 Andishali odam bo'lsa qo'rqaq deymiz
 Bir xil odam gap tashiydi tuhmat bilan,
 Bundaylarni xotinchalish erkak deymiz.

Otani osmon deng yomg'irli, qorli,
 Onani yer desak, bahorli yozli

Ikkisin hurmatin keltira olsang,
Senki hamisha fasllar fasli.

Bor bo'lsang ko'rolmas ba'zi odamlar,
Yo'q bo'lsa berolmas ba'zi odamlar,
O'rtada yursang ham gohi-gohida,
Turtmayin turolmas ba'zi odamlar

Farzand bor o'n beshda bilar yo'lini,
Farzand bor qirq beshda bog'lar belini,
Ba'zisi qanchalik topsa ham yetmay,
Bulsa tortib olar ota pulini.

Qarg'a ham uchadi qanoti bilan,
Lochinham uchadi qanoti bilan.
Qarg'aning qo'nishi cho'lda yantog'dir,
Lochinning qo'nishi yuksalgap tog'dir.

Bir sichqon donni xo'p yig'ardi chunon,
Teshmagan qop qolmas, dashtdagi xirmon.
Nasiba qilmadi chopib topgani,
Mushukcha ildi-yu ayladi gumdon.

Mehnat qilmay olib yurish gado ishi.
Ko'z qaratib yaltiramoq shoda ishi,
Botir bermoq, gado olmoq uchun kelgan
Axir bir kun ikkisining ado ishi.

Bitmaydi dunyoning o'zi biri kam
Biri-chun nechalar tortdi alam-g'am,
Dustlar davrasida o'tirsang bir dam,
Jahon sultonligi senda mujassam.

Mehnatla odamzod ulug' dunyoda,
Uning hurmati-chun shohlar piyoda,
Mehnatdan topilgan bir tuyur noning,
Mehnatsiz ne'matdan ming bor ziyoda.

Mehnat bilan dunyoni topib bo'ladi
Mexmat bilan yer yuzini ko'rib bo'ladi
Mehnatsiz non ko'r o'ilalar, ko'rolmas aslo
Uning bilanqanday birga yurib bo'ladi.

Xammaning tilagi bir xilda bo'lsa,
Xammining yuragi bir xilda bo'lsa,
Tuxmat ham, g'iybat ham tugardi shunda,
Eshitar qulog'i bir xilda bo'lsa.

Odamzot bor bitta-yarim xato bo'ladi,
Xatolar ham asta-sekin ado bo'ladi,
Bir ro'zg'orni boshlab borish otaga qiyin,
Shuning uchun yaxish rahbar ota bo'ladi.

Ey, odamzot, gar yo'l topsam dilingizga,
Tayoq bo'lsam, kasov bo'lsam qo'lingizga,
Bir lampochka yorug'icha bo'lmamasda,
Sham singari yog'du sochsam yo'lingizga.

Birov o'lsa, bir xil odam kulib turadi,
Bir xilining yuraklari to'lib turadi,
Kaysising qandayligin bilmaymanu,
Dono shunday bo'lishini bilib turadi.

Rahbar bo'lsang yolg'onining ham chin bo'ladi,
Mansab ketsa qarindosh ham jim bo'ladi,
Gar haq bo'lib odamlarni qilsang hurmat,
Ich achiring eldan boshqa kim bo'ladi.

Qarg'a tuxum bosdi yillar, aslo lochin bulmadi,
Eshak bola ko'rdi qancha, biror tulpor chiqmadi
Tulporim deb, lochinim deb, qancha silab siypadi,
Xangrashu qag'illashdan boshqa sado chiqmadi.

Toshkentim

Seni ko'rib kimlar qalam olmagan,
Ilhomsizga ilhom bergen, Toshkentim.
Olamda yuq sening noming bilmagan
Mana men deb ko'krak kergan, Toshkentim.

Ko'changga to'shabsan nurdan gilamni,
Saxovatdan gulga berding in'omni
Seni ko'rsam ko'rgandayman onamni,
Farzandiga ko'ksin ochgan, Toshkentim.

Olimlaring yulduzlarga boqadi,
Shoirlaring nurni gulday taqadi,
Dehqonlaring dashtdamash'ad yoqadi,
O'g'lonlarga mehrin sochgan, Toshkentim.

Javohirlar sendan ulgu oladi,
Bir ko'rgan ko'rsam deb havas qiladi,
Jamolingga oy termulib qoladi,
Tabiatni shaydo qilgan, Toshkentim.

Jahon go'zalligi yig'ilib kelib,
Har biri naqshini ko'ksingga ilib;
Kunda bip yasharsan quyoshtay bo'lib,
Suluvlardan suluv bo'lgan, Toshkentim.

Go'zallar sultoni kelsa qoshingga,
Ta'rif topolmaydi ko'zu-qoshingga,
Bahor ham shaydodir seni o'zingga,
Fasllardan hosil olgan, Toshkentim.

Dostonlar to'qisam senga yarashar,
Shoi ila shuurating oylardan oshar,
Husningni bir ko'rgan Qodir ming yashar,
Hur bo'stonda bog'bon bo'lgan, Toshkentim.

Qaynarbuloq bulbuli.

(Abdulla shoir Nurali o'g'lining 110 yilligiga)

Qaynarbuloq qarshisida,
O'yga tolib turaman,
Do'mbiramning torin chertib,
Kuyga solib turaman.

Qaynarbuloq qaynay ketdi.
Kuy navoga qo'shilib.
So'zi suvday oqar edi,
Qiz sochiday eshilib.

Dedi: -Men ham Qaynarbuloq,
Abdullah bo'lmadim,
Fayrat qildim kecha-kunduz,
Narigi soyni ko'rmadim.

Abdulla-chi savlat oshib,
Bulbul bo'lib sayradi.
Bir biyobon cho'iga borsa,
Buloq bo'lib qaynadi.

Do'mbirasin ko'shsha tori,
Biri Jayhun edi-ey,
O'zi savr jalasiday
Toshgan Sayxun edi-ey.

Qora tog' ham qarshisida,
Boshin egib turardi.
Bulutlar ham cho'kib tushar,
Ko'z yosh to'kib turardi.

Gah yig'latib, gor kuldirib,
Keksani yosh qildi-ey.
Yuqnarsani bor qilardi,
Toshdan ham osh qildi-ey.

Yaxshi niyat mard yigitning,
Mayoq bo'ldi yo'lida,
Poraxo'rning, chayqovchining
Qiyoq bo'ldi qo'lida.

Dangasaga doston aytib,
Mard qilganin ko'rghanman,
Eshagini maqtay-maqtay
Ot qilganin ko'rghanman.

Moskvaga borib keldi,
Do'mbirasin esh qilib,
Qaytib keldi Alpomishga,
Murometsni do'st qilib.

Mangulikka ketdi o'zi,
Mangu qoldi qo'shig'i.
Bu kun ruhi to'lib turar
Do'stga ochiq eshigi.

Abdulladan ulgu olgan,
Qancha Qaynarbuloq bor.
Qo'shiq aytib tinchlik deymiz,
Tinchlik degan tilak bor.

Qaynarbuloq qarshisida
Qodir o'yga tolarmen.
Elim baxt iqbolini,
Kuy-qo'shiqqa solarman.

Mehmondir

Mehmon otangdan ulug'
Xalqimizda bir ish bor
Yaxshining uy to'rida,
Doim bo'lgan mehmonlar

Mehmon kelsa eshikdan,
Rizqi birga kelarkan
Mehmon kutgan odamning
Kunda baxti kularkan

Hurmat qilsang mehmondi
Sen ham hurmat ko'rasan
Neni yerga taylasang
Bilgin uni o'rasan.

Mehmon olish o'zbekka,
Odat bo'lib qolgandir
Ota-bobolarimiz
Imorat sol degandir.

Mehmoni ko'p odamni
Hamma hurmat qiladi.
Chunki do'sti ko'payib
O'z obro'sin oladi

Mehmon kelmagan uyni
Tarki dunyo deydilar.
Mehmon bilan ro'zg'oring
O'chmas ziyo deydilar.

Darding bo'lsa yurakda,
Bilgin davosi mehmon
Odam zahrini odam
Ko'tararkan beomon

Ey Qodira, soz chalib
Mehmon ko'nglin shod ayla
Topsang ob kel besh qo'yni
Bo'lmasa bir ot boyla.

Samarqandim – qandim

Samarqandim, qandimsan,
Ko‘nglimning malikasi.
Sozim yangrar sen bilan,
Sen yuragim erkasi.

Tog‘dan turib qarasam,
Ko‘rinadi jamoling.
Qo‘l tegmagan kelinday
Porloq bo‘lsin iqboling.

Bir yog‘ingda Qoratog‘,
Ko‘ring o‘rmon, o‘tini.
Bir yog‘ingda Zarafshon,
Qamchilaydi otini.

Bir yog‘ingda gullaring,
Yapolodday ochilgan.
Bir yog‘ingda bog‘laring,
Mevalari sochilgan.

To‘tilaru bulbullar,
Ming turli qush sayraydi.
Mehnat, ijod, ilhoming,
Buloqdayin qaynaydi.

Bir yog‘ingda oltining,
Olmas bo‘lib boradi.
Uzumlarining javhardan,
Qolmas bo‘lib boradi.

Tengsiz go‘zal Registon,
Bobolardan nishona.
Baxti kului qaytadan,
Endi bo‘ldi koshona.

Tolmas o‘g‘lonlaring bor,
Qolishmaydi qizlaring.

Po‘lat otni sapchitib,
Yulduzdadir ko‘zları.

Olimlaring bir qilni,
Qirq bo‘lakka bo‘ladi.
Tuprog‘ingdan oltinni,
Toshdan marmar oladi.

Bir yog‘ingda baxshilar,
Gumburlatar torini.
Go‘yandalar kuylasa,
Eritar tog‘ qorini.

Qovunlaring ichida.
To‘qiz odam yotguday,
Bitta uzum shonasi,
O‘n odamga yetguday.

Samarqandim deb Qodir,
Bahra oldi o‘zingdan.
Qora tog‘day oltinlar
Unsin bosgan izingdan.

Suvning qadri

Qarasam ko‘rinar bir tomchi suvdan,
Mening borlig‘im-u jismim-u ranggim.
O‘zim ham hayronman bunday so‘rovdan,
O‘zing ekansanda mening hamrohim.

Tomchingdan ko‘rinar butun jahonim,
Sening ichingdami mening makonim.
Demak, sening bilan aylanar qonim,
O‘zing ekansanda mening yo‘ldoshim.

Sening qadringni bilmagan kim bor,
Iflos oyog‘ini qo‘ymas hayvonlar.

Sen bo'lmasang bo'lmas davru davronlar,
O'zing ekansanda bu tirikligim.

Sen bilan tirikdir, olam, mavjudod,
Bo'lmasang toshlar ham qilar faryod.
Oting suv emasdир aslida hayot,
O'zing ekansanda bog'im, bahorim.

Behuda singdirsang bir tomchi suvni,
Bobolar ming azob ko'rasan derdi.
Onaday mehribon qilgan sen yerdi,
O'zing ekansanda ichgan oq sutim.

Sening tinch turganing, hech ko'rganim yo'q,
Niyating olamni qilgusimi yo'q.
Yoki tilaysanmi elga omonlik,
O'zing ekansanda mening sog'ligim.

Shoirlar necha bor seni yozgandi,
Sendan gavhar to'qib cho'lga kezgandi.
Yaratgan o'zingsan bog'u bo'stodi,
O'zing ekansanda mehnatkorligim.

Yer xazina bo'lsa, suvidir gavhar,
Sen bilan qo'shiq ham sen bilan gulyor.
Sen bilan bo'ston ham sen bilan gulyor,
O'zing ekansanda shod tirikligim.

Suv bergen savob deb bejiz aytmagan,
Bahongni jahondan izlab topmagan,
Dunyo boyligi ham senga yetmagan,
O'zing ekansanda boylik bebahom.

Qorako'lim maqtovi

Mening qora ko'limni,
Bir ko'rsangiz bilasiz.
Hatto qo'zichog'idan,
Ko'z uzolmay qolasiz.

Jajji, jajji jingalak ,
Usta pardoz berganday.
Tog'ning lola gulidan,
Terib-terib qo'yganday.

Bir-birida o'tgan,
Yaltillaydi chiroyi.
Hatto termulib qolar,
Osmonning to'lin oyi.

Biri qora, biri ko'k,
Jilvalanar ipakday.
Yangi tushgan kelinchak,
Taqib yurgan pupakday.

Biri qizg'ish, biri sur,
Yonib turar chiroqday.
Chevar qizlar besh oyda,
Tikib bo'lgan iroqday.

Ba'zisini kisht deydi,
Xosiyati bor ekan.
Hatto ushlab ko'rganga,
Doim madadkor ekan.

Yomoni ham tilladay,
Tilini bilganlarga,
Diliga zavq beradi.
Qoshiga kelganlarga.

Qorako'lim, azizdir,
Chunki boshga kiyadi.
Qo'liga olgan kishi,
Silab-siypab qo'yadi.

O'tgan ota-bobolar,
Topmasang top deyarkan.
Uni boqqan yigitning ,
Umri uzoq deyarkan.

Tolganida donolar,
Iyararkan iziga.
Quvvat berib miyaga,
Nur berarkan ko'ziga.

Muloyimdir junlari,
Yangi chiqqan satinday.
Uyrliganda tovlanar,
Ishlov bergen oltinday.

Duru javohirlaring,
Biriga teng kelmaydi.
Qorako'lim turganda,
Ularni hech olmaydi.

Olmosday Qorako'lim,
Menga oltin beradi.
Zumradlarin cho'ponlar,
Qo'shsha-qo'shsha teradi.

Terisi ham o'zi ham,
Tilla boshdan oyog'i.
Uni boqqan cho'ponning,
Gavhardandir tayog'i.

Bugun Qodir soz chalib,
Maqtar qorako'lini.

O'ssin yana ko'payib,
O'tlab tog'u cho'lini.

Ustozdir

Tog'lar tog' bo'lmaydi savlat bo'lmasa,
Qushlar ucholmaydi qanot bo'lmasa,
Inson yurolmaydi da'vat bo'lmasa,
Buloq bo'lsang, ko'zing ochgan ustozdir

Kurmat izzat ko'rsang ustoz bilandir,
Elga mashhur bo'lsang ustoz bilandir,
Gar quyosha yetsang ustoz bilandir.
Daryo bo'lsang, cho'lg'antirgan ustozdir.

Cho'lda yursang soya solar boshingga,
G'amda qolsang maslahatgo'y qoshingda,
Gar yiqilsang hassadir yonboshingda,
Dengiz bo'lsang, qirg'oq bo'lgan ustozdir.

O'zboshimcha ishni qilsang xato bil,
Ko'lmak suvni yoz keganda ado bil,
Ustoz ulug' zotdir uni ota bil,
So'ri bo'lsang, tirkak bo'lgan ustozdir.

Mahkam aylab bog'lasangda belingni,
Qatga kelib topolmassan yo'lingni,
Quyosh bo'lib nuri ushlar qo'lingni,
Narvon bo'lsang, darmon bo'lgan ustozdir.

Har hunarni o'rganmoqlik yoshdandir
Ustoz degan hazinadir bo'stondir.
Har xislatin yozsang o'nlab dostondir,
Hayotingda mayoq bo'lgan ustozdir.

Ustozimga

(Mashhur baxshi-shoir Umir Safarovning 90 yilligiga)

Hali-hali esimdadir,
Do'mbiraning sozlar.
Nag'masiga nola qilar,
G'og'illar ko'l g'ozlari.

Ikki torda mayin ovoz,
Sayxun bilan Jayxunday.
Ko'z oldimga kelar edi,
Bepoyon cho'l poyma-poy.

Quyosh botmay boshlar edi,
Ko'zin yumib dostonni.
Kalit solib ochar edi
Go'yoki bir bo'stonni.

Ko'rар edim Alpomishning
Boychiborni qistashin.
Ko'rар edim Oybarchinni
Suluv qizlar ustasin.

Saf-saf tortgan lashkarlaru
Qaddi tog'dek polvonlar.
Hay-haylashgan cho'ponlaru
Savlat to'kkан sultonlar.

To'qson bovli oq o'tovlar,
Ko'z oldimdan o'tardi.
Chanqovuzni chalgan qizlar,
O'z yorini kutardi.

Dostondagi g'amli kunda,
Soz ketardi ezilib.
El yig'lardi, baxshi yig'lar.
Alpomishga qo'shilib.

Ozod bo'lsa el botiri,
Baxish sozin ko'rarding.
Kular edi saf odamlar,
So'zga qoyil qolarding.

Boshin to'lg'ab aytar edi,
Qo'lda sozi gul bo'lib.
Ter oqardi o'tirgan joy
Usti boshiho'l bo'lib.

Umir eding - uzoq umr
Abadiysan hayotda
Shogird Qora, Chori, Qodir,
Qamchi chotar G'irotda.

Oy Kamola, Kamola

Oy Kamola, Kamola
Oyday bo'lgan, jamola.
Sochlarini o'ynaydi,
Mayin esgan shamola.

Oilaning sarkasi,
Otasing erkasi,
Onasining suyanchi,
Yupanchig'i, orqasi.

Boshda sochi jingalak,
O'yin-kulgu-la xalak,
Zebo qaddi kamolu,
Husnin beribdi falak.

Quralaydir ko'zlar,
Yoqimliydir so'zlar,
Parilardan ziyoda,
Oy uyaltar yuzlari.

Tillari biyron-biyron,
Odobiga biz hayron.
Sog‘lom o‘sib ulg‘ayib,
Baxtini topsin har on.

Oy Kamola, Kamola
Boshda shohi ro‘moli,
Elda shuhrat qozongin,
Bo‘lib nurli jamola.

Jambul bilan Obay-ikkov

Qozoqning zo‘r oqinlari,
Xalq qalbining chaqinlari.
O‘zbek elin yaqinlari,
Jambul bilan Obay - ikkov.

Qozoq elin ulug‘ligin,
Hosilining bo‘lug‘ligin,
Lekin rangi so‘lug‘ligin,
Kuylar Jambul, Obay ikkov.

Xalqlar doim qardoshligin,
O‘zbek, qozoq qondoshligin.
Yashashda ham yondoshligin,
So‘ylar Jambul, Obay - ikkov.

Oqinlariman aytishib,
Foliblikka xo‘p tortishib,
Kuyladikda ilhom toshib,
O‘zbek menu, qozoq ikkov.

Qozoq elga bo‘lib padar,
Baxt ularshdi samo qadar.
Qodir aytdim imkon qadar,
Ustoz Jambul. Obay - ikkov.

Cho‘lni qiling guliston

Ota-bobolarimiz,
Aytgan edi azaldan.
Agar yigit bo‘lsangiz,
Cho‘lni qiling guliston.

Cho‘lga o‘sgan giyohga,
Bir piyola suv bermoq.
Bir machitni qurgandan,
Bo‘lar ekan yaxshiroq.

Mana cho‘lu biyobon,
Saksovullar dikkaygan.
Soyam boru suvim yo‘q,
Deb boshlari enkaygan.

Ko‘z ko‘rmagan ishlarni,
Endi boshlamoq kerak.
Pahlavonday qadamni,
Cho‘lga tashlamoq kerak.

Cho‘lda ishlaganlarni,
Cho‘l shunqori deb aytar.
Yuragida o‘ti bor,
Siltab tog‘larni otar.

Minsang mana tolmas ot,
Qamchi ursang bo‘lgani.
Mard yigitning qo‘l cho‘zib,
Oltin bo‘lar olgani.

Bahodirlar zarbidan,
Yashnayotir Qarshi cho‘l.
Bir tomoni oltinzor,
Bog‘da mevalari mo‘l.

Bir tomonga qarasang,
Mehnat, ijod qaynaydi.
Hordiq chiqar payti,
Shod bo'lishib o'ynaydi.

O'tgan ota-bobolar,
Biz uchun baxt yaratdi.
Ular shijoatidan,
Jilvalanib tong otdi.

Bizning mehnatimizdan,
Cho'llarimiz gul taqsin.
Nur taratib har yonga,
Qalblarga olov yoqsin.

Avlodlar ko'rganida,
Rahmat aytsin bizlarga.
O'rnak bo'lsin ishimiz,
Barcha o'g'il-qizlarga.

Cho'l degan nomda aslo,
Qolmasin hech nishona.
Bo'ston bo'lsin, bog' bo'lsin,
Qad ko'tarsin koshona.

Olimlar cho'l ma'nosin,
Lug'atin so'rab yursin.
Kitoblarni axtarib,
O'qib ma'nosin ko'rsin.

Bir mardning qilgan ishi,
Mingning oshi deydilar.
Bir yomonning qilmishi,
Soyning toshi deydilar.

Qadam bosgan joyimiz,
Bo'lib qolsin gul, bo'ston.

Yurtning mard o'g'lonlari,
Cho'lni qiling guliston.

Obro'yingdan ayrılma

Qimmat bo'lsa arzon bo'lib
Hamma boringdan ayrılma
Ko'klam ketib, mezon bo'lib
Aqlu hushingdan ayrılma

Odamzod bilsang gavhardir
Ming bir ikki xislat bordir,
Ham oldida katta jardir,
Toyib belingdan ayrima

Obro'ni ob bo'lmas pulga
Ketmon kelib tiyar gulga
Qaytib chiqish qiyin yo'lga
Cho'zib qo'lingdan ayrılma.

Agar bo'lsang nurli chiroq
Hamroh bo'lib qolsa aroq
Sung bo'larsan o'tmas yaroq
Hech ro'zg'oringdan ayrılma.

Avval icharsan ozidan
So'ngra kelguncha og'zingdan
Axir ketarsan o'zingdan
Chechan tilingdan ayrılma.

Har ish bo'lsa me'yor bilan,
Suhbat lozim do'st-yor bilan,
Tez-tez suzilsa zo'r bilan
Yaqin do'stingdan ayrılma.

Sayrab kuyla

...Oqmachitda sayrab kuyla, do‘mbiram,
Ko‘pkarini yayrab so‘yla, do‘mbiram,
To‘y egasin maqtab-maqtab aytmasang,
Xasa bo‘lar, o‘zing o‘yla, do‘mbiram.

Sen deb Toshkentdan ko‘p mehmonlar,
Malik Murod, Hojiakbar, Usmonlar,
Abdiolim ham Muhammad Rahmonlar
Chori Bekmir ko‘nglin olgin, do‘mbiram

Ko‘pkariga qo‘sib senday borimni,
Tarqatayin yuragimda cherimni,
G‘animlardan olay doim orimni,
To‘y egasin zotin olay, do‘mbiram...

III. HAJVIY TERMALAR**Sen benzimisan**

Ishqing bermas menga, yora, hech tinim,
Qurban bo‘lsin bo‘yinga tanda jonim,
Sen bo‘lmasang hech qayda yurolmayman,
Men texnika bo‘lsam, yor, sen benzim.

Doim tortar myeni ishqingni kuchi,
Tananmi o‘ragan yorimning sochi,
Bir ko‘rmasam hyech yoqqa ketolmayman,
Men mototsiklman, sensan klyuchi.

Sevgida bo‘lmasin go‘zalim firoq,
Qayoqa ketsang ham berib ket darak,
Birga mehnat qilsak sen-la dalada
Men kerosin bo‘lsam, sen esa chirok.

Mehnatda bo‘lamiz, tillarda doston,
Mehnat bilan cho‘llar bo‘lar guliston.

Buyingdan aylanay go‘zalim, jonim,
Men daryo bo‘lsam, sensan bo‘stonim.

Kel go‘zalim kelishaylik, kelishaylik
Sevgi nima, havas tima bilishaylik,
Dangasa deb qaramasang sen menga,
Yur dalaga mexnatda bellashaylik:

Qizmisan yo o‘g‘ilmisan

Ko‘rganda bo‘ldim hayrona?
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?
Senga bo‘lurmi devona?
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Anglamay aytgan ovrinmv,
O‘zingni bildir tek turmay,
Soching uzun, burning surnay,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Qiz deb aytSAM o‘g‘il bo‘lsang,
Yaxshi bo‘lmas so‘kib ursang,
Bir belgini qilib yursang
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Lozim bo‘ldi gap so‘ramoq,
Qizmi desam bo‘yning o‘roq,
O‘g‘il desam sochda taroq,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Bryuklaring mujiskiydir,
Ko‘ylaklaring jenskiydir,
So‘mkalaring polskiydir,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Bilinmaydi yo‘qdir g‘uncha,
Jumboq bo‘larkanmi shuncha?
Bo‘ylaring ham o‘sgan ancha,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Yo majnuni adomisan,
Yuzlaring rang sodamisan,
Yangi chiqqan modamisan,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Soching ketgan belga tushib,
Goh qo‘ysan bo‘yning qashib,
Zulfaging iyningdan oshib,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

O‘g‘ilni eslatar tanang,
Lekin qo‘lda bordir xinang,
Qaytib tanir seni enang,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Shovqin bilan o‘tar kechang,
Ha deb chaqiradi chechang,
Qizga o‘xshab ketar uchang,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

O‘g‘ilga o‘xshar tovushing,
Poshnasi baland kovushing,
“O key” bo‘lar qilgan ishing,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Imo bilan ko‘z suzasan,
Boldog‘i yo‘q bir cho‘zasan,
Oshmisan yoki go‘jasan,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Har joyda toshu tarozi,
Na yorisan, na erisan,
Bir bechoraning sho‘risan,
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Qodir bilmay bo‘ldi garang
Turqiga Siz ham bir qarang
Enasi bilarda arang
Ursayam borib bir so‘rang
Qizmisan yo o‘g‘ilmisan?

Yomon qaynona

Bir oy burun kelin deb,
Tarsanglaydi qaynona.
Aylanay deb kelganda,
Mursanglaydi qaynona

Chiqmay kelin chillasi,
Chirillaydi qaynona.
Ob ketding deb o‘g‘lini,
Girillaydi qaynona.

Minghiylani bir qilib,
O‘yin boshlar qaynona.
Kuydirdi deb o‘g‘liga,
Ko‘zin yoshlar qaynona.

Tikish tiksa bo‘lmas deb,
So‘tib tashlar qaynona.
O‘tib ketsang qoshidan,
Tepding, deydi qaynona.

Erginaning shundayin,
Oshi bor der qaynona.
Bergan oshning ichida
Toshi bor der qaynona.

Farzand ko‘rsa ko‘rdi deb.
Ko‘rolmaydi qaynona.
Kuldan qiyiq axtarib,
Turolmaydi qaynona.

Enang o‘lsin deb go‘dakni,
Yilib olar qaynona.
Kelinchakning yuragini,
Tilib olar, qaynona.

O'g'li ursa kelindi,
Shu kuni shod qaynona.
Kelin-kuyov o'ynasa.
Solgani dod qaynona.

Seni o'lik deb o'g'lini,
Ta'na qilar qaynona.
Kelindi uy ichidan
Pana qilar qaynona.

Oxir o'g'lin tentak deb,
Cop qiladi qaynona.
Shuning bilan bir hayotni,
Qon qiladi qaynona.

Stilyak

Har qiliqdan bir qilig'i ortiqdi
Qo'iga tushgan so'yaldaydir stilyak
Shimlarining adoqlari yirtiqdir
Bug'doydag'i kuyadaydir stilyak.

Kechalab yurishi jinni eslatar
Hech uzmayin sigaritin tutatar
Bir o'tgan ko'chani iflos qib ketar
Sement ortgan mashindaydir stilyak.

Sochi o'sib ketgan iynidan oshib,
Gohida qo'yadi yelkasini qashib
Duch kelgan narsani o'tadi bosib,
Tinch yurgani piyondaydir stilyak.

Soqollari o'sgan tovuq patiday,
Burunlarni katta tog'ning qatiday,
Yurishlari aravaning otiday,
Ola-bula jayradaydir stilyak.

Onasini bilmay mama deb aytar,
Otasiga boboy deya so'z qotar
Bir kunlik ishiga olti oy o'tar
Musa kasal odamdaydir stilyak.

Yigirma yoshida go'yo chaqaloq
Buyurgan ishiga onasi halak
Tortadi surnaydan, yonida aroq
Ekindagi shumg'uyadir stilyak.

Otning to'shayili belda belbog'i,
Sassiq popushakday ola bir yog'i,
Ikki o'ram tukday shimin adog'i,
Loya botgan oayoakdaydir stilyak.

O'ttiz yoshda yo'qdir ishning tayini,
Xarob qilar qayga borsa joyini,
Hushyorxonada ham bo'lar o'yini,
Bargi tushgan terakdaydir stilyak.

Dumi yo'q xo'rozday qichqirar yo'lida,
Magnetafon belda, radio qo'lida,
Cha-cha-cha tinglaydi, ba-ba-ba tilda
It tishlagan buzoqdaydir stilyak.

Umri uzilgan bargdayin o'tar,
O'tgan kun qaytmaydi, kelaru ketar
Qodir-o, yaxshiga bir so'z ham yetar,
Izdan chiqqan vagondaydir stilyak.

Ferma mudir

Qo'ylar yobonda so'zlashar,
-Qanday odam ferma mudir?
-Menga so'z ber deb talashar,
Shunday odam ferma mudir.

Ot ustida mo'rtin bo'rab,
Semiz bo'lsang tiklar qarab.
Uyga kirsa go'shtni so'rab,
Aroq yutib yurar mudir.

Oriq bo'lsak qaramaydi,
Holing ne deb so'ramaydi.
O'lsakda ko'zi ko'rmaydi,
Kulib yuzta otar mudir.

Ombordadir har kun izi,
Yemni so'rar aytgan so'zi.
Olsa yonib ikki ko'zi,
Xo'p changitib sotar mudir.

Qolsa agar olar cho'pon,
Sotish davom etar hamon.
Doni ketib qolar somon,
Kelsa qopga tiqar mudir.

Yem so'rasak tepib o'tar,
Ochdan nechov o'lib yotar.
Qulqoni ham kesib otar,
Mana yoz deb ketar mudir.

Kechda moshin bilan kelar,
Semiz bo'lsak ilib olar.
Borar joyi bo'lib bozor,
Pulni yamlab yutar mudir.

Goh bizni tandir qilar,
Xo'p kakirib pasga enar.
Ustdidan yeb bitta anor,
Qornin qashib yotar mudir.

Mana qo'ton nurab ketgan,
Ichi moyga botib yotgan.

Shunda mudir qochib jitgan,
Ko'rmadim deb aytar mudir.

Keling qilaylik shikoyat,
Bir turki soz tegsa g'oyat.
Bilar edi ko'p hikoyat,
So'ngra izi jitar mudir.

Ishdan qochar

Yomon otga yol bitganda,
Egasi tepar ekan
Ishni bersang bir yomonga,
Bo'lmaydi deb kechar ekan.

Dangasaning qilgan ishi
Sal ishlamay og'rir boshi
Misol cho'kkан suvning toshi
Yursa illa bosar ekan.

Ish buyursang yo'q bo'b ketar
Agar topsa yuzta otar
Borsa kelishi ko'pi xatar
Loyga botib yotar ekan.

Yotsa turar erta choshka,
Chivin tushib ketar oshga,
Kasal bo'lar chiqsa ishga,
Vrach qarab ketar ekan.

Ovqat bo'lsa tinmay yutar,
Ikkita non birdan ketar
To'y bo'lsa qolmaydi, yetar
Unga gapni otar ekan.

Suvga oqar pulning bari,
Janjalli bo'lib ro'zg'ori
Odamlar ham undan nari
Bu yomondan kechar ekan.

Yer haydasa qilar manda,
Joni bormi o'zi tanda
Oxiri bo'lib sharmanda
Boshin qotib qolar ekan.

Ishlasa sherdai ishlasa
Yomon qilig'in tashlasa,
Yaxshi niyatni boshlasa
U ham odam bo'lar ekan.

“KELINOY” **dostoni**

“Kelinoy” dostoni haqida

Janubiy O‘zbekiston dostonchiligidagina xos bo‘lgan “Kelinoy” turkumi dostoni faqat Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida emas Tojikiston va Turkmanistonning o‘zbeklar yashaydigan viloyat, tuman, qishloqlarida ham keng tarqalgan.

Bu hakda fol’klorshunos A. Qahhorov o‘ttiz yillik kuzatishlari natijasida yaratgan “Yangi dostonlar” monografiyasida to‘xtalgan. Biroq tadqiqot sho‘rolar davrida yaratilgani bois unda o‘scha davr mafkurasining ta’siri bo‘lishi tabiiyigini unutmaslik lozim. Shu sababli bo‘lsa kerakki, tadqiqot Oktabr to‘ntarishidan so‘ng yaratilgan, 20-yillardagi milliy ozodlik uchun kurash va 30-yillardagi “Xujum” kompaniyasiga bag‘ishlab ijod qilingan Qodir baxshi Rahimovning “Oysha”, Tosh shoir Chorshanbiyev va Zoxir shoir Qo‘chqorovlarning “Kelinoy”, Hayim shoir Pirimqulovning “Iqboloy”, “Jumagul”, Xazratqul Xudoiberdievning “Pardaxol”, Chori baxshi Xo‘jamberdi o‘g‘lining “Qizlarxon”, Umir shoir va Muhammad Rahimxo‘ja yuzboshining “Toshgul” va “Oy Toshgul”, Eshqobil Qo‘shoqovning “Xonsuluv”, “Oysuluv”, Abdulla shoir Nurali o‘g‘lining “Ali va Jangil” asarları ham “Kelinoy” turkumi doirasida o‘rganilar ekan, voqealar bir o‘zbek qizi atrofida vujudga kelishi va davom etishiga asoslanadi.

Ma’lumki, XX asrning 20-30-yillarda O‘zbekistonda bir o‘zbek qizi atrofida vujudga kelgan voqealar hakida qanchadan-qancha dostonlar yaratilgan. Ammo ularning g‘oyaviy yo‘nalishiga e’tiborsiz holda bir turkum doirasida tahlil qilish, o‘rganish mumkin emas. Aslida yuqorida nomi zikr etilgan mualliflar o‘zlari yashayotgan davr mafkurasiga mos dostonlar yaratishga intilgan, siyosiy tuzum qo‘llab-quvvatlayotgan, ma’kullayotgan, rag‘batlantirayotgan xotin-qizlar erkini, mehnatini ko‘rsatuvchi dostonlarni to‘qishda bilim va malaka yetishmagandan, o‘zlari bilgan “Kelinoy” va boshqa dostondagi epik o‘rinlardan, tayyor misralardan, doimiy epitettardan foydalangan. Biroq bu vositalar baxshi ifodalamoqchi bo‘lgan mavzuni, g‘oyaviy maqsadni, niyatni yashira olmaydi. Shu sababl sho‘rolar davrida yaratilgan dostonlarni (“Kelinoy” turkumini mustasno etgan holda) tematik jihatdan quyidagicha tavsiflash lozimki, bu umumo‘zbek dostonchiligiga ham xosdir:

1. Yangi davrni aks ettiruvchi dostonlar: “Amir qochdi”, “Dastagul”, “Qoraqum”, “Oysha” va “Kelinoy” ning Tosh shoir varianti kabilar.
2. “Hujum” kompaniyasi ta’sirida yaratilgan zamonaviy asarlar: “Jumagul”, “Pardaxol”, “Qizlarxon”, “Xonsuluv”, “Ali va Jangil”.
3. SHo‘rolartuzumi, uning raxnamosi va mafkurasi madhiga bag‘ishlangan dostonlar: “Madhiya”, “Abil botir” (Xazratqul baxshi), “Dohiyini ko‘rdim do‘stlar-ay”, “Davrim farzandi”.

Mavzu jihatdan uch guruxga bo‘lingan va XX asrda yaratilgan bu asarlar garchi doston deyilsa ham, avvalo, ko‘pchiligi an’anaviy doston janri talablariga to‘g‘ri kelmaydi; ikkinchidan, xalq tomonidan an’anaviy dostonlardek sevib tinglanmadidi, ommalashmadi va birontasi ham variantlashmay, bir ijodkorning individual ijod maxsuli sifatida qolib ketdi. Ammo ularning-qatida har bir baxshining badihago‘ylik maxorati, qobiliyati, o‘ziga xos iqtidorini ko‘rsatuvchi o‘rinlar ham oz emas. Bu asarlarni kiyosiy tahlil qilish, ularning aytvuchisi maxoratini o‘rganish va baholashda, o‘zlar yashagan davr voqealariga munosabatini aniqlashda muhim axamiyatga egaligi shubxasiz. Ammo ular “Kelinoy” turkumiga kirmaydi.

XVIII asrning oxiri XIX asrda shakllangan va XX asrda mukammal holda aytila boshlangan “Kelinoy” turkumini esa A. Kahhorov ta’kidlaganidek quyidagi xususiyatlarga ega variantlar birlashtiradi “...har qaysi variantda qizning go‘zalligi, oshiq yigitlarning maqtovlari, uning ishqiy-ruhiy kechinmalari bir-birini to‘ldirib boradi, Bundan tashqari, doston shakliga kirgan variantlarning barchasida oshiq yigit qizni izlab keladi. Qizning otasigasovchi yuboradi. Qizningotasi “Yo‘q” javobini bergach, qizni olib qochadi”. Ana shu syujet yo‘nalishidagi dostonlarni “Kelinoy” turkumida qayta tahlil etish ham navbatdagisi ishlardan biridir. Bu turkumga oid yigirmadan oshiq variant va “Kelinoy” madhidagi yuzlab qo‘shiqlar yozib olingen,

Biz siz muxtaram kitobxonlarga takdim etayotgan ushbu variantni 1980 yilda “Norguloy” nomi bilan yozib olganimiz. Dostonni nashrga tayyorlashda boshqa variantlardan foydalanmadik. “Norguloy” nomini ikkinchi o‘rinda saqlagan holda xalq o‘rtasida ma’lum va mashxur bo‘lgan “Kelinoy” nomini birinchi o‘ringa chiqardik.

Ushbu nashr “Kelinoy” dostonining izchil syujet va yaxlit kompoziyaga ega bo‘lgan, bir baxshi repertuaridan yozib olingen dastlabki nusxadir.

**Abdiolim Ergashev
folklorshunos.**

“KELINOY” (“NORGULOY”)

(doston)

O’tgan zamonda, Oqbosh tovdan tubanda, Oqbet tovining ustida Gala degan joy bo‘lib, u yerda Shukuraliboy degan katta boy yashar edi. Uning o’n suruv qo‘yi, ikki suruv yilqi bilan toyi, Dumachavli edi yaylov joyi Shukurali ellikdan oshgan, soqoliga oq tushgan, yelkador, o‘rtalib yeli, qomati kelishgan, mol desa aqlidan adashgan bo‘lib, lekin dasturxonidagi ochiq edi. Uning Norguloy degan qizi, falakning cho‘lpon yulduzi, oyni uyaltirgan yuzi, Shukuraliboyning ko‘zi, ko‘zi emas yurakdo‘zi bor edi. Norguloy ham o’n yettidan oshgan, o’n sakkizga yetishgan, ikki muxabbatgiyosi yangi ko‘krakdan o‘sgan, boshiga zardo‘zi qalpoq kiygan, qalpoqning aylanasisiga tilladan qo‘ng‘irok taqqan, yuziga odam qarab turolmas, qaraganda ham quyoshmi, Norgulmi bilib bo‘lmas, Norgul eshikka chiqsa so‘fito‘rg‘ay, g‘azalaylar oldidan ketolmas, kakliklar ham sayrab bo‘lar edi mas(t). Boshida xarir ro‘moli, o‘ng betida bor edi dona **xoli**, o‘zi ko‘krakdor, ximcha edi beli; oyokda zarlanib tashlangan, ichi mayimlashgan nug‘ayi ko‘k kovushi, har qadam bosganda kovushdan chiqar edi chanqavuzning tovushi. Norgulning o‘zi ham soz chalishga usta edi. U chanqavuz chalganda bulbullar sayrab, tuyalar yurmay qotib, qo‘ylar ma‘rashib, cho‘ponlar ingillashib, kichkina bolalar birdan qolar edi uxlashib, o‘zi ham iynilari kirday, bilaklari norday, yurakliligi sherday qiz bo‘lib yetishgan edi. Shukraliboyning cho‘ponlari boydan enchi uloq qilmas, Norgulni bir ko‘rsak bo‘lgani, deb tubadan kelib pisib qarar, qorasini ko‘rsa, bu kun enhiga olti qo‘y oldik, deb yurar, bir xillari Norgulning otini qo‘rqib aytolmay «Kelinoy» deb qo‘shiqqa qo‘shib yurar edi.

Shu o‘raning katta o‘g‘risini So‘ltoq der edi. Asli oti Rahmat bo‘lib, uni hech kim bilmas edi. So‘ltoq ham yigirma besh yoshdan oshgan, bilaklari to‘lishgan, qaddiqomati kelishgan, nor bilaklı, sher yurakli, burgut qaboqli edi. U boylarning mollarini o‘g‘irlab G‘uzor, Sherobod bozorlariga sotar, shu bilan kunini o‘tkazib yurar edi. Turar joyi Gilambaxt edi. Bugun guzari Dumachovliga tushib mol qarab yurib edi. Allaqanday chanqavuzning kuyi yuragini ezib, ko‘nglini buzib yubordi. Ostidagi otini haydab borayotib bir cho‘ponga duch keldi. Cho‘pon qo‘yga qaramay, kuyga mos bo‘lib turganida, So‘ltoq cho‘ponni chaqirdi. Cho‘pon gapirmay jim tur, deb imlayverdi. Shunda So‘ltoq cho‘ponning qoshiga kelib: «Chanqavuzni kim chaldi?» - deb ikki og‘iz qichqirib turibdi.

Bugun kunda gulday bo‘lgan tarzim bor,
Bo‘ynimda oxiri o‘lar qarzim bor,
Oting nima, senga aytar so‘zim bor,
Bilsang aytgin, chanqavuzni kim chaldi?!

Tinmay yurar kecha-kunduz pirog‘im,
Bu dunyoda hech yonmadi chirog‘im,
Ne uchundir xo‘rsinadi yuragim,
Rostin aytgin, chanqavuzni kim chaldi?!

Yolg‘izman tushmasin boshima xatar,
Bu dunyo men emas hammadan o‘tar,
Chanqovuzning kuyi toshni eritar,
Yurak tori chanqovuzni kim chaldi?!

Osomnimda yulduzim yo‘q, oyim yo‘q,
Hech bir yerda turadigan joyim yo‘q,
Kuya mastman ketishga hech rayim yo‘q,
Mehribon bo‘l, chanqovuzni kim chaldi?!

Ul bo‘lsa berayin unga toyimni,
Qiz bo‘lsa taylayin unga jonomni,
Qari bo‘lsa bisotimda borimni,
Berib ketay, chanqavuzni kim chaldi?

Yolg‘iz bo‘lsa, bo‘lay uning yo‘ldoshi,
Bobo bo‘lsa, suyanchig‘i qo‘ldoshi.
Tosh mehrdim osdi ko‘zimni yoshi.
Jonim aytgin, chanqavuzni kim chaldi?

Cho‘llarda o‘sadi bo‘y cho‘zib yantooq,
Kuy mehri ayladi o‘zimni tentak,
Otimni aytishar bejirim So‘ltoq,
Og‘am aytgin, chanqavuzni kim chaldi?

Cho‘pon ham: «Kim chalganini aytganidan qilasan?» - deb ikki og‘iz qichqirib turibdi.

Men bilmayman urug‘ingni, zotingni,
So‘ltoq deding, bayon qilding otingni,
Aytgan bilan kim eshitar dodingni,
Chanqavuzni Norgul sarvinoz chaldi.

Otasining bilsang Pachkamar boyi,
Tentaklar bo'ladi pulning gadoyi,
Qizini Norgul der falakning oyi,
Chanqavuzni tovus chaldi, oy chaldi.

O'n sakkizga qadam qo'ygandir yoshi,
Bilmadim kim bo'lar uning sirdoshi,
Xusniga egilar osmonning boshi,
Chanqavuzni yulduz chaldi, noz chaldi.

Xusniga mas(t) bo'lar kaklik, yulduzlar,
Mehriga ochilar bog'dagi gullar,
Birdan jimb oqar toshqin daryolar,
Chanqavuzni to'ti chaldi, gul chaldi.

Qish kelsa tutqazar ma, deb zarini,
Bahor keb sochadi gullar barini,
Saraton keb berar sharbat turini.
Chanqavuzni bahor chaldi,par chaldi.

Xudo yaratibdi husn boyiga,
Yuz o'girsa kun kuyadi joyiga,
Qirq cho'pon jonini bersa buyiga
G'ulom aytar janon chaldi, yor chaldi.

So'ltoq: «Ey, G'ulom, odam ham shuncha bo'lama, munkha maqtanganing bilan So'ltoq olama, lekin chanqavuzini aytsang, u to'g'ri, erimagan tosh yurakni ham eritar ekan, eriganni chiritar ekan, odamni o'ylantirib qaritar ekan», -dedi. G'ulom aytdi: «Seni So'ltoq desam tentak ekansan, kuyib yurgan cho'pon senga berama, falokat bosib olsang, qarab turama. Boy qizini senga o'xshagan va menga o'xshaganga berama», «Gaping to'g'ri, G'ulom, -dedi So'ltoq - Boyning ovuli qayerda? Suvsab kelayotibman, menga ko'rsatsang». G'ulom aytdi: «Ko'ringan qora tubadan oshasan, yo'lga tushasan, ketabersang Shukuraliboy ovuliga yetishasan. Men aytgan qizni baxting bo'lsa ko'rasan, ko'rsang cho'pon bo'lib qolasan, molning ketida bizday bo'lib qo'shiq aytib yurasan», So'ltoq otini qamchilab, har xil narsani o'ylab, o'ylaganini yuragiga joylab, Qora tubadan oshib qaradi, ko'p ovulni ko'radi. Ko'p ovulning ichida bir qush qanotli uy ajralib turibdi, oppoq kiyizniunga tashlagan. Yigirma ikkita bovni

oyquchoqqilib bog'lab chiyni uyurgan, tuxumday bo'lib ko'rini turibdi. So'ltoq: «Boyning uyi shu bo'lsa kerakda», -deb tikka otni shu tomonga xaydadi.

Bahorda gul terayik,
O'Isak taqdirdan kurayik,
Jonivor hayvon, yur borayik,
O'ynab tayla sherdai bo'lib.

Hasratimni bitkarguday,
Yurak chirin ketkarguday,
Mingashtirsam qutqarguday,
Bo'lib tayla norday bo'lib.

Ot chopilsa chiqar teri,
Yomon qizdir yigit sho'ri,
Qo'yni ko'rgan misli bo'ri,
Bo'lib tayla hirday bo'lib.

Ko'p bo'ladi sanam nozi,
Poraxo'rdir bo'lsa qozi,
Tulki ko'rsam olg'ir tozi,
Bo'libtashla yolingkerib.

Mol quvgansan cho'li tovga,
Endi boshdan ketsin g'ovg'a,
Un besh yashar qizday bo'lib,
Ertaroq yetkaz o'tovga.

So'ltoq o'tovning kun chiqar tomonidan kelib, bo'sag'asiga otni ko'ndalang qilib, uyda turgan nuroniyl cholni ko'ribbir so'z dedi:

Kemani yoritar osmonning oyi,
Chopsa ter chiqarmas turkmanning toyi
Qornim ochdiruzoq, yo'ldan keldim men,
Assalomu alaykum, Qo'ng'irot boyi.

Yeshlikda ketgandir otam ham enam,
Qarindosh yuqlikdan kuyadi tanam,

Ekkali bog'im yo'q borgali xonam,
Madadkor o'zing bo'l, Qo'ng'irot boyi.

Mingali otim bor, jegali non yo'q
Bilakda kuchim bor, qilgali ish yo'q
Xo'rjinda matom bor tikkali yor yo'q.
Sohibkor o'zing bo'l, Qo'ng'irot boyi.

Sherobod deyarkan tug'ilgan joyim,
Daydi qib yaratgan meni xudoyim,
Dardimni aytgali yo'qdir hamroyim,
Posponim o'zing bo'l, Qo'ng'irot boyi.

Kim quloq soladi yetim so'ziga,
Jabr o'tsa yosh keladi ko'ziga,
Ish topib berar deb keldim o'zinga,
Yo'qlovchim o'zing bo'l, Qo'ng'irot boyi.

So'zimni eshitgin aytay tilimdan,
Har qanday ish kelar meni qo'limdan.
Buyursang boraman qo'rqlmay o'limdan,
So'ltoq senga aytar, tilimda,
Suzimni eshitgin Qo'ng'irot boy.

Boy bu so'zni eshitib xizmatkorlariga buyurdi. Xizmatkorlari So'ltoqni otdan tushrib, mexmonxonaga olib kirishdi. Boy So'ltoq bilan ko'rishib, so'rashib oldiga taom qo'yib, qornini to'ydirib, So'ltoqning kelishgan qaddiga, o'tkir ko'ziga qarab bir so'z dedi:

Osov bo'lsa qaytmay otga minguday
Ko'pkaridan tortib uloq olguday
Talabingni mayli beray, polvonim,
Non yeishing har xil ishni qilguday.

Yomon bo'lsang yersan o'z boshingni,
Yaxshi bo'lsang beray nonu oshingni,
Urug'imga yoqadigan ish qilsang,
O'zingga bop topib beray ishingni.

Mard-nomardlik ikki ko'zdan bilinar.
Dushmanning har yerda ko'ksi tilinar,
Yaxshi ul tug'ilalar odam baxtiga,
O'lsa qaytmas nomus-ori olinar.

Yaxshining yordami tegar tang yerda,
Yomonning kosadi tegar har yerda,
Yaxshi bo'lib polvon xizmat aylasang,
Har niyating topiladi bu yerda.

Ichimdag'i bul dardimni aytayin,
Ovulimda lochinim yo'q qaytayin,
Bir ishim bor agar shuni bitirsang,
Qirq cho'ponga seni boshliq etayin.

Qushlar uya qilib olar qiyani,
Suruvimdan yo'qotdim qirq biyani,
Sherdanning cho'poni kelib olibdi,
Qirq biyaga qo'shib olti tuyani.

Bahorda yaylovi Kuytanning beli,
Qish kelsa manzili Malikning cho'li,
Qirq suruv moli bor biyam haydabdi,
Qandahor cho'poni sher Omon geldi.

Cho'ponim borganda urar ko'ziga,
Men borsam jabrlar berar o'zimga,
Shul ishimni agar bitkarsang, So'ltoq,
Mukofotni men berayin o'zinga.

Bu so'zni So'ltoqqa aytib, oqsoqollar gapni ma'kullashib, «Mol o'zingizniki bo'lsa, mayli borayin», -deb So'ltoq ham gapga ko'nib, bugun dam olib, mexmonxonada yotib, erta tong otib, jo'namoqqa xozirlanib, yo'lni biladi, mol taniydi deb, Ergashni qabatiga hamrox qilib, bahor chiqayotgan vaqt, ikkalasi ikki otni minib, qo'lga irg'iydan tayok olib, oqsoqollardan duo olib, fotixani betga tortib, So'ltoq bir so'z deb turibdi.

Oqshom kelib bugun ketib boraman,
O'lmay kelsam oq yuzingni ko'rman,
To ko'rguncha salomat bo'l, og'alar,
Agar o'lsam taqdirimga ko'naman.

Ostimda o'ynasa tulpor pirog'im,
Yolg'iz desam xo'rsinadi yuragim,
Agar o'lsam taqdirimga ko'naman,
Qiluvsiz qolmasa Usu chirog'im.

O'ligimga yig'lagani egam yo'q.
Iz bosarga orqa tovim og'am yo'q.
Qo'liga ko'tarib qo'zim, bolam, deb,
Otang o'ldi deb yig'lovchi enam yo'q.

Bugun tunlar qorong'idir, yerda qor.
Omon kelsam qaytib kelar ketgan nor,
Oqsoqolli, bekvachchalar, xush endi,
To ko'rguncha salomat bo'l, vafodor.

O'z ishin bilgan donadi,
So'ziga hamma qonadi,
Duoni olib shul So'itoq
Tayoqni olib jo'nadi.

Qorong'ida ot pirqillab,
Shobir eshitsa dirkillab.
Ikki botir ketib borar,
Ko'ngli moydayin irkillab.

Ikki bedov yo'l bosadi,
Itolg'u qushday chirqillab,
Qo'lidagi irg'iy tayoq,
Ot chopganda so'lqillab.

Tuyoqdagi objush nahol,
Toshga tiyganda jorgillab,

Yerga tushganda tuyog'i,
Qog'ozda xatday yozilib.

Jona yerdan bosib o'tsa,
Qolar o'raday qozilib,
Otning nishabga tashlashi,
Ko'zlagan o'q ilonday.

Irg'ib o'rga tortishi,
Quvg'in yegan qulanday,
Chiqqan dushman qasdiga,
Qo'li tayoqning dastiga.

Kun chashka chiqdi sherlar.
Dumachavulning ustiga,
Otdi cho'lda o'ynatti
Gulday ustin jaynatdi.

Qamchi chatib bedovni,
Qo'rg'ontoshga taylatdi,
Sovuganday bedovlar,
Qarsakday bo'lib qotdi.

Ikki bedov xalloslab,
Soy-soydan hatlab o'tdi,
Osmon bulut, yerda qor,
Tumanda yorib o'tdi.

Ikki sher haybatiga,
Bulutlar qochib ketdi,
Otning issiq taftiga,
Qorlar ham erib ketdi.

Ot chopgan shamoliga.
Tuman bo'linib ketdi,
Qo'rg'ontoshning ustiga,
Chashkada borib yetdi.

Ikkovi ot qistadi,
Ot haydashga ustadi.
Gouhi poyga qilishib,
Bir-biridan o'tkazdi.

Bo'ri qochsa oldidan,
Ot choptirib yetkazdi.
Cho'ponlarning molini,
Qirtqichlardan qutqazdi.

Bir tomoni Qizil qiya,
Oldi favor yo'l keldi.
Bir tomonda Oqtov tov,
Oldidan gouh, zov keldi.

Zov kelganda taylatdi,
Hovar kelsa o'ynatdi.
Ikki nayza kun chiqqanda,
Sho'r daryoga ham yetdi.

Otni qistab qamchi berib,
Kallatoshdanku o'tdi.
Oldida bor Malik cho'li,
Malik cho'lga tashlab ketdi.

Ikkovi ot haydar baland tubaning ustiga chiqib qaradi, kun tushga yaqinlashgan, kuytandan o'tlab kelayotgan biyalar uyuri kishnashib, qulunlar chopishib, cho'ponlar baqirishib, hayt- haytashib qaytarishib, Malikning xovariga haydar kelayotir. Ergash aytdi: «Hayla Jayron qashqa ham bor. Buyra biya ham bor. Qarri turi ham, Bo'z ham, Olmakuz ham, To'ri ola oyoq ham, Ko'k qashqa ham bor. Hayla tuyalarga qo'shxonasini ortib, bir xilini bo'sh haydar kelayotir. «Bo'lmasa sen biyalarni so'rachi berama», -dedi So'ltoq, Ergash aytdi: «Tuya bilan biyani so'rab uch marta tayoq yeb ketganim bor, tayoq yeging kelsa o'zing so'ray ber».

Shunda So'ltoq otini minib, ko'ndalang bo'lib, cho'ponlarga qarab bir so'z dedi.

Otga yo'l bermaydi tog'ning urlari,
Jabr qilsa chiqar bedov terlari,

Assalomu alaykum, kasbdosh do'stlarim.
Quloq sol so'zima, turkman sherlari.

Yigit hazillashar bo'ydoq qizlarga,
Laylimkondi kon deyishar tuzlarga.
Quloq sol so'zimga, turkman sherlari,
Yolg'iz boshim tashlab keldim sizlarga.

Bormayman degali boyim qo'ymasa,
Men naylayin sonsiz molga to'ymasa.
Men orimni tashlab keldim sizlarga,
Xizmat haqim ol deganman ko'nmasa.

Cho'pon bilar cho'ponlarning holini,
Quzg'un bilar quzg'unlarning tilini,
Sadag'a sizlardan sodda cho'ponlar,
Men tanidim boy bobomning molini.

Mayli desangizlar olib ketayin,
Yo'q desangiz kelgan tomon qaytayin,
Xaqqat taniganman boyning molini,
Bermasangiz bermadi deb aytayin.

Bu so'zni eshitib, Omongeldi bosh bo'lib, to'rt otli tayog'ini qo'liga olib kelaberdi. Ergash ham: «Endi So'ltoq ўldi» -deb tubada pisaberdi. Omongeldi yaqinlashib bir so'z aytib turibdi:

Tayoq yemay ketolmaysan izinga
Borib aytgin shahringdag'i qozinga,
Mirshab bilan qarorini ob kelsa,
Bir suyak yeb qaytadigan tozinga.

Turta cho'pon to'rt yog'idan keladi,
Bu maydonda kimga xudo beradi,
Omongeldi sermab o'tdi tayoqni,
Tayoqqa rad berib So'ltoq turadi.

Osmonda turibdi havo sebalab,
Uch cho'poni keldi otni tebalab,
Omongeldi yana tayoq sermadi,
So'ltoq urdi, ketdi Geldi dumalab.

Uch cho'ponning polvonini kuzatdi,
O'n to'rt yashar tayog'ini uzatdi.
Bir cho'poni arang qochib qutuldi.
Uchovini qora yerga sulatti.

So'ltoq kochgan cho'ponga: «Sen ham qozingga ayt, boying bilan kelib, mexmon bo'lib suyak kamirib ketsin», -deb, Ergashni chaqirdi. Ergash asta kallasini ko'tarib qarasa, So'ltoq turibdi. «Oshna tayoqni o'zing yeyvir men bormayman», dedi. So'ltoqning biya va tuyalarni xaydayotganini ko'rib, Ergash ham qo'shilib tush bo'la-tush bo'la daryodan o'tib, Qizilqoyaga yetkazdi. So'ltoq izidan changing ko'tarilganligini, ko'p otlining chopib kelayotganligini ko'rib, Ergashga biyalarni haydashni buyurib o'zi qoldi. Qochib ketgan Jopsoq cho'pon Sheridan boyga aytgan edi. Sheridanboy yurakli-yurakli 30 cho'ponni olib izidan tushgan edi. So'ltoqni Qizilqoyaning ostida ko'rib, quv deb buyurdi.

Cho'ponlar ot qo'yadi,
To'qaydag'i sherdai bo'b,
Ushla, deydi boy Sheridan,
Ovzi ochilgan gurdai bo'b.

O'ttiz cho'pon qiqirib,
«Ushla», -deyishib baqirib,
Chog'otga qochdi So'ltoq,
To'xta deyishib chaqirib.

Turkman otlar cho'zildi,
Bosgan joyi qazildi,
Chopolmas ot ketga qolib,
Cho'pon safi buzildi.

So'ltoq yana qaradi,
Cho'ponlar yakkalanadi,
Ostidagi Bo'z otdi,
Endi burib jo'nadi.

So'ltoq bugun bo'yladi.
Har xil gapni o'yladi.
Yuragi qo'zg'almasdan,
Tikka-tikka tayladi.

Oldidagi Qandahar,
Kim bo'ladi barobar?
Urib otdan ag'dardi,
So'ltoq degan zuravor.

Ko'ring endi Omondi,
Qo'rqtadi tumandi,
Zarbi yerga ag'darar,
Oqtovdagi qabondi.

Burnining teshigidan,
Ikki tulki o'tkuday,
Og'zini ochsa agar,
Qo'yga kamar bo'lguday.

Muritin qirqib olsa,
Tomga yopgan xoriday,
Silkip otdan ag'dardi,
So'ltoq bo'lib bo'riday.

Un beshi yiqildi otdan,
Bedovlar qochib ketdi,
Qolgan o'n begi bir bo'lib,
So'ltoqni quvib ketdi.

Yana cho'pon sochildi,
So'ltoq iziga qaytdi.
Tayoq sirmab o'niga,
Bovday qilib sulatdi.

Bosh cho'ponman boy Sheridan,
Qochdi kelgan iziga,

Botir So‘ltoq birovdir.
Ming bo‘b boyning ko‘ziga.

Botir ekan shul So‘ltoq,
Chiqdi aytgan so‘zidan,
Otni qistab hayda deb.
Yetti Ergash izidan.

Sherdan shuncha molining ketganiga ichi kuyib kuziga yosh kelib, bir-ikki cho‘ponlarga: «Ey cho‘ponlar, bu nima bo‘ldi, menday boying o‘ldi, molimning barini haydab ketdi. Zo‘rning molini olmanglar dedim, ko‘nmadinglar, Endi izidan borayik yalinib-yalvorib ko‘rayik, nima bersa bergenini olayik, bermasa molga qo‘shilib biz ham borayik”, -deb cho‘ponlarni kundirib, sallasini bo‘yniga ilib, So‘ltoqning izidan boraberdi.

So‘ltoq qaradi, uch-to‘rt odamlarning sallasini bo‘yniga o‘rab kelayotganini ko‘radi. Shunda So‘ltoq biyalarni to‘xtatib turib edi, ular ham yetib keldi. Sherdanboy hamma cho‘ponlardan oldin chiqib: «Ey paxlavon, mening otimni Sherdanboy deydi, o‘zingga xudo insobersin, bola-chaqam bor. Hech qurisa molimning yarimini qaytarib bergin”, -deb yig‘layberdi. Shunda So‘ltoq Sherdanga aytdi: «Huv Sherdan, kishining ko‘zi tuproqqa to‘ymasa, molga to‘ymaydi, degani sen ekansan. Shuncha moling bo‘lib, kuning 40 biya bilan 6 tuyaga qoldimi? Haydash mana bunday bo‘ladi, olib ketsam barini qo‘lingdan nima keladi. Lekin bizga ortiq moling kerak emas, biz o‘zimizning molimizni olib ketamiz. Bundan keyin birovning ipini olsang shunday qilib izillatimiz”, -deb molini qayrib berdi. Shunda Sherdan otdan tushib: «Baland ximmatli saxiyliging uchun rahmat. Bitta qulin berayin, olib ket”, -dedi. «Qulining tugul ola shardozingning ham keragi yo‘q”, -deb So‘ltoq Ergash bilan 40 biya va 6 tuyani oldiga solib, Oqbosh toviga qarab junayberdi. Keta-keta So‘ltoq aytdi: «Ergashjon, uchqur oting bo‘lgandan kura suxandon jo‘rang bo‘lsin”, -degan ekan donolar. Yaxshi gaplardan aytинг, yo‘lni qisqartib ketaylik. «Xov So‘ltoq aka, -dedi Ergash, -gapni jaxongashtadan so‘rang, deganday gap sizdan bo‘lsin”. So‘ltoq bir kulib qo‘yib, gapni boshladi. «Ergashjon senga rostini aytas, shu yoshga borib na do‘mbira, na chanqavuzning kuyiga qulq solmagan ekanman. Bir choldan bir hikoyani eshitganimda ishonmagan edim. Chol hikoyasini shunday deb boshlagan edi. «O‘tgan uzoq- uzoq zamonda, Sherobodning cho‘lida tuya boqib yurgan bir chol yashar ekan, cholning Xonimay degan qizi bo‘lib nixoyatda chiroyli ekan. Uning ta’rifini eshitib sovchilar kelibdi. Lekin qiz sovchilarga «Mening bir tuyam bor, bo‘taloq tug‘adi-yu, lekin yeliniga sut kelmaydi. o‘z bolasini ham yaxshi kurmaydi.

ju tuyaning bolasini oldirib, jeliniga sut keltira olgan yigitga turmushga chiqaman”, diyarkan.

Hech kim buning ilojini qila olmabdi. Bu gap ustoz va shogird do‘mbirakashlarga ham yetibdi. Ular ham do‘mbiralarini olib yo‘lga chiqibdilar, surashtirib-surashtirib nixoyat yetib kelibdi. Xonimay ularga ham shu shartni qo‘yibdi. Ular tuya va bolasini o‘tov oldiga bog‘lashlarini iltimos qilibdi. Bog‘labdi. Shunda ustoz do‘mbirani chalibdi. Tuya entikib yelini sutga to‘libdi-yu, xarchand chalsa ham, bolasiga qaramabdi. Charchagan ustoz navbatni shogirdiga beribdi. Shogirdi shunchalik chalibdiki, tuyaning yelinidan sut bulovday oqa boshlabdi va bolasini yalab, yelinini tutib, emdira boshlabdi. Xonimay o‘z shartida turib shogirdga turmushga chiqibdi”. Men ham tuyaga o‘xhab, Norgulning bir chanqavuzini eshitib, mehrim, iklosim unga oshib ketdi. Hayotning nimaligini tushuntirib qo‘ydi, balki o‘ziga oshiqu shaydo qilib qo‘ydi. Ey Ergash, seni do‘mbira chertag‘on deb eshitaman. Gavxar buloqning ko‘zida bo‘ladi, kosibning sozi, o‘zida bo‘ladi, degan gap bor. Xurjiningda do‘mbiram yo‘kma. Norgulni bir ta‘riflayin, shu bilan Pachkamarga yetamiz”, -dedi. «Do‘mbiram borku-ya, lekin chertaman, deb belini sindirib qo‘ymasang”, -deb, Ergash do‘mbirani So‘ltoqka uzatdi. So‘ltoq sozini sozlab, Norgulni ko‘zlab, bo‘taday bo‘zlab, Norguloyni ta‘riflab bir so‘z dedi:

Oq tikana - oq tikan,
Oq tikanga o‘t ketgan,
Bu uylarni kim tikkan,
Norguloy degan qiz tikkan.

Qizlar taqadi setara,
Bog‘i bor gullab yotara,
Bizni qo‘yib boshqaman,
Norguloy o‘ynab yotara.

Archalardan archib olgan do‘mbiram.
Pastalardan pichib olgan, do‘mbiram.
Yong‘oqlardan jo‘nib olgan, do‘mbiram,
Norguloya kuyganimdan, do‘stlaray,
Olti ot bir baytalga sotib olgan, do‘mbiram.

Tuyalar boqdim halalab,
Yullarga soldim galalab,

Olti oy yursam cho'pon bo'b.
Bir ko'rsam xusning panalab.

Eshik oldida g'ov qamish,
Makanglashadi kalamush,
Tuba-tubadan chaqirsam,
Norgulga yetmaydi tovush.

Tog'larning boshi taqirdi.
Cho'ponlar itini chaqirdi,
O'zingga teng ko'rsangchi,
Norguloy, bizdek paqirdi.

Do'mbiram, so'zla tor bilan,
O'rdaklar uchar par bilan,
Yigit bo'lsang o'ynab o's,
O'zing qatori yor bilan.

Quy haydadim Qo'qonga,
Ot boyladim do'konga,
Pachkamar eli qurisin,
Qiz bermaydi cho'ponga.

Norguloy o'zi qalamqosh.
Olay desam pulim oz,
Chor tarafdan qo'ydim men,
O'pay desam bo'yim pas.

Sherobodlarda sholi bor,
Xar birining poli bor,
Norguloyni ko'rsangiz,
Ung betida xoli bor.

Sherobodning shertasi,
Bo'kirishadi bo'tasi,
Beraman deb bermadi,
Norguloynipg otasi.

Tangixaramning boylari,
Echki aralash qo'ylari,
Kiyim kiysa yarashar,
Norguloynipg bo'ylari.

Inak sog'adi iydirib,
Sochbovin yerga tiydirib,
Birovni sayla, Norguljon,
Ketma hammani kuydirib.

Tog'larda chaldim do'mbira,
Tori uzildi ketdi.
Norguloy esga tushganda.
Ko'ngil buzildi ketdi.

Qiz deganning yuzi gulday bo'lmasa,
Kuchoqlasa beli qilday bo'lmasa,
Mehnash qilib qaliniga mol berma,
Qiz sultonı Norguloyday bo'lmasa.

Qorlar yog'ar qatovga,
Tuyalar kelar motavga,
Xapamatlari yarqillab,
Norguloy kirdi o'tovga.

Oynalar olgan qo'liga,
Kamarlar buvgan beliga,
Xushirayligi o'tibdi,
Pachkamar soyning eliga.

Otlarga solar terlikni,
Tovlardan nari qarliqqidi.
Un to'rt yashar Norguloy
Menga bir qarab kerlikdi.

Enib keldim elingdan,
Suvsab keldim cho'lingdan,
Biror bir kosa suv bergen,
Tol ximchaday qo'lingdan.

Tobatosh — tobatosh,
Tobatoshning suvi bo'sh,
Nasib qilgan olar bo'lsa,
Nasaba o'zing meni qo'sh.

Etakdan turgan oq dovul,
Tuyalar ketar orqavul,
Oy tuvganday yarqillar,
Kelinoy turgan ko'p ovul.

Yuqorilarning shamoli.
Regarning mayda toli,
Uloq quvganda pirillar,
Oy Norguloynipg ro'moli.

Bir otim bor to'rt yashar,
Boysunning yo'lidan oshap,
Bir ko'rmasam Norgulni,
Yuragim qqaynab-toshar.

Quy boqsang Oqbosh tovning o'riga,
Itni qo'shsang og'zi qora bo'riga,
Olgan yoring agar Norgulday bo'lsa,
Utirgizsang oq o'tovning to'riga.

Otlarni chopsang qir oshar,
Qizlaram sochin tarashar,
Oy Norgul Chiqsa eshikka,
Yulduzlar ko'zi qamashar.

Qizlar qo'tondan qiy olar,
Qiy borib tomdan joy olar,
Oy Norgul chiqsa eshikka,
Kun turolmaydi, uyalar.

Erkak bo'lsam deb ko'p qizlar,
Norguloyimni ko'p izlar,
Chiqsa tomosha qiladi,
Ko'kda miltillab yulduzlar.

Tikka tushgan Hasan-Xusan,
Kiyinib keldi bo'p posan,
Norguloyni ko'rgancan,
Uyaldi, ketdi ob-oson.

Uchdim Norgulga qiyg'ir bo'b,
Ko'rsa jo'jani jiygir bo'b,
Norguloy agar noz qilsa.
Yulduz to'kilar yomg'ir bo'b.

Tubadan qo'yilar endirib,
Nishabga to'ksang do'ndirib.
Olib ketsakchi, Norgulni
Do'mbira chalib ko'ndirib.

Nomashamlarning nashasi,
Misol archaning bo'jası,
Indamasmekan Norguljop,
Bildirmay borsak kechasi.

Sagana qolg'ur Oq to'ri,
Otiblar ketib borsachi,
Ustiga minsə oy Norgul,
Oylar ham botib borsachi.

To'ri ketsachi do'rillab,
Qulinday bo'lib zirillab,
Oy Norguljonning ro'moli,
Bilikda tursa pirillab.

Kushlar yotadi qiyada,
Qiyada emas uyada,
Sag'ana To'ri tolganda,
Ko'tarib qochsak piyoda.

Dobildyo-dobilda,
Dobilga qo'lar jobildp,

Yurakda dardim, Ergashjon,
Bildim shu joydan topildi.

Kiygan ko'y lagi keng bo'lib,
Sadaf taqqani yeng bo'lib,
Osmonda Norgul ko'rindi,
Xulkarlar bilan teng bo'lib.

Xar xil arg'amchi eshildi,
Qanday sevganlar qo'shildi,
Oh, Norgul, deb tubalab,
Ko'kraklarim teshildi.

Tog'larda o'tlar chovrima,
Qorlar eriydi hovrima,
Xamirlar bo'lsang, Norguloy.
Tortib boylasam bovrima.

Ro'mollar bo'lsam boshinga,
To'shalib tursam to'shinga,
Qurisinda shul otang,
Keltirmaydi-da qoshinga.

Yuzingni ko'rsa bahor deb,
Qo'ylar to'laydi, oy Norgul,
Agar noz bilan burilsang,
Chollar yig'layd, oy Norgul.

Norguloy setara taqdi,
Qilik'i yog'day bo'b yoqdi,
Dunyolarda armon yo'q.
Bizlarga qarab qosh qoqdi.

Kasallar bo'lgin, Norgulim,
Qo'shnochlar bo'lib borayin,
Tentak bo'b turgin, Norgulim,
Tabiblar bo'lib turayin.

Qo'shnochlar bo'lib, Norguloy,
Quvib Chiqaray barini,
Eshiklaringga boylayin,
Merali qilib to'rini.

Mingashib qolsak Norguloy,
Yetkazmay ketar barini,
Oliblar qochsam armon yo'q.
Sadag'a senday parini.

Oqboshtovlarning bizig'i,
Sari qo'ylarning chizig'i,
O'ynab bir kulib yo'qoldi,
Norguloynipg uzugi.

Pachkamarning kamari,
To'riga urar shamoli,
Oytuvganday yarqillar,
Norguloynipg jamoli.

Tovlarning boshi nurama,
Taqalar shoxi burama,
Betginangdan bir upsam,
Ota ham enang urama?

Qo'lar haydadim soy bilan,
Qo'limda tilla pay bilan,
Soylarnpng boshi band ekan,
Norgulning qo'yni qand ekan.

Yo'llarda yotgan teraman,
Qo'ylarga chopgan bo'riman,
Hammang kuymagin har yerda,
Men Norguljonning eriman.

Xamma yuragi kuyinchi,
To'qqiz mol bo'lipti enchi,

Norgul qabogin bir qoqsa,
To'qqizi birdan suyunchi.

Laylimkonlardan tuz oldim,
Qoratubadan iz oldim,
Tiymasang tiyma, Norguloy,
Sendan ham boshqa qiz oldim.

Qiz oldim desam ishonma,
Uydirma gapdir, Norguljon,
Qaramay meni kuydirma,
Kuydirgi gapdir, Norguljon.

Tubadan tikkun uyini,
Ko'tarib tutgan chiyini,
Uydan so'lqillab Chiqishi,
Oldi buydoqning sulini.

Xo'jamahmudning shibog'i,
Kubi bo'ladi, debidim.
Bizlarga tushgan oy Norgul,
Bibi bo'ladi, debidim.

Tovlarda o'sar dobillar,
Dobilga qo'ylar jobilar,
Tiymasang jiyima, Norguljon,
Sendan ham boshqa topilar.

Qatov boshida uyadi,
Qushlar tuxumin jiyadi,
Norguloydan kechdim desam,
Yuragim o'tday quyadi.

Oltoy boqay qo'yingdi,
Qarab o'tgin, Norguljon.
Bir ko'rsatsang bo'yingdai
Men to'yayin, Norguljon.

Qo'limdag'i lo'ngga salla,
Chuvmoqlab boshga solayin,
Kirqqa tiysang ham, Norguljon,
Kirq biri bo'lib olayin.

Norguloy Chiqli himillab,
Betida teri jimillab,
Betidan oqqan teriga,
Latibalari qimillab,

Norgulni ko'rgan qari ham,
Oltoy yotadi ingillab.
Ot haydab baland pastidan,
Kuyib Norgulning dastidan,

Tong vaqtি bordi ot haydab,
Pachkamlar soyning ustidan.

Shunda Ergash aytdi: «Sen yaxshi qo'shiq ham aytar ekansanku. Norgulni qachon ko'rgansan?», «Ko'rmasam ham, -dedi Sultoy-changovuzini, cho'ponlardan Norgulning ta'rifini eshitganman. Borgan kuni uxlagan kishi bo'lib bo'yini ko'rganman. Buncha qo'shiq bilmas edim, qayoqdan kelayotganiga o'zim ham xayronman», -deb do'mbirani qaytarib berdi.

Kunning nuri tuba-tubaga tiyganda ovulning ustidan otlarni haydab bordi, Boylar, oqsoqollar cho'ponning xurmatiga chiqishib, mexmonxonaga olib kirdi. Shunda Shukraliboy So'ltoqqa qarab bir so'z dedi:

Bugun hayron qoldim qilgan ishinga,
Davlat qushi oxir qo'nar boshinga,
Yaxshilikka yaxshilikni olarsan,
Dahmardalik to'nini kiy ustinga.

Xizmat qilding, men ham xizmat qilayin,
Qirq cho'ponga boshliq qilib qo'yayin.
Dahmardalik to'nini kiy ustinga,
Xizmatingga bitta biya berayin.

Senday o'g'il tug'ilmaydi enadan,
Kishi kuymay o't chiqmaydi tanadan,
Xizmatingga yana tila berayin.
Endi ketma manzilimdan, xonamdan.

Bulbullar sayraydi bog'ning guliga,
Ko'rroq odam, sotqin bo'lar eliga,
Mehnat qilib bergen tuzum oqlagin,
Madadkor bo'l boy bobongning beliga.

Bu so'zni So'ltoq eshitib: «Hov boy bobo, mexnat xaqing deb qirq biyani bergenizing bilan olmayman, mexnatsiz non-tuzsiz, deganlari rost ekan, mening bundan buyon qilgan ishimga bersangiz ham yetadi. «Yigitning kuchi-daraxtning yaprog'i», -deganday, shamol turganda tusha beradi. Ish olish uchun borib keldim-da», -dedi. Shu kecha gurunglashib yotib, erta mertan tong otib, namozini oqsoqollar o'kishib, non-choy ichishib, Shukuraliboy turib: «U So'ltoq, endi ishni kilaberasan, cho'ponlarning ozig'ini olib, har cho'ponga bo'lib beraverasan, hammasiga kattalik kilaverasan, ozig'i qolmasa xtaftada bir marta kelaverasan», -deb, 40 cho'ponning ozig'ini uch tuyaga ortgirib, Dumachovli bilan Galaga yubordi. Endi junab yarim chaqirim yo'l bosa berdi. Shu payt turna uchganday bo'lib chanqavuzning tovushi kelaverdi. Shunda So'ltoq bilan Ergash tuyani cho'ktirib, ikkovi ham kuyga mos bo'lib, So'ltoqning ham yuragi to'lib, do'mbirani Ergashdan olib, bir so'z deb turibdi;

Xusningni cho'ponlar oyga o'xshatdi,
Botirlar or uchun otni taylabdi.
Chanqavuz chalishing meni qaqshatdi,
Sanamjon, aylandim chalgan qo'lingdan.

Kuylaring oqar misoli daryo,
Yuragim chaqnaydi yulduzday go'yo.
Ko'z oldimdan o'tar bir-bir bu dunyo,
Yor aylansam tol ximchaday belingdan.

Kuying eslatadi otam, enamdi,
Qamish bilan o'girilgan xonamdi.
Mehring kuydiradi mening tanamdi,
Jon aylandim shirin-shakar tilingdan.

Eshitsa tirilar o'lgan qo'yingdi,
Quyosh nurin sochar ko'rib bo'yingdi.
Men bilmadim kimlar qilar to'yingdi,
Xam aylansam tub Qo'ng'irot elingdan.

Qoshlaring qiyg'ochdir yoy tortilganday,
Ko'z bilan qarasang o'q otilganday.
Uyga kirsang yarim bo'lar to'lgan oy,
Men aylansam oyday bo'lgan yuzingdan.

Qomating ayirar oshiqni jondan.
Gar imlasang tushar yulduz osmondan.
Jamoling ko'rinar bosgan tumandan,
Yor aylansam kunday bo'lgan ko'ksingdan.

Kuyingga mos bo'lar galada tuyang,
Egilib qaraydi tovlaring, qiyang.
Imlab jon so'raydi yor mehrigiyang,
Yor aylansam ko'yak turtgan ko'ksingdan.

Farhodday, tog'larni qazsam qararmi,
Majnunday cho'llarni kezsam bo'larmi.
Men kambag'al, boy qizini berarmi,
Yor aylansam doyra chalgan qo'lingdan.

Bu so'zlardan keyin chanqavuz to'xtadi. So'ltoq bilan Ergash mast bo'lib, tuyani yurdirib, cho'ponlarga qarab jo'nadi. Dumachovli, Galadagi cho'ponlarga oziqni berib, Ergash «Bosh cho'pon» deb So'ltoqni tanishtirdi. Cho'ponlar So'ltoqni mexmonlikka chaqirishdi. Cho'ponlarning ichida Dono cho'pon degan bor edi. Yoshi oltmishdan oshgan, soqoliga oq tushgan, dunyoning achchi-chuchchisini boshdan kechirgan, manglayi, beti sal tirishgan, qomatini tik tutgan, qanday musofir bo'lsa qushxonasiga mexmon qilgan, cho'pon bo'lganiga 40 yildan oshgan, qomati jopsarday tutashgan kishi edi. Dono bir narsa desa, boshqa cho'ponlar yo'q deyolmas edi. Shu cho'pon: «Bugun bosh daxmarda biznikiga mexmon bo'ladi», -deb, cho'ponlarini chaqirdi. Dono enchiga olgan qo'yini so'yib, qozonga solib, qaynatma sho'rva qildi. Yigirma cho'pon ham yig'ilib keldi, qildi gurungni. Gapdan gap chiqdi, balchiqdan loy sachrachi - deganday, gap Norguloy ustida ketdi. Shunda Dono cho'pon: «Hov

cho'ponlar, gap ovqatdan keyin bo'ladi", -deb sho'rva bilan go'shtni o'rtaga qo'ydi, hammasining qorni to'ysi. Dono turib: «Ana endi bir gap bor, kim do'mbirani olib Norgulni kim zo'r ta'riflasa, boyga shu cho'pon tomonidan bersa-bermassa bir sovchi bo'lib boramiz, boy boshqaga bersa ham, shu cho'ponning kelini edi, deb ta'riflab yuramiz», -dedi. Ana endi cho'ponlar navbat olib, bir boshdan ta'riflab jo'nadi.

Birinchi bo'lib Nazar cho'pon do'mbirani qo'liga olib ayta ketdi:

Do'mbiram, seni boqayin,
Boshinga tupak taqayin,
Norguloyni bir qaratsang,
Ustinga baxmal yopayin.

Do'mbiram, so'yla hil bilan,
Bir maydon kelish til bilan
O'ynablar kulsam armon yo'q
Norguljondayin gul bilan.

Do'mbiram, so'yla or bilan,
Bo'yningda quloch tor bilan,
Ola olmasam Norgulni
Umrlar o'tar zor bilan.

Do'mbiram, so'yla chanoqdan,
Echki ham boqay chunoqdan,
Norgul qo'lidan sut ichsam,
Sog'dirib Ko'kchil inakdan.

Do'mbiram, qolma qo'shiqdan,
Norguloy kirsas eshikdan,
Oq bubaklarni oldirsam,
Oltin soqali beshikdan.

Do'mbiram, so'zla soz bilan,
Uchganday o'rdak g'oz bilan,
Bir yostiqlarga bosh qo'ysam,
Norgulday sarvi noz bilan.

Do'mbiram, sensan pistadan,
Terdirsang gulni dastadan,
Belimga belbog' tikdirsam,
Norguljondayin ustadan.

Do'mbiram, seni boqtirsam,
Dastangga tilla qoqtirsam,
Xisori chekmon qildirib,
Oy Norguloyga tiktirsam.

Do'mbiram, sensan dastadan,
Poygada o'zgin barchadan,
Bir qaratmasang sindiray,
Norgulni anov darchadan.

Do'mbiram, sensan zordoli,
O'zing sozlarning bo'ydori,
Shuncha yigitning ichida,
Menman Norgulning xardori.

Torginang ko'zi ichakdan,
Dami o'tkirday pichoqdan,
Oy Norguljonning farqi yo'q
Bahorda guli chechakdan.

Eshaging yo'ndim bodamdan,
Oshiqlik o'tib tanamdan,
Xudoyim, meni ayirma,
Oy Norguljonday sanamdan.

Qulog'ing oldim zarangdan,
Qarg'alar uchar qorangdan,
Oy Norguloyning jelagi,
Xitoyi gulli parangdan.

Chanog'ing asl tolginga,
Kuylaring totli bolgina,

Meni kuydirar Norgulning
Ung yuzidagi xolGINA.

Do‘mbiram, tanangdi(r) tutdan,
Kuylaring o‘tkirdi(r) o‘tdan,
Oy Norguloyning kiygani,
Burama gulli oq chitdan.

Kel, do‘mbiram, kengashaylik,
Gapga gaplarni qo‘shaylik,
Cho‘ponlar bersa Norguloyni,
Bir biyaga mingashaylik.

Cho‘ponlar xo-xolashib kulishib: «Ana Nazar, Norguloy seniki bo‘lmasa edi», -
deyishib, bir-biriga maqtashib turib edi, Dono cho‘pon joyidan turib: «Hov cho‘ponlar,
to‘xtanglar, Nazar ham yomon aytmadı, buning ham yuragi kuygan ekan, Norgul
jamolining yarmi qo‘yniga kirgan ekan, o‘zimizga bildirmay dashtlarda aytib yurgan
ekan. Kim biladi qolgan cho‘ponlar qanday, hammamiz shoir bo‘lib ketmasak, deb
qo‘rqaman. Endigi navbat kimga? Kimning yuragidan urgan bo‘lsa, do‘mbirasini
olsin», - dedi. Shunda Rajab cho‘pon joyidan turib: «Qani biz ham ko‘raylik,
do‘mbirani qo‘lga olayik, Kelinoyning bir burchagidan ikki ovuz so‘zlayik, cho‘ponlar
ko‘nsa Norguloyni biz olayik», - deb do‘mbirani olib so‘zlay ketdi.

Tog‘larning boshi orqovul,
Gazalarida qirg‘ovil,
Oy tuvganday yarqillar,
Kelinoy turgan ko‘p ovul.

Ana tog‘larning qatovi,
Bir-biriga matovi,
Tuxumday bo‘lib ko‘rinar,
Norguloyjonning o‘tovi.

Tog‘ning bag‘rida tobatosh,
Tobatoshlarning suvi bo‘sh,
Uy keragasin uyurgan,
Norguloyjonday qalamqosh.

Eshik oldida qiyirdi,
Qiyirdi ol, deb buyurdi,
Shu o‘tovining bog‘ishin,
Norgulday sanam uyurdi.

Otga taylasang qatog‘on,
Qatog‘onli ot ketag‘an,
Tilla chang‘aroq ko‘tarib
Oltmish uvig‘in qadag‘an.

Ko‘ring Norgulday parini,
O‘zi kashtalab barini,
Sirtidan tutib tayladi,
Tizmasi bilan qurini.

Norguloy bizni kuldirdi,
Chevarligini bildirdi,
Changarog‘ining ostiga,
G‘ildiroviqni ildirdi.

Ko‘rdim Kuytanning tovini,
Qush uchmas deydi zovini,
Ichdan oyquchoq qilibdi,
O‘n to‘rtta otma bovini.

Cho‘ponlar qo‘yin boqibdi,
Qilik‘i bizga yoqibdi,
Har otma bovga oy Norgul,
Qirq besh tupakdan taqibdi.

Bovlarin Norgul boylagan,
Yigitdan bizni saylagan,
Uviq ustidan oppoq qib,
To‘rtda jopsarni taylagan.

Chalsam do‘mbiram soziqdi,
Soziqmasa uy qoziqdi,

Yana ustidan tayladi,
Norguljon ikki uzukdi.

Turnalar uchar poyma-poy,
Xar biri chalib bitta nay,
Uzukning o'ttiz bovini,
Oyquchoqqildi Norguloy.

Ikki oq bedov boylagan.
Ustidan tupak taylagan,
O'tovinhg ichida
Oyday bo'b Norgul o'ynagan.

Tog'larning boshi chayirdi,
Chayir oyoqni qayirdi,
Oppoq qib ikki beldovni,
Uy iynovidan uyurdi.

Oy Norgul kulib so'yładi,
Kulganda gullar jaynadi,
Chang'arog'ining ustidan,
Tuynikni obkeb tayladi.

To'rtta ipi bor ipakdan,
To'rt tomoniga boyladı,
Har qimsinganda Norgulning,
Oppoq siynasi o'ynadi.

Ko'rdim osmonning oyini,
Ko'rmadim Norgul bo'yini,
Uyning sirtidan uyurdi,
Oppoq kashtali chiyini.

Oq tikana, oq tikan,
Oq tikanlarga o't ketgan,
Oppoq bo'lgan shu uyni,
Norguloy degan qiz tikkani.

Kushilayin qo'shig'ingga, Norguljon,
Bir kirtsang eshigingga, Norguljon,
Qo'shsha go'dak inggillab turarmidi,
Zumiratdan beshigingga, Norguljon.

Oshiq qilibsan o'zimdi,
Eshitsang netar so'zimdi,
Oq o'tovingning oldiga,
Boylasamchi oq bo'zimni.

Tog'ning oldida buloqqa
Buloqchada bor uloqcha,
Qirqta o'tovning ichida
Norgul o'tovi bo'lakcha.

Uyning oldida soycha bor,
Aka deganing naycha bor,
Qirq o'toving yulduz bo'lsa,
Oygul o'tovi oycha bor.

Rajab cho'ponning ham qo'shig'ini eshitib, cho'ponlar ho-xolab kulishib: «Shunisi o'tmadimi?», - deyishib, iyniga qoqishib, ba'zilari baxshi ham shuncha bularda deb, har joydan xo-xolashib, turaberdi. Bir xillari: «Bo'lsa tag'in aytisin, do'mbirani olib, to'y-to'y lab ketsin, Norgulni oladigan bo'lsa shul Rajab olsin», - deyishaverdi. Shunda Dono cho'pon: «Hov cho'ponlar, buncha vag'ir-vug'urning nima keragi bor, baqiraverib qulogni qilayozdingku kar, har kimsaning o'z dardi bor. To'g'ri, Rajabga ham qoyil qolish kerak. U Norguloyga bir o'tov tiktdi. to'g'ri, Norgul chevarlikka chevar, o'tovni o'xshatib tikadi, bir xil qizlar tikolmay o'tovning qaddini bukadi. Rajab avvaldan oxir Norguloyning o'tovini maqtab qo'shiq aytib yurguvchi edi, bugun ham o'xshatib aytdi. Oldin Norgulni Nazar cho'ponni dedilaring, endi Rajab cho'ponga berdilaring. Nazarimda ichimizda bu qo'shiqlarni qo'shiq soniga qo'shmay o'tirgan odamlar ko'rindi. Norguloy ot o'rvasi emas, undan bunga, bundan unga taqabergali. Avval aytadiganlarning barini eshitaylik, hukmni oxirida chiqaramiz. Qani, do'mbirani qo'lga olib, xasratini aytadigan cho'ponlar bormi, bor bo'lsa do'mbirani olsin, yo'q bo'lsa tovba qilib indamay tursin», - dedi. Shunda Xoliyor cho'pon do'mbirani qo'liga olib: «Hoy yigilgar, mening ham

yarimgina chorak qo'shig'im bor aytayin, aytmayin desam yuragim kuyadi qaytayi
Norguldanku umid uzdim, shunday bo'lsa ham aytayin", - deb boshlab yubordi:

Tandirginangning tenasi,
Abdullaxonning qalasi,
Hech qurisa Norgulning,
Men bo'lsam ekan bo'lasi.

Tandirginangning darchasi,
Chori qo'yrlarning narchasi,
Norgulga mencha kuygan yo'q
Mana cho'ponning barchasi.

Tandirda yopgan noningdan,
Akang aylansin joningdan,
Umrin bo'lsin seniki,
Ayrilmasam yoningdan.

Tandirda noning oycha bor,
Qo'zi quyrgi moycha bor.
Hech keltirmaysan qoshinga,
Asovliqlaring toycha bor.

Yurakkinamning yonishi,
Tandirning Chiqqan o'tiday,
Norgulning bosgan izlari,
Mirzaning yozgan xatiday.

Noningdan yuzim ko'rinar,
Kulga ushlagan oynaday,
Ikkovimiz bir bo'lsak,
To'tiqush bilan maynaday.

Eshigung oldi guldasta,
Guldastaga men havasda,
Shuya Norguloya yarashar,
O'ng tizzasida zar kashta.

Yuqorilarning shamoli,
Regarning mayda toli,
Qo'zi quvganda pirillar,
Norguloyjonning ro'moli.

O'ng yuzingda xolingdan,
Kadi ko'targan qo'lingdan,
Mendaylar cho'pon aylansin,
Tol ximchaday belingdan.

Osmondan havo jovdirgan,
Ko'katlar boshin juvdirgan,
Chaqavuz chalib shul Norgul,
Qisir qo'yldi tuvdirgan.

Ro'molin boshga jiydirgan,
Hamma uchini tuydirgan,
Norguloy borsa qoshiga,
Iymagan qo'yni iydirgan.

Bundan tubanda Boldirg'an,
Yo'li oyoqni toldirgan,
Bolasin olmos qo'ylnari,
«Turay»lab Norgul oldirgan.

Norguloy deydi otini,
Sozlab pishirar sutini,
Bir qoshiq ichsang armon yo'q
Ming yil izlaysan totini.

Norguloy, gapni qo'ysangchi,
Bizday cho'ponga tiysangchi,
Qo'shsha-qo'shsha farzandni,
Tizzangga olib suysangchi.

Tubaning boshlari huchchi,
Aylanib uchar kaldurchi,
Norguloy bizga xo'p desa,
Boshovli otim suyunchi.

Eshik oldida bug'otdi(r),
Bug'otga haydasang otdi,
Norguloy degan shu pari,
Yetti suvlatdi suvsatdi.

Ana tovlarning orasi,
Katta ekanda darasi,
Ko'kargan o'tda bormikan,
Oshiqliklarning chorasi? –

deb Xoliyor do'mbirani yerga qo'ydi. Dono cho'pon do'mbirani qo'liga olib Ergashga berib edi. Ergash: «Men qo'shiq aytishni bilmayman, qo'shiq aytadiganlarga bering-da», - dedi. «To'g'ri, - dedi Dono cho'pon, - bilsang bilarsan, bilmasang ham bir do'mbira chertib bergen, eshitaylik. Bilishimcha, bu yerdagilar sencha do'mbira chertolmasa kerak», - dedi.

Ergash do'mbirani qo'liga olib, uni kayta jo'rlab, o'tirganlarga bir-bir nazar solib chala ketdi. «O'tirganlarning ko'z oldidan qat-qatda o'ynayotgan uloqlar, ko'mko'k dalalar, ma'rashib chopayotgan qo'zichoqlar, ko'za ko'tarib xo-xolashib kulayotgan qizlar, oksuyak, tiqma o'ynayotgan bolalar, yelday yugurib borayotgan qulun-toylar, tog' bag'rida navbat bermay sayrayotgan kakliklar o'taberdi». Xoliyor o'zini to'xtatolmay: «Bali-e Ergashjon!» - deb yubordi. Ergash do'mbirasini to'xtatib, qayta jurlab chala ketdi. Bu chalishdan esa boshqacha manzara paydo bo'ldi:

«Uzoq-uzoq poyonsiz qovjiragan dalalar, ingranib qo'sh haydayotgan chollar, uzoq joylarga ketib musofir bo'lgan odamlar, non debon qo'l cho'zib yig'lagan go'daklar, bolasidan ayirlgann onalar faryodi, yonboshidan o'k yeb qonga botib termulib turgan kiyiklar cacu» birin-ketin o'tirganlarning ko'z oldidan o'tib, ba'zilari ko'zidan yosh kalkib, ba'zilari xaykalday qotib turib edi, shy vaqt tashqaridagi otlar pishqirib kishnab yubordi. Cho'ponlarning bir xillari dirk etib joyidan turib: «Qo'ylargan bo'ri keldimi?» - deyishayotib edi, Dono cho'pon o'tirg'izib: «Hov yigitlar, otlar bo'riga kishnagani yo'q, tosh yuraklar deb odamlarni ko'rsatsa bo'ladi. bechora otlar chidab turolmadi do'mbira kuyiga. Ey Ergashjon, bunchalik do'mbira chertishingni bilmas ekanman. Bittasi Ergash tuyani qaytargan deyishadi, rostmi?» - deb so'radi. «Men emas, - dedi Ergash, - u aytganingiz Ismoil tog'am bo'lgan, bir boyning tuyasini boqqan. Bir kuni boy bu yerdan ko'chib jo'nagan, tog'am esa borgisi kelmay xaqini so'ragan, boy bermagan. Tog'amning achchig'i kelib, ko'chning oldiga o'tib, bir toshning ustiga chiqib, do'mbirasini chala ketgan, shunda ustiga yuk ortilgan tuyalar shataklarini uzib, do'mbira qoshiga kelib cho'kib olishgan. Boyning

ismatkortari va boy xarchand tuyalarni urib joyidan turg'iza olmagan. Oxiri boy tog'amning xaqini berib: «Quv yog'ochni quvratding, quvrab o'larsan», - desa, tog'am joyidan turib, do'mbirani toshga bir urib sindirib: «Mana, duong do'mbiraga tegdi», - dedi jo'nab ketgan. Men ham tog'amga do'mbirani o'rgating, deb necha bordim. Oxiri tog'am torlarni jo'rslashni o'rgatdi-yu, kuyiga kelganda: «Jiyanboy, buni o'rgatib bo'lmaydi. Buni yurakdan chaladi, yurak boshqarib boradi, yurak boshqara olmasa hech kim do'mbira chala olmaydi, unga o'rgatib ham bo'lmaydi. Har kimning yuragi har xil bo'lgani uchun do'mbiraning kuylari ham har xil, yuragingni tinglab, o'zing shahaver», - degan edi». «To'g'ri, - dedi Dono cho'pon, - uni anglamagan chala olmaydi. Mening otam nixoyatda do'mbiraga qiziqqan, Hisor viloyatiga borib, bir do'sti bilan mardikor ishlab qaytarida bozordan do'mbira ham sotib olgan. Yulda kela-kela to'xtab: «Ey do'stim, bozordan do'mbira oldim, bir chalayin, otlar ham dam olin», - deb ikkalasi ham otdan tushib, otam do'mbira chala boshlabdi, bir to'rg'ay bulardan nari ketmay chirqillayveribdi. Do'sti: «Ketamiz» desa ham, og'am «To'xtang, maxsum, men shu to'rg'ayni do'mbira boshiga qo'ndiray», - deb rosa chalibdi-yu, lekin to'rg'ay ko'nmbadi. Joyidan turib qarasa, to'rg'ayning uyasi oldida o'tirgan ekan. Ikkalasi ham kulishib, kela-kela kechqurun bir momonikiga mexmon bo'libdi, choy ichibdi, non yebdi. Otam yana chiday olmay, xo'rjumdan do'mbirani olib chala boshlabdi, oradan ko'p vaqt o'tmay kampir yig'lay boshlabdi. Otam: «To'rg'ayni ko'ndirmsamas ham kampirni yig'latdimku», - deb o'ylab: «Momojon nega yig'laysiz?» - deb so'rasa, kampir: «Ha, bolam, o'tgan yili cholim qurg'ur ichi og'rib, shu tir-tirdan ketib edi. Do'mbira chalishingni eshitib, cholim esimga tushib ketdi-da, bolam», - debdi. Shundan keyin otam do'mbirani qo'liga ushlamay ketgan ekan. O'zim ham qanchalik chertaman dedim, bo'ljadi. Ey Ergash, ozroq qo'shiq bilganingda Norguloy seniki edi. Haliyam bu cho'ponlarning ichidan tuzukrok aytadigan bo'lmasa Norgul seniki. Qani cho'ponlar, ayta bersak gap ko'p. Do'mbirani olib Norguloyni aytadigan bormi?» - dedi. Shunda G'ulom cho'pon do'mbirani olib: «Dono tog'a, men ham bir ko'rayin. Men Norguloyni Oypari deb ayтиb yuraman. O'rtaga otimni solayin, yo Norgulni olayin yoki quri(q) qolayin. O'zingiz bilasiz ovulimizning kizlari Norgulni olib, ro'za xayitda ham, qurban xayitda ham ovulma-ovul o'tib xayitlashib yuradi. Men ularning xayitlab yurishini qo'shiq qilib, «Oypari» deb ayтиb yurguvchi edim», - deb ayta boshladи:

Oypari Chiqdi kiyinib,
Kiyinganiga suyunib,
Ikki shona kokili,
Ko'kragiga tiyinib,

Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.
Osovligi toyday bo'b,
Yuvoshligi qo'yday bo'b,

Qizlari yulduz bo'lsa,
O'zi to'lgan oyday bo'b,
Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.

Bosgan joyi minnador,
Bosmagan joy ginador,
Bosib o'tmagan joylari,
Bosama deb umidvor,

Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.
Eshik oldi zar pechak,
Yulib olsang bir quchoq,

Bosib o'tgan joyidan,
Yugurib Chiqar boychechak,
Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.

Katta cho'lning qiyag'i,
O'tkir ekan iyagi,
Kavushin yalab boradi,
Ko'ylakdan tushgan jiyagi,

Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.
Tushdi Pachkamar soyiga,
O'xshab falakning oyiga,

Qabatdagi durkun qizlar,
Teng kelolmaydi bo'yiga,

Ketayotir Oypari,
Qirqin qizlardan ilgari.

Shoyi ko'ylagi shildirab,
Shashtiga toshlar gildirab,
Sochbog'da yuzta qung'iroq,
Qadam bosganda sholdirab,

Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.
Baland tovlarning ovushi,
Qurisin qantar ovishi,

Bossa chanqovuz chaladi,
Oyoqda zarrin kovushi,
Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.

Taqib uzukni sozidan,
Jahon ko'rinar ko'zidan,
Men-men degan sarvinozlar,
Ergasholmaydi izidan,

Ketayotir Oypari,
Qirqin qizlardan ilgari.
Chiqdim tog'larning beliga,
Ko'zim to'rt yorning yo'liga,

Har ovuldan Chiqqan qizlar,
Suv qo'yolmaydi qo'liga,
Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.

Qoshida qizlar lorsillab,
Gavhar munchog'i qarsillab,
Taboni tiysa qora yer,
Tovush beradi tarsillab,

Ketayotir Oypari,
Qirqin qizlardan ilgari.
Bulbul gulga yarashar,
Tuya yo'iga yarashar,

Mendan olsang oq bubak,
Suysang qo'lga yarashar,
Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.

Javak-javakka shirqillab,
Qoshida qizlar irkillab,
Xas tiysa yonboshidan,
Kiyikday ketar dirkillab,

Ketayotir Oypari,
Xamma qizlardan ilgari.

G'ulom do'mbirasini qo'yib edi, hamma cho'pon birdan «O'lma, G'ulom», - deb kulishib yubordi. Dono cho'pon ham kulib «Yigitlar to'g'risini aystsam, Norguloyni kimga berishni ham bilmay qoldim. Yana aytadigan kim bor?» - deb edi, bir kishi ham men olaman demadi. Shunda Ergash: «Dono tog'a, do'mbirani So'ltoq akamga ham bir bersangiz. Biz Malikdan kelayotganda besh toshcha yo'lda Norguloyni aytib kelib edi. Bugun o'zini ko'rsatsinda, o'tirganlarni qoyil qilib, olsa Norguloyni olsin», - dedi. O'tirganlarning hammasi So'ltoqqa qarab qoldi, Dono cho'pon do'mbirani uzatdi. So'ltoq do'mbirani olib: «Hoy og'alar, men nima deyishimni ham bilmay qoldim. Xay mayli, o'tirganlarning suxani sinmasin, So'ltoq qo'shiqni bilmaydi demasin, hamma otini chopib qolsin, birovi armonda qolmasin», - deb ayta ketdi:

Kelinoy, kelinoy deyishadi,
Ko'rganning aql shoshadi,
Onasi eshgan jumalak,
Tabonlariga tushadi.

Shonadan tushgan zar kokil,
Siynasida talashadi,
Hayitlab Chiqsa ovulga,
Xamma cho'pon ergashadi.

Norguloy chiqdi himillab,
Oq siynalari qimillab,
Ko'zlari tushgan cho'ponlar,
Oltoy yotadi ingillab.

Kunda qarayman xoliga,
Oyday to'Igan kamoliga,
Ariqda suvlar mavj urar,
Yelpiganda shamoliga.

Saharda gulning lolasi,
Qoshidan o'sar bolasi,
Bir suruv qo'yga teng ekan,
Sochining har bir tolasi.

Katta tovlaring nuradi,
Nuraga kimlar yuradi,
Olti chevar qiz bir kunda,
Illa sochini o'radi.

Bundan tubanda Laylimkon,
Laylimkonga ot boylagan,
Orqa sochini ming o'rib,
Qo'ng'iroq taqib taylagan.

Zulfin tillaga botirgan,
Tog' shamoliga qotirgan,
Eshikka Chiqsa Norguloy,
Otmagan tongni ottirgan.

Yesang nonining ta'mini,
Kamarda qotgan moycha bor,
Manglaylarining kengligi,
O'n uchda to'Igan oycha bor.

Terma terilgan kiprigi,
Saf tortib turgan qo'shriday,

Ikki ko'zining yonishi,
Bulutdan Chiqqan yashinday.

Qoshginang yoyday egilgan,
Yoylar orqada qolguday,
Uchginasini uchirsang,
Yuraklar to'xtab qolguday.

Ikki qoshingni hidlasam,
Chechak ochilgan bahorday,
Zulfaklaringda qo'ng'iroq,
Yomg'irdan oqqan nahorday.

Zar qalpoqda chirozing,
Iynovga tutgan qurcha bor,
Kulganda tishing yaltirar,
Savdoda turgan durga bor.

Oltin sirg'angda qo'ng'iroq,
Oltmisn nor tuya o'tganday,
Bir ko'rib qolsam bo'yingdi,
Qirq yillik dardim ketganday.

Taqsang latibang nuriga,
Boqilgan tulpor surinar,
Ikki yuzingda kulguchdan,
Sakkizta jannat ko'rinar.

Oh deganimda og'zimdan,
Buriqsib chiqqan changmikan,
Gardanganangning bahosi,
Oltmisn ming qo'yga tengmikan?!

Xapamatlaring yulduzday,
Gavhar munchog'ing oy bo'lsa,
Dardi g'aznangni taqqanda,
Ichida quyosh joy bo'lsa.

Oppoq siynangni ko'rganda,
Tohir Zuhrodan qochguday,
Ochsang ko'ylakning yoqasin,
Majnun Laylidan kechguday.

Ko'ksingda ikki Qo'rg'onning,
Biri-biridan o'tguday,
Gar ko'zi tushsa podshoning,
Taxtidan kechib ketguday.

Qiliqsiganing xutcha bor,
Oq badanlaring sutcha bor.
Qo'rg'ongginangning tugmasi,
Javzada pishgan tutcha bor.

Suruvginamda norchang bor,
O'ng qulginamda zarchang bor,
Beliginangning o'rtasida,
Zumradlardan darchang bor.

Eshik oldida bulog'ing,
Xakkallab o'ynar ulog'ing,
Ming yigitlarni nuratar,
Tiralib turgan bilaging.

Yuqori tog'ning yo'llari,
Yo'lning chetida gullari,
Bugin-bugin qamishday,
Norguloyjonning qo'llari.

O'ng yuzidagi xollari,
Misol arining bollar,
Tol ximichdayin bo'ralar,
Suvga uzalsa bellari.

Norguloy o'tsa o'ralib,
Xar qadamida buralib,

Ko'ylakka sig'may uchasi,
Ikki bo'lqiday tiralib.

Rosa to'lishgan sonlaring,
Chertsam yorilib ketguday,
Cho'ponga tegsa shamoli,
Oltoy turolmay yotguday.

Boldirlaringga intiqman,
Totsam arining boliday,
Oyoqlaringning panjası,
Qo'shoyoqlarnipg guliday.

Yuqorilarning shamoli,
Bo'lar o'tlarning kamoli,
Mavjlanib turgan dengizday,
Boshida hil-hil ro'moli.

Bo'lsa bedovning qashqasi,
Murodga yetmas boshqasi,
Boshingga kiygan zar qalpoq,
Ming bir gullarning nusxasi.

O'ltirishlaring, turishing,
Sipo kiyangan hojiday,
Oq bo'yningdagi munchog'ing,
Sakson shaharning bojiday.

Bilak uzuring oltindan,
Samarqand bilan Buxorday,
Yaltillab turar ko'zları,
Sakson ikki ming shaharday.

Bilagingda yuz qo'ng'iroq,
Silkitsang qo'rg'on buzilar,
Ro'molingni bir uyursang,
Bulutning beli uzilar.

O'n ikkitadan uzuring,
O'n ikki to'lgan oycha bor,
Shamolda tovush berishi,
Cho'ponlar tortgan naycha bor.

Ustingga kiygan ko'ylaging,
Yulduzni yamab qo'yganday,
Jiyagingdagı setirang,
Sharshardan suvni quyganday.

Zar-zar yopqich, zar yopqich,
Ushlab ko'rsam zarangdir,
Bir ko'zi tushgan bek bachcha,
Gap topa olmas garangdir.

Oyoqqinangga yarashar,
Poshnasi baland ko'k kovush,
Bir ming qo'ycha bor bahosi,
Bossa Chiqarar ming tovush.

Kovush betida qo'ng'iroq,
Yurganganangni bildirar,
Boldirginangdan qitiqlab,
Norguljon seni kuldirar.

Qarshilar bilan G'uzora,
Borguncha olti guzara,
Bo'yningda kuyov munchog'ing,
Qandaylar yigit uzara.

Qo'lingga olsang sozingdi,
YO ochib qo'ysang yuzingdi,
Osmonda turna ketolmay,
Aylanib yotar o'zingdi.

Shuncha nozlarning ichida,
Bormikan sencha kiyik ko'z,

Mingta qizlarning ichida,
Bormikan sencha shirin so'z.

O'tirishlaring to'rg'ayday,
Qomating tovus misoli,
Qo'lginangdan bir ushlatsang,
Ozayib qolmas asali.

Himillab kelib turishing,
Sarvdan ziyod qomating,
Sochginangdanbir iskasam,
Kamaiib ketmas davlating.

Zulfakkinangda shamollar,
Birin-biriga qo'shguday,
Bir qimillasang ko'yakni,
Ikki anoring teshguday.

Tarvuzginangdan bir tilik,
Tottirib ketgin, Norguljon,
Gar tortirmasang yig'latmay,
Ottirib ketgin, Norguljon.

Yuzginang to'lgan oy bo'lsa,
Oq ro'molginang bulutmi?
Qarasam og'zim suvlanar,
Ko'ksingda turgan quritmi?

Shar-shar buloqning sharrasi,
Bo'lsam G'uzorning to'rasi,
Qo'rg'onga chiqib qarasam,
Ko'rinnmas Norgul qorasi.

Katta tog'laring oyaday,
Ko'lankalari soyaday,
Oy Norguloynipg yurishi,
Mas(t) bo'lib yurgan moyaday.

Tog'larning boshi shuvdirma,
Oqqan suvlari shildirma,
Kokilginangdan ushlayin,
Ota-onangga bildirma.

Kuytan tog'larning darasi,
Biri-birining jo'rasi,
Ayting jahonda bormikan,
Oshiqliklarning chorasi?!

Eshiging oldi gul bodom,
Unga qarayman damba-dam,
Gul yuzli yorning dardidan,
Bizlar bir qalandar odam.

Eshiging oldi g'ov palak,
Fov palak tugmas handalak,
Naylay oshiqlik dardini,
Boshimga soldi bu falak.

Bulutlar bo'lsam boshinga,
Zar bog'lar bo'lsam to'shinga,
Tinmay sayragan bulbul bo'b,
Sayrablar tursam qoshinga.

Norguloy o'zi huriday,
Oltin tanganing nuriday,
Beliga tutgan kamari.
Chimildiqlarning to'riday.

Iynilarida oq sadaf,
Olatog'larning qoriday,
Yaqin bo'lsayam ko'rinnmas,
Quyi Qofdag'i pariday.

Yuragim kabob, bag'rim cho'q,
Sen deb yig'layman tutun yo'q

Nuxtali otdek bog'landim,
Qayerdan turib otding o'q.

Yurayin deyman darmon yo'q
Suyab turgali farmon yo'q
Bitta bolishga bot qo'yib,
So'zlashib yotsam armon yo'q.

Kunda ko'rib husningni,
To'yib yotsam armon yo'q
Farzandingni ko'tarib,
Suyib yotsam armon yo'q.

Do'mbira olib qo'lima,
O'toving ortib belima,
Olib ketsam, hech armon yo'q
O'ynablar o'sgan elima.

Yo'llarda yotgan teringman,
Qo'ylarga chopgan bo'ringman,
Cho'ponlar bersa o'zima,
Norguljon sening eringman.

Tog'larda kaklik sayraydi,
Archasi bo'ja boylaydi,
Bir Norguloyning jamoli,
Xamma yigitni qiyaydi.

Bundan tubanda tobatosh,
Ostidan o'sar qo'ng'irbosh,
Qo'ng'irot elning ichida,
Norgulday bormi qalamqosh.

So'Itoq asta do'mbirani yerga qo'ydi, cho'ponlarning hammasi xaykalday qotib turib edi, shunda Ergash: «Xa cho'ponlar, oldin kulaytotib eding, so'ng muzlaganday dingrayib qolding, nima bo'ldi?» - deb edi, G'ulom: «Hoy yigitlar, mening tushimmi, o'ngimmi? Men Norguloyni ko'rdim-e, shunday eshikdan kirib keldiyov», - dedi,

Shunda Dono cho'pon bir ingirsib joyidan qo'zg'alib oldi-da: «Ey So'Itoq, avvaldan baxshimisan yoki birovdan o'rganib oldingmi? Qo'shiqlaring tuyu tortganday bo'lib ketayotir, «sevgi ham kishini shoir qilib yuboradi», degani rostmikan?» - deb edi. So'Itoq: «Bizning elda Sherna degan katta baxshi bor, to'ylarda eshitaverib ozroq o'rganib edim, bilmadim, qarab tursam o'zimdan ham ozrok qo'shilib ketayotir. Xayronman, siz aytganday Norgulga men ham cho'ponlarday oshiq bo'lib qoldimmi, bilmadim», - dedi. Ergash turib: «Oshiq bo'lib qoldimmi emas, oshiq bo'lib qolibisz. Yo'lda kelayotganda ham xiyli aytdingiz, ba'zilari oldingi qo'shig'ingizga o'xshasa ham, ko'plari o'xshamaydi. Sizning qo'shig'ingiz quduqdan suv tortganday bo'lib ketayotir. Xoy yigitlar, So'Itoq akam birkina qo'shiqchi emas, tayoqchil ham. Sherdanning qirq cho'ponini bir o'zi tayoq bilan urib yiqitib, Sherdan boyni ikkinchi birovning molini olmasday qildi», - dedi. «Ha, to'g'ri, - dedi Dono cho'pon, - sevmay ming yil yashagandan ko'ra, sevib bir kun yasha, der edi qariyalar. Xaqiqiy sevgi kishini dona, mard, hech narsadan qo'rqlaydigan, xushmuomala qilib qo'yadi. Yetishsa yetishadi yoriga, yetisha olmasa devona ham qilib qo'yadi, uni kishilar «duo килибди» deb yurishadi. Ey So'Itoq ukam, endi gap ochildi so'rayin, asli o'zing qayerliksan, qaysi urug'dan bo'lasan? Oting azaldan So'Itoqmi yoki bo'lakmi? Shuncha og'ayin-qarindoshlaringga to'g'risini aytib bersang», - dedi.

So'Itoq bir ox tortib: «Hay mayli, aystsam-aytayin. Mening otam ham, onam ham asli Tangixaramdan. Oldingi ocharchilik davrida ish qarab, onam meni ko'tarib, otam uch ko'rpani ko'tarib Sherobodga qarab piyoda ketgan. Sherobodning cho'lida Noraliboy degan boyning molini boqib yurgan. Men olti yoshga to'lganimda, boyning og'ir ishidan otam ham, onam ham birin-ketin vafot etgan. Bir chokarimiz otamni ham, onamni ham ko'mib, boyga xabar bergen. Boy kelib qo'yni chokarga xaydatib junagan. Chokar xarchand gapisra ham boy meni oldirmagan. Baxtimga Xalil mengan ov ovlab kelib meni ko'rgan va uyiga olib ketgan. Uning uyida o'n olti yoshgacha xizmat qilib yurib, ota-bola bo'lib qoldik. Bir kuni Xalil mengan menga: «Xoy bolam, nasib bo'lsa seni ham uylantirishga to'g'ri kelib qoladi. Shuning uchun mol topishing kerak», - dedi. Men: «Xo'p, ota», - dedim. U kishi ham meni Noraliboyga chorikorlikka berdilar. Men uning qo'ylarini Xidirali bobo bilan sakkiz yil boqdim. Bir kuni yaylovga chiqayotganimda bizga chorikor bo'lib yurgan bobo bilan uchrashib qoldim. U kishi: «Seniki qayerdan?» — deb so'ragan edilar, men o'z tariximni aytib berdim. Birdan tanidilar, voqeanning hammasini aytib: «Boyda otangning besh yillik haqi bor», - deb aytdilar. Bir kuni boyga otamning haqini aytib edim, urishib qoldi. Shunda o'z haqimni so'radim. Boy esa: «Otang mendan qarzdor edi, hali ham uzganing yuk», - deb bermadi. Men molni tashlab ketdim va otamning ham, o'zimning ham haqimni olaman, deb ont ichdim. Birinchi, mana shu otni qo'rasidan o'g'irlab oldim. Shundan beri olti

yil o'tdi. Shu yilda otam va o'zimning haqimni boydan olti barobar undirdimu haliyam kamday bo'lib turadi. Bir kuni boyning olti tuyasini o'g'irlab olib kelayotib, shu joyda bittasini qochirib edim. Tuyalarni G'uzorga pullab, shu tuyani qarayman deb kelayotib, Norgulning chanqavuzi tovushini eshitib qoldim. Yuraklarim yonib, o'tgan umrim bir bir ko'z oldimdan o'taberdi, kalbim mumday bo'shashib ketdi. Shu G'ulomdan so'rading, u aytib berdi. Alqissa, boyga xizmatkor bo'ldim. Ota-onam bechora qo'ygan otim Rahmat, odamlar So'ltoq deb ot qo'yishgan. Turar joyim Gilambobda Xalil merganniki", - deb gapini to'xtatdi. «Bo'lmasa, siz urug'ingiz, ota-onangiz otini ham bilmaysizmi?» - so'radi Dono cho'pon. «Onamning oti Bibigul, otamning oti Bo'ritosh ekan, lekin urug'imni bilmayman", — dedi So'ltoq. «Xa, - dedi Dono cho'pon, - bu dunyo kimlarni qaqqashmadidi. Boylarga qo'shsha-qo'shsha, kambag'alga bir pashsha", - degan ekan. Men ham o'z boshimdan o'tganini aytabersam bir doston bo'ladi. Shukur deng, So'ltoq ukam, shuncha odam bo'libsiz. Rahmat, mana tanishib ham oldik, asli o'zimizdan ekansiz. Qani cho'ponlar, davramiz sovib qolmasin. Yana kim aytadi", - deb so'radi. Hech kim do'mbirani olmadi. Rajab cho'pon turib: «Qani, qari-qari demangiz, qariniyam ko'rib kuymangiz", - degan ekan. Endi o'zingizdan ham eshitaylik. Qolgan cho'ponlarning barchasi ham So'ltoq akaning qo'shig'idan keyin Norguloydan umid uzdi", - dedi.

«Xamma umid uzgan bo'lsa, men ham umid uzdum", - dedi Dono cho'pon. hamma cho'ponlar kulishib: «Xa bachchag'ar, bobomizning ham ko'ngli bor ekan-a? Suluv xolani tashlab ketasizmi Norguloy ko'nsa?», - deb edi. Dono cho'pon: «Xa-a, bizning ko'nglimiz yo'qma?» - dedi. Cho'ponlar yana xo-xolashib kulib yubordi. «Endi cho'ponlar, ko'nsanglar shul Norguloy So'ltoqniki bo'ldi, qolgan cho'ponlar oy Barchinni olmagan to'kson alpday bo'lib qoldi", - dedi Dono cho'pon. Boshqa biror cho'pon biror narsa demadi.

Cho'ponlar joy-joyidan turib, endi qo'yni haydash vaqtি bo'ldi, deb Qo'shig' qo'shiga jo'nab ketdi.

Oradan qancha kunlar o'tdi, ro'za oyi boshlandi. G'ulom cho'pon hammani qo'shiga chaqirdi, molni so'ydi, cho'ponlar bari javlik bo'ldi, qildi gurungdi. Gurungdan gurung chiqib, Dono cho'pon: «Qani yigitlar, So'ltoqni bir qanniq o'ynatib kelmaymizmi?» -dedi. «Qanday qilib qanniq o'ynatamiz", - dedi Rajab cho'pon. «Mana ro'za oyi, - dedi Dono cho'pon, - Yorabazon degan qo'shig'imiz bor, ro'zaning uch kuni tutila aytildi. Hammamiz bir bo'lib, eshikma-eshik yurib ramazon aytamiz, boynikiga ham boramiz. Biz yorabazon aytib turamiz, So'ltoq qizni ko'rib oladi, iloji bo'lsa so'z aytib qoladi, agar yuvoshroq bo'lsa bir o'pib qanniqlab qoladi".

Bu gapga hammasi rozi bo'lib, kelishib qo'ydilar. Ro'zaning uchinchi kuni kechqurun hammasi bir bo'lib, telpaklarini bostirib kiyib, xurjunlarini yelkalariga

qo'yib, ovulga aralashib ketdilar. Har bir eshikka borib yorabazon ayta boshladidi. Oxiri yarim kechaga yaqinlashib qolganda Shukuraliboyning bo'sag'asiga borib ayta boshlaganda, So'ltoq uyning orqasidan kelib, jopsordan Norguloyga qarab turgani:

Dono cho'pon: Hov, yorabazon aytib keldik eshigingizga,
Qo'chqordek o'g'il bersin beshigingizga.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: So'm-so'm tilla, so'm tilla suvg'a solsa botmasin,
Xudo bergen keng davlat tepkilasa ketmasin.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Ko'ganingiz boshiga chopsa otlar yetmasin,
Osmondag'i oyingiz ming yilda ham botmasin.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Farzandingiz ko'p bo'lsin, dushmaningiz cho'p bo'lsin,
Oltiningiz qop bo'lsin, qator-qator saf bo'lsin.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Chopqilashsin toyiningiz, mingdan oshsin qo'yingiz,
Oppoq bo'lsin uyingiz, elga yetsin moyingiz.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Elga katta to'y bering, ming yilgacha gap bo'lsin,
Gapginangiz doimo elu yurtga jo'p bo'lsin.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Yaylovingiz xo'l bo'lsin, bug'doyingiz mo'l bo'lsin,
Qush sayratib turgali bog'ingizda gul bo'lsin.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Quyosh bo'ling, boy bobo, buvishingiz oy bo'lsin,
Ikkingiz orangizda sakkiz jannat joy bo'lsin.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Har yil olgan to'lingiz bo'lsin qo'shsha qo'zidan,
Ichgangina suvingiz bo'lsin buloq ko'zidan.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Qaysi otni minsangiz uloq olsin har to'ydan,
Buvishingizning qo'li arimasin hech moydan.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Xo'kizingiz yer haydab shudigorda tolmasin,
Unib chiqqan bug'doyda qorakuya bo'lmasin.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Uyingizning ichida mexmoningiz ko'p bo'lsin,
Yilqi bilan tuyangiz har selgada to'p bo'lsin.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Yuz tuyaga yuk bo'lsin har kuchganda yuelingiz,
Farzand bilan xor bo'limang buvish bilan ikkingiz.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: O'g'loningiz sher bo'lsin, qizginangiz oy bo'lsin,
Qadam bosgan joyida sakkiz qorin moy bo'lsin.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Suprangiz, buvishim, burchakda tir-tir etar,

Boy bobomman, buvishim, uxlabdi xur-xur etar.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Shunda Shukuraliboy o'tovning ichida turib: «Hoy Dono cho'pon, uxlaganimiz
yo'q- sen yorabazon aytgali kelbsanmi olmayam ketmaysan, ozroq sabr qilinglar», -
dedi.

Dono cho'pon esa yana yorabazon boshlab yubordi.

Dono cho'pon: Anov tovning pastida tulkilari pang-pang etar,
Buvishginam, un bermang to'rvada changib ketar.

Xammasi: Yerabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Boy bobomiz supradan to'sh beraman, deydi-yo,
Buvishimiz ro'molni bo'sh beraman, deydi-yo.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Boy bobomiz qo'tondan qo'y beraman, deydi-yo,
Buvishimiz bo'xchadan to'n beraman, deydi-yo.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Boy bobomiz kissadan pul beraman, deydi-yo,
Buvishimiz o'choqdan kul beraman, deydi-yo.


Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Boy bobomiz yaylovdan toy beraman, deydi-yo,
Buvishimiz qorindan moy beraman, deydi-yo.

Xammasi: Yorabazon, yorabazon.

Dono cho'pon: Boy bobomiz adirdan xo'kiz beray, deydi-yo,
Buvishimiz iynovdan bugiz beray, deydi-yo.

Hammasi: Yorabazon, yorabazon.



Shu vaqt Shukuraliboy o'tovdan yelbagay chiqib keldi-da: «Xoy Dono cho'pon, mening bergenim shulki, o'z oldingdagi suruvdan bitta chorii qo'yni tanlab so'yil olinglar. Buvishingning bergani mana», - deb har biriga bitta-bitta to'n berdi. Mana bu ro'molchani Norgulim berdi, bittadan bo'lib olinglar, bu pulni bolalarning zakidai olinglar», - dedi boy.

Shunda Dono cho'pon qo'lini keng ohib: «Ovmin, ilohi oling, oldirmang, kasov ushlasangiz oltin bo'lsin, xorlik- zorlik k"rmangizlar, sog'-salomat, bola chaqangiz bilan, molu davlatingiz bilan eson-omon yuringizlar, tutgan ro'zangiz qabul bo'lsin, ovmin», - deb edi, hamma cho'pon obloxo akbar deb qo'lini yuziga tutdi. Shu payt Shukuraliboy: «Qani, Dono cho'pon nimalarni ko'rdingiz?» - deb so'ragan edi, Dono cho'pon aytdi:

Quvsqa qushdan o'tguday,
Jiyron otqi men ko'rdim,
Jiyron otning oldida,
Oq o'tovni men kurdim.

Oq o'tovning ortida,
Oshiq yigitni ko'rdim,
Koshi ko'zi yoydayin,
Uyda barnoni ko'rdim.

Shu suluvning qoshida.
Oltin beshikni ko'rdim,
Oltin beshik ichida,
Oq bubakni men ko'rdim.

Oq bubakning ichida,
Zumrad olmani ko'rdim,
Zumrad olma ichida,
Oltin beshikni kurdim.

Shu vaqt Shukuraliboy: «Ey Dono to'xtat, seniki xalilar ado bo'lmaydi. Endi ertaroq qo'ruga boringlar, ertaga mendan uyatli bo'lib yurmanglar», - dedi.

Cho'ponlar xaylashib jo'nadi. Rajab cho'pon uyning orqasiga o'tdi. Ko'rdiki, So'itoq xaliyam jopsarning qarab turibdi. Biqinidan bir turtdi, g'ing etmadni. Nima balo muzlab qolganmi, deb qattiqrok turtdi, aslo qo'zg'almadi. «Tag'in joni chiqib ketgan

bo'lmasin», - deb belbog'idan tortib edi, «shilq» etib qo'liga keldi. Illa sudrab cho'ponlarni imlay ketdi, uch-to'rtta cho'pon yetti, hammasi har yerdan ushlab ko'tarib ketdi, tubadan narman o'tdi, yuziga suv sepib, og'ziga tutdi. So'itoq bir-ikki suvdan yutdi. Ingirsib o'ziga kelib, alang-jalang etib, har tomonqa qaray ketdi. Cho'ponlar: «Ha, nima bo'ldi?» - deyishgan edi, So'itoq: «Men qayerda turibman?» - dedi. G'ulom kulib: «Sen Norguloyning uyida turibsan», - dedi. So'itoq yana alang-jalang qaray ketdi. Dono cho'pon aytdi: «Ey So'itoq xayolingni yig'ib ol. Seni boyning uyi orqasiga o'tkazib, biz yorabazon aytib, haqimizni olib, uyrilib kelsak, sen bexush ekansan. Ko'tarib bu yerga olib kelib, suv-puv ichirdik. O'zing aytchi nima bo'ldi?».

So'itoq: «Dono aka, men qanniqa kelmay ketayin. Sizlar yorabazon aytayotganlaringizda men Norguloyni orqa tomondan ko'rib o'tirib edim, salgina shobir qildim ham qaramadi. Siz: «Oq o'tovning ortida oshiq yigitni ko'rdim», - deganingizda bir qarab kuldi, men ham kulib edim, shundan keyin nima bo'ldi bilmay qoldim. Qarang xali ham labim qovushmay kulib turibman», — dedi. Cho'ponlarning hammasi xo-xolab kulib yubordi.

Shundan so'ng kunlar bir-birini quvishib oradan olti oy o'tdi. Olti oyda So'itoq ham bir necha marta Norgulning bo'yini ko'rib, xusnini sal ko'rsa esidan ketib, oxiri Dononi sovchilikka yubordi. Boy: «So'itoqning nimasiga beraman. So'itoq o'zini sobit qalin berama?» -deb duklab qaytarib yubordi. Bir kuni cho'ponlar orasida Norgulni 200 qo'y, 40 tuyu, 40 biyaga, 80 qudaga to'n hisobiga qorasi bor», deyishib, Ermatboy degan boyga 2 xotining ustiga ovmin qilib, non sindirgan emish», -deb ovoza bo'ldi. Buni So'itoq eshitib, bir gaplashishni qasd qilib, boy G'uzor bozoriga ketgan, onasi jun egirgani hamsoyasinikiga o'tganligini bilib, tush-tushda uy orqasidan keldi. Shunda So'itoq Norgulga bir so'z aytib, Norgulning ham javob berayotgan joyi:

So'itoq:

Xavolanib ko'ldan uchar o'rdak, g'oz,
Yigit ko'tarmasmi sanam qilsa noz.
Uyat dedim tutolmadim o'zimni,
Bir gapim bor aytayinmi sarvinoz?

Norgul:

Qo'zi bilan qo'y yuradi poyma-poy,
O'lmasa ot bo'lar bir kun kichik toy.
Eshitganman So'itoq, degan otingni,
Aytar gaping aytgin bo'lsa tortinmay.

So'ltoq:

Savdo tushmay hech kim bo'lmas devona,
Bir go'zalga oshiq bo'ldim g'oyibona.
Ne uchundir o'zing aytgin sarvinoz,
Men bo'libman shu o'tovga parvona.

Norgul:

Oshiq bo'lsang borib aytgin qozi bor,
Ayb emas sevishadi joni bor.
Cho'ponlarga tashish seni vazifang,
Bu o'tovning oshi bilan noni bor.

So'ltoq:

Yigitni kuydirgan oyday yuzingdi,
Ko'ksiga xanjari shahlo ko'zingdi.
Rostdan so'ylayin eshit bo'yingdan
Majnun bo'lib sevib qoldim o'zingdi.

Norgul:

So'ltoq sen bilmaysan hali zo'ringdi,
O'zing o'lmay qazdiradi go'ringdi.
Bu so'zingdi agar otam eshitsa,
Tiriklayin shlab olar teringdi.

So'ltoq:

Ko'pkaribon otni solar to'daga,
Bedovga yarashar tilladan tug'a.
Aziz boshim oyog'ingga tashlayman.
Tanan esa tovushingdan sadag'a.

Norgul:

Saratonda tovning boshi bo'lar qor,
Yomon odam keng dunyoni qilar tor,
Yuragingda mayli armon qolmasin,
Kim xohlasa unga bitta shartim bor.

So'ltoq:

Belga belbog', qo'lga tayoq olayin,
Qazom to'lsa sen yo'lingda o'layin.
Tortinmagin aytabergin shartingni,
Bir shart emas ming shartingni qilayin.

Norgul:

Men shartimni sen oldingga qo'yayin,
Bor kuchimni bilagimga qo'yayin.
Meni bilan olish, meni yiqitsang,
Tan bag'ishlab mayli senga tegayin.

So'ltoq ichida: «O'zi qiz bo'ladi-yu, bilakda kuch nima qiladi», -deb, Norgulga
aytdi: «Sen bilan olishsam, el ko'rsa nima bo'ladi?» Norgul: «Tortinmay kelabering,
hozir tush payti, hamma uyda ko'rmaydi. Ko'rgandayam bir narsa demaydi», -dedi.
So'ltoq uyg'a kirib Norgulga: «Endi astaroq yiqitsak, yer qattida», -dedi. Shunda Norgul
So'ltoqqa qarab bir so'z aytib turgani:

Qorni to'ysa nor tuyalar toyama,
Tozi ko'rsa tulkilarni qo'yama.
Yerning qattiqligini o'zing bilib qo'y,
Yiqitish qo'lingdan kelsa ayama.

Dushman yo'ldap bo'lsa uni esh dema,
Devonani ko'rsang mendan pas(t) dema.
Yiqitish qo'lingdan kelsa ayama,
Bu olishda So'ltoq meni dus(t) dema.

Shart qo'yanman taqdirimdan ko'rарman,
Qazom to'lsa shu olishda o'larman.
Maham bo'lgin, So'ltoq, meni do's(t) dema,
Kuchim yetsa bir shekilli qilarman.

So'zni aytib, Norgul ishni boshladi,
Dushman ko'rsa ikki ko'zin yoshladi.
Achchiq bilan irg'ib turdi joyidan,
Ro'molini to'rga otib tashladi.

Kiyimlarin Norgul to'rga uyadi,
Qahrlansa tov zARBiga quyadi.
Boshiga tim qora sochin chiyadi,
Yulib olib jun chekmandi kiyadi.

Tomoshaga osmonda kun tayladi,
Qanday bo'lar ekan deb oy o'yadi.
Salkib oldi bo'sag'adan chilvirni,
Xipcha belga kirmov qilib boyladi.

Bul so'zimni, So'Itoq, puxta bil, dedi.
Kuching yetsa mana sanam ol, dedi.
Kuchin jiyib qoshin uyib oy Norgul,
Dobdiramay endi tayyor bo'l, dedi.

So'Itoq aytar, yiqitmasa bo'lmadi,
Balki bizni nazariga ilmadi.
Bir yiqilib tiyar bo'lsa shu Norgul,
Endi bizda sira armon qolmadi.

Aylanishda cho'lda lochin uchganday,
Achchiq kelar ko'kda bulut ko'chganday.
Bir-biriga qo'l uzatib ushslashdi,
Baland tovga sonsiz yashin tushganday.

Siltashadi yerlar qoldi qazilib,
Zarbasiga tov ketguday buzilib,
Bir-birini siltashganda kuch bilan,
Osmon titrab, ketar yulduz uzilib.

Norgul endi o'z ko'nglini xushladi,
Yengda qo'yib, yoqasidan ushladi.
Biror fasl o'tgan edi oradan,
So'Itoqni do'staman qilib tashladi.

«So'Itoq, ko'rdingizmi, yer qattiqmikan, bo'shmikan»? - dedi Norgul. Shunda So'Itoq bir so'z ayтиб turibdi.

Norguljon, eshitgin aytgan so'zimni,
Elim yerga qaratadi yuzimni,
Shu bugun keb madadkor bo'l bo'yingdan,
Men yurmayin, kelib suygın o'zimni.

Dushman bo'lsa yakka maydon qurardim,
Siltashganda sherni yerga urardim,
Men yurmayin kelib suygın, Norguljon,
Qizda noz bor, kuchi yo'q deb yurardim.

Yoshlikda o'Igandir otam ham enam,
O'tday bo'lib kuyib borar bu tanam,
Qizda noz bor, darmoni yo'q deyardim,
Tortinmayin boshim kesgin, ey sanam.

Non topolmay o'g'irliliklar qilganman,
Chanqavuz kuyiga qurban bo'Iganman,
Tortinmayin xanjar tortgin ey sanam.
Men o'zimni odamman deb yurganman.

«E So'Itoq aka boshingiz mendan sizga esdalik bo'lsin. Qaysi kuni tubada qo'shiq aytayotgan edingiz, endi boshimni o'zimga berdi, deb qo'shiq aytin. Yigitning qizga boshimni kes deyishi uyat bo'lmaydimi?», -dedi. Shunda So'Itoqning kuo'ziga yosh kelib, yuragi to'lib: «Endi meni yurgiligidim qolmadni, beradigan molim bo'lmasa, olishganda senga loyiq kuchim bo'lmasa, o'Iganim yaxshi emasmi?», -deb joyidan turdi. Shunda Norgulning ko'ngli bushashib, So'Itoqka aytdi: «Ey So'Itoq, qiz bilan olishganda avval yiqiladi bo'ydoq, bo'lmasa kuchli yigit yo'q sendoq, xafa bo'Ima, olishdik deb birovga aytma, bu shartni. Meni yutdi dema, o'zingni molsiz dema, yigitning moli bilagidagi kuchi, mehnati, ochiq yuragidir». Buni So'Itoq, eshitib, xursand bo'lib uydan chiqib ketdi.

Oradan bir oy o'tdi. So'Itoq ham gox boyning qoshiga kelib, gox cho'ponlar bilan suhabat qilib yuraberdi. Bir kuni cho'ponlar. «Norgulga to'y kelarmish», -dedi. So'Itoq ham qaradi, boy taraddu qilayotir, to'y bu kech bo'ladi, deyotir. Shunda So'Itoq garang bo'lib hamma gapni Dono cho'ponga aytdi. «Ey So'Itoq», dedi Dono, -sen olib qochaman deysan. Uddasidan chiqsang yordam berayin, qo'lga tushib sharmanda bo'lsang nima qilayin?» So'Itoq aytdi: «Norgul ikki xotinliga tiyaman, ketmayman desa, xaddimiz yo'q kelaveramiz. Norgul ko'nsa, yo uddasidan chiqarman, yo kunim

to'lib o'larman". Bu gapga Dono ham ko'nib, otni sozlab kerakli narsani xurjunga joylab, kun botgan nomoshomda uyning bir yog'idan bordi.

Boy mexmonxonasida, Norgulning onasi choy qaynatib turibdi. El tinch, hamma o'z ishi bilan band. Dono cho'pon aytdi: «Hov So'ltoq, Norgul sen bilan gaplashsa ham, ketaman deb aytmagan, tuyusqindan borsak, bizni ko'rsa, ota deb chaqirsa, boy bilsa, ikkalamizning kun ko'rishimiz qiyin. Norgulni begona kishiday ushlab olamiz, tovushini chiqarmasday qilib boylaymiz, otta olib ketasan. Besh-olti chaqirimdan keyin o'zidan so'raysan, gapingga ko'nsa olib ketaberasan, ko'nmasa nima qilasan?» -dedi. Ikkovi telpakni ko'zigacha bostirib kiyib, birov taniy olmaguday bo'lib, asta mo'ralab kirib bordi. Norgul ko'ylik tikib o'tirgan ekan, o'tirgan joyida ushlab, og'zi bilan qo'lini boylab turgan joyi:

So'ltoq har gapni o'yladi,
Xurjunga nonni joyladi.
Dona bilan nomoshomda,
Norgulning qo'lin boyladi.

Tilla nahalli kovushi,
Qanday bo'larkan bul ishi?
Mushtipar qoldi ilojsiz,
Chiqmay qoldi-da tovushi.

Bilmas tovlarning o'rini,
Tolmas hayvonning zo'rini,
Busag'alarga bel qildi,
Oltoy boqilgan To'rini.

Ilonning zahri tilida,
Bulbul oshiqidir guliga,
Ikkovlashib arang qo'ydi,
Tolmas To'rining beliga.

Cho'llarda o'sardi yantoq,
Gapidan bilinar tentak,
Ot beliga endi minib,
O'ngarib oldi bek So'ltoq.

Podsholarning bordir boji,
Uning qabotadi qozi.

Uy oldiga tushib qoldi,
Boshidagi gavhar toji.

Qushlar qiyaga qo'nadi,
Bolaga kuygan onadi.
Qamchi bosib bedov otga,
Bek So'ltoq endi jo'nadi.

Mergan ovlaydi panalab,
Ilon yurolmas yonalab,
Ovzi ochilgan oy Norgul,
Qichqiraberdi enalab.

Ko'llarning ziynati g'ozdi,
Ustalar tashlamas sozdi.
Otni siltab bek So'ltoq,
Tubadan nari o'tkazdi.

Archaning ham bor tanasi,
Barchanering ham bosh panasi,
Enalagan tovushini,
Eshitib qoldi enasi.

Bu gap yetgan yo'q boyiga,
Taraddi qilar to'yiga,
Yugurib bordi enasi,
Norgul o'tirgan uyiga.

Uyganday bo'ldi tanasi,
Ko'rinnmas qizi, donasi,
Tuyaga yukin ortganday,
Bo'shab qolibdi xonasi.

Qo'rqqan chiqmaydi tovushi,
Aylanib qoldi-da boshi,
Bo'sag'ada tushib qopti,
Munchog'i bilan kovushi.

Qoralar bo'ldi yuzim deb,
O'yilsin ikki ko'zim deb,
Yiglab yubordi enasi,
Orqalar tovim qizim deb.

Yomon kunimga keragim,
Suyanchig'im ham ziragim,
Bolam deb yig'lar enasi.
Uyda gavharim, chirog'im.

Bu tovushini mehmonxonadagi hamma kishi eshitib, nima bo'ldi deyishib, mehmonxonadan chiqishib uyiga keldi. Bo'lgan voqeani bildi. Shukuralining achchig'i kelib, ikki ko'zi yonib, ovulining ikkita mergani bilan uchta polvoniga ot minishni buyurdi. O'zi ham Jiyron qashqani egarlab sozlab, qo'liga jazoyilni olib, otning beliga minib shunday ong soldi, kun chiqar tomonda itlarning hurib yotganligini bildi, olti kishi bo'lib ot chopib jo'nadi. Sherali cho'ponning ustidan borib qoldi. Sheralidan so'radi. Sherali aytdi:

«Sizlarning oldingizga shu tomondan bir otli chopib o'tib ketdi». Boy: «Sen otga minib So'ltoqni top, bizning izimizdan borsin», -deb tayinladi. Chunki qizini kim olib qochganligini bilmaydi. Cho'pon ko'rsatgan tomonga ot choptirib ketdi. Dono ham So'ltoqni katta daradan oshirib, endi qushxonasiga yetib, otdan tushib, otni boylayotgan edi, olti kishi borib qoldi. Shunda boy otni ko'rib: «Ot choptirib qayoqdan kelayotirsan», -dedi. Dono bildi, aytmasa qo'ymaydi. «Men, -dedi Dono, -Katta daradan kelayotgan edim. Bir qo'y qolib ketgan ekan. So'ltoq bilan duch kelib qoldim. So'ltoq bir narsani otga o'ngarib ketayotgan ekan, molma, odamma bilolmay, kuchim yetib qo'lidan ololmay, cho'ponlarga, ovulga xabar berayin deb, ot choptirib kelib, qo'yni suruvga qo'shib, endi otga minmoqchi bo'lib, turibman», -dedi. Qizini olib qochgan So'ltoqligini bilib, boyning battar achchig'i kelib, Dononi ham olib, yetti kishi bo'lib, Katta daraga ot choptirib ketdi.

Dobildi-yo dobildi,
Dobilga qo'y jobildi,
Shukuralining To'risi,
O'rli - qirli chobildi.

Qamchi urib To'riga,
Bedov o'xshab bo'riga,
Xarsillab ketayotir,
Oq tubaning o'riga.

Olti cho'pon qoshida,
Xay-haylashib boradi,
Bedov otlar kechasi,
Yul talashib boradi.

Otni qichab Shukurali.
Yetsang ur, deb boradi,
Keynidagi shul Dono,
Obru ber deb boradi.

To'xta, deydi cho'ponlar,
Kirgan shu bir daraga,
Shulmi deydi o'q uzib,
Har ko'ringan qoraga.

Taylab ketib boradi,
Goh balanga goh pastga.
Bir xillari ot haydab,
Ketayotir havasga.

Shukurali bedovni,
Ayamaydi uradi,
Qamchi o'tgan bedov ot,
O'zin otib boradi.

Keyin qolgan cho'ponga,
Xayda deydi baqirib,
Gar ko'rinsa bir qora,
To'xta, deydi chaqirib.

Endigi gapni So'ltoqdan eshititing. So'ltoq Donadan ayrilib, otni qichab ketayotgan joyi:

Ko'ngli gulday jaynadi,
Yo'llarda bedov o'ynadi.
Otni qistadi bek So'ltoq,
Yashinday og'ib jo'nadi.

Lochinday bedov cho'zildi,
Bosgan joylari qazildi.
Qo'li boylangan oy Norgul,
Yo'llarda ko'ngli buzildi.

So'ltoqniq baxti ochildi,
O'ngarib borar shu guldi.
Yigirma to'rtta eshgan sochi,
Ot ungagiga sochildi.

So'ltoq bedovni uradi,
Gohi keytiga qaradi,
Kun botganday oy Norgul,
Botiblar ketib boradi.

Osmondagi hulkarlar,
Norgul holiga yig'ladi,
Yetti qaroqchi So'ltoqqa,
Yordam qilgali tayladi.

Sag'ana otning ketishi,
Tulkini quvgan toziday,
Nishobga quyilib tashlashi,
Hovdak ko'llarning g'oziday.

Qistab haydadi bedovni
Ko'zlab Kattapoy belini
Norgulning oyday jamoli
Yorug' qib oyning yo'lini.

Quzg'un qushlar ximcha,
Do'stlik qilmaydi eliga.
Yetti tong vaqtib bek So'ltoq,
Oqdovonlarning beliga.

Okdovonning ustiga chiqib So'ltoq otdan tushidi. Norgulni ham tushirib, qo'lini yechdi. Shunda Norgul uyushgan qo'lini yozib, ochuvi kelib: «Meni olib qochadigan senmisan?» - deb So'ltoqni yoqasidan ushladi. So'ltoq aytdi: «Norgul, to'xta, bu

menman, ikki xotinning ustiga tiyishga rozmisan? Rozi bo'lsang xozir qayirib olib ketaman, rozi bo'lmasang qayoqqa bo'lsa olib ketaman, bir oydan keyin ovulingga olib boraman, kimni yaxshi ko'rsang shunga tegarsan. Meni unday-bunday yigitlardan dema, singlim qatori ko'rib olib yuraman. Endi ixtiyor o'zingda". Buni Norgul eshitib, o'ylab, turib edi, «Ana, -dedi So'ltoq orqam izdan otang ham quvib kelayotir». Norgul karasa, Sho'robning naryog'ida otasi qora ot choptirib kelayotir. Norgul turib aytdi: «Meni deb sen ham o'lib ketma, endi bo'lari bo'ldi. Gaphaelib o'tirgali vaqt yo'k. Ertaroq bo'l», dedi. Ikkovi Saramasga borib yashirinib turdi, kunning tuba-tubaga chiqayotgan vaqtda oq dovondan yetti otli ot chopib o'tdi. Darbandga qarab tashlab ketdi. Kun bo'y So'ltoq Norgul bilan gaplashib yotdi, kun ham botdi. Ikkovi To'rining beliga minib Sherobod yo'liga tortib ketdi:

Yana bedovni haydadi,
Dam olgan bedovi o'ynadi.
Ot ustida oy Norgul,
Boychechaklarday jaynadi.

Ot ham boradi dirkillab,
O'zangilari shirqillab,
Ustida Norgul boradi,
Oylar tuvganday yarqillab.

Ot jo'nadi sharillab,
Ko'kda uchganday porillab,
Boshidagi oq ro'moli,
Ot shamoliga pirillab.

Otib boradi pirog'i,
Ishondi, to'ldi yuragi,
Yulduz taqqanday yarqillab,
Qulqoqda tilla ziragi.

Kiyiklarning joyi tovdidi,
Makon qiladi qatovdi.
Qamchini bosib bek So'ltoq,
Ayamay haydar bedovdi.

Ot chopadi misli bo'ri,
Otga qiyin tovning o'ri,

Ayamay haydar bedovni,
Tuyog'idan izdi teri.

So'ltoq ham bildi bul ishdi,
G'ovg'aga qo'yib bu boshdi.
Kun Chiqar vaqtı ot qistab,
Gilambaxtlarga yetishdi.

Gilambaxt ham uncha katta bo'lman joy bo'lib, Hisor to'rasiga qarashli edi, bir urug' (juzlar urug'i) yashar, kichikroq ovul edi. Shu joyda So'ltoq makon qilib turabersin, gapni boydan eshitting.

Boy odamlari bilan Hisor viloyatini qarab, oradan 25 kun o'tib, Boysunga kelib choyxonadan choy ichib turib edi, shoxsupada o'tirgan boylar kulishib, gurung qilaberdi. Keng gavdali, sariq saqolli, qoshiga ko'zi ko'rinnmay ketgan, burnining kengligidan olti bedana o'tgan, bir o'tirishda bir qo'yni yutganday bir kishi turib: «U yigit bu qizni G'uzor to'rasiga qarashli viloyatdan olib qochgan emish. Qiz to'ralarga yoki bizday boylargaga to'g'ri keladi. U yigitni ertaroq bo'g'zini ko'rsatti boy, yo'qotish kerak», -dedi. Bu so'zni eshitib turgan Shukuraliboy «Qiz xozir qayerda ekan?» -dedi. Sariq saqolli boy aytdi: «Uni so'rab nima qilasan? ko'nglingda gaping bo'lsa o'lib ketasan. Qo'lingdan bir narsa kelama? Sherobodning berigi cho'lida, Gilambaxtda», - dedi. Bu so'zni eshitib, Shukuraliboy choyni ichib, joyidan turib, otga minib Boysundan pastlab Gilambaxtgaga qarab jo'nadi.

Gilambaxtning ustidan peshinda yetib bordi. So'ltoq ham, ertaga kaytib boramiz, deb uxlاب yotib edi. Norgul non pishirgani ketib edi. Boy polvonlari bilan tappa-tappa otday tashlayberdi, uyqudag'i So'ltoqni bosib boylayberdi.

Merganlar miltiqqa o'qni joyladi,
Uchta polvon yotgan joyda boyladi,
Ochuv bilan kirib keldi Shukurali,
Sanamayin sakkiz qamchi tayladi.

Olib qochgan oy Norgul,
Gilambaxtdan topildi,
Bog'langandi bul So'ltoq,
Besh joyidan tepildi.

So'ltoq qilgai bul ishdi,
Bersa ham rozi boshdi,

Boy qinidan chiqardi,
Qonsiragan qilichdi.

So'ltoq bo'yniga oldi,
Kunni ko'rmay o'lishdi,
Boy qilich sermaganda,
Norgul kelib ushlashdi.

Ochuv kelgan boyning,
Gap kelmaydi tilidan,
Norgul qilichin oldi,
Otasingin qo'lidan.

-Yolg'oni yo'q so'zimdan,
Yosh quyilar ko'zimdan,
Bu So'ltoqda gunoh yo'q,
Hamma gunoh o'zimdan.

O'zing o'ylab bilarsan,
O'ylamayin urasan,
Ikki xotinning ustiga,
Qaytiqlar meni berasan.

Odamni so'yish g'ozmidi,
Shu urganing ozmidi,
So'ltoqda o'zi gunox, yo'q
Qizingni o'zi qochuvdi.

Meniyam sotting otajon,
Shunchalar moling ozmidi?!
Qaziblar olib sotqali,
Qizlar kondagi tuzmidi?!

Qasamlar ichay tilimdan,
Qo'shilib chiqди elimdan,
So'ltoqda hech gunoh yo'q
Ushlagan yo'qdi(r) qo'limdan.

Shu vaqt Xalil mengan hsm kelib qoldi. «Hoy boy bobo, shaytonga xay bering, o'ldiradigan ham so'rab o'ldiradi. Nima gap bo'lganini o'zimiz ham eshitaylik, undan keyin biror hukm qilaylik», - dedi. Bu orada ovulning katta-kichik odamlari ham yig'ilib kela boshladi.

Shukuraliboy turib aytdi: «Hov odamlar, mana bu So'Itoq tuzimni yeb, tuzlig'imni bulg'ab ketdi. Ertan-oqshom erga beraman deb turgan qizimni aldar olib qochdi. Endi insof bilan aytinlar, buni nima qilishim kerak?» Shunda Xalil mengan: «Qani So'Itoq, ayt, sen nima deysan?» - dedi. «Men hech narsa bilmayman, -dedi So'Itoq, -hammasini Norguldan surayberingizlar, aytadi». «Qizim sen ayt», - dedi Xalil mengan. Shunda Norguloy joyidan turib, qaxri kelib, qavog'i uyulib, otasiga qarab: «Hov ota, avval ham aytdim, xozir ham aytaman. So'Itoqda hech gunoh yo'q. Men ikki dunyoda ham Ermat cholga tegmayman, boshimga uramanmi to'ridan go'ri yaqin bo'lib turgan cholni?! Meni cholga berganiningiz uchun So'Itoqdan «Meni ola keting», - deb iltimos qildim. bo'lmasa erkak zoti qurib, bir chol qolib edimi?!» - dedi. Shukuraliboy: «Hoy qizim, yuzimni qora qildingda, otangdi go'rga soldingda. To'g'ri, mendan ham o'tdi, onang bechora necha marta Norgul Ermatga tegmayman, agar otam bersa o'zimni biror narsa qilaman, deb aytayotir dedi. Men shuncha qiz nima qildi-da, Norgul nima qiladi, dedim. Bundayligini qayerdan bilay, Ermatdan ham xiyili narsa olib edim, bilmadim endi nima qilaman», - dedi.

Xalil mengan: «Boy bobo, ruxsat bersangiz bir gapni aytayin. Endi shu Norgulni So'Itoqka bersangiz. Odamlar: «O'zining kuyovi olib ketibdi-da, xa, kuyov-kelinning yurishi oriyatmi?» - deb aytishadi. Boshqacha bersangiz, eli-yurtga aytguligi yo'q gap bo'ladi. Keling, shu yerda ikkalasini fotixa qilaylik. So'Itoq ham bir musofir, lekin mard yigit. Biz ham oz-ozdan qizning qalinini beraylik, ko'paylashib boy qilib yuboraylik», — deb uyidan bir bo'ynoqni ko'tarib kelib, og'zini chechib yubordi, oltinkumush tangalar yarqirab qoldi. Yig'ilib kelganlarning hammasi bir xili ko'pdan, bir xili ozdan taylayberdi. Dono cho'pon ham chidab turolmay xaltachani olib, barini to'kib yubordi, qolgan cho'ponlar ham birin-ketin taylab bo'ldi.

Shunda Shukurali turib: «Kele, ko'p biriksa bekni otlantiradi»-degan ekan. Mana bu pullar ham shularniki бўлсин - deb edi, hamma xursand bo'lib kulib yubordi, lekin So'Itoq xursandligidan yig'lab yubordi. Shukuraliboy Xalil mergandan; «Siz So'Itoqning kimi bulasiz?» -deb suradi. «Men, -dedi Xalil mengan, -So'Itoqning tutingan otasi bo'laman». «Unday bo'lsa, shu pullarni oling, mayli aytganiningiz bo'lsin. Kelasi bozorgacha bozorlab, kerakli anjomlarni olib, So'Itoq bilan boring, bozor kuni to'yni o'tkazib kelasiz», -dedi Shukraliboy.

Hammalari rozi bo'ldi So'Itoq bilan Norgulni fotixa qildi. Bir biyaga Norgulni mindirib, xay-xaylab, bir-biri bilan duolashib, Shukraliboy Tangixaram qarab ketdi.

Bu tomonda So'Itoq bilan Xalil mengan to'y taraddusini qilabersin, endigi gapni u yoqdan eshitir.

Sultonrabot yaylovida yashayotgan Ermatboy Norgulga yuborgan odamlari qaytiq kelganda: «Nima bo'ldi?» - deb so'rab edi. Shunda ular: «To'y vaqtinchal qoldirildi. Shukraliboyning qizining tobi qochgan ekan», - deb aytib kelib edi. Bugun bir yo'lovchidan hamma gapni eshitdi, qaxri kelib to'rtta odamni yubordi: «Boringlar, hamma gapni bilib kelinglar. Qizi birov bilan qo'shilib qochib ketgan bo'lsa, bergen mollarni olib kelinglar, u yigit qayerda kim, bilib kelinglar», - dedi.

Ermatning odamlari bordi, hamma voqeani bildi, bergen mollarining barini oldi, kelib bo'lgan voqeani Ermatboya aytadi. Ermatboy «So'Itoq degani kim ekan, qayerdan ekan, mendan ham boymikan?» -deb so'radi. Kelganlar: «Qayerda deysiz, bir yalang oyoq ekan, Gilambaxtdan ekan, shu bozorda to'yi bo'lar ekan. So'Itoq ham ulay-bulay olib, ertan bozor deganda kelar ekan», -deyishdi. Shunda Ermat yigitlariga qarab bir so'z aytib turibdi:

Eshitinglar boy bobongning tilidan,
O'tiringlar kelib o'ngi-so'lidan,
Bir shartim bor bajarsanglar, yigitlar,
Ne desang olasan boyning qo'lidan.

Ichimdag'i yongan dardni bildiray,
Dushmanim o'ldirib, do'stim kuldiray,
Shul shartimni qilib kelsang, yigitlar,
Har biringga bitta tulpor berdiray.

Kelguningcha yo'lga qarab turayin,
Sherliklaring, mardliklaring ko'rayin,
Har biringga bitta tulpor mindirib,
O'n tillodan har biringga berayin.

Bedov otni saylab-saylab minsanglar,
Qo'lga tayoq bilan miltiq olsanglar.
Oxir kelar shu Konsoyning yo'lidan,
Ikki yo'l bor silar anglab bilsanglar.

Bul ishimni oson ish deb bilmanglar,
Beray dedim aslo quruq qolmanglar,

Kecha kelsa o'tib ketib qolmasin,
Uxlayman deb hech xayolga olmanglar.

Xar odamni jasadidan bilinglar,
Aldab o'tirishga mehmon qilinglar,
Agar ismi So'ltoq bo'lsa armon yo'q
Bachchag'arni sharta bog'lab olinglar.

Qiyg'ir qushlar aylanadi qiyada,
Qarg'a uchmay maqtanadi uyada,
Bachchag'arni sharta bog'lab olinglar
Haydab kenglar shu yergacha piyoda.

Ayamay qamchini soling boshiga,
Qamchi uchi kelib tiysin to'shiga,
Bedov bilan umganlatib urdiring
Manglayi qars etsin soyning toshiga.

Boy kimligi u battolga bilinsin,
Oyog'iga kiygan buyum olinsin,
Ot bostirib haydang soyning toshiga,
Chag'ir toshga oyoqlari tilinsin.

Ayamay yelkaga uring tayoqni,
Ochman desa yediringlar qiyogni,
Oralatib bodomchaga haydanglar,
Tog' tikani teshib chiqsin oyoqni.

Minib Chiqqan bedov oting tolmasin,
Aqlingni hech qodir ollo olmasin,
Panalatib bunda haydab kelinglar,
Shukuralining bir odami bilmasin.

Bunda kelsa u battolni ko'rayin,
Ko'rganimda bilganimday qilayin,
O'ldirmayin bunda olib kelinglar,
Menga tiyinmasday qilib qo'yayin.

Kimligimni bachchag'arga bildiray,
Manglaylarin sharta-sharta tildiray,
Kesib olib burni bilan qulog'in,
Bir eshakka chappa qilib mindiray.

Bir tomosha qilay qilgan to'yiga,
Yarasha qilayin fe'li-xo'yiga,
Eshakka mindiray haydab boringlar,
Kuyoving deb Shukuralining uyiga.

Sher yigitlar gapga qulqo solinglar,
Hayallamay tezda otga mininglar,
Molu davlat olar bo'lsang o'zimdan,
Nechov bo'lsang bo'lgin, tezda boringlar.

Bu gapni eshitib, o'n to'rt yigit joyidan turib: «Xo'p boy ota, bizlar boramiz, aytaganingizday qilamiz, shu So'ltoqning qo'lini bog'lab, oldingizga olib kelamiz, undan so'ngra berganagingizni olamiz», - deyishib, eshikka chiqishib, miltiq topgani miltiq, tayoq topgani tayoqni olib, ot-otining beliga minib, qaydasan Konsoy, deb jqnab borayotgani:

Uzangisida oq tug'a,
Har tekkanida sharqillab,
Qamchi zarbidan tulporlar,
Kiyikday bo'lib dirkillab,

Gulga tikanlar jo'nadi,
Tikan ekkanlar jo'nadi.
Qabog'i qirday uyulib,
Pul uchun mushti tuyulib,

Yuzida qilcha mehr yo'q
Ko'ziga qonlar quyulib.
Bulbulga hakka jo'nadi,
Karg'aday tikka jo'nadi.

Burni og'ziga uyrilib,
Bo'riday labi jiyrilib,

Yo'l chetidagi lolalar.
Ko'rsa iziga qayrilib,

Oshiqqa ozor jo'nadi,
Xudoyam bezor jo'nadi.
Bari shishirgan biyaday,
Kul ustidagi ziyonday,

Qo'lga tayoqni ushlagan,
Dumi qayrilgan chayonday,
Ma'shuqqa maston jo'nadi,
Manglayi pesdan jo'nadi.

Ostida otlar zirillab,
Zarbidan toshlar girillab,
Hayda, deyishib boradi,
Qutirgan itday irillab,

Yigitga zulum jo'nadi,
Zulummas o'lim jo'nadi.
Otlar irg'iydi qulonday,
Ustiga ajal minganday,

Tiklab qarashar yo'llarga,
Poylagan qora ilonday,
Oshga zaharlar jo'nadi,
Qaytgan bahorlar jo'nadi.

Pesdan to'kilgan qosh bo'lib,
Biri-biriga bosh bo'lib,
Xayda, deb ketib boradi,
Yuragi qotgan tot bo'lib,

Rahmi yo'q toshlar jo'nadi,
O'ylovsiz boshlar jo'nadi.
Yur-ha, So'ltoqni ko'rsak deb,
Hech ayamayin ursak, deb,

Haydab boy bobo qoshiga,
Ot bilan tilla olsak, deb,
Xayla badkirlar jo'nadi,
Pulga o'lgirlar jo'nadi.

Shunday qilib, kechasi ot haydab, kun chiqqa-chika Konsoyning yo'liga chiqib oldilar. «Axir kelsang, shu yo'ldan kelasanda», - deb otlarni panaga bog'lab, o'zlarini burgutday chog'lab, olar pulini o'ylab, har muqomda so'y lab, yo'lga qarab, o'tgan-ketgandan gap so'rabs turabersin, endigi gapni So'ltoqdan eshitting.

So'ltoq bilan Xalil mengan Sherobod bozoridan kelin kiyadigan butun buyumlarini tanlab-tanlab oldi. Bir o'tovning suyagini ham oldi. So'yishga yigirma beshta qo'y olib, bozorlab bo'lib edi, shunda So'ltoq: «Mergan ota, uyning suyagini oldik, ustini, ikir-chikirlarini olmadik-ku, xali pulimiz ko'p olaylik», — deb edi, Xalil mengan: «Uyning suyagi kuyov tomonidan bo'ladi, boshqasini kelin tomonidan qiladi. Qolgan pullarni hammasini kelinga qalinga beramiz. Kim biladi, shu pulni ham Shukuraliboy oz deb turama», - dedi. «O'zimizda bir yomon odat borda, -dedi So'ltoq, -qizni mol singari sotadi, bilmadim, bu odat qachongacha davom etadi». Xalil mengan: «Hoy So'ltoq, haliyam nodonliging borda, o'zimizni bu odat hammadan ham yaxshi odat. Nega deysanmi, qulq sol. Shukuraliboyning ham Norguloyni odam qilguncha nimalari ketmadi. Unga qalin olmaydi. Shukuraliboy qizini beradi bu bir, o'tovning ichi-tishini kiladi bu ikki, nechta sandiqlar bilan qancha jo'k-jam qiladi bu uch, tirkovi deb mol ham beradi bu to'rt. Mana qalini deb berayotgan bu pulimiz bir o'tovning anjomiga ham yetmaydi. Demak, bergen qalin pulimiz uch barobar bo'lib qaytib kelar ekanmi? Bizning bu odatimiz ikki yoshga kami yo'q bir ro'zg'or ko'rib berish degan gap. Bordiyu hech narsa qo'shmay, Shukuraliboy: «Mana qizim, bir narsang kerak emas», - deb bereb yuborsa, o'zing o'yla, shunday ro'zg'or qilib olishing uchun qancha yil ishlapping kerak. Shuning uchun ota-bobolarimiz: «Farzandlarimiz kamsiz yashasin», - deb yarimini bu quda, yarmini u quda to'lasin deb, qalin pulini chiqargan. Boylarga kelsak, ularni qo'yaber, ular qa'damizdan chiqib ketishgan. Ular kelin oldim deb suyunmaydi. So'ltoqboy o'g'lim, yuring endi ketaylik. «Ketar kishiga yo'l yaxshi «deyishadi», - deb to'rt tuyaga anjomlarini ortib, qo'ylarini haydab: «Qaydasan, Tangixaram?», - deb yo'lga tushdi.

To'rtinchu kuni Chakchak tog'inining ustiga chiqdi. Shunda So'ltoq «Hoy Mergan ota, bu yog'i yaqin qoldi, kun botmay borasiz. Endi menga ruxsat bersangiz, men ertaroq boray, boy xaliyam gapida turibdimi, o'zgaribdimi bilay, undan keyin sizga xabar bergali chiqay hamda biror joy tayyorlagib turay. Mana shu yo'l tikka boradi, daraga kirmay shu shiramning sirti bilan ketaberazsiz, o'zi bir yo'l», — dedi.

«Xo‘p, mayli bolam, - dedi Mergan, —to‘g‘ri aytasan. Sen ertaroq borib bilib turgin”, - dedi.

So‘ltoq ruxsatni olib, uzangiga oyog‘ini tirab, qamchini bedoviing sovrisiga taylab, Norgulning joylari ko‘ziga issiq ko‘rinib, mehri tortib junab ketayotgani:

Tuyog‘ingdan To‘ri qashqa,
Yo‘ldoshim yo‘q sendan boshqa,
Yaqin qoldi yor orasi,
Irg‘isangchi tog‘u toshga,

Yur, sanam yorga boraylik,
Zulfagi zarga boraylik.
Avval yurding asta-asta,
Endi tayla chaparasta,

Hayla olisdan ko‘rindi,
Qoshi ko‘zları payvasta,
Yur, bo‘tako‘zga boraylik,
Yur, shirinso‘zga boraylik.

Boshing ko‘tar yoling taylab,
Tuyoqni bosgin avaylab,
Xayla ko‘rindi Norguloy,
Oq ro‘molga boshin boylab,

Yur, Norguloya boraylik,
Qo‘lida choyga boraylik.
Ko‘rindi Konsoy qorasi,
Yigitning bo‘lsin jo‘rasi,

Oq ro‘mollari pirillab,
Ko‘rindi ko‘nglim to‘rasi,
Yur, sarvinozga boraylik,
Qiligi‘i sozga boraylik.

Uchsa bulbuldan so‘ragan,
Ko‘rgan tushini juragan,

Sevganim qachon kelar deb,
Jopsarni yorib qaragan,

Yur, Gulandomga boraylik,
Jamoli shomga boraylik.
Men Alpomshi, sen Boychibor,
Ko‘ngilda qolmasin g‘ubor,

Qattiqroq yurgin jonivor,
Sanam yordan olay xabar,
Yurgin, dilbarga boraylik,
Taqsam tumorgia boraylik.

Chiqib borsam tog‘da qarg‘a,
Ertaroq, yetkazsang yorga,
Qo‘l ushlashib Norgul bilan,
O‘ynab o‘ssam birga - birga,

Yur bog‘di yozga boraylik,
Qo‘lida sozga boraylik.
Neni ko‘rmadi bu boshim,
Yetkirmasang ko‘zda yoshim.

Uyda qarab turganmikin,
Mehr qo‘ygan qalam qoshim.
Yur qalam qoshga boraylik,
Kiygani kimga boraylik.

So‘ltoq yuragi toshib, qo‘sishqka qo‘sishq qo‘shib, Konsoyning ustidan tushib borayotib edi, ikki kishi oldidan chiqib, egilib salom berdi. So‘ltoq salomga alik olib turgan edi, shu vaqt salom bergen odamlar So‘ltoqqa qarab: «Ey yigitlar, mening ishim zarur, boradigan joyimga ertaroq yetishim kerak”, — deb edi, turganlar: «Begim, dunyoda nondan azizrok, nondan zarurroq narsa yuq, nondan yuz o‘girmang. Bir tushasizu bir tuyur non bilan bir piyola choy ichasizda ketasiz”, - dedi. So‘ltoq bu gapni eshitib: «Menku bek emasman, bir cho‘pon odamman, nondan hech vaqt yuz o‘girganim yo‘k. Mayli, tushsam tusha kolay”, -deb otdan tushdi. So‘ltoqning otini bog‘lab, o‘zini tushamchiga olib bordi, oldiga choy-non qo‘ydi. Shunda bir keksarog‘i:

«Hoy yigit, sizni bir joyda ko'rganga o'xshayman, ismingiz maboda So'ltoq emasmi?» - dedi. «Ha, ismim So'ltoq, meni qayerda ko'rgansiz?» - dedi So'ltoq. O'tirganlar bir biriga qarashib, joyidan turishib: «Xa bizning asl akamiz bo'larkansiz», - deyishib, qoshiga kelib, o'tirgan joyida tarpa bosib, So'ltoq o'ziga kelguncha qo'lini mahkam bog'lab, hammasi ot-otining ustiga minib, So'ltoqning otini birovi yetaklab, so'ziga javob bermay «Bul battol!» - deb tayoq-qamchi bilan urib oldiga solib xayday ketdi.

So'ltoq: «Xay attang-a, bularning dushmanligini bilmadim-da, bilganimda aslo qo'lga tushmas edim, bularni odam soniga ham qo'shmas edim», - deb o'ylab borayotib edi, shunda Norgul turgan tog'larning uchi ko'rinaraverdi. So'ltoq dardini ichiga yutolmay, o'z boshiga o'zi bir so'z deb turgani:

Ey ko'ringan, qorli tog'lar,
Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
Ko'kda uchgan satta zog'lar,
Qonlar yutib ketdi denglar,

Tandan jonin sotdi denglar,
Ko'kda oyi botdi denglar.
Aytinlar, Norgul yorima,
Qirq cho'pon vafodorima,

Attang, armonlar qoldim-da,
Yuragim to'ldi cherima,
So'ltoq bundan o'tdi denglar,
Ichda armon ketdi denglar.

Sayramoqdan toldi tillar,
Azobdan bukchaydi bellar,
Yo'l chetida bargin yozib,
Yig'lab turgan satta gullar,

So'ltoq bundan o'tdi denglar,
Yor deb qonlar yutdi denglar.
Ikki qo'lim zolim bog'lar,
Bug' bo'b uchdi yoshlik chog'lar,

Menga soya berib turgan.
Oshiqqa vafodor tog'lar,
Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
Oh deb zardob yutdi denglar.

Azob chekdim qancha yillar,
Menga yurgan emas yellar,
Qat ustida menga qarab,
Sayrab yig'lagan, bulbullar,

Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
G'arib bo'lib ketdi denglar.
Meni urar sap garanglar,
Kuygan holimga qaranglar,

Boshin egib mustar bo'lgan,
Xo'rsinib turgan zaranglar,
Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
Qaray-qaray ketdi denglar.

Yig'lasam kunduz-kechalar,
Holini bilmas nechalar,
Urmanglar deb boshin to'lg'ar,
Shoxini cho'zgan archalar,

Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
Yongan chiroq o'chdi denglar.
Bu jalloddan bo'ldim bezor,
Tushlarimdan qonlar izar,

Yo'l ustidan tikanlarin,
Olib qochgan qizamizlar,
Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
Sinovli kun bitdi denglar.

Qabotimda bo'ri uvlar,
O'ylay-o'ylay boshim guvlar,
Meni ko'rib faryod urib,
Shovullahib oqqan suvlar,

Bundan So‘ltoq o‘tdi denglar,
Norgul deb g‘am yutdi denglar.
Bexabardi(r) qalam-qoshlar,
Holimni ko‘rmadi dus(t)lar,

Sipo qilib yuzin tutgan,
Soyda yotgan o‘tkir toshlar,
Bundan So‘ltoq o‘tdi denglar,
Qoni tomib ketdi denglar.

Bildim bular dushman bo‘lg‘ay,
Axir tandan jonnii olg‘ay,
Boshimda parvona bo‘lgan,
Kakulingdan, mulla to‘rg‘ay,

Bundan So‘ltoq o‘tdi denglar,
Quloqlari bitti denglar.
Boshga dushman qamchi tashlar,
Qon Chiqarib yig‘lar tishlar,

Boshin cho‘zib tiklab turgan,
Go‘sh(t) qarashib g‘ajir qushlar,
Bundan So‘ltoq o‘tdi denglar,
Yemish bo‘lib ketdi denglar.

Baland-baland past qiyalar,
Chopishgan qulun, biyalar,
Holim ko‘rib, ko‘zin yumib,
O‘ylashib turgan tuyalar,

Bundan So‘ltoq o‘tdi denglar,
Beldan darmon ketdi denglar.
Kim quloq solar zorima,
Yurakdan chalgan torima,

Tog‘da sayragan kakliklar,
Xabar beringlar yorima,

Esiz So‘ltoq o‘ldi denglar,
Izi yo‘lda qoldi denglar.

Tog‘ pastidagi buloqlar,
Shunday edimi tilaklar,
Tepa ustida chopishgan,
Izg‘ishgan qo‘zi-uloqlar,

Cho‘pon So‘ltoq o‘tdi denglar,
G‘am-alamni yutdi denglar.
Azob ko‘rdi-da tanalar,
Besoyib qoldi xonalar,

Cho‘pon do‘srlarga xabar ber,
Gangillab uchgan sunalar,
Do‘sting So‘ltoq ketdi denglar,
Bu jahondan o‘tdi denglar.

deb So‘ltoq o‘z holiga o‘zi yig‘lab borabersin, endigi gapni Donodan eshiting.

Dono bilan Ergash cho‘ponlarga oziqa berib kelayotib edi, soyning ichida ko‘p otlini ko‘rib qolishdi. Qarasa, oldiga bir odamni solib, yetgani urib, mol xaydaganday bo‘lib, surib ketayotir. Shunda Ergash: «Dono aka, anavu ot So‘ltoq akaning otiku, ot oldida piyoda ketayotgan odam ham So‘ltoq akamga o‘xshaydi», - deb edi, Dono cho‘pon: «Hay Ergashjon, bildim, bu odamlar Ermatboyning odamlari. So‘ltoqdan o‘ch olmoqchi bo‘libdi-da, axmoq! Ikkimiz bularning qo‘lidan So‘ltoqni tortib ola olmaymiz, sen chop, cho‘ponlarga xabar ber. Men ularni kuzatib turay», - dedi.

Ergash ot chopib ketdi, cho‘ponlarga yetdi, xabarni berdi, yigirma otli bo‘lib ot choptirib qaytib kelayotib edi, Dono cho‘pon imlayberdi, qoshiga bordi. Dono cho‘pon aytdi: «Endi yigitlar, orqasidan bormaylik, sezib qolishib So‘ltoqni biror narsa qilmasin, oldidan chiqib to‘ydan kelayotgan kishiday bo‘lib yaqinlashamiz. Men bir yo‘talaman, shu vaqt ot solinglar, hech ayab turmanglar, sizlar ayagan bilan ular ayamaydilar».

Hammasi bu gapni ma’qul bilib, ot choptirib ketdi, oldidan o‘rab, to‘ydan kelayotganday gurunglashib chaq-chaqlashib kelaberdiilar. Shunda So‘ltoqni haydar borayotgan odamlar bularni ko‘rib, sarosimaga tushib turib edi, bittasi: «Hoy yigitlar, bular to‘ydan kelayogganga uxshaydi, otlariga qaranglar xiyila chogpanday. Maboda bizga gap qotsa men javob beraman, sizlar indamay haydar ketaberinglar. Agar buni

tanib qolsa janjal ko'tarmoqchi, qutqarmoqchi bo'lsa, men ot deyman, shu vaqt yelkasidan otinglar, murdasini olib ketsin, qozilashsa ham boy qutqaradi", - dedi.

So'ltoq ham bular kim ekan, deb qarab borayotib edi, ular ichida Dono cho'ponni, Ergashni, hammasini tanib yig'lab yubordi va o'zini to'xtatolmay yuragi tulib, bir so'z aytib turgani:

Bu dunyoying kuygan qulga tor ekan,
Orqasida egasi yo'q xor ekan,
Men qaddingdan aylanayin, do'stlarim,
Shukur qilay shuncha do'stim bor ekan.

Zolim haydab hech qolmadi darmonim,
Oraga tikildi tandagi jonim,
Men sadag'a bo'lay, do'stlar, o'zingdan,
Endi o'lsam aslo yo'qdir armonim.

Boshim tilinganman bag'rim tilinmas,
Tishim singan bilan orim olinmas,
Endi o'lsam olamda yo'q armonim,
Ko'nglim to'ldi yolg'izligim bilinmas.

Eshitadiganlar keldi so'zimni,
Ko'taradiganlar qildi nozimni,
Yig'lama, deb gap qotmagin, Donojon,
Shuncha qildim bosolmayman o'zimni.

Bir yigitga agar bo'lsa boshpana,
Besoyib qolmaydi orqada xona,
Shuncha qildi tutolmadi o'zini,
Ot ustida yig'layberdi shul Dono.

Katta tog'ning aylanasi qiyirdi,
Oyoq tiygan joyni teshib siyirdi,
Ot ustida yig'layberdi shul Dono,
«Ushla bachchag'arni», - dedi buyurdi.

Ana endi cho'ponlar,
Tayoq oldi qo'liga,

Baqirishib tayladi,
Dushmanlarning mo'liga.

Bedov otlar shasht bilan,
Bosib keldi ustiga,
Tayoq sermab, ot solar,
Bir-birining qasdiga.

Dushmanlarning boshlig'i,
«Ot!» - deb farmon beradi,
Otdan tushib shul Dono,
Pana qilib turadi.

Esiz dushman otgan o'q,
Kelib tegdi Donoga,
Qo'lin yechib «Uh» - dedi,
Tars yiqildi jonaga.

Xech kim aslo chidamas,
Ayrilinqning javriga,
«Menday So'ltoq o'lsin», - deb,
O'pib bosar bovriga.

Ko'z ochib der shul Dono:
«Nima bo'ldi bilmayman,
So'ltoq, xafa bo'lmafigin,
Xalilar men o'lmayman.

Xayla, min ot beliga,
Do'stlaringga yordam ber,
Ayamagin dushmani,
Kulochkashlab tayoq ur.

Badkirlarga, So'ltoqjon,
Bir ko'rsatgin kuchingdi,
Shunda hovring chiqadi,
Qaytarib ol o'chingdi».

Irg‘ib turib shul So‘ltoq,
Mindi otning beliga,
Burgutday har qabog‘i,
Tayoq oldi qo‘liga.

Xo‘rsinadi shul So‘ltoq,
Kelolmaydi o‘ziga,
Ovdarilgan baland tog‘,
Chibinchay yo‘k, ko‘ziga.

Tayoq tegsa bilmaydi,
Tayoq sermab o‘tadi,
Kimga tegsa tayog‘i,
Tappa yerga yotadi.

Qochganni ham qo‘ymaydi,
Yiqitdi ot belidan,
Olti dushman yiqildi,
Shul So‘ltoqning qo‘lidan.

Nechovlari o‘ldim deb,
Podadayin bo‘kirdi,
Umid qilib bir xili,
O‘rtogini chaqirdi.

So‘ltoq bilan do‘satlari,
Bog‘lab oldi barini,
Armoni yo‘q yigitning,
Endi oldi orini.

Nechovlari yalinib,
Uzanggiga bosh urdi,
Nechovlari tovba deb,
Yoqasini quvshirdi.

Zor yig‘lashib nechovi.
«Menda gunoh йўқ» - dedi,
«Aldab meni yubordi,
Ermat ko‘zi ko‘k,» - dedi.

Hammasi jam qilib,
Keldi Dono qoshiga,
Dono kulib turardi,
So‘ltoqbekping ishiga.

Otdan taylab shul So‘ltoq,
Og‘asiga qaradi,
Boshin qo‘yib tizzaga,
Yig‘lab holin so‘radi.

-Xafa bo‘lma, So‘ltoqjon,
Uyushibdi bir qo‘lim,
To‘y oldidan kelmaydi,
Odamzodga hech o‘lim.

Shunda So‘ltoq Dono akasining ustini yechib, orqasiga qaradi, o‘q o‘ng iyinidan kirib o‘tib ketibdi. O‘qning joylariga bir separ o‘tdan malxam qo‘yib, maxkam bog‘lab: «Endi Dono og‘a, bularni nima qilamiz?» - deb, So‘ltoq bog‘langan odamlarni ko‘rsatdi. Dono cho‘pon: «Bularga endi ko‘p ham jabr qilmanglar. Shuncha urdilaring yetar, qo‘lini bog‘lab, ot-otining ustiga mindirib yuboringlar», - dedi.

Dono cho‘ponning aytganini qilib, cho‘ponlarning hammasi bir bo‘lib, ot-otiga minib, Dononi ham otga mindirib olib ketdilar. Yo‘lda o‘tib ketayotgan Xalil merganni ham qaytarib, Dono cho‘ponning qo‘shida gurung qilib yotdilar.

Erta-mertan tong otdi. Dono yotgan joyidan Xalil merganga qarab: «Xoy Mergan ota, sizlar endi ertaroq Ergash bilan boynikiga boringlar. nima deb maslaxat bersa aytganini kilinglar, olib kelgan narsalarni ham olib boringlar», dedi. Ikkalasi tuyu, qo‘ylarni haydar Shukuraliboynikiga salom berib, kirib bordilar. Boyning xizmatkorlari tuyalardan yuklarni tushirib, uyga kiritdilar. Ovalning bola-chaqasi, katta-kichigi «Kelinga to‘y kelibdi», - deb chopishib kela boshladi. Xotin-xalajlar kelinning buyumlarini ko‘rib ma‘qullashdi. Oqsoqollar meva-cheva, gurunch, moy, choy, qo‘y- barini ko‘rib: «Elga yetadi», - deyishdi.

Shundan keyin Shukraliboy: «Endi Xalil mengan, o‘zingiz bilasiz, qizning fotixa to‘yi bo‘ladi, yalok qizartar to‘yi ham bo‘ladi, undan keyin qudalar o‘rtasida dasturxon borib kelari ham bo‘ladi, bulardan endi ikkimiz ham kechamiz. Bugun kelinning o‘tovi tikilsin, ertaga to‘y bo‘ladi, deb chaqiruvchilar to‘yodoshlarni chaqirib kelsin, bizning to‘y ertaga bo‘lsin, kelin tushdi to‘yinii siz undan keyin o‘tqarasiz», - dedi. «Xo‘p bo‘ladi, - dedi Xalil mengan, - lekin mening ham bir og‘iz gapim bor.

Kelin-kuyov shu yerda qoladimi yoki bizlar olib ketamizmi?» «Uni o'zlaridan suraysiz», dedi Shukuraliboy.

Shunda Xalil mengan: «Boy ota, mana buni olib qo'ysangiz», — deb pullarni bergen edi, Shukuraliboy: «Yo'k Xalil mengan, men bularni olmayin, o'ylab ko'rsam So'ltoq Norgulning qalin molini uzgan ekan. Mening mollarimni o'g'rilar olib ketgan edi, ololmadik, lekin So'ltoq olib keldi. Endi bu pullarni qarz olgan bo'lsa uzsın, bo'lmasa mol qilib olsin», - dedi. Ikki quda hamma tomonni kelishib oldi.

Xotin-xalajlar bir bo'lib, Norguloyning o'tovini tika boshladilar. To'rtta keragasin «Bizday qarib ўорсин» deb to'rtta kampir uyurdi, bo'sag'asini «mexmon ko'p bo'lsin», - deb mexmon xotinlarga qurdirdi. Kelin-qizlar o'tovining bog'ishini bo'sag'adan bog'lab, bir uyurib yana busag'aga bog'ladi, sakkizta uy qozig'ini qoqib, keragaga qo'shib bog'lab tayladi. Ana endi chang'aqoni ko'tarish qoldi. «Bola-chaqasi ko'p bo'lsin», - deb bolasi ko'p ayolga chang'aqoni ko'tartirib, oltmishto'rtta uvuqni qadadi, pastini har xil rangdagi ipak ip bilan keragaga maxkamladi. Qiz-kelinlar kashtali tuzmani olib uvuq bilan uvuqni bir-biriga bog'lab, pastidan kashtalangan enli qurni ham uyurib bo'ldi. Navbat g'ildiroviqu keldi. O'tovning g'ildirovig'i qanday edi? Shunday edi, chang'aqning og'zi qatori g'ildirak qilib olingen, matosi baxmaldan qilinnb, xiyli kashtalangan, uyurib tupak taqqan bo'lib, unga ushslashgan o'n olti otma bog'i ham tupak va kashtalangan. Fildirovuqning o'rtasidan chang'aqning o'rtasiga bog'lab o'n oltita otma bog'ini o'n olti tomonga tortib tizma bilan keraga o'rtasiga oyquchoq qilib tashlar edi. Qizlar kulishib, bir-biridan sovumasin, deb g'ildirovuqni tutib, o'n olti otma bog'ni oyquchoq qilib tashladi. To'rtta oppoq kigizdan jopsorni to'rt tomonga tashlab, bir-biriga ushlashtirib bog'ladi. Ana endi navbat uzukka keldi, ikki oq uzukni ikki yoqdan tayoq bilan ko'tarib, uy ustiga tashladi, ularning o'n oltidan oq bovini uyning ichiga oyquchoq qilib bo'ldi. Kigizlarni ushlab turish uchun ikkita oq beldovni o'tovning iynovidan tutib bo'sag'aga maxkamladi. Chang'aqning ustidan to'rtta oq ola ip bilan bog'langan tuynukni tashlab, uchta uchini bog'ladi, bittasini Norguloy bog'laydi, deb bo'sag'aga qo'ydi. Undan keyin oppoq chiyni uyurib, o'tovni tayyor qilib qo'ydi. «Bo'sag'asi moyli bo'lsin», - deb busag'aga semiz qo'ydan birini osib siyirdi. Uyni tikkan xotin-qizlarning bari bitta-bittadan to'n kiydi. Norguloyning o'tovi ichi qip-qizil jaynab, sirti oppoq tuxumday bo'lib tepa ustida elu xalqqa ko'rinish turdi.

Ertasiga to'y bo'ldi. Kelgan keldi, ketgan ketdi, kun ham botdi. qolganlar Xoliyor baxshini eshitgali o'tovga kirib ketdi.

So'ltoqnnng odamlari nikoh o'qitgali mullani ham olib kelishdi. Mulla ikki odamning qiz vakilini cypagach, bittasini qiz ota qilib, ikki vakil so'ragichga: «Boringlar qiz vakilini qiz otaga bergenini qulqoq bilan eshitib kelinglar», dedi. Ikki

vakil Xalil mergandan pul olib, Norgulning qoshilagi qizlarga borib: «Endi Norgulga ayttingilar vakilini qiz otaga bersin», - dedi. Qizlar ko'nmadi, vakillarni o'n marta qantardi, vaqt ham yarim kechadan o'zdi, oxiri qizlar ko'nib, Norgulga vakilini aytirdi. Xalil bergen vakil va qiz otani rozi qilib So'ltoqni chaqirdi. Mulla: «Shukuraliboyning qizini xotinlikka qabul qildingmi?» - deb so'ragan edi So'ltoq indamay turdi. Shunda Xalil mengan: «Senga ham pul berayinmi?» - degan edi, hamma kulib yubordi, So'ltoq kizarib: «Qabul қилдим» - dedi.

Shundan keyin So'ltoqni Shukuraliboyning uyiga olib bordi, uy oldida ta'zim tutib, kiramiz deganda ikki kampir irillab kiritmadı. Kampirlar: «Bizlar it irillar, haqimizni bering», - dedi. Xalil mengan haqini bergen edi, kampirlar kiritib yubordi, chimildiqning ichiga kirib, ta'zim qilib o'tirdi. Qizlar Norgulni bir kigizza solib ko'tarib kelishib So'ltoqning oldiga qo'ydi. Bir xotin So'ltoqning qo'lini olib, Norgulning sochini silatdi-da, «Pulini bering», - dedi, berdi. Bittasi: «Ikkingizning yuzingiz oynadek yorug' bo'lsin», - deb oyna ko'rsatib, u ham pulini oldi. Shu bilan chimildiqni tushirib xotin-xalajlar uydan chiqib ketdi. Tong otgan maxalda Norgulning onasi: «Ikkalang ham eshikka chiqib otayotgan tongga qaranglar, baxtlaring tongdek ochilsin», - dedi. Ikkalasi ham eshikka chiqib tong otishini tomosha qildi, so'ng So'ltoq ketdi, Norgul uyga qaytib kirib keldi.

Ertasiga oq o'tovga Norgulni uzatmoqqa xozirladi. Yuklarni tuyaga ortdi. Norgulni bir biyaga mindirib, oldiga yosh bolani berib qo'ydi. Ikki tomonga o't yoqib, Shukraliboy qiziga duo berayotir, Norgul yig'lab turibdi. Biyani ikki o't o'rtasidan o'tkarib, oq o'tovga qarab Xalil mengan biyani yetaklab ketdi. Norgulga qo'shilib onasi, ammasi, ikkita do'sti bordi. So'ltoq kelinni o'tovi oldida biyadan ko'tarib tushirdi. Ana endi So'ltoqning o'tovi oldida qo'ylar so'yilib, kelin tushdi to'yib boshlanib ketdi.

Oq o'tovning ichiga,
Oydayin kelin tushdi,
So'zining shirinligi.
Moydayin kelin tushdi.

Goh balanddan,goh pas(t)dan,
Kelayotir odamlar,
Kelinchaklar nozbilan,
Oyoq tirabqadamlar.

To'shamchilar to'shalib,
Dasturxonlar yozildi,

Bug'i chiqib turgan osh,
Karsonlarga suzildi.

Bir tomondan suzilib,
Qaynoq go'sh(t)lar taylandi,
Qari-qartang oldiga,
Ucha, to'shlar taylandi.

Oppoq nonlar qoshida,
Sariq mayiz aylandi,
Dirkillagan bedovlar,
Uy ortiga boylandi.

Bir tomonda baxshilar,
Qo'lga oldi sozini,
Tohir-Zuhrodan so'zlar,
Yumib olib ko'zini.

Bir tomonda bolalar,
Ko'kka otar o'zini,
Goh quvishib qoladi|
Uloq bilan qo'zini.

Bir tomonda kelinlar,
Chaldi chanqavuzini,
Itlar Chiqib o'ynaydi,
Ko'rsatmayin yuzini.

To'y qizigan vaqtida,
Bo'ldi kelin ko'rsatar,
Kelin ko'rgan odamlar.
Chaparasta pul sochar.

Ana endi kelin salomi boshlandi. Hamma odamlar yig'ilib oq o'tov oldiga kelaboshlandi, oq o'tovning oldigako'gan tashladi, ustidan qo'y terisini yopib qo'ydi, uning ham ustiga baxmal to'shab, ustiga Norguloyni olib keldi. Shunda shu ovuldagi Xudoyerdi boyning kampiri Oydin moma oldinga chiqib: «Bolam Norguljon oyog'ingga ko'gan quydim, ko'zing ko'ganga sig'masin; baxmal to'shatdim, uying mexmondan arimasin; belingga qo'ldov bog'ladim, farzandlarling serob bo'lsin;

busag'angga butun non qo'ydim, rizqing mo'l bo'lsin, o'ng kistangga oyna soldim, qalbing oynaday beg'ubor bo'lsin, qo'shganing bilan qo'shsha qarri, endi o'tirgan odamlarga salom ber, men aytaberaman, sen egilib salom beraberasan", - deb boshladi:

Anov tog'ning andizi,
Bo'y cho'zadi kunduzi,
Otsa qochib ketolmas,
Kiyiklarning yulduzi,

Qaynatasi ham o'zi,
Qaynanasi ham o'zi,
Xalilboyga bir salom.

Xalilboy kulib kelin oldiga bir tilla sirg'a tashladi.

Yeyman desa naq(d) yegan,
Boy bobodan do'q yegan,
So'itoq uchun talashib,
O'ng iynidan o'q yegan,
Yuzi pishgan anorday,
Iynilari minorday,
Donaboyga bir salom.

Donaboy ham joyidan turib Norgulning oldiga bir la'l nuqra latiba tayladi.

Qo'yning bo'lsa chorisi,
Gush(t)i kasal dorisi,
O'tirishi o'ymoqday,
Shul ovulning qarisi,
Og'zilari o'radyay,
Muritlari sho'radyay.
Pirmat bobosiga bir salom.

Xamma xo-xolashib kulisha ketdi. Pirmamat bobo illa joyidan turib, yuzi qizarib, ming yasha, bolam, deb kissasidan Norgulga tanga tashladi.

Bundan tuban Boldirgan,
Ko'zasi bel toltingan,

Ovqat yemay yuray deb,
Bor tishini oldirgan.
Yuz kuygan jiziqday,
Iyaklari qoziqday,
Gulsim momoga bir salom.

Yana kulgi ko'tarildi. Gulsum momo joyidan turib, Norgulga: «Ko'p yasha, juyruq osha, qizim», - deb ro'mol sovg'a qildi.

Chaqmog'inini qayratgan,
Boqqan qo'yin yayratgan,
Do'mbirasi qo'lida,
Chal deganda sayratgan,
Muriti qop burjiday,
Inga kirmas gurjuday.
Ergash akasiga bir salom.

Hamma qiyqirib kulib yubordi. Ergash qizarib: «Hax, momom o'lgor, oopladi?!», - degan edi, odamlar. «O'zingni ham gurjidan farqing qolmabdi», - deb yana kula ketdi. Ergash Norgulga adiras ko'ylak tashladi.

Do'mbirasi zardoli,
Sotgani yo'q xardori,
Kelinoydan aytganda,
Bo'lar yigit sardori.
O'rga tortgan qabonday,
Qopga tiqqan sobonday,
Rajab akasiga bir salom.

Yana knligi bo'ldi. Rajab cho'pon ham kelin salomiga ro'mol sovg'a qildi.

Xurjun desang qop aytar,
Keli desang sop aytar,
Turtsang javob bermaydi,
O'n gapga bir gap aytar,
Oyogg'ida huqqisi,
O'zi yigitning huqqisi,
Xoliyor akasiga bir salom.

Xoliyor cho'pon bilakuzuk sovg'a qildi.

Shishak qo'yning uchasi,
Shirin bo'lar kechasi,
Maslahatli ish chiqsa,
Xotinlar boybechasi,
Og'i burni burishgan,
Kelin bilan urishgan,
Xoldan opasiga bir salom.

Bu salomga ayniqa kelinlar ko'p kulishdi. Xoldan ham qizarib, zar do'ppi sovg'a qildi.

Nasihatni olmagan,
Uy yig'ishni bilmagan,
Qaynanasi koyisa,
Oltoygacha kulgaman,
Non yopolmay kuydirgan,
Idishin itga jiydirgan,
Kelinlarga ham bir salom.

Endi xotin va yigitlar kula ketdi. Kelinlar ham goh qizarib, goh bo'zarib Norguloy oldiga topganlarini taylab ketdi.

Ketmay o'choq boshidan,
Issiq o'tmay tushidan,
Sudrasang ham ayirlmas,
Kampirining qoshidan,
Tishning o'rninga pichoq,
Soqoli bir quchoq,
Xamma bobolarga bir salom.

Bobolar ham ataganini berdi.

Gerdayishib turishgan,
Choli bilan ko'rishgan,
Birov qaribsiz desa,
Tong otguncha urishgan,
Qo'li mayim moycha bor,
Beli tortgan yoycha bor,
Momolariga bir salom.

Momolari ham ataganini berdi.

Polvonlarning polvoni.
Ro'zg'orimiz sarvoni,
Sizlar bilan boshlanar,
Kelinlarning davroni,
Qizni aytса kulishgan,
Bir narsani bilishgan.
Xamma yigitlarga bir salom.

Chopishgani toydayin,
Suvi oqqan soydayin,
Onasini ko'rganda,
Qo'zi bilan qo'ydayin,
O'g'il-qizlarga bir salom.

Shu bilan kelin salomni tamom qildi, kelin oq o'tovga kirib ketdi, to'y esa davom etdi.

Bir tomonda «olha» deb,
Katta uloq tayladi,
«Olha-ol» deb odamlar,
Bir-biriga so'yladi.

Chavandozlar burgutday,
Tortib olar o'ziga,
Katta uloq chivinchा,
Ko'rinnmaydi ko'ziga.

Abdulla sher har vaqt,
Chiqli aytgan so'zidan,
Xayla uloq ketdi deb,
Quvishadi izidan.

El og'zida Xazratqul,
Kalxat deydi o'zini,
Janda mirza ot haydab,
Cho'pchitadi bo'zini.

Usmon toyloq ushlasa,
Aslo harom bo'lmaydi,
Bir chopog'on qo'lidan,
Tortgan bilan olmaydi.

Bir tomonda polvonlar,
Olishini boshladi,
Sherday bo'lib baqirib,
Zo'r kamzo'rin tashladi.

Bobolar der: «Xech qachon,
El bundayin to'y ko'rgan yo'q
Boy qizini hech zamon,
Kambag'alga bergen yo'q.

O'g'il ko'rsin, qiz ko'rsin,
Ega bo'lsin davlatga”,
Shunday qilib ikki yosh
Yetdi murod maqsadga.

Oq o'tovning ustida,
Un oltita oyquchoq,
Qarisa ham Norguloy,
El og'zida kelinchak.

Kahhorov ham uch yozdi.
Bilimda quduq qazdi,
Abdiolim yana yozib,
Ancha vaqt ni ketkazdi.

So'z olamning naxshidir,
Bilmam qaysi yaxshidir,
Kelinoyni kuylagan,
Abdi Qodir baxshidir.

O'qisangiz xaloyiq,
Doim birga bo'layik.
Allohim panohida.
O'ynab kulib yurayik.

“Yozi bilan Zebo” dostoni

“Yozi bilan Zebo” dostoni haqida

Uzoq asrlar davomida yaratilgan o‘zbek xalqining adabiyoti, san’ati va fol’klorining insonni ulug‘lash g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan milliy qadriyatning yuzaga kelishida Janubiy O‘zbekiston, ya’ni hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududida yashovchi aholining ham hissasi katta bo‘lgan. Markazi Osiyoda keng tarqalgan “Yozi bilan Zebo” dostonining yaratilishi hozirgi Kasbi tumanidagi Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Maymanoq qishlog‘i bilan bog‘liq.

Xalq yaratgan bunday ma’naviy xazinaning bizgacha yetib kelgan namunalarini izchil tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday namunalardan biri «Yozi bilan Зебо» dostoni ham bizning tadqiqotimizda variantlararo o‘rganilib, uning umumo‘zbek eposida o‘ziga xos poetik qonuniyatlar va taraqqiyot tamoyillari qiyosiy tahlil etildi, dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari monografik tadqiq qilindi.

Tadqiqotda “Yozi bilan Zebo”ning otashin muhabbatni tasvirida dehqonchilik, chovchilik va hunarmandchilik mehnatining qadimiy asoslariga doir an‘analarning dostondagi epik talqini keng yoritilganligi, mehnat va ishq, mehnat va ruhiyat mavzularining eposda aks etishi ilmiy aspektida tahlil qilinganligi asarning badiiy qimmatini oshiradi. «Yozi bilan Зебо» dostonidan ayrim parchalar XX asrning 20-yillarda respublikamizning turli hududlaridan yozib olingen va tabiyki, o’sha vaqtданоq bu epik asar haqida ilmiy fikrlar bildirilila boshlangan. Dostonning parchalar holida qayd qilingan namunasi yoxud to‘liq bo‘lмаган nusxalari haqida, shuningdek, uning qo‘shiq qilib aytigan qismlari to‘g‘risida H.Zarifov, M.Alaviya, K.Ochilov, O.Sobirov, B.X.Karmisheva, M.Murodov, A.Ergashev, D.Xalilova singari olimlar fikr-mulohazalar bildirishgan. Ular orasida O.Sobirovning 1962 yilda nashr ettirilgan «Yozi bilan Зебо» dostonining yig‘ma varianti ham e’tibordan chetda bo‘lмаган. Ayni damda alloma H.Zarifov ta’kidlaganlaridek, nashr etilgan yig‘ma variantning ham «qanchalik йиғмалигини» bilish uchun dostonning folklor arxivida mavjud 15 ta nusxasi jiddiy o‘rganildi, qiyosiy tahlil qilindi. Uzoq vaqtlar davomida xalq baxshi-shoirlaridan tugallanmagan yoki parchalar tarzida yozib olingen variantlar hamda folklorshunos A.Ergashev tomonidan Qodir va Qahhor baxshi Rahimovlardan yozib olingen «Yozi bilan Зебо» dostonining yaxlit variantlari doston syujetining genezisi, shakllanish tarixi, yetakchi motivlar tarkibi va obrazlar silsilasini tadqiq etish, yozigo‘lyik an‘anasining dostonchilikdagи o‘rnini belgilash nuqtai nazaridan jiddiy o‘rganildi. Shuningdek, ushbu dostonning yaxlit kompozitsiya va syujetga ega bo‘lgan variantlariga an‘anaviy ishqiy-romanik dostonlar, xalq qo‘shiqlari va yozma adabiyotning ko‘rsatgan ta’siri taxlil qilinganligi, ijtimoiy mehnatning eposda yoritilishi va inson ruhiyati, tuyg‘u va kechinmalarining mazkur asardagi epik talqinini ochib berilishi «Yozi bilan Зебо» dostonining mukammal variantini aniqlashga xizmat qildi.

«Yozi bilan Зебо» dostonidagi ko‘pgina qo‘shiqlar dehqonchilik mehnati bilan bog‘lanib qolgan. Aniqrog‘i, qo‘sh haydash, o‘rim jarayonlarida qo‘schi va o‘roqchilar tomonidan kuylangan. Bunday chechan qo‘schi va o‘roqchilarni yozigo‘y, yozikash, yozichi deb ataganlar

Dostonning davlat arxivlarida saqlanayotgan va folklorshunoslar qo'sida bo'lgan yigirmadan ortiq variantlari orasida faqat birgina ota-bola baxshilar Qodir va Qahhor Rahimovlardan yozib olingen nusxagina yaxlit kompozitsiya va izchil syujetga ega bo'lib, epik an'ana mezonlariga javob beradi.

«Yozi bilan Zebo» dostonining Janubiy O'zbekiston xududida nisbatan to'liq, badiiy mukammal, epik an'analarga ancha mos ravishda saqlanib qolganligi va yozib olingenligi sababi XX asrning ikkinchi yarmida epos jonli an'analarning so'ni boshlagan davrida Qashqadaryo va Surxondaryoda Qodir baxshi talanti tufayli epik an'analarning qayta jonlanishi bilan izohlanadi.

Dostonning Rahimovlar varianti xalqimiz hayotida muhim o'rinn egallagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi mehnatning uchala turini voqealar bayoni davomida san'atkorona ko'ssata oladi. Yozi ishqini tasvirlashda dehqonchilik, polizchilik bilan bog'liq qo'shiqlar syujetli holda tiklansa, Zebo muhabbatini bayon qilish jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy turmushidan mustahkam o'rinn olgan hunarmandchilik va chorvachilik mehnati bilan bog'liq qo'shiqlar orqali dostoniga zeb beradi. Ushbu variant inson va tabiat, odam va olam orasidagi aloqalarni yaxlitlikda bera olishi, xalqning etnografik va etnoma'rifiy qarashlarini aks ettirishi, qahramonlarning ishq kechinmalarini nozik pardalarda mahorat bilan tasvirlashi jihatdan ham dostonning boshqa variantlaridan ajralib turadi. Bu yaxlitlik esa asarning boshidan oxirigacha izchillik bilan davom etadi. Umuman, barcha o'simliklari hayvonotlarni so'zlatib, baxshi bir tomonidan dostonning go'zal bo'lishiga erishgan, ikkinchi tomonidan, hatto qushlar, gullar ishqni ulug'lar, ezgulikni istar ekan, insonlarni ham shunga chorlaydi.

Shu o'rinda bir fikrga e'tiboringizni qaratsak. Folklorshunos A.Ergashev yozib olib, ilk bor nashr ettirilgan "Tohir va Zuhro" dostonining mukammal variantida voqealar G'uzor tumanining Qovchin, Qoratikan, Qamashi tumanining Langar ota qishlog'ida bo'lib o'tadi. Ma'lumki, Qoratikan qishlog'ida "Tohir va Zuhro"ning qabristoni bo'lib, Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimov bu joyni ziyyaratgohga aylantirgan edi.

Shu ma'noda, Maymonoqda ham "Yozi bilan Zebo" dostonida ishq va mehnat mavzusining hamohang ulug'lanishiga bag'ishlab, pok muhabbat egalari g'oyib bo'lgan g'or tepasida yodgorlik o'rnatilsa qanchalar savobtalab, ziyyaratgoh turizm makoni bo'lar edi.

Dilbar Xalilova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

YOZI BILAN ZEBO

(doston)

Ochib sondiqlarimni,
Ochayin bir bo'stonni.
Oshiq Yozi-Zeboden,
Aytayin bir dostonni.

Eshitganman ustozim,
Baxshi Rajab shoirdan.
Davrlarda gap boshlab,
Ulardan ham terdim don,

Umir shoir gohida,
Zeboden boshlar edi,
Yaxshi joyidan aytib,
Yomonin tashlar edi.

Kitob bo'ldi oy Zebo,
Hali kami bor edi.
Kim tuzatar ekan deb
Yozi unga zor edi.

Niyat qildim dostonni,
Eshitganim yozyay deb.
Oshiqqlik dengizida
Kema kabi suzay deb.

O'tgan zamonda, janub tomonda Jayxun daryosi yaqinida, Ko'hi tog'ning kun chiqar tomonida shahri Zangar degan mamlakat bor edi. Shahri Zangar obod mamlakat bo'lib ko'chalarda rasta-rasta do'konlar, karvonlarning hayqiriqlari, jangur-jangur qo'ng'iroy tovushlari, odamlar va xotinlarning qiy-chuvlari shaharning katta ekanligini bildirib turar edi. Shahar qo'rg'on ichida bo'lib, qo'rg'on darvozalarida navkarlar alanglab turar, pul bersa shaharga kirgizib, bermasa kirgazmay urar edi. Qo'rg'oning tashqarisida dehqonning ekin maydonlari, chorvaning yaylovlari bor edi. Butun shahar Jayxun daryosidan suv ichar va dalalarini sug'orar edi. Shahar ichida, Bog'i behal, Bog'i sufa, Bog'i salqin, Bog'i dilkusha, Bog'i qirqin degan bog'lar bo'lib nihoyatda

chiroyli edi. Hamma bog'larida qushlar sayragan, to'tilar o'ynagan, tovuslar tovlangan, g'azalay surnayini, laylak karnayini tortar, bulbul nog'orasi chalar, suvlar ariqlarda jaldirab o'ynoqlab oqar edi. Har bog'da shoh supalar qo'yilib, o'tgan- ketgan o'tirib, choy ichib ovqatlanib dam olar edi. Mamlakat juda ham obod bo'lib, podshosini Olimshoh der edi.

Olimshoh qanday shoh edi? Shunday shoh edi, mamlakatidagi hamma odamlarni bir xilda ko'rар, bir xilda muomila qilar, boylardan ko'ra kambag'allar arziga ko'proq qulq solar edi. Shuning uchun boylar, amaldorlar podshoni ko'rolmas edilar, Olimshoh ellik yoshdan oshib bir o'g'il farzand ko'rdi. Farzandi shunday farzand edi, oy desa oy, kun desa kun, ikkita zar kokili bor edi. Buni podsho hech kimga bildirmay yurdi. Oradan yil, oy o'tib mamlakatni yov bosdi, shaharlar o't ichida qolib vayron bo'ldi, qirg'in ustiga qirg'in bo'ldi. Amaldorlar va boylar podshoga dushman bo'ldi, urushda Olimshoh vafot etdi. Olimshohning ayoli Oysavsar bolani ko'tarib qochib borayotib, orqasidan o'q yedi, bola adir dashtda o'lgan onasi qo'lida qoldi. O'sha biyobonda bir cholu kampir poda boqib umrini o'tkazib yurar edi, momoni Guldona, cholni Mardon der edi. Guldona momo dashtdan o't yoqqali tezak terib yurib edi, bir go'dakning ingragan tovushini eshitib qoldi. Tezagini tashlab chopacha bordi. Ko'rdi husnda tengi yo'q bir juvon o'lib yotibdi, qoshida bir yoshdan endi oshgan bir go'dak ona siynasiga bosh qo'yib yig'lab turibdi. Cholini chaqirib, juvonni mozorga qo'yib, go'dakni uyiga olib ketdi. Moma go'dakning ikki haydar kokilini ko'rib hayron bo'ldi. "Hov chol, bu gapga qulq sol, topgan bolamiz unday-bunday bolalardan emas ekan, ikkita zar kokili bor, bir kokilini sota ketsang bir shaharga teng, Xudoyim qariganimizda bir nazarkarda go'dakni ato qilibdi. Nasib bo'lsa bir kuni boshimizga soyabon bo'ladi, go'dakka nima deb ot qo'yamiz?" - dedi. Shunda Mardon chol: "Ey kampir, menku ot qo'yishni ham bilmayman, lekin onasining ubsti boshiga, chiroyiga qaraganda, albatta, podshoning o'g'li bo'lsa kerak. Onasi tilla taqinchoqlarni taqaberib, bolaning sochiga ta'sir qilgandir, shuytib kokili zar bo'lgandir, shunga qarab o'zing biror ot qo'yag'ayda", - dedi. Shunda kampir: "Bo'lmasa podsholarning sag'ir qolgan bolasiga Qo'yqubbat deb ot qo'yar edi, buning ham otini Qo'yqubbat qo'ya qolaylik", - dedi. Ikkalasi bolaning otini Qo'yqubbat qo'yishdi. Oradan oydan oy, kundan kun o'tdi. Bir kuni Mardon chol podadan kelsa, Qo'yqubbat qip-qizil kal bo'lib turibdi. Mardon cholning es-pesi chiqib-ketdi: "Ey kampir, ey betovfiq, bolani nima qilding?", - deb achchig'lanaberdi. Shunda kampir: "Hoy chol, eshitmadingizmi, mamlakatga bir ochko'z podsho bo'libdi, navkarlari uyma-uy kirib, ko'ziga yaxshi ko'rинган narsalarni talab olayotgan emish, Mabodo birortasi kelsa, bolamning boshini ko'rsa, avvalo boshini oladi, bo'lmasayam kokilini kesib oladi, qo'lingizdan nima keladi, shuning uchun hech kimning nazari tushmasin, nazari tushib ko'z-po'zi tegmasin deb,

echkining qornini jumir qilib, boshiga kiygizib qo'ydim, endi ko'rgan kishi kal bola deb qo'yadi", -dedi. Mardon chol: "Ha kampir, to'g'ri qilbsan, sening bilganiningni birov bilmaydi", -deb kulishdi.

Oradan qancha yillar, oylar, kunlar o'tdi. Yozining yoshi o'n oltiga yetdi, Qo'yqubbat degan ot ham hammaning yodidan chiqib ketdi. Ko'rgan kishi: "Yozi kal, kal Yozi, Yozi", -deb atayberdi. Shu-shu Yozi bo'lib qoldi. O'n olti yoshida otasi Mardon chol ham, onasi ham izma-iz vafot etdi. Yozi sag'ir bo'lib qoldi.

Bir kuni qo'shchilarga qo'shilib adirda qo'sh haydab yurib, tong sahar uxlab qoldi. Uyquda yotib tush ko'rdi, tushida bir tog'ning darasida yuribdi, oldida katta daryo, boshidan jumirini olib, sochini yuvayotib edi, ot do'piri qulog'iga keldi, boshini ko'tarib qarasa, oldidan besh otliq kelayotir. Yozi razm solsa, beshtasi ham qiz, qizlarning oldida bir qiz ham bo'z ot minib, Yozi tomon kelayotir. Yozi shu qizga ko'zi tushib, aqli xushidan ketaverdi, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, yulduz desa yuzi bor, oq joyi oq, qizil joyi qizil, misoli bog'i eram, oldidan olma pishgan, keynidan jipak tushgan, shahlo ko'z, qizil dudoq, yupqa tomoq, qoshlari kamonday, kipriklari nayzaday, bellari ximcha, sochlari arg'imcha bir pari paykar. "Oh" deb, og'zidan olov chiqib yiqildi. Shunda u pari paykar otdan tushib, Yozining boshini ko'tarib turg'izdi. Shunda Yozi xushiga kelib: "Ey pari-paykar, sen qayerdan, kimning qizi bo'lasan?" – deb bir so'z ayтиb turibdi.

Ro'molingni xo'p o'rabsan dol qo'yib,
Gulg'unchaday lablaringga bol qo'yib,
Men g'aribni o'tga solib kuydirma,
Oy yuzingga oltinmisol xol qo'yib.

Sumbul-sumbul sochlaringdir xo'p qora,
Yuragu bag'rimni aylading pora,
Keng jahon ko'rinas bu kun ko'zimga,
Odammisan yoki pari paykara?

Bug'doy tushar tigirmونning toshiga,
O't ko'karar ko'zdan oqqan yoshimga,
Qaydan kelib, seni ko'rdim, nigorim,
Oshiqlikning dog'i tushdi boshimga.

Oydin ko'lning o'rdagisiz, g'ozisiz,
Men g'aribman, siz boshimda qozisiz,
Sayri bog'ning sayrab turgan humosi,
Qaysi elda qaysi bekning qizisiz?

Qarab tursam, qarorim yo‘q, naylayin,
Turay desam, madorim yo‘q, naylayin,
Ohuni aldab turib otgan, yorim,
Makonim ham turarim yo‘q naylayin.

Moya ketsa bo‘ta yig‘lar zor-zor,
Sag‘ir sho‘rga kim bo‘ladi madatkor,
Qaysi eldan qaysi joydan bo‘lasiz,
Otingizni nima daydi sanam yor?

O‘qib beray yuragimdan xatimni,
Yozi kal deb aytishadi otimni,
Oraladim bir sayribog‘ ichiga,
Sizdan boshqa kim tinglaydi dodimni.

Shunda u qiz joyidan turib, nozu karashma qilib, Yozining ko‘nglini xushlab,
boshta ro‘molini qiya tashlab, bir qo‘li bilan Yozini ushlab, bir so‘z aytib turibdi:

Mergan otmas osmonimda oyimni,
YOrga ato qilsin gulday bo‘yimni,
Yolg‘on demay men aytayin rostdan,
Maymonoq der o‘ynab o‘sgan joyimni.

Oydin ko‘lning so‘nasiman, g‘oziman,
Bulog‘imning o‘ynoqlagan ko‘ziman,
Maymonoqdir qo‘yni sovgan joylarim,
Shu joylarda Poyandaboy qiziman.

Cho‘ponlari hay-haylab qo‘y haydagan,
Cho‘llarini nor tuyalar joylagan,
Robiya der oq sut bergen enamni,
Yolg‘iziga kunda soya taylagen.

Ko‘z yosh bilan yerga bitay xatimni,
Yor eshitsin hasratimni, dodimni,
Ikkovining menman yolg‘iz yulduzi,
Oy Zebo deb aytishadi otimni.

Yillar o‘tar, kunlar o‘tar, yorni kutay,
Ko‘z yoshimni siyoh qilib g‘azal bitay,
Yuragimda bir gulim bor yulib olib,
Yozijon, gar borsangiz sizga tutay.

Tilla haydar kokilingiz boshingizda,
Yulduz bo‘lib yaltiray to‘singizda,
To‘singizdan gar yulib taylasangiz.
Ultirib qo‘sinq aytay qoshingizda.

Olma berdim, qaytayin olmasangiz,
Olgan bilan siynaga solmasangiz,
Qaldirg‘ochday uchayin tog‘dan oshib,
Hilol bo‘lib chaqiray kelmasangiz.

Ikki ko‘zim termular yor yo‘liga,
Yurganida tayoq bo‘lay qo‘liga,
Kelmasangiz bug‘doy bo‘lib sochilay,
Borib tushay tegirmoning do‘liga,
Ozmi ko‘pli haqqulingdan Yozijon.

Shu vaqt Yozining uchasiga bir narsa tors etib tushdi, Yozi Zeboning oti tepdi
deb qiyos qilib, irchib joyidan turdi, birov quchog‘iga kirdi, bu odam qo‘shchilardan
biri edi. Yozini uxbab qoldi deb chaqirdi turmadi, baqirdi bo‘lmadi, kelib uchasiga bir
gavron urib edi, Yozi quchog‘iga kirgani Zebo deb gumon qilib, uygisirab, u yoq-bu
yog‘idan ushlab, bir so‘z aytib turibdi:

Sag‘ir bo‘lmay sog‘ suyagi qaqqshamas,
Qaqshasa ham so‘m yuragi bo‘shamas,
Ushlab ko‘rsam chakamikday badaning,
Shu badaning Zebojonga o‘xshamas.

Qayqi o‘sgan burunlaring tuyoqday,
Qoshlaring bor suvda o‘sgan qiyoqday,
Zebojan, deb yuzlaringdan silasam,
Soqallaring o‘sib ketgan tayoqday.

Chaqir tikan sochildimi yo'limga,
Sochilsayam quvvat bersin belimga,
Zebojon, deb oq siynangga qo'l solsam.
Siypa toshday uchraydi qo'limga.

Oqar daryo uzanidan toshganday,
O'tolmayin undan oshiq shoshganday,
Himcha beldan, Zebojon, deb ushlasam,
Himcha beling to'lipdayin shishganday.

Omon qilsin tanda aziz jonimni,
To'xta, Zebo, ushlab ko'ray soningnii..

Shu vaqtি qo'shchining achchig'i kelib, Yozini itarib yubordi. "Ko'zingni och, kal senga nima bo'ldi, jin urdimi, pari chaldimi yoki halitandan xotin olging kelib qoldimi? E sho'r kal, bizlar qirq yosha borib xotin ololmay yuribmizu senga yo'li bo'lsin? Bir eshakni minda, boyning xizmatini qilib yuraberda, indamay tursam tekshirmagan joying qolmas ekan, tur o'rningdan, qo'shni hayda", -dedi. Yozi o'ziga kelib, Boymamatning quchoqlaganini bilib, yuzi qizarib, Boymamatdan uzr so'rab, qo'liga gavron olib, ho'kizlarni qo'shga qo'shib yer haydayberdi. "Omochni bosinqirab hayda, Yozi kal. Bo'Imasa palak o'smaydi, o'sganiyam bo'lmaydi", -deb Boymamat ketdi. Yozi qo'sh hayday-hayday o'ylanib qoldi: "Mening bu tushim qanday bo'ldi, haliyam ko'z oldimdan ketmaydi. Viloyatini Maymonoq dedi, otasini Poyandaboy dedi, onasini Robiya dedi, o'zining otini Oy Zebo dedi. Maymonoq degan joyni umrim o'tib eshitganim yo'q. Bu ham shuncha ko'rgan tushlarimning birimikan yoki bu ko'rganim rostimikan?", -deb goh ishonib, goh ishonmay yuraverdi.

Bir kun kechasi yana tush ko'rди. Yana o'sha joyda ot ustida Oy Zebo kelib, otdan tushib, Yozi bilan ko'rishdi, "Nyega meni izlab bormadingiz", -dedi. "Maymonoq degan joy qayerda, bilmayman", -dedi Yozi "Kun botish tomondan izlasangiz albatta topasiz", -dedi Zebo. Ikkalasi ko'p gaplashdi, oxiri Zebo: "Man, sizga do'ppi tikib keldimkiying", -dedi. Yozi kiygan mahali ko'zi ochilib ketdi. O'ziga kelib qarasa, boshida yap-yangi do'ppi. Buni ko'rib, Yozining xiyoli ketib, tushiga rosa ishonib, bir dardi mingta bo'lib, oshiqliq yodiga tushib, ho'kizlarni qo'shga qo'shib, tovushini baland qo'yib, bir so'z aytib turibdi:

Biring qashqa, birovginang qorasan,
Chuv-chuvlasam qora yerdjorasan,

Ertaroq yur yerlar bo'lsin shudigor,
Men ham yorga, sen ham yorga borasan,

Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
Yaylovdadir sening yoring, chuvhaya.
Bo'yintiriqlarga boshing boylangan,
Bo'lcha-bo'l, der, boy tayog'i moylangan,

Ertaroq bo'l, erta yorga boraylik,
Omoch ushlab, aziz boshim aylangan,
Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
So'na quvsda soyda yoring, chuvhaya.

Boy bilmaydi qorin to'qu, ochingni,
Beda berib men to'ldiray ichingni,
Zebo deb ushlasam omoch tutaydi,
Oyog'ingga, jonivor, to'k kuchingni,

Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
Suvloqdadir sening yoring, chuvhaya.
Norday bo'yning, jonivora, tolmasin,
To'g'ri yurda yerda mondi qolmasin,

Boy kelganda mondi yerni bilmashin,
Go'zal qizlar mahtal bo'lib qolmasin,
Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
O'tloqdadir sening yoring, chuvhaya.

Biring yurib, biring qarab turmagin,
Yaxshiroq yur dangasalik qilmagin,
Qalpoq bergan yor kutganga o'xshaydi.
Bu gaplarni aslo yolg'on bilmagin,

Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
Seni kutar g'unajining, chuvhaya.
Moya bilan o'ynab kular qora nor,
Nori ketsa moya yig'lar zoru-zor,

Palak joyni erta haydab tashlasak,
Men ham ozod, sen ham ozod, jonivor
Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
Tayin joyda sening yoring, chuvhaya.

Sen bormasang senday ho'kiz tug'ilmas,
Men bormasam ulug' mash'al yoqilmas,
Qora yerni qarsillatgin, jonivor,
Yorning isi uchovmizni qildi mos,

Qayerlarda mening yorim, chuvhaya,
Anov soyda sening yoring, chuvhaya.

Yozi yor ishqiga mast bo'lib, yerni qaytib haydab tashlaganini bilmay qoldi. O'z xushiga kelib qarsa, yerlar bo'libdi. Shunda ho'kizlarni bo'yintiriqdan bo'shatib "Hey jonivorlar, boringlar, yorlaringni ko'ringlar, o'ynab kulinglar" –deb haydab yubordi. Buni Boymat ko'rib, ho'kizlarni harchand qaytardi, bo'lmadi. Achchig'lanib. Yozining qoshiga kelib: "Hoy betovfiq kal, nima qilib qo'yding? Bor ho'kizlarni qaytarib kel", - deb o'dag'aylayberdi. Shunda Yozi: "Hoy Boymat og'a, yerni uch marta hayda deding, haydadim, yer bo'lsa yetildi, endi ho'kizlarga ishing bo'lmasisin, ular ham og'ayni qorindoshlarini, you janonlarini ko'rsin", -dedi. "Hey Yozi kal, kalligingga borma, meni aldab turma, o'tirik gapni surma, bizlar ikki haydaganimiz yo'g'u, sen qayerdan uch haydaysan, hali yering yetilgan yo'q", -dedi Boymat. Yozining achchig'i kelib: "Yetilmagan bo'lsa qara", deb bo'yintiriqnini olib yerga urdi, bu bo'yintiriq yerga yarmigacha kirdi, oradan biror pasil o'tgan edi, bo'yintiriqning rangi o'zgarib, u yer-bu yeridan barglar chiqqa boshladи. Ana-mana deguncha barglar ximchaga aylanib bir daraxt bo'ldi. Boymat yoqasini ushlab: "Voy tavba, eh olla, yo karomat", -dey berdi. Shunda Yozi: "Qani og'a, yer yetilmaganmi, bo'lmasa sizni ham shudgorga bir solib ko'ray", -dedi. "Yo'q-yo'q, Yozijon, meni shudgorga solma, odam daraxt bo'lib ketmay, yer haqiqatdan yetilibdi, ishingga baraka", -dey berdi. Shunda Yozi: "Ey Boymat, sen qirq yoshta ham uylanmabsan, sevgi boshqa-yu uylanish boshqa. Men Zebo Oy degan qizni sevib qoldim. Senga boydan haqimni olib ber demayman, olsang o'zingga siylov, faqat uchta oshiqqa indamasang bo'lgani. Ikki ho'kkiz ham yorga ketdi, men ham yorga ketdim, to ko'rguncha omanda bo'l", -deb bir so'z ayтиb turibdi.

Palak eksam handalagi to'rlanadi,
Po'chog'iga mol boylasang bo'rlanadi

Ikki oshiq bir-birini ko'rmay o'tsa,
O'lib ketsa suyagi ham xo'rlanadi.

Hay-haylagan qo'shibonlar, xo'sh qol endi,
Bo'ydoq o'tgan, Boymamatjon, xo'sh qol endi.
Sariq chumchuq soy boshiga uya solar,
Uyasini shamol buzsa yig'lab qolar,

Otasi bor, onasi bor to'ra misol,
Sag'ir sho'rli yerda qolsa kimolar?
Qo'sh haydagan qo'shibonlar, xo'sh qol endi,
Eshak mingan, Boymamatjon, xo'sh qol endi.

Uyur-uyur mol bermasang qaynona yo'q,
Jonim-jonim demasang hech janona yo'q,
Oy Zeboning husnin ko'rib zavq olmasam,
Bu jahonda mendan boshqa devona yo'q.

Qo'sh haydagan qo'shibonlar, xo'sh qol endi,
Yorsiz o'tgan, Boymamatjon, xo'sh qol endi.
Oh deganda yurak kuyar odamim yo'q,
Boy oldidan bog' yaratsam, bodamim yo'q,

Oshiqlikdan ora cho'lda yonib ketsam
Suv sepgali, dardlashgali odamim yo'q,
Qo'sh haydagan qo'shibonlar, xo'sh qol yendi,
Ustoz bo'lgan, Boymamatjon, xo'sh qol endi.

Boy bobongiz mol berishda xato qilsin,
Xizmatga deb bera-bera ado qilsin,
Uchovmizga indamasang, Boymamatjon,
Boy qizidan o'zganangga ato qilsin.

Qo'sh haydagan qo'shibonlar, xo'sh qol endi,
Dardim bilgan, Boymamatjon, xo'sh qol endi.
Oh deganda qarsilmayman bulutdayin,
Yor yo'liga qanot yozdim burgutdayin,

Maymonoqdan topsam topdim oy Zeboni.
Topolmasam suv bo'b oqay yillar sayin.
Qo'sh haydagan qo'shchibonlar, xo'sh qol endi,
Tiklab turgan, Boymamatjon, xo'sh qol endi.

Shunda qo'shchilardan biri turib: "Ey Yozi sag'ira, sen qanday qilib oshiq bo'ldig, biz bilan yuribsanku, u qizni qayerda ko'rding-u qanday oshiq bo'lding?", - dedi. Yozi kal: "Men tushimda ko'rib oshiq bo'ldim, oldin ishonmagan edim, ikkinchi tushimga kirganida manavi qolpoqni berib ketdi, undan keyin ishondim", - dedi. Shunda ular kulishib, ishonishmay: "Oshiq bo'ldim, kuyib borayotirman deding, kuyib borayotgan bo'lsang anov toshni quchoqlab ko'rchi, isirmikan?", - dedi. Yozi borib toshni quchoqlab edi, tosh suv bo'lib oqaboshladi. Qo'shchilarining hammasi yoqasini ushlab: "Voy tovba, voy tovba", -dey berdi. Yozi: "Endi ishondilaringmio'?"-deb edi, hammasi:

"Ishondik, haqiqiy oshiq bo'libsan, senga oq yo'l, yo'ling bexatar bo'lsin", -dey berdi.

Shunda Yozi qo'shchibonlardan duo olib, etagini beliga chalib, tayog'ini ot qilib minib, soniga bir shapati solib, "chuv-xa chuv", deb tovush qilib, qaydasan Maymonoq, deb yo'lga kirib ketaverdi. Necha kecha, necha kunduz, yurdi hisobini ham bilmaydi. Bir vaqt, jangur-jungur, jangir-jungir, degan qo'ng'iroqlarning dovushi qulog'iga keldi. Ana endi xiyoli o'ziga kelib qarasa, oldidan katta karvon kelayotir. Tuyalarni bir-biriga matab tashlagan, oldi ko'rinati keyni ko'rinnmaydi, tuyaning yonlarida otliqlar ikov bir, ikov bir bo'lishib kelayotir, tuyaning oldida bir nuroniy, oq soqolli chol, tuyalarga sarvonlik qilib, eshagini ix-ixlab, ko'zini yumib kelayotir. Shunda yozi: "Kele, sarbondan so'rab ko'ray, balki Maymonoq degan joyni bilar, bilmasa ham eshitgandir", -deb yo'l ustida o'tirdi. Bobo sarbonlik qilib Yozining qoshiga kelgan zahoti Yozi irchib turib: "Assalomu alaykum" degan edi, eshak hurnib ketdi, ong kelayotgan chol gursullab yerga yiqildi, ingqillab joyidan turib, Yozini ko'rib, qahri kelib: "E salom-paloming bilan ... Hov uyi kuygan, o'lasanmi olisiroqdan tovush bersang, qayqaymay o'l, shung'irt kal, Yozi kal, aralash kal, saralash kal", -deb so'kaberdi. Shunda Yozi: "Hov bobo, so'kabermang, salom bermoq ayb emas, salom bermasam ham beadab deb so'kar edingiz, meni kechiring", -dedi-da. Eshagiga boboni ko'tarib mindirib qo'yib so'radi: "Bobojon, karvonning bormagan, ko'rmagan yurti yo'q. Maboda Maymonoq degan joyni bilmaysizmi?". Bobosi haliyam achchig'idan tushmagan ekan, qabog'i uyilib, bir bilagini ih-ihlab ushlab: "Maymonoq saymonog'ingni bilmayman. Men sening yo'l ko'rsatar qoraqulog'ing emasman", -deb, eshagini ix-ixlay berdi.

Shunda Yozi: "Siz aytmasangiz tuyalardan so'ray", -deb tiz bukib, tuyalarga qarab, Maymonoqni so'rab, bir so'z aytib turibdi:

Ey havonlar, aytadigan arzim bor,
Men ham senday xizmatkorman xoru zor,
Xorligimda bo'ldim yorga intizor,
Ko'z yoshimga ko'karadi giyalar,

Maymonoqni bilasanmi, tuyalar?
Yorga oshiq bo'ldim tushimda ko'rib,
Gohda yugiraman, gohida yurib,
Maymonoqni axtaraman oh urib,

Zebo desam, to'lg'anadi giyalar,
Maymonoqni bilasanmi, tuyalar?
Ikki dunyo tor ko'rinar ko'zimga,
Olib surtsam dunyo yetmas yuzimga,

Sen aytmasang, egang aytmas o'zimga,
Qo'shiq aystsam tebranadi giyalar,
Maymonoqni bilasanmi, tuyalar?
Zeboni o'ylasam kunduz zim-ziya,

Oh desam ohimga bo'linar qoya,
Oyog'ing ostona, boshing avliya,
Ingrasam bukiladi giyalar,
Maymonoqni bilasanmi, tuyalar?

Zaboni yo'q norsan, ko'rsat karomat,
Maymonoqdan o'tgan bo'lsang, vallamat,
Valamatim, seni qilay ziyyarat,
Ko'ksim ochsam qovjiraydi giyalar,

Maymonoqni bilasanmi, tuyalar?
Cho'llar oshib, tog'lar oshib yurdingmi,
Poyandaning normodasin ko'rdingmi,
Ko'rganingda sen ham oshiq bo'ldingmi,

Oh desam, ohimga yig'lar giyalar,
Oy Zeboni bilasanmi, tuyalar?
Hamardim yo'q, birov kelmas qoshimga,
Oshiqlik savdosi tushdi boshimga,

Devonaman kelolmayman xushimga,
Yuragimga hamdard bo'ldi giyalar,
Zebojoni bilasanmi, tuyalar?
Oh desam, ohimga tog'lar qo'shilar,

Zaringlari ipday bo'lib eshilar,
Ko'z yoshimga siynalarim teshilar,
Qabatimda yig'lab turar giyalar,
Hech qurisa imlab aytgin, tuyalar.

Ana shunda tuyalar bo'kirib, joyida toshday bo'lib qotib qoldi. Sarbonlar qancha tortib, urib haydasa ham joyidan qo'zg'almadni, balki tayoq badanidan o'tmadi, oshiq yigitning holiga qarab, ko'zlaridan yosh oqib turaberde.

Shunda Sarbon bobo bildiki, Yoziga Maymonoqni aytmasa, tuyalar yurmeydi. Eshagidan tushib, YOzining oldiga kelib: "E bolam, oshiqligingni qaydan bilay, oshiqlik shohga ham, gadoga ham teng ekanda, oshiq bo'lguncha bir parcha noningni yeb yotmaysanmi xudo deb. Oshiq bo'libsanmi endi senga Zeboden boshqa davo yo'q. Mana shu karvon yo'lidan chiqmay ketaversang, tog'lardan oshib, cho'llarga tushib o'taversang Maymonoqga borasan, Zebongni ko'rasan, yo olasan yo dog'ida o'lasan. Sevishganlarni qo'shilgan deb eshitganim yo'q, u yog'in o'zing bilasan, bolam, bizni ham yo'ldan qoldirma, tuyalarga ruxsat ber", -dedi bobo. Yozi joyidan turib, Maymonoqning borligini bilib, Zeboni ko'rmasa ham ko'rganday bo'lib: "E jonivor hamdardlarim, yo'ldan qolmanglar, men ham yorga boray", -deb, boboga ham rahmat aytib, joyidan turib jo'nayberdi, tuyalar ham o'z yo'liga ravona bo'ldi.

Ana endi Yozi shu ketganidan ketib borayotir, tog'ni ham, cho'lni ham bilmaydi, kechani ham, kunduzni ham bilmaydi, vaka-vang qilib qo'shiqni aytgani aytgan. Bir vaqt yon tomonidan: "Ha bali-ye e, bolam bir pasil bizga ham aytib bering", -degan tovush keldi. Yozi burilib qarasa, bir bobo bilan bir kampir o'rog'i qo'lida, belini ushlab turibdi. Yozi ozgina qizarib: "Ha bobo, nima qilayapsiz?" -dedi. "E bolam, bug'doylar pishib qoldi, o'roq urayapmiz, kampir ikkovimiz uch kundan beri o'ramiz unmaydi. Ko'proq o'raylik desak belimiz og'riydi. Yosh -yalanglar bo'lsa o'rib bo'la yozdi", -dedi. Shunda YOzi: "Ey bobo farzandlaringiz yo'qmi, bo'lsa sizga yordam

bermaydimi?" -dedi. "E bolam, -dedi qariya, -o'g'il ko'rding o'ruvgaga ketdi, qiz ko'rding qo'ruvgaga ketdi-da. Bolam, bir xilisi boyning o'rog'ida yuribdi, bir xilisi o'zining ishida yuribdi. Odamning bolasasi ham qushning bolasiday bo'lar ekan, uyasidan uchdimi ketdi. Hay mayli, o'z kuniga omon bo'lsin.

Qani bolam o'zingga yo'l bo'lsin?". "Men Maymonoq degan joyni axtarib borayotirman, otimni Yozi deb aytishadi. Zebo degan qizni izlab yuribman", -degan edi, bobosi kulib: "Otingni-ku aytmasang ham bilaman, chunki kalni Yozi deyishadi Maymonoq degan joyga ham ikki kunlarda yetib borasan, Zebo deganing kiming bo'ladi?", -dedi. "Oy Zeboni tushimda ko'rib, oshiq bo'lganman. Shunga ketayotibman, oqibati nima bo'ladi bilmayman", -dedi Yozi. Shunda bobo: "E bolam, xafa bo'ima, oshiq yigit oyni oladi, degan ekan yaxshilar. Albatta, niyattingga yetasan, bizga ham ozroq yordam ber, bolam, duo beramiz", -degach, Yozi: "Bo'imasam menga o'roqni bering, momom bovliq eshabersin, siz bovlay bering, men o'raveraman", -deb, o'roqni olib, o'ngirini beliga chalib, o'z Zebosi yodiga tushib, tovushini baland qo'yib, qo'shig'ini aytib bug'doyni o'rayotgani:

Javdirashgan bug'doylara, kelaverigin qo'lima,
O'tgan bobo dehqonlaro, quvvat bergin belimga,
Yuraklarim tulg'anibo, qo'shiq kelar tilima,
Menday Yozi bunda zora, oyday Zebam unda zor,

Kaklik qushday charqillabo, ikkalamiz intizor.
Bovliqlaring eshilbo, bovlar qolsin qo'shilib,
Har bovingdan o'talmayo ho'kkiz unga osilib,
Uyurilib tur, bug'doylar, men turibman shoshilib,

Menday YOzi bunda zora, gulday Zebom unda zor,
Moya bilan bo'tadayo ikkalamiz intizor.
Osmondagi bulutlar, soya solgin boshimga,
Yorning ishq, quyosh tafti, jabr soldi to'shima,

O'roq o'ray chirpinibo, poyalar, kel qoshimga,
Sag'ir Yozi bunda zoro, bekday Zebom unda zor,
Qo'zi bilan qo'yday bo'bo, ikkalamiz intizor.
Bulbullarning sayrashiya gul bargini titratar,

Oshiqlarning nolasiya tog‘ bag‘rini sutratar,
Sevishganlar ayrlaysa bu zaminni ingratar,
Yetim Yozi bunda zora, Sulton Zebom unda zor,
Quyosh bilan oyday bubo ikkalamiz intizor.

Esayotgan shamollara, silab kel yor boshini,
Mehr qo‘yib iskayina, Zebojonim isini,
Ob kelmasang isiniya, ur tegirmon toshini,
SHo‘rli Yozi bunda zora, shohim Zebo unda zor,
Mag‘rib bilan mashriqdaya ikkalamiz intizor.

Baland tog‘ning boshlariya qor ustga qormikan,
Yetim degan bolagaya bir mehribon bormikan,
Mehriboni bo‘lmasaya yotar joyi go‘rmikan,
Sho‘rli gado, bunda zora, shohu sulton unda zor
Qizg‘aldog‘u boychechakday ikkalamiz intizor.

Bobosi : “Hey darig‘a, bolama, to‘xtat qo‘shigingni, yuraklarim bo‘linib ketdiya.
Men ham sag‘ir bo‘lib o‘sgan edim-a, kampirim bechora-ku avvaldan yig‘lab yubordi”,
-diyatib edi, shu vaqt u yoq-bu yoqdan o‘rog‘i qo‘lida odamlar kelaverdi. Bittasi:
“Assolomu alaykum, Alim bobo, bug‘doyni o‘rib bo‘lbsiz-ku, hormang-a”, -degach,
“Bor bo‘ling-e, bolam”, -deb Alim bobo qarasa, Yozi bug‘doyini o‘rib bo‘layozibdi,
bov ustiga bov tushibdi-yu o‘zi bilmabdi. Shunda bobo: “Shu o‘g‘limni xudo yetkazdi,
bizga qolsa o‘n kunda ham bo‘lmas edik, aytgan qo‘shig‘iga berilib ketib, ishning
unganini ham bilmay qolibmiz”, -dedi. Odamlar chuvullashib: “Bobo bizlar ham
eshitaylik deb keldik”, -deb edi, Yozi: “Bo‘lmasa qoshimga kelinglar, bobomning
bug‘doyini bo‘lgani, sizlarning qo‘shiq eshitganlarin bo‘lsin”, -deb, barini bug‘day
o‘rishga solib, o‘zi ham qo‘shilib, bir so‘z ayтиb turibdi.

Tog‘lar xarob bo‘lar tuman bo‘lmasa,
Bog‘lar xarob bo‘lar bog‘bon bo‘lmasa,
Qizga bergen qaliningni qaytib ol,
Qulganida mingta nozi bo‘lmasa.

Qiz bolaga avvalo aylanmagin,
Aylansangda ipiga boylanmagin,
Ipiga boylandingmi bo‘lding asir,
Ketarman deb hech qachon o‘ylanmagin.

O‘zidan qurt chiqsa gar toshni jiyar,
Vofodar bo‘b qo‘shilgan oshni jiyar,
Bevafolik qilsa odam o‘z yoriga
Axir bir kun osh o‘rniga boshni jiyar.

Oy Zebojan, xudoyim qo‘shsin meni,
Kokilingning bandiga eshsin meni,
Bevafolik agarda qilsam senga,
Kipriklar ing o‘q bo‘lib teshsin meni.

Sevganim olma bersam olarmikan,
Olib uni qo‘yniga solarmikan,
Maymonoqda o‘tirgan oydan Zebom,
Menday kalning sevganin bilarmikan?

O‘roq o‘rsam belginam tolmaydimi,
O‘z yoriga qiz bola kulmaydimi,
O‘z yoriga qiz bola agar kulta,
Xudoyimning bergani bo‘lmaydimi?

Ana tovning boshida kiyik o‘ynar,
Soy-soyidan sharqillab buloq qaynar,
Oy Zeboni bir ko‘rsam sultondekman,
Ko‘rolmasam yurak yonib meni qynar.

Yozi baxshi, qo‘lida sozi denglar,
Zeboni muhabbatga qozi denglar,
Agarda muhabbatga dog‘ tushirsam,
Yolg‘iz boshi o‘limga rozi denglar .

Oy Zebomni qizlarning oldi denglar,
Kuyib yongan Yozini keldi denglar,
Ikkimizni qo‘shiq qilib o‘roq o‘rsa,
O‘rog‘ini bir kunda bo‘ldi denglar.

Oy Zebomni barakaning koni denglar,
Sevishganlar ichida xoni denglar,

Menday kalni sarg'aygan sabon desang,
Zebo qizni poyaning doni denglar.

Alqisa, bug'doy o'rilib bovlanib, xirmon joyga chiqarildi. Alim bobo kelgan odamlarga rahmat aytib, Yoziga: "Yozi o'g'lim umringdan baraka top, endi uyg'a yur, mehmonimiz bo'l", -deb edi, Yozi: "E Alim bobo, mening o'tirishga qarorim yo'q. Uxlay desam uyqim ham kelmaydi, o'tiray desam, o'tirgim ham kelmaydi, charchaganimni ham bilmayman. Maymonoqni bilsangiz yaqinroq yo'lni ko'rsatsangiz, bo'lgani", -dedi. Bobosi harchand mehmon bo'l dedi, Yozi ko'nmadi. Shunda Alim bobo: "Kel-e bolam, bo'lmasa bir duo berayin", -deb qo'lini qovshirib: "Bolam sog' bo'l, salomat bo'l sevishganing bilan qo'shilib qo'sha qari, biring ming bo'lzin, doning mo'l bo'lzin, qo'ying ko'p bo'lzin, farzandlaring mo'l bo'lzin, dushmanlaring xor bo'lzin, yaxshilar madadkor bo'lzin, sevishganlar arvosи qabatingda yor bo'lzin, ishlasang horima, yesang to'yma, -deb duo berib, -Ana endi Yozijon, Maymonoqga shu yo'ldan boshqa yo'l yo'q", -deb belbog'iga non tuyib berib, murod tilab qolaberdii. Alqisa Yozi ham bobosi bilan xo'slashib, "Qaydasan, Maymonoq?", -deb kechasi bilan yo'l tortib karvon yo'lidan ketaverdi. Ertasi chashka-chashkada oldidan oq chotir ko'rindi. Yozi qarasa, odamlar to'rtta ho'kizni matab hirmon yanchib turibdi. Yozi bir suv ichib ketay deb, burilib bordi. "Assalomu alaykum yaxshilar, xirmonlaringiz to'lzin", -dedi. Shunda odamlar: "Va alaykum assalom, yo'lingiz o'nsin", -deyishdi.

Yozi suvni ichib, endi ketmoqchi bo'lib edi, odamlardan biri: "Hov og'am, xirmonga kelganda yordam bermasang bolangning ko'zi ko'k bo'ladi", -deb hazillashdi. SHunda Yozi ham: "Aka, qora ko'zdan ko'k ko'z o'tkirroq bo'ladi-ku. Hay mayli, yordam bersam beray", -deb gavrondi qo'liga ushlab, ho'p ho'kizning ipidan ushlab. Xirmonni aylantirib, "Mayda qil", -deb ho'kizlarga dalda berayotgan joyi.

Shoxingni qayrab qayirgan, maydayo-mayda,
Tuyog'ingni moyirgan, maydayo-mayda,
Seni xirmon yanchsin deb, maydayo-mayda,
Bobo dehqon buyurgan, maydayo-mayda.

Mayda desam moyday qil, maydayo-mayda,
Donni chorii qo'yday qil, maydayo-mayda,
Oyog'ingni borlab bos, maydayo-mayda,
Har bug'doyni oyday qil, maydayo-mayda.

Orqalaring orqavul, maydayo-mayda,
Cho'qqilaring qorovul, maydayo-mayda,
Shu cho'qqingdan qarasam, maydayo-mayda,
Ko'rinadi ko'p ovul, maydayo-mayda.

Ko'p ovulda ko'rdim qiz, maydayo-mayda,
Etagiga tuygan tuz, maydayo-mayda,
Ovulingda bormikan, maydayo-mayda,
Zebojonday bo'tako'z, maydayo-mayda.

Sevganingga qo'shilsang, maydayo-mayda,
Yuz yil bo'lmasa bir kuncha, maydayo-mayda,
Sevganidan ayrilgan, maydayo-mayda,
Bir kun bo'lar ming yilcha maydayo-mayda.

Sariq chumchiq bolasi, maydayo-mayda,
Soyda bo'lar uyasi, maydayo-mayda,
Soy boshini suv olsa, maydayo-mayda,
Chirqillab yig'lar onasi, maydayo-mayda.

Oq olmani, olmani, maydayo-mayda,
Oq olmaning alvoni, maydayo-mayda,
G'ayrat qilgin jonivor, maydayo-mayda,
Sensan hayvon polvoni, maydayo-mayda.

Asl tulpor siyog'ing, maydayo-mayda,
Olmosdayin tuyog'ing, maydayo-mayda,
Bosib-bosib ezaver, maydayo-mayda,
Tolmasinda oyog'ing, maydayo-mayda.

Bo'lsa qizning og'asi, maydayo-mayda,
Topiladi tog'asi, maydayo-mayda,
Xirmoning choch bo'lganda, maydayo-mayda,
To'lib ketar egasi, maydayo-mayda.

Yozi biror fasl maydalab, qo'shig'iga qo'shiq qo'shib, ho'kizlarni to'xtatib bir boshidan yechaberdi. Shunda odamlar: "Hov bola nega ho'kizlarni yechayotirsan?" –

dedi. Yozi: "Mana xirmoningiz yanchilib bo'ldi, endi domni sobondan ayrib olsangiz bo'lgani, ho'kizlar dam olsin", -dedi Yozi kulib. Shunda odamlar joylaridan turib, yanchilgan xirmonni ko'rib, hayron bo'lib bittasi Yozini ushlab: "E bolam, bu xirmon bu kuni bilan, yana kechasi bilan haydaganimizda yanchilar edi, sen biror pasildu qanday qilib yanchib bo'lding? Rostini ayt, sen bobo dehqon yoki Xo'jai Xidir bo'lmas", -deb Yozini tavob qila ketdi. Yozi: "E bobo, undog' qilmang, men Bobo dehqon ham, Xujai Xidir ham emasman. Men bir sag'ir bolaman, xirmonni mayda-mayda deb qo'shiq aytib yanchsa tez yanchiladi-da", -dedi. Bittasi: "Hakim bobo, uni unda ushlab ko'ring. Bobodehqon bilan Xujai Xidir boboning bosh barmog'i suyaksiz bo'ladi deguvchi edi bobolar", -dedi. Shunda Hakim bobo ha deb Yozining ikkala bosh barmog'ini ushlab ko'rayotir, Yozi: "Qattiqroq ushlab ko'ring, tag'in barmog'imni sindirib yubormang", -deb kulayotir. Hakim bobo: "E yigitlar buning qo'li ham o'zimizning qo'lday mehnatkash qo'l ekan, xirmonni maydalab yanchsa, tez yanchilar ekanda", -deyayotir qizarib. Alqissa Yozi dehqonlardan javob olib, xo'shlashib, Hakim bobosi qayta-qayta duo berib qolaberdi.

Kechani kecha demay, kunduzni Kunduz demay, qaydasan Maymonoq, deb yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, kun chashka-chashka bo'lganda bir daryoning ustidan kelib qoldi. Daryoga razm soldi, katta daryo, u yoq bu yog'iga razm soldi, xuddi tushida ko'rganiga o'xshaydi "Oy Zeboning mamlakatiga o'xshaydi", -dedi Yozi: -Kel-e shu daryo qirg'og'ida bir nafas dam olay, undan so'ngra Oy Zebomni qarab ketay", -deb yechinib yotdi, charchagan bola emasmi zumda uyquga ketdi.

Alqissa, gapni Oy Zebodan eshitir. Hamu daryordan bu tomonda Maymonoq degan katta bir viloyat bor edi. Bu viloyatning bir yarim ming- ikki mingga yaqinroq aholisi bor bo'lib, odomoxun, mehnatkash, boz ustiga dilkash odamlar edi. Maymonoqdan katta bir karvon yo'li bo'lib, bir tomoni shahri Samarkand, kun botishi Buxoroyi sharif, kun chiqishi Xuroson, bu tomoni Eron, xullas, Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan sovda yo'lning asosiy qismi shu yerdan o'tar edi. Ayniqsa, Mavarounnahr savdogarlari Maymonoqda bir kecha dam olib, charchoqni tarqatib Eron, Turonga o'tib ketar edi. Bu viloyatning katta bir boyi bor bo'lib, uning ismini Poyandaboy der edi. "Dehqonchilik bir yilda, chorvachilik qirq yilda", -deb bu odam chorvachilikdan boy bo'lib ketgan, o'n to'rt suruv hisori qora qo'y, to'qqiz suruv buzovli inak, bir suruv buqa, uch suruv taka, olti suruv echki, etti suruv jilqi, bir suruv ayg'ir, ikki suruv eshak, yuztacha pishak, ikki yuzga yaqin it va tovuq, o'li moldan 32 bo'ynoq tillosi, to'rt sandiq ro'piya, besh yog'dan javhari zar, qancha eroni, turkmani xoli gilamlar Poyandaboyning davlati edi. O'zi uncha xasis emas, yetmish ikki tomiri egilib, enkayib kelgancha yo'q demas, har narsacha talashib yotmas, sharob ichmas, nos otmas, nomazxon odam edi. Boy bo'lishing sababi xayr-eqsonni, sadaqani, qur'on-

tilovatni kanda qilmas, Bobo Zangiga yiliga is qilib turar, ammo sovda-sotiqqa niroyatda qattiq edi. Bu davlat, molu-mulk otasidan qolgan eski qo'r edi. Shu qo'rni sovurmay, qo'shsa qo'shdiki, kamaytirmadi. Lekin puxtaligi ham ancha bor edi. Poyandaboyning bir aybi o'ta farosati kam bo'lib, tozalikni islamaydigan odmi edi. Yurish kiyishga, e'tiborsiz edi. Poyandaboyning Maymonoqda katta ichkili, tashqili dang'illama, o'ymakor hovlisi ham bor bo'lib, bu hovlida katta xotini Bibigul opa o'li mollarni joylab yotar, boy esa ko'ngli tusaganda kelib ketar, ikki kun yotsa ishi bitar edi. Dasht qo'tonda yana bir hovlisi bo'lib, bunga Robiya egalik qilar, chorvasi bilan qishlar, lekin tinmay ishlar, boyning ko'nglini iloji boricha xushlar, qish chiqib, yil ayrilgandan keyin ko'ch-ko'ranini ortib tog' yon bag'irlariga bahorgi yurtga dashlar, qo'y sovib, sigir sovib, kubi pishib, sori moyni olib tashlar edi. Poyandaboy xotining ancha mehrli edi. Lekin ikki xotindan bir qizi bor edi. Bu qizni ham "Tangri yo'liga to'y aytib, Xizir yo'liga qo'y aytib" tilab, jilab olgan edi. Bu qiz kenja xotin Robiyadan edi. Poyandaboy mullalarga kitob ochirib qiziga Zebo deb nom qo'ydi. Ana shunday qilib oradan o'n olti yil o'tdi. Bu yil qo'y yilida Poyandaboy yana mayda mol, ushoq mol, katta mollarni dasht qo'tonga, bahorgi yurtga haydatib, ko'chib kelib joylasha berdi. Robiya boshliq xotin-qizlar buloqning bo'yiga, harsang toshning keyniga hovor joyga boyning o'tovini tikayotgan joyi:

Keragani keriltirib,
Bir-biriga uriltirib,
Ushlayotir satta qizlar.
Boyla daydi burilirib.

Cho'pon qo'yni boqadilar,
Qo'ng'iroq ham taqadilar.
Keragaga ushlashtirib,
Uy qoziqni qoqadilar.

Qarang suvning og'ishini,
Oqsa biling jog'ishini
Keragaga bog'layberdi,
Oq ipakdan bog'ishini.

Sanam qizlar shayladilar,
Uy tikishda quyladilar,
Keragaga mahkam qilib
Jopsor ipni boyladilar.

Dona gapga yetadilar,
Mardning ishi bitadilar,
Besh uvuqqa joylashtirib,
Chongg'araqni ko'tardilar.

Boyning oshi yoqaberdi,
Kiyizlarni qoqaberdi,
Chor tarafdan chongg'araqqa
Uvuqlarni tiqaberdi.

Chonggaraqni aylantirdi,
Tobi bori o'yantirdi,
Har uvuqning gordaniga
Tizmasini boylantirdi.

Har uvuqni boylashganda,
Jetim uvuq joylashadi,
To'rliq bilan otma bovni
Uy suyakka taylashadi.

Mergan ovlar katta tovni,
Kaklik bosar qishda g'ovni,
Chijim jipga mahkamladi,
Beldov bilan oppoq bovni.

Kiyizini kiygizdilar,
Bir-biriga tiygizdilar,
Mahkam o'rab qamish chiyni
Keragaga qo'yg'izdilar.

Tuynigini taylatdilar,
Keshtalarni boylatdilar,
Qo'sh tabaqa eshigini
Kirish joyga joylatdilar.

Ana endi, xotin-qizlar o'tovning hamma anjomlarini joy-joyiga qo'yib, tikdilar.
Hash-pash deguncha, kampir shoftoli yeguncha, gala qiz-juvonlar dash qo'tonda
hamma qora uylarni tikib, hamma sarishtani oldi. Cho'ponlar saharlab joyuvga qo'y-

echkilarni haydab, chashkayi qilib kelayin deb adir-dashlarga ketdilar. Dashqo 'tonda qolgan boybichalar ham kim o'z ko'ganlarini qoziq qoqib tortib-tortib boyladilar. Govmush kadilarni qo'y sovushga shayladilar. Suzgilarni yuvib tayyorladilar. Tuluplarni yuvib keragaga boyladilar. Uloq-qo'zilarni izg'ishtirib, o'tlatgali gaza-gazaga haydadilar. Poyandaboening xotini Robiya chin mehnatkash, oyog'i yengil, tinib-tinchimas dilbar juvon edi. Qizim yolg'iz, o'ynab-kulsin demay ichki ish, tashqi ishga o'rgatib taylagan, mehnatga muhabbatli qilib boylagan edi. "Bir joyga tushsa, enasining yegani zahari bo'lsin", -deb aytmasin, ishga o'rgatayin deb, Robiya hamma ishlarni o'rgatib, Zeboni hamma ishga zebo qilib qo'ygan edi. Poyandaboy bu ishlardan ancha ko'ngli ko'tarilib, og'ir ishlarga o'zi ham qarashib, hay-haylashib yuborar edi.

Kun yoyilib, ancha ko'tarilgandan keyin, har gazadan suruv-suruv qo'ylar bilalariga mangrashib, to'rlanib, qolgan to'qlilar dirkillab o'ynashib, takalar biri-biri bilan suzishib, taylab kelaverdi. Xotinlar ham chopacha-chop qilib, uloq-qo'zilarni to'da qilib, ilib olib, ko'ganlayberdi. Bolalar uloq-qo'zining u yoq-bu yog'in qaytarib yordamlashaberdi. Shu payt qo'y-echkilarni chopqilashib, mangrashib yetib keldilar. Robiya opa ham qizi Zeboni ergashtirib qo'liga kadi berib, qo'y sovgali qo'tonga keldi.

Oldilariga etakni boylab olib qo'tonga bordilar. Robiya ona Zeboga qarab: "Qizim, ko'rg'uza qo'yning bolasini tuya qo'yga jog'izdirib ol. Ochdan o'lmasin. Keyin ola qo'y bolasini olmayapti, shuni to'rayla qani olarmikan. Men qo'ylarni sovarberayin", - dedi. "Mayli, enajon", - deb Zebo tirriq qo'zini tuya qo'yga jog'izdirdi. Ola qo'yni ushlab olib, bolasini bovriga solib, jeliniga bir-ikki shappatlashib urib turaylayotgan joyi:

Qo'y ichida tuyg'unima, turay-turay,
Ol bolangni jonivora, turay-turay,
Bu qilig'ing qo'yginima, turay-turay,
Qobotingda o'zim bora, turay-turay,

Bolang osang qaraymana, turay-turay,
Junlaringni taraymana, turay-turay,
Kelmay qosang suruvdana, turay-turay,
Cho'ponlardan so'raymana, - turay,-turay,

Juning sening mayindira, turay-turay
Izlaganing tayindira, turay-turay,

Kecha saxar tush ko‘rdima, turay-turay,
Endi menga qiyindira, turay-turay,

Shotmoqlaring qotibdi, turay-turay,
Siyrog‘inga botibdiyo, turay-turay,
Tushimdagи bir yigita, turay-turay,
Suv bo‘yida yotibdiyo, turay-turay,

Yotar Hami qoshidayo, turay-turay,
Xayoli yo‘q xushidayo, turay-turay,
Uzim tikkан gul do‘ppima, turay-turay,
Bordir uning boshidayo, turay-turay,

Zovlar qati yo‘lmikana, turay-turay.
Yursa toshi mo‘lmikana, turay-turay,
Bergan do‘ppim boshidayo, turay-turay.
Yozi kali shulmikana, turay-turay,

Ko‘zlarim to‘rt kutarmana, turay-turay,
Qachon yorga yetarmana, turay-turay,
Shundan bolang olmasanga, turay-turay,
Qassoblarga sotarmana, turay-turay,

Sen olmasang kuyarmana, turay-turay,
Qamab olib tuyarmana, turay-turay,
Qassoblarga suydiriba, turay-turay,
Puling belga tuyarmana, turay-turay,

Qo‘limda bor pichog‘ima, turay-turay,
Burning qovun puchog‘ima, turay-turay,
O‘z bolangni bilmaysana, turay-turay,
Bovring toshning quchog‘ima, turay-tuvay,

O‘z bolangni suyag‘ayo, turay-turay,
Bu odating qo‘yag‘ayo, turay-turay,
Zebo qassob bo‘lmasina, turay-turay,
Olag‘ayda qo‘yag‘ayo, turay-turay,

Bahor keldi to‘larsana, turay-turay,
Bolang bilan bo‘larsana, turay-turay,
Agar Yozi shul bo‘lsayo, turay-turay,
Shundan bolang olarsana, turay-turay,

Zebo shu tarzda qo‘yni turaylayberdi. Jonivor qo‘y bolasining quyrug‘idan iskab, uziga tumshug‘i bilan tortaberdi. Buni ko‘rgan Zebo qoqirdab, dikirdab kula berdi. “Yozi izlab kelayotgan ekan”, - deb chehrasi ochilib, tovlana berdi. Zeboning qo‘y to‘raylayotganini eshitgan xotin-qizlar qo‘lida kadisini ushlab, ro‘molining bir uchini tishlab,sovayotgan qo‘ylarni tashlab, kelib to‘da bo‘lib, quloq solayotgan ekan. Onasi Robigul qizining bu qiliq‘iga hayron bo‘lib turgan ekan. Xushini yig‘ishtirib olgan Zebooy joyidan turib, qizarib o‘tovga chopqilab ketdi. Hech kim hech narsaga tushunmay qoldi. Xotinlar qo‘y-echkilarni sovib, sutga to‘lgan, kadilarni o‘choq boshiga olib borib, suzgini kadining ovziga qoplاب, sutlarni qozonga ag‘dardilar. Kadilarni chayib, yakkamiqqa to‘nkarib ildi-da, keyin hammasi jam bo‘lib, qo‘y-echkilarni hoy-xoyleshib chochdilar. Suruv qo‘zg‘alib, yotoqqa chig‘ib, bovrini yerga berib, kuvish qaytarib, chibindan boshini serak-serak qilib, to‘rt oyog‘ini bukib, bir xili bir oyog‘ini yozib yotdi.

Robiya uya kelib, qizining Yozi, Yozi deganiga tushunmay, bolasiga zehn bilan qarab qo‘ydi. Ertasiga yana hamma qo‘y sovushga chiqdi. Qarasa Ola qo‘y mangrab, qo‘y oldida kelib, bolasini izlayberdi. Bolasini Zebo qo‘ybedi, ko‘rmaganday emiza berdi. Buni ko‘rgan RobiyaZeboga qarab: “Bolam, sening qo‘ling yoqdi.Ola qo‘y bolasini oldi”, - dedi. “Ha, qo‘y iymasa, bolasini olmasa, meni ko‘ndlalang qilabering”, - deb kului Zebo. “Bo‘lmasa, - dedi onasi, - kecha tuvg‘an jolpilloq ham bolasini olmayapti, shuni ham bir chiriyla qani, shotikarim olsa. Kechagi Yozi qo‘shig‘ingni aysang olorov”, - deb kadisini ko‘tarib, qo‘y sovushga ketdi. Zebo jolpilloqni ushlab oldi. Jongga to‘rt oyoq bo‘layotgan uloqni olib kelib, enasiga iskatib, “Kechagi xumorimni bir yozib olayin”, - deb jolpilloqni zor qaqqash, chiriy-chiriy lab sog‘averdi.

Enajonim, jolpinima, chiriy-chiriy,
Ol bovrinda bolangniya, chiriy-chiriy,
Qizil, yashil, qulpinima, chiriy-chiriy,
Ko‘zdan to‘kma jolomniya, chiriy-chiriy,

Sensan echki sarasiya, chiriy-chiriy,
Tovday bolang qorasiya, chiriy-chiriy,
O‘z bolangdan bezibsana, chiriy-chiriy,
Borma qalbing yarasiya, chiriy-chiriy,

Har bir qiling ipakdaya, chiriy-chiriy,
Soqollaring tupakdaya, chiriy-chiriy,
O'z bolangdan qo'rqihsana, chiriy-chiriy,
Har bir ko'zing tubakdaya, chiriy-chiriy.

Shoxing chiqqan qayriliba, chiriy-chiriy,
Peshonangdan uyriliba, chiriy-chiriy,
O'z bolangni olmasanga, chiriy-chiriy,
So'ng qolmagin avriliba, chiriy-chiriy.

Enajonim, boymoqlima, chiriy-chiriy,
Sut-qatig'i qaymoqlima, chiriy-chiriy,
Ol bolangni bovrinaya, chiriy-chiriy,
Egasiga suymoqlima, chiriy-chiriy,

Bolang sari qashqadira, chiriy-chiriy,
Qotib turmoq toshgadira, chiriy-chiriy,
Sen olag‘ay bolangniya, chiriy-chiriy,
Mening dardim boshqadira, chiriy-chiriy,

Qassoblarga sotmayina, chiriy-chiriy,
Bo‘rilarga tutmayina, chiriy-chiriy,
Shundan bolang olmasanga, chiriy-chiriy,
Kutganimni kutmayina, chiriy-chiriy,

Tuvcha, chibich boshisana, chiriy-chiriy,
Echkilarning yoshisana, chiriy-chiriy,
Ol bolangni tuyg‘unima, chiriy-chiriy,
Takalarning xushisana, chiriy-chiriy,

Sen olmasang kulgi bora, chiriy-chiriy,
Senda shoytan xulqi bora, chiriy-chiriy,
Bolang olib jonivora, chiriy-chiriy,
Kutganimdan belgi bera, chiriy-chiriy,-

deb chiriyayberdi, jonivor jolpin ulog‘ini iskab-iskab emiza berdi. Zebo hadiksirab atrofga qaradi. Bu safar xotinlar Zeboden boshqa gap eshitmay ketib qolgan ekan. Shunda oy Zebo xursand bo‘lib, jolpinni mehr bilan silab qo‘ydi. Onasi sutni

pishirib, sovigandan keyin uyutqi solib, bostirib, yopib tayladi. Qozonning qosnog‘ini qirib, Zebojonga berdi. O‘zi esa sutga non tuvrab, qatiq qo‘shib, qo‘yirtmoq qilib ichdi. Poyandaboy esa choponni yelkasiga taylab, o‘tovning ko‘lankasiga suv septirib, joy taylatib, dostiqla yonboshlab, cho‘pon bololari terib kelgan uyurtmamlarni bittalab terib yeb yotaberdi. Kunlar o‘taverdi.

Esi yodiga Yozi kaldan boshqa hech kim kelmay qolgan Zebooy, hayoli parishon bo‘lib, yurish-turishi o‘zgarib, nuqul o‘y suradigan odat chiqarib, qo‘li ishga uncha bormay qoldi. “Ikki marta baxtimni sinab ko‘rdim, qo‘y-ichki bolasini oldi, lekin Yozidan darak yo‘q”, -deb alamini urchuqqdan oldi. Esiga tushsa, junni qo‘y toroqqa tarab, junni tuynaklab, har bir tuynakni chukalab soyaga o‘tib olib, urchuqboshni urchuqqa solib, kun chiqish tomonga qarab, urchuqni uyiraberdi. Kelinchaklar esa bu tomonda qayqanglab uyigan qatiqni osilgan tuluplarga solaberdi. Yangi tuvgan siyirlarning sutidan uvuz pishirib, dasht qo‘tonda cho‘pon-cho‘liqlar sorimoydan o‘nimat qilib yayrab yotaberdi. Ba‘zan Zebooy sutga kunargi solib, xayoli Yozida bo‘lib, kun chig‘ishga ko‘z bovurlab qarab, sochini gul-gul qilib tarab, kutib yotaberdi. Cho‘pon bolalari kunduzgi chilik, oshiq o‘ynab, kechasi oqsuyak, dashinmovuch o‘ynab, goho sut pishirishga shiboq va oqquray terib kelib qatiq ichaberdi. Onalar esa qo‘tondan shotmoq shipirib, yoyib yotaberdi. Poyandaboy esa ko‘likni minib, ulovga qo‘y go‘sht, tandir go‘sht ortib gohida shahar ketar, oradan besh-olti kunni o‘tkazib, ulovga shahardan bozorliq ortib dasht qo‘tonga kelar, shunday qilib kunlarni asta-sekin o‘tkazaberdi, tonglar otib, oylar bota berdi.

Alqissa, gapni besoqol, besoch kal Yozidan eshitmok darkor. Shu yotishda Yozi
kal necha kun yotdi, necha tonglar otdi, qancha quyosh botdi, bilmaydi. Odam
charchab minganda, yurmas eshak ot bo‘lar, deganlariday, Yozi Zeboning ishqida
qattiq charchagan ekan, taqdir joy badaniga parday mayin tushib, rosa uxlabdi. Bir
mahal kimdir: “Hoy, Yozi, turmaysanmi? Yor izlagan odam senday bo‘ladimi?
Shuncha yordam qilganim yetar. Tuyaga yontoq kerak bo‘lsa bo‘ynini cho‘zadi. Tur
joyingdan, Zeboning makoniga ozqoldi. Yoring intiq senga. Tura, tur”, - deb
qichqirayotgan ekan. Yozi joyidan sachrab tursa, hech kim yo‘q. U yoq bu yoqqa
qaradi, hech narsa kurinmaydi. Shunday o‘ng tomonga qarasa, gullagan chirichning
ustida faqat bir bulbul bezovta turibdi. Zorillab sayramoqda: “Tovba, yoki bulbul meni
shunday uyg‘otdimi ekan? Kele, shunga bir g‘azal aytib ko‘rayin qani, rostdan ham
Zebooning bulbuli bo‘lsa belgi berar, bo‘lmasa uchib ketib yayar, mening iyagimni
befoydaga qayrar”, - deb o‘zi-o‘ziga bir so‘z aytib-turibdi.

Osmon betda do'lanadi oylarim,
Oymomoga yetarlikan voylarim,

Zebojondan darak bergil, bulbuljon,
Qaysi elda Poyandaday boylarim.

Suluv qizning suyganlarga sharti bor,
Sut badanga bonotning ne gardi bor,
Yotishimga hayron bo'lma, bulbuljon,
Kal Yozining bu yotishda dardi bor.

Odoqdan kelsa bulut qor keladi,
Chilla mastda qor-yomg'ir zo'r keladi,
Zebojonning yuziga qalbim tashna,
El axtarib Yoziday yor keladi.

Ko'rnamakning sira bo'lmas keragi,
Shahid o'lganlarning yo'qdir so'rog'i,
Oshiqlarning dodin tingla, bulbuljon,
Qachon bo'lar ekan Zebo daragi?

Tushlarimda yuzi anor, zulfizar,
Tashlab ketdi yo'llariga intizor,
Keng jahondan dasht cho'lni izlayman,
Topolmayin yo'lda bo'ldim darbadar.

Gul shoxiga shaydo bo'lib qo'nasan,
Toza bo'lsa gavhardayin yonasan,
Sen ham oshiq, men ham oshiq, bulbuljon,
Tenging topsang bol ichganday qonasan.

Shuncha izlab visoliga yetolmadim,
Shoir bo'lib yorga doston bitolmadim,
Sevganlarning timsolisan, bulbuljon,
Bulbul bo'lib gulning bandin tutolmadim,

Qalpog'ini kiydim, qara boshima,
Qani ketdik Maymonoqning dashiga,
Yo'ichi bo'lib yo'lni ko'rsat, bulbuljon,
Sodiq bo'lsang yetkaz Zebo qoshiga.

Yozining bu zoriga chirichning shoxidagi bulbul charx urib, ming xilda tovlanib, chorillab, yana sayrab yubordi. Uchib kelib Yozi kalni bir-ikki aylandi. U yelkasiga, bu yelkasiga qo'naberdi. Yozi aytdi: "Qizni gulga o'xshatar, yigitni bulbulga mengzar. Kel, ikkovmiz ham oshiq. Men oy Zeboga yetay, sen Zebom ekgan gulga yet", - deb bulbulga: "Yo'lni boshla", - dedi. Bulbul har guldan, har gulga qo'nib uchayotir, Yozi kal har toshdan, har toshga sakrab, Zebojonning dog'ida qo'shiq aytib, izma-iz, piyoda-gavora borayotir.

Tog'i toshlar qir adirlar,
Bulbul yo'Ichiga aylandi,
Bepoyon cho'llar, taqirlar,
Yozi Zeboga shaylandi.

Fido qilib tanda jonne,
Bir qadam qilib jahonni,
Makon tutay lomakonni,
Yozi shamolga aylandi.

Bir tomoni Hami bo'yli,
Kun chiqarim turkman soyi,
Ato qilsin Zebom choyi,
Bir kal choyxo'rga aylandi.

Men ham kezay dara,toshni,
Tog'dan teray malqam oshni,
Zebojonga tikib boshni,
Yozi Majnunga aylandi.

Zebojonim boldan shirin,
Men Farxodu, Zebom-Shirin,
Qiyosi yo'qdir har birin,
Qo'lim hakovga aylandi.

Mahkam qilib bog'lab belni,
Bulbuljonim, ko'rsat yo'lni,
Endi topay Maymoq elni,
Kal devonaga aylandi.

Suv chayqalsa shamol turar,
Arpa yeb tulpor pishqirar,
Zebo deb Yozi ishqirar,
Yozi bo'ronga aylandi.

Bodomchayu archalardan,
Teshik toshdan darchalardan,
Suvi zilol chashmalardan,
Bulbul uchdi, Yozi o'tdi.

Tosh ko'lanka ayvonlardan,
Qaytmas yirtqich hayvonlardan,
Uzin- qisqa davonlardan,
Bulbul uchdi, Yozi o'tdi,

Suvlar kechib bellar oshdi,
Bulbul ketsa yo'ldan shoshdi,
Maymonoqdan oshib tushdi,
Bulbul uchib, Yozi keldi.

Bulbul.
Yozijonim, quloq solgin so'zima,
Bir karomat xudo qildi o'zima,
Qirdan ohsang Zebo senga intizor,
Yo'l ko'rsatdim endi uchay izima

Yozi.

Ketar bo'lsang xumor ko'zda yosh endi,
Ta'zim qilay, uchsang tovlar osh endi,
Oy Zeboga yetayinda, bulbuljon,
Agar ketsang to ko'rguncha xush endi.

Alqissa, kal Yozi: "Ey xudo, na otam bor, na onam qarindosh-urug'larniku, sira bilmayman. Sendan boshqa rahbarim, egam yo'q. Yaratkan ham o'zing, baxtiyor qilguvchi, ham o'zing. Nasib bo'lsa, sening karomating bilan Zebojonga yetib kelibman. Endi bu yog'ini ham o'zing boshqar", -deb bulbulni ko'zda yosh bilan

kuzatib, yo'lda ketaverdi. Ancha mehnat qilib, chorig'ini tosh tilib, tubaga chiqdi. Qarasa, Shiramning bovrida katta dashtqo'rg'on ko'rindi. Obtabiray betda yigirmaga yaqin o'tov uylar tikilgan. Chakkaroqda to'qson boshli oppoq o'tov savlat to'kib turibdi. Kun kechki peshin bo'lib, bolalar uloq-qo'zilarni, cho'ponlar esa qo'yechkilarni shomnatib, goha-gohada boqib yuribdi. Bir xil cho'ponlar taqirda yotib olib, tiqma o'ynayotir, boshqalarni kes-kes o'ynab, bir-birini qiyayotir, ikki cho'pon birikib olib, danni tikib, qo'lga soqani olib, oshiq surayotir, yana ikkovi birlashib, chilik o'ynab, marraga yetib, yengilganini zuvallatayotir, bir bo'z bola cho'pon esa zarang tayog'ini qo'lining kaftiga tikka tirab, "Tol tayoq, tolmon tayoq, ming qo'yini boqqan tayoq, boyning qizi sevmasa, men sho'rliga yo'l qayoq?", - deb ashula aytayotir. Boyning itlari esa solqi-solqi hurayapti, podalar o'rishdan qaytayapti. Buzovlar enasining kelishni bilib, cho'zib-cho'zib mangrayapti. Tovuqlar xataklarning ustiga chiqib, bir-birini muloyim cho'qishayapti. Xotinlar esa o'choqlarga shibooq o'tinlardan solib, kechki ovqatga unnayapti. Yozio'ziga yaqinroq o'tovning ko'lankasiga qarasa, ikki yosh qiz kuymanglayotir. Tikilibroq qarab razm solsa, bu qizlar chaqmoqtosh o'ynayotgan ekan, Chaqqonrog'i ha deb besh toshni o'ynatib, biramay tappa, ikkamay tappa, uchamay tappa, to'rtamay tappa qilib, bir toshni otib, to'rt toshni ilib ola berdi, iziga jalama, jovidir, shovdir qilib, toshlarni har tusda qo'lining kaftida, sirtida o'ynatib ketaverdi. Keyin bosh barmog'i va ko'rsatgich barmog'ini yozib, to'rt toshni bir qarich uzoqqa qo'yib, bir toshni otib bo'rini bajara berdi. Dugonasini yutgandan keyin uning qo'lini chimchib ochuvini olayotir. Xullas, kechki payt, cho'ponlar o'tovidagi joy, bahorgi yurt, ajoyib manzara tusini olgan. Kal Yozi bir pas tomosha qilib, ko'k o'tning ustida rohatlanib o'zalib, yotdi. O'zicha reja tuzdi. "Agar shu yaylov Poyandaboyning o'rasi bo'lsa, to'g'ri borib, Zebojonni suyg'an kal Yozi men bo'laman desamto'g'ri bo'lmas. Oldin bir-ikki oy xizmatini qilay. Mehnat ikki ko'zdan issiq deydi. Xizmatini qilib, yaxshi ko'rinyay, Ana undan keyin Zebojonniham ko'zning ostiga bosib, qashilab, o'rgatib olay. Hozircho'ponlardan bu yaylov kimniki ekanligini aniq so'rab bilay", - deb joyidan turib jog'alab, jilg'aga enib bordi. Gapga yetar bir cho'ponga uchrashib, salom-alikdan keyin o'zini xizmatkor ko'rsatib, bir umirga xizmat, bir kechaga joy so'rayotgan joyi.

Cho'ponlarning tayog'i zarang bo'lar,
Mehmon kelsa yaylovga qarang bo'lar,
Poyandaday boyingiz so'rab keldim,
Topolmasa dahmarda garang bo'lar.

Bug'doyiqlar bosibdi joylaringiz
Tak-tak o'tning poyasi naylaringiz,

Har o'raning to'rasin sizlar dedim,
Xizmatqorni quvmaydimi boylaringiz?

Do'mbirani cho'ponlar sozi deydi,
Qizlar tiklab qarasa rozi deydi,
O'zimni tanitayin, boy cho'ponlar,
Oq-qorani farqlagan Yozi deydi.

Yura-yura beldan ketdi madorim,
Poyondaboy bo'lzin dedim padarim,
Xizmatini men qilayin o'lguncha,
O'n besh yoshda shunday bo'ldi qarorim.

Yolg'iz boshda jumur kiygan gardim bor,
Maymonoqda davo berar mardum bor,
Ishq bolasi dardga qildi giriftor,
Yuragimda olov degan dardim bor,

Gavhar izlab keldim osha cho'llardan,
Bir suv ichsam mohi tutgan qo'llardan,
Cho'pon uchun gavarman tosh tengbo'lar,
Shafqat izlab keldim toza gullardan.

Oshiq emas yor bo'sasin totmagan,
Cho'ponlarga ishq sovdasi o'tmagan,
Ma'noli deb qabul aylang so'zimni,
Fahm qilmas gap qadriga yetmagan,

Muhabbat dardiga kuyib yonmagan,
Suluv suyib diydoriga qonmagan,
Devonaga yo'l ko'rsating, cho'ponlar,
Yozi qursin taqdiridan tinmagan.

Alqissa, shunda Alikul cho'pon kal Yoziga qarab: "Ey Yozijon, to'g'ri aytasan, yor nima, sevgi nima, ishq nima bilmaymiz. Cho'pon uchun qorni bir to'ysa, charchab kelganingda boying bir suysa, shuning o'zi bizga yor, ishq-da. Lekin xudoga shukur kam bo'lganimiz yo'q. Poyandaboy uylantirdi, joylantirdi. Mana to'rtta-beshta o'g'il-qizlar bor. Inson har doim bir ishni qilsa, shunga mehri tushib qolar ekan. Mana menga shu zarang tayog'im oltinday ko'rindi. Nonim shu bilanda. Hozir sen har xil gaplarni

gapirding. Poyandaboya xizmatkor bo'lmoqchimisan yoki boshqa niyatting bormi?", - dedi. Yozikal esa: "Ey Aliqul aka, men aytdimku, devonaman deb. Devona har xil gapni gapiraveradi-da", - deb javob berdi. "Mana bu o'tovlar cho'ponlarniki, chekkaroqdagi katta uy sen izlagan Poyandaboyning uyi. Borib so'ra, xizmatkorlikka olsa oladi, olmasa javobingni beradi", - deb Aliqul yo'l ko'rsatdi.

Yozi musofirga o'xshab, ko'zi qalpoqlanib, Aliqul ko'rsatgan o'tovga xalloslab yetdi. Shunda bo'yi yetgan bir qiz yengini turib, sochini qirqta, qilib o'rib, boshini ro'moldan chitak chiyib, ho deb qoshini kerib bo'g'joma tikayotir. O'rta yashar ayol balog'ini turib sigir sog'ayotir. O'tovning ichida qorni osilgan, soqoli kuzamlab kesilgan, ko'zi chuqur, manglayi taqir, yelkasi keng, nimagadir ahvoli tang, bir oz ong, o'tirishi o'ymoqday, oyog'i bir oz boymoqday, yoshi payg'ambar yosha yetmagan, oldidan birov besalom o'tmagan, gavdashang bir oqsoqol joynamozning ustida mehr bilan namoz o'qiyapti. YO "Birov nomoz o'qiyotganda oldidan kesib o'tmaslik kerak", - deb chetroqda odob saqlab turdi. Haligi qizga razm soldi. Buni sezgan qiz bir oz chitindi. Lekin Yozi tushida ko'rganqiz shu qiz ekanini aniq bildi, yuragini bir narsa tildi. Bezovotalangan qiz keshtalarini jiyishtirib, joyidan turib, keta-keta ko'zi yigitga tushib, ko'kragi bir ko'tarilib tushdi. Tushida ko'rgan yigit shul ekanligini angladi. Miyig'idan bir kului. Chopqilab boshqa o'tovga kirib ketdi. Uyning jopsorini yorib sig'alab qarayberdi, boshida o'zi tikkan do'ppini ham ko'rди. Yuzi olovday qizardi. Qattiq-qattiq nafas ola boshladi. Ko'zi girillak bo'laverdi. U tomonda Yozi ham chopqillab kela solib, Zebojon deb quchoqlagisi keldi, lekin uyat bildi. Oltoy boqilgan otday talpinaverdi. Bir mahal qarasa Poyandaboy nomozni o'qib, tasbehni donalab qaytarib o'tiribdi. Zeboning onasi ham kelib qolibdi. Noqlay ahvolga tushgan Yozi kal o'zini yig'ishtirib olib, boyga salom berdi,

Poyandaboy bu kal bolaning salomini olib: "Qani bolam, so'yla, ne muroding bor, kimsan, qayerdan kelayapsan? Kimning farzandisan, otingdi, zotingdi, shonu shavkatingda ayt", - dedi. Yozikal Zeboniko'rgandan keyin bir oz ko'ngli ko'tarilib, jonlanib, o'zini dadil tutib, Poyandaboya qattiq-qattiq gapirib, qo'shni o'tovdag'i Zebojon eshitsin, deb bir so'z aytdi:

Yolg'iz bo'lib tushdimgavhar tanadan,
Mendaylarga shoni shavkat na kerak?

O'ynab-kulib chiqolmadim xonadan,
O'ylab ko'rsam yorug' jahon na kerak?

Boy bobojon, ota-onam bo'lmadi,
Urug'-aymog'imni sira bilmadim,
Boshqalarday men ham o'ynab kulmadim.
Devonaga elu-elat na kerak?

Qayerlarda qolgan bilmam shaharim,
Achchiq so'zga kelar mening qaharim,
Shirin gapdir o'n ikki oy bahorim,
Qalandarga bog'u gulshan na kerak?

Kela-kela donolarga duch bo'ldim,
Qoqi - ismolokqa xar dam o'ch bo'ldim,
Non yemasam to'yan bilan och bo'ldim,
Men sag'irga ko'lu ko'lmak na kerak?

Shu do'ppiga charchaganda suyandim,
Darmon ketsa bitta hisga tayandim,
Tushda ko'rsamqarchig'ayday uyondim,
Do'ppim bo'lsa menga salsa na kerak?

Do'st-yoronlar, qarindoshlar menda yo'q,
Biror sirdosh, biror beldosh menda yo'q,
Sizday boydan ko'ngim bo'lsa cheksizto'q
Siz turganda boshka rahbar na kerak?

Nima xizmat bo'lsa mayli qilayin,
Ot bersangiz yollarini silayin,
Siz o'lguncha avvala men o'layin,
Egam bo'lsa darbadarlik na kerak?

Qo'y boqishda sira yo'qdir hunarim,
Mayda ishda ko'rindi o'narim,
Yolg'on gapga tati bo'lmash ko'narim,
Uy tinchbo'lsa poylamoqlik na kerak?

Yaxshi-yomon kunda menhamyarayman,
Qiz-juvonlar ko'rgan tushin jo'rayman,
Ketish-ketmasligim sizdan so'rayman,
Xo'p desangiz xizmat haqi na kerak?

Poyandaboy asta joyidan turib yaqinroq keldi. Rangiga razm soldi. "Qizbetyigit g'ar bo'ladi, suyagi buzuk mehnatga zo'rbo'ladi", - degan gaplar bor. "Bu sag'iraning beti o'ng'ir-do'qqi, kallasi kal, hech kimi yo'q mashrab, o'ziyosh, haqsiz ishlayman,

qornim to'ysa bo'lidi", - dayapti. "Shundan umid qilsa bo'ladi", - deb bolaga qarab: "Oting nima?" - dedi. "Otim Yozi, Yozi kal desangiz ham bo'ladi", - dedi Yozi. "Mayli, kel, qo'l - betingni yuv, usti boshingni qoq. Kelib hozircha mana irgaga o'tir. Keyin gaplashimiz, Yoziboy", - dedi Poyandaboy.

Bu o'tovda o'tirgan Zebo hamma gaplarni eshitib, nasiyasi naq bo'lidi, xasta edi sog' bo'lidi, dumog'i chog' bo'lidi. Suyagi yengil, qo'li har qanday ishni qilishga jazman, o'zicha gir aylanib, yerga yotib lo'laboshlarni quchoqlay berdi.

Poyandaboyning xotini Robiya hamma kechki ishlarni saranjamlab, boyning oldiga dasturxon yozib, ovqat olib keldi. Irgada o'tirgan kal bolani ko'rib, yengini tushirib, qo'lini yengning ichiga olib, qo'l uchi bilan ko'rishdi. ko'nglidan gapo'tdi: "Qizim qo'y to'raylaganda Yozi deb qo'shiq aytbedi. Bu kal bola ham otini Yozi deydi. bo'yi-bastidan kami yo'q. Lekin kallasi kal ekan. Boshidagi do'ppiham tanish tuyiladi. Ishqilib yaxshilikka bo'lsinda", -deb chiqib ketdi.

Ertalab tong otdi. Cho'ponlar saharlab qo'yhaydagali ketdi. Yozi ham kebanakka o'ranib yotgan edi, joyidan turdi. Shu kuni Yoziga ham bir kapa tiktirib berdi. Chashkayida Poyandaboy hamma cho'pon-cho'liqlarga Yozini tanishtirdi: "Yoziboy, sen ishlaringniqilib yuraber. Mehnating, qilig'ing yoqsa yashayberasan, "Cho'ponning tayog'idan, kelinning oyog'idan", - deydi. Sening ham oyog'ing yengil bo'lsa, mana osh, mana non, dangasa bo'lsang, o'z gunohing o'zingda", - deb ishlarni tanishtirdi. Zebo uydan kam chiqadiganbo'lib qoldi. Yozi chopacha-chop xizmatni qilaverdi. Zebonihar ko'rganda ishqি ortib boraverdi. Yozi kalga Robiya opa ham, Poyandaboyham o'rganib, har qanday ishni buyuraberdi. Yozi ham bularga o'rganib, Zebodan u-bu narsani asta-sekin so'raydigan bo'ldi. Zebojon esa yuzini Yozidan yashirib, kuydiraverdi. Kunlar o'taverdi, tonglar otaverdi. Kunlardan bir kuni Robiya opa kechqurun sariq inakni qoziqqa bog'ladi, oldiga kepak tayladi. Keyin Yozini chaqirdi. "Kel Yozijon. Bu inakning bolasini yaqinda ilon chaqib o'liddi. Endi: "Ho'sh-ho'sh" qilmasak bo'lmaydi, sutini bermaydi. Sen qo'linga tayoq olib, qarab tur. Maboda oyog'ini sermasa yoki suzaman deb xezlansa, tayoq bilan urib qaytarasan", - deb tayinlab, qo'liga kadini olib, inakka yaqinlashaberdi. Zebooy esao'choqning boshida enasi bilan Yozining ishini tamosha qilib, zavqlanib qarab turdi.

Yaylovdan qaytdi uyirim,
Ho'sh-ho'sh, deymana, ho'shdeyman.
Jonim enama, siyirim,
Ho'sh-ho'sh, enama, ho'shdeyman,

Endi shashtingdan tush deyman.
Shoxlaring bordir qayrag‘och,
Bolang o‘libdi bovring och,
Tenging bo‘lmasin besh yog‘och,

Ho‘sh-ho‘sh, solborlim, ho‘shdeyman,
Endi shashtingdan tush deyman.
Bolanga bovrin sirqirar,
Dir-dirab juning hilpirar,

Kel endi suting tirqirar,
Ho‘sh-ho‘sh, sutligim, ho‘sh deyman,
Bugun shashtingdan tush deyman.
Bo‘riga yetara kuching,

Sutga to‘lsinda quloching,
Men bo‘layinda egaching,
Ho‘sh-ho‘sh, egachim, ho‘sh deyman,
Endi shashtingdan tush deyman.

Shoxginangga qo‘nar bulbul,
Suting totsinda barcha el,
Bolang yutdida qorishqo‘l,
Ho‘sh-ho‘sh, deymana, ho‘shdeyman,

Dardinga meni qo‘shdeyman.
Ayib o‘tgandir bizdan ham,
Yoshing qo‘yilar ko‘zdan ham,
Bormayman ketsang izdan ham,

Ho‘sh-ho‘sh, deymana, ho‘shdeyman,
Bolang unitib ho‘sh deyman.
Iygingdeyman, enajonim,
Senga qurbon bo‘lsin tanim,

Buzoving bo‘ldi mehmonim.
Ho‘sh-ho‘sh, deymana, ho‘shdeyman,
Dardinga meni qo‘shdeyman.

Zebojonimning hurmati.
Emchakdan suting tosh deyman!

Sariq sayirning bolasini qorishqul yegandan keyin, Poyandaboy buzovning terisini yormay siyirtirib olgan va tenaning o‘rniga xashakdan sozlab tiqdirlgan edi. Bo‘rboylariga xashak tiqdrib ochiq, joylarini rosa tiktirgan, buzoqning faqat joni yo‘q bo‘lib, joyida to‘rt oyog‘idan tikka turar edi.

Sariq siyir Yoziga qarab mungrab yubordi. Bir toysallab, o‘zini o‘ngladi. Orqasiga burilib Zeboniko‘rdi. Yana bir marta cho‘zib mangradi. Keyin olchanglab, jonsiz buzovni iskab emranib, sutini iydi. Robiya ikki qo‘llab, inakni sova ketdi. Ertasiga Poyandaboy shaharga bozor-o‘charga jo‘nadi. Robiya opa cho‘kasini ko‘tarib cho‘ponlarniniga chiqdi. Yozi esa chashma buloqdan ikki mesh suvni olib kelib uy oldiga tushirdi. Ichkariga joylashtirayotsa, Zebojonning bir o‘zi ichkarida kokilini tarab, oynaga qarab o‘tiribdi, Payt kelganini bilgan Yozi Zeboga qarab: “Ishq savdosida yondim, yo bor qil, yo yo‘q qil”, - deb so‘ylavyerdi, Zebojon ham intiq ekan qo‘shilib kuylayvyerdi.

Yozi kal:

Chakka zulfing oyday yuzinga tushar,
Hapamating gul siynaga yarashar,
Shul o‘tovdan chiqsang, Zebo, solonna,
Mingga dardim kunma-kuniga oshar.

Zebo oy:

Kuylovchining qo‘lida sozi bo‘lar,
Er ko‘rmagan qizlarning nozi bo‘lar.
Yozi kalni keldi deb chiqayinmi,
Qiz bolaga yigitning ko‘zi bo‘lar.

Yozi kal:

Yor yo‘lida o‘tsin mayli umirim,
Yuragimda yo‘qdir qora ko‘mirim,
Yozi kal deb kamsitmagin, suluvim,
Qalpog‘imdan pastda bordir jumurim.

Zebo oy:

Har doim izzatda bo‘lsin boshingiz,
Jumur tiyib sarg‘ayibdi qoshingiz,

Chiqishga uyalaman, qiz bolaman,
Oy Zeboga o'tarmikan tishingiz.

Yozi kal:

Qo'y Yugur jilg'a soyning o'tiga,
Xas yopishar katta ariq bantiga,
Poyondaboy bilarmikan dardimni,
Mehrqo'ydim Robigulning qandiga.

Zebo oy:

Ustalar ishlov beradi charxiga,
Sovchilar qaraydi qizning farqiga,
Robigulning qandiga mexr qo'yib,
Kuchingiz yetarmi qizning narxiga,

Yozi kal:

Zebojon kasal bo'lsa, dori bo'lay,
Qannig'im olovbo'lsa, mo'ri bo'lay,
Qo'y boqibqalin pulin uzolmasam,
Suyarim sulton bulsa, cho'ri bo'lay.

Zebo oy:

Olqar bilan kiyik o't dori bo'lar,
Tutab olov yonganda mo'ri bo'lar,
Adolatni so'rasa elda sulton,
Faqt biling dangasa cho'ri bo'lar.

Yozi kal:

Zor qilib to'ksang ko'zimdan yoshimni,
Shunda ham fido qilurman boshimni,
Kal Yozini quvab haydasang, Zebojon,
Boshga ur mayli tegirmon toshini.

Zebo oy:

Agar ketib qolsangiz armon bo'lay,
Qoningizga qo'shilib darmon bo'lay,
Qiz bolaning nozini ko'tarmaysiz,
Yo'lingizga sadaqa qurban bo'lay.-

deb aytishaberdi. Lekin Zebo ko'nglida: "Ozor yetkazmayin", -deb dam bo'ldi. Qo'lidagi meshning birovi hali ham tushmagan Yozi Zeboga diqqat bilan tikildi. Tushida ko'rganidan haddan ziyoda, ko'rgan otli bo'laadi piyoda. Jannatdagi hur, qomati, siynasi zo'r, boshidan oyog'igacha bir, lekin parilariga tir, dalaga chiqsa lolalar, qizg'aldoqlar kuladi qiqir- qiqir, bug'day rang, to'la bich im, o'rtta bo'y, pista dahan, betakror go'zallik. Oy Zeboniyerdan emas, atir guldan b ichib olgan qo'g'irchoqday qilib yaratgan xudoym, Yozi asta Zeboning qo'lidan uslab, meshni tashlab, sekin o'ziga tortayotgan edi, tashqarida: "Kim bor?", - degan tovush keldi. Yozi chopachop entikib tashqariga chiqsa, Poyandaboy bozordan kelgan. Itlar soyaga o'tib xoliqlayapti. Yozi borib boyning oshqol-doshqoliga yordamlashdi. Zebo otasiga qalinqilib ko'rpa cha tashlad. Chakkidan olib chalop qildi. Robiya yetib kelib, xurjin-turvan egalladi. Poyandaboy soyaga o'tib chordona qurdi. Chalo-pni bir ko'tarishda simirdi. Oyojni uzatib yuborib, dostiqa yonboshlad. Ena-bola uyg'a kirgan. Yozi otlarni qonlagali ketgan. Cho'ponlar qo'llariga qirliq bilan tushov ip olib, mol yotoqda qo'ylarni qirqayapti. Poyandaboy atrofdagi c ho'ponlarning chaylalariga e'tibor bilan razm soldi, xayoliga yoshlik yillari gavdalanib bir oz o'ya toldi. Chaylaning yonida bir ayolni ko'rdi. U tuzanlab o'tirib, tobonini yerga tirab, oyoq uchini ko'tarib, oyog'ining betiga bolasini o'tirg'izib to'smoqda, esamat bolalari qirinquviq, oqsuyak, hakkallamachik o'ynamoqda. Shappatdagagi uyda esa keksa chol Boymat bobo nebarasi Teshani oldiga olib, maroq bilan suyayapti. Poyandaboyning yuragi bir jiz etib ketdi. Shu payt Zeboning yolg'izli gi ham bir oz aksar qildi. Nebarasining yo'qligi yana alam qilib: "Bola shirin, unin g bolasi o'zidan ham shirin, degani rost ekan", - deb o'yladi. Kamligi bilinaverdi, yuragi g'amdan tilinaverdi, Boymat boboning hamon nebarasini qalbi to'la quvonch bilan huylagani qulog'iga kelaverdi.

Gavhar bolam, huyya-huy,
Oltin bola, huyya-huy,
Po'lat bo'lsin, boshginang,
Sulton bolam, huyya-huy,

Davron bolam, huyya-huy.
Suv ob kelgin ko'zaga,
To'ning tushsin tizzaga,
Mehring qonsin tozaga,

Toza bolam, huyya-huy,
 Rosa bolam, huyya-huy.
 Bovrimdag'i toylog'im,
 Xavf solmasin ovlag'im,

Dushman kelsa poylag'im,
 Polvon bolam, huyya-huy,
 Arslon bolam, huyya-huy.
 Bo'ynimdag'i munchog'im,

Nurga to'lsin quchog'ing,
 Elga to'lsin har yog'ing,
 Bo'ydar bolam, huyya-huy,
 Dilbar bolam, huyya-huy,

Osmonimda oy bo'lgin,
 Qulinlikdan toy bo'lgin,
 Poyandaday boy bo'lgin,
 Toychoq bolam, huyya-huy,

Tulpor bolam, huyya-huy,
 Ota-enang o'ylagin,
 Dona qilib so'ylagin,
 Zeboday qiz saylagin,

Kuyov bolam, huyya-huy,
 Otam bolam, huyya-huy,
 Mazmun bersin tilinga,
 Mador bersin belinga,

Rahbar bo'lgin elinga,
 Boshliq bolam, huyya-huy,
 Dona bolam, huyya-huy,
 Zar to'nlardan kiydiray,

Topgan molim jiyyiray,
 Elga noming yoydiray,

QODIR BAXSHI SAYLANMA 1

Ma'qul bolam, huyya-huy,
 Aql bolam, huyya-huy,

 Davring bersin xudoyim,
 Uxla, aqlli boyim,
 Yarqirasin manglaying,
 Morka bolam, huyya-huy,

 Orqa bolam, huyya-huy,
 Kel bobongniqiyama,
 Dushman bilan joynama,
 Har kim bilan o'ynama,

 Bobom bolam, huyya-huy,
 Metin bolam, huyya-huy.

Boymamat chol nebarasini ancha huy-huylab, rohatlandi. Gavarasi kengashdi. Ancha o'zini yengil tortdi. Ko'lankadayotgan Poyandaboyniqarilikdan ko'zi ilg'amadi. Poyandaboyning yuragi ezildi. "Jogi kelsa boylik ham odamga yov. Nebaram bo'lganda, men ham bir suyganimda, chori qo'yning go'shtidan ming marta ziyodbo'lar edi. Zebo birovning bandasi. Ozib-yozib o'n to'rtga kirdi. Ha mayli, eson qulga hammasi bo'larda", - deb chuqr xo'rsanib, butomoniga ag'darilip yonboshladi.

Ertasiga Kakul otni minib: "Kele yuragimni bir yozayin", - deb cho'ponlarning izidan ketdi. Yana Robiya opa xotin-xalajlarni chaqirib, Zebojonga atab chim-chim gilam to'qiyin deb hashar qildi. Yozini chaqirib qoziqlarni uchburchakqilib qoqtirdi. Kal Yozi ichida: "Bizning gilamda", - deb yugurib xizmat qilayotir, Zebo esa arqovni iyirib kulayotir, momolar chim-chim gilamning kalabasini chamalayotir:

Uch qoziqni uch tomonga,
 Qoqayotir Yozijon,
 Uch yog'ochni biriktirib,
 Bog'layotir Yozijon.

Bu tomonda oyday Zebo,
 Arqovini iyirar
 Tez-tez chopgin, Yozijon, deb,
 Momolari buyirar.

Kalabani aylantirib,
Kuzuviga boyladi,
Har –xil ipni shaylantirib,
Kamalak qib tayladi,

Seruvini sernavlatib,
Bir maromga keltirdi,
Odorg‘ini seltanglatib,
Bot olishin bildirdi.

Zebojonning o‘rmagini,
Yasantirib tayladi,
Qilich bilan to‘qiysan, deb,
Ip ichiga joyladi.

Uch qoziqdan ikkovini,
Sharta-sharta sug‘irdi,
Zarang qoziq bosh qoziq deb,
Eng boshiga to‘g‘ urdi,

Yozi ko‘nglin xushladi,
Oy Zeboga muralab,
Oyxon o‘rmak boshladi,
Kaklikdayin yo‘rg‘alab.

Bu tomonda Gulgun checha: “Hasharchilarga bir ovqat qilib berayin, sorimoya issiq non janchib, janchmich qilayin”, - deb tulupdan bir likibi chakkini olib, kubiga solib, suvini chama qilib, pishkak bilan kubidagi chakkini pisha ketdi. Yana birovi qumg‘onga suv solib, o‘choqdagi cho‘g‘ning ustiga qo‘yayotir. Hash-pash deguncha Gulgun checha kubidagi chakkini pishib, sorimoyni tol toboqa oldi, Kubining ayronini xaltaga solmoqchi bo‘lib, Robigul opadan so‘radi: “Robigul opa, ayronni qozonga solib qaynatayinmi?”, - dedi. “Nimaga?”- deb so‘radi Robiya“Yalpiz aralashtirib, qishga qurt qilmaysizmi. Juda mazza bo‘ladi-da,” - dedi Gulgun checha. “Nima qilasan bir kubining ayronini? Tulupdagagi chakkini pishib, ayronini olsak ham yetadi. Kubidagi ayronni tosh oxurga sol, qo‘ylar ichadi”, - dedi Robiya opa. Shunday qilib xotinlar goh chindan, goh yolg‘ondan, goh bordan gurung qila ketdi. Gurung avjiga chiqdi. Hech kim, hech kim bilan ishi yo‘q. Vaqt kelib, Zeboga Yozi kal: “Chetga chiq”, - deb ko‘z

qisaberdi. O‘zi sekin qo‘raga tomonga ketdi. Bir pasdan keyin Zebo ham yetdi. U tomonda xotinlar, qo‘rada sevishganlar bir-biri bilan so‘zlasha ketdi.

Yozi:

Kayfkashlarning cho‘ntagida nosi bor,
Quchog‘ingda to‘qqiz jannat isi bor,
Qovmatingdan aylanay, gulday Zebom,
Yurishingda parilarning tusi bor.

Zebo noz qilib:

Shabnam tushar qizil gulning bandiga,
Qo‘l tegizmang sochimming payvandiga,
Tap tortmayin chaqirasiz, Yozijon,
Nima deysiz birovning dilbandiga?

Yozi ruhlanib:

O‘tinchilar mehr berar teshaga,
Kel, Zebojon, qo‘rada tamoshaga,
Kubi pishib charchadingiz parizod,
Quchog‘ingiz to‘ldiray gunafshaga.

Zebo xo‘rsaniy:

Bahodirlar kuch beradi teshaga,
Suluv qizlar suluvlanar reshaga,
Qizni olmoq qiyin bo‘lar, Yozijon,
Ketib qolib qo‘ymayin andishaga.

Yozi tetiklanib:

Bulut bo‘lib tog‘laringda joylanay,
Kuyov bo‘lib qabotingda bo‘ylanay,
Ota-enang berarmikan Yoziga,
Yozi degan tilganangdan aylanay.

Zebo ochilib:

Gujum eking soyasi mo‘l bo‘ladi,
Yomg‘ir yog‘sa arnalar ko‘l bo‘ladi,
Yaxshi gapga ilonlar chiqar indan,
Po‘latni ham eritgan til bo‘ladi.

Yozi o'ng'aysizlanib:
 Dangasaning doima matali bor,
 Yigit qizni ko'rganda yo'tali bor,
 Ilon bo'lib chiqayin mayli indan,
 Tilingizning, Zebojon, asali bor.

Zebo zavqlanib:
 Botirlar mung'ayar eli bo'lmasa,
 Turnalar qo'shilmas xili bo'lmasa,
 Zeboniqanday olar Yozi to'ram,
 Qalim uchun berar moli bo'lmasa.

Yozi bo'sh kelmay:
 Eson bo'lsa yigitning moli bo'lar,
 Sovchi ketsa boydoqing jo'li bo'lar,
 Hamma narsa sog'likdadir, Zebojon,
 Oshiq Yozi Zeboning quli bo'lar.

Zebo hayajonda:
 Qul deganing Yozijon bunda netar,
 Badandagi yaralar bir kun bitar,
 Ko'nglingizni sira bo'lman, Yozijon,
 Mol degan qo'lning kiri yuvska ketar.

Yozi rostlanib:
 Sovug'i belgi berar yog'sa qirov,
 Zebojonim bo'yinda jonim garov,
 Shu gapingga bir ushlayin qo'lingdan,
 Sirimizni bilmasinda hech birov.

Zebo zabolanib:
 Chavondozlar ot haydaydi to'dag'a,
 Podobonlar sahar ketar podaga,
 Qo'lganimi mayli ushlang, Yozijon,
 Bo'yingizdan tanda jonim sadag'a.

Yozi xursand:
 Qizni ko'rsa yigitlar shoshmaydimi,
 Handalakka qo'l tiysa pishmaydimi,
 Rahming kelib Yoziga erking bersang,
 Yozi yoring haddidan oshmaydimi?

Zebo hazillashib:
 Boylar osar qo'ng'irov mol boshiga,
 Dona rahbar bo'lsinda el boshiga,
 Har bir banda qarasin o'z tengiga,
 Yozijon ham yor deydi kal boshiga.


Yozi tushunmay:
 Davlat degan, Zebojon, zo'rga kelar,
 Zo'r kelganda yigitlar birga kelar,
 Boyning qizin kim aytadi go'zal deb,
 Suluv qizning kokili burma bo'lar.

Zebo kuladi:
 Chebar xotin siyirini iydiradi,
 Suluv qizlar sochin yerga tiydiradi,
 Qiz bolani tushunmaysiz, Yozijon,
 To qo'liga tushgunicha kuydiradi.

Oy Zebo bilan Kal Yozi bir-biriga o'ian aytishib, bir-birining qo'lini ushladi. Yurakdag'i sevgi olovi bir-biriga to'kildi, ko'zlar mehr bilan tikildi. Shu payt tashqaridan otning dupuri keldi. Zebo qo'radan singalab qarasa otasi. Yozi qo'radan narmon oshib eldi, Zebo kalavlanib, bir qo'liga yerdan supurgi oldi, qiy shipirmoqqa urinib qoldi. Yozi bu tomongan chopqilib boyga peshvoz chiqdi otning jilovidan ushladi, boyni tushirib, otni yetaklab ketdi. Otni qoziqqa olib borib, ovzidan suvlug'ini chiqarib, boshidan juvanni oldi. Otni no'xtalab, boylab qaytdi.

Shunday qilib kunlar o'tib, o'tning uchi qaytib, kun tiramaga daxl bo'lib, kecha-kechasi sovuqbo'lib, qishdan xabar bera boshladidi. Poyondaboy yaylovdan qaytish qilib, barcha cho'ponlarga buyurdi: "Hov cho'ponlarim, mana sovuqham tushib qoldi. Qishloqqa, qishqo'tonga ko'chaylik. Payshanba kun, kun o'ng ekan. Hammang ko'chko'roningni tayyorla", - dedi.

Payshanba kuni hamma ulovlarga yukni ortib jo'nadi.



Qo‘ylarni cho‘ponlar suruv-suruv qilib haydab ketaverdilar. Zeboning lo‘kini kal Yozi yetaklab, piyoda jo‘nadi. Poyandaboy ot bilan ko‘chning oldida yo‘lni boshlab borayotir, Robiya biyani minib qabotida gap tashlab ketayotir, ko‘chmanching itlari xoliqlab har tarafga cholig‘ib chopayotir, gazadan-gazaga chiqib hurayoptir. “Yozda xotin qutiradi, qishda it qutiradi”, - deganday, bir-biri bilan olishib, gohida ovnashib ketayotir. Yozijon Zeboninglo‘kiniyetalab, bir-biriga qarab, past tovushda qo‘shiq aytib borayapti.

Yozi:

Lo‘klarni minding, Oy Zebo,
Taqdirla ko‘nding, Oy Zebo,
Yoziday bekni qiynatib,
Kimni topdingiz, Oy Zebo.

Zebo:

O‘choq ustida qozonmi,
Yozi aytgani azonmi,
Lo‘kni tortinga, Yozijon,
Qizga uylanmoq osonmi?

Yozi:


Jipak ipni silaymanda,
Lo‘k yurmasa jilaymanda,
Xizmat haqi Zebojondan,
Shirin bo‘sса tilaymanda.

Zebo:

Nomardga davlat bermasin,
Bersa nodonni urmasin,
Ehtiyyot bo‘ling, Yozijon,
Labginangizni yormasin.

Yozi:

Tarma suvi sharobcha bor,
Lo‘kning izi tanobcha bor,
Zebo yuzingning mazzasi,
Qo‘y yog‘idan palovcha bor.



Zebo:

Yoshlik davrin surmog‘i bor,
Yaxshi otni ko‘rmog‘i bor,
Palovxon demang, Yozijon,
Toshi bilan kurmagi bor.

Yozi:

Qora qoshing qayrilmadir,
Soching boshga tuyrilmadir,
Temir chiqsa eritarman,
Yozi sendan ayrlimaydir.

Zebo:

Qizlar ko‘tarar ko‘zani,
Tizzamda silon so‘zani,
Omon borsak qish qo‘tonga,
Keyin olasiz bo‘sani.

Yozi:

Bog‘bonlarning bog‘i yaxshi,
Ho‘ja Anvar tog‘i yaxshi,
Rozi bo‘ldingmi, Zebojon,
Har narsaning nog‘i yaxshi

Zebo:

Yaxshi dili oq, deb biling,
Nasiyalarni naqd deb biling,
Barcha orzu umidlarga,
Xudo aytgan vaqt deb biling,

Alqissa Poyondaboy kechqurin qish qo‘tonga ko‘chlari bilan enib keldi. Hamma o‘z xonasiga joylashdi. Tonglar otaverdi. Kunlar o‘taverdi. Yozi ham Zeboga rosa bog‘lanib qoldi. Kechalari bazan uxlamay chiqadi. Har ko‘rishni o‘ziga davlat biladi. Zebo ham Yozini juda qattiq sevib qoldi. Har narsani bahona qilib tez-tez uchrashadigan bo‘ldi. Hamsoyalarham avval tushunmay har xil gapqildilar. Keyin ikki sevishganning har uchrashuvini ko‘rganda, intiq bo‘lib tomosha qiladigan bo‘ldi. Yosh kelinchaklar afsus qildi. “Zebo borib-borib o‘zini bir kalga teng qildi. Shuni

nimasigaishqivoz bo‘libdi”, - deb hayron qolavyerdi. Keksa xotinlar: “Zebo ham biladi. Bu dunyoda hech qachon ikki yaxshi qovushgan emas. Tag‘in taqdiriga bir ko‘rma, sholma, cho‘loqma, pesma tushib qolama. Yozining faqat kallasi kalda. Kal bo‘lgan bilan sasimasa, sallaning ostida bilinmasa. Yurish-turishdan kami yo‘q”, -deb gap to‘qidilar. Oxiri Robiya opa ham Yozi va Zeboning sir-savdosini bildi. “Qizim, borib-borib shu kalni suyibdig‘da. Kel, hozircha otasi bilmasin. Tagli-tugli joydan kelsa berib yuboraman. Kal taka uloqdayqolaberadi-da. Agar hozir bildirsam, Yozi: “Zeboni baribir menga bermas ekan, - deb bir yomonlik qilib qo‘ymasin”, - deb sezdirmay poylab, ehtiyot bo‘lib, otasiga aytolmay yurdi.

Poyandaboy Robiyani chaqirib olib: “Qani xotin, kal bola ko‘nglingdan chiqayaptima yoki dankasa- yalqovma? Kelganiga olti oy bo‘ldi, hech haqini so‘ramaydi. Oyoq olishi qanday?”, -dedi. Robiya qizarib ketdi. Erim ham bilib yuribdi ekanma, deb xovatir olib: “Kal Yozi yomon hizmatkor emas. Suyagi yengil. Lekin bir oz xayolparastga o‘xshaydi”, -dedi, Poyandaboy: “Ha deb anqovliq qilma, bo‘y yetgan qizing bor. Bir kuni gapga chalinib o‘tirma. Ishqilib ehtiyot bo‘l”, - deb tayinladi.

Bir kuni tushda arqonda yotgan ot bo‘shaldi. Hamma chopacha-chop bo‘ldi. Bir tomondan Yozi kal ham chopdi, orqasidan Zebo ham borib qoldi. Keta-keta Yozi kalning bir oyog‘i bir arnaga tushib, do‘staman bo‘lib yiqildi. Kallasidagi jumuri boshidan uchib, yerga tushdi. Jilg‘adan chopib kelayotgan Zeboning ko‘zi Yozining tengsiz husni-jamoliga tushdi. Xayolidan ot ko‘tarildi. “Yozi mening tushumga kirganda xuddi shunday edi. Xudoga ming shukur, Yozining boshisov ekan. Gap qilganlar yov ekan, ko‘nglim endi tov ekan, egam bergan ov ekan, jumiri ko‘z tegishga g‘ov ekan, husnin ko‘rgan nosov ekan. Shunday yurgani hozircha ma‘qul”, - deb ko‘zini uzolmay kela berdi. Ammo xayoli qochgan edi, boshidan ko‘p o‘y kechgan edi, ishq sharobin ichgan edi, go‘yo qanot bog‘lab Yozi sari uchgan edi, ehtimol xayolida endi quchgan edi. Kela-kela Zebo ham bir toshning parragiga oyag‘ining uchi tegib otilib tushdi. Zeboning yuzidagi yetti pardasi ko‘tarilib ketdi. Quyosh bir oz xira tortdi, balki quyosh tutilganday bo‘ldi. Otni o‘rayotgan har bir odam bir qalqib tushdi. Yozi ham Zeboning husniga battar mahliyo bo‘ldi. Ikkovi ikki yoqda tura solib, o‘z-o‘zini tuzatdi. Yozi jumurni kiydi, Zebo yetti qavat pardani tushirdi. Yana quyosh charaqlab nur socha boshladи. Odamlar o‘zinio‘nglab oldi.

Shu daqiqadan boshlab, Yoziham Zebo ham o‘zgardi. Bir-biriga qarab yura boshladи. Tog‘dagi toshlar ham, osmondagи qushlar ham, yerdagi jami jonivorlar ham jim. Hech narsaning to‘g‘anoq bo‘lgisi kelmaydi. Ko‘kdagi quyosh ham havas bilan boqadi. Bulbullar guldan qanotiga taqadi. Ilonlar, insonning bir-biriga bo‘lgan muxabbatiga lol qolib o‘zini- o‘zi chaqqdi. Yozi kelib, Zeboning qo‘lidan ushladi.

Qalblar entikdi. Qo‘llar bir-birini qisdi. Shu payt: “Hoy Yozi kal, Poyandaboy chaqirayapti”, - degan sovuq tovush eshitildi. Ikkovi ham bir seskanib tushdi. O‘zlarini o‘nglab olib, qish qo‘tonga chopdilar. Poyandaboy Yozini chaqirib olib: “Baylovdagi ot bo‘shaldi. Yoziboy, yo chorbisi yirtildi, yoki bo‘lmasa suv ichbedi oyog‘iga suv tushdi. Buning ustiga quyosh ham tutildi. Otning bir yillik mehnati sindi. Orqa oyog‘idan oqsayapti. Borib otni yetalab ko‘r, yana oqsasa juvanni olda, mana bu chakidani suvlig‘iga boylab otning boshiga il. Oqsamasa qalin qilib jovib tayla”, - dedi. “Xo‘p”, - deb Yozi jo‘hab ketdi.

Ertasiga Yozi kal qo‘tondan chalma ovdarayotgan edi, Uyning oldida kashta tiqayotgan Zeboga ko‘zi tushdi. Imlab chaqirdi. Zebo hech kim yo‘qligini bilib, enib bordi. Yozi Zeboga qarab so‘zlayapti:

Qoboq uysang tog‘lar boshi qor bo‘lar,
Ko‘zing ochsang zang temirlar zor bo‘lar,
Bir hovlida yashasakda, Zebojon,
Yozi kaling oy yuzinga zor bo‘lar.

O‘z yurtimdan oshib keldim darbadir,
Darbadarni sarson qilma, zulfakdor,
Meni desang quloq solgin, Zebojon,
Gajakdorga aytadigan so‘zim bor.

Nor tuyalar jona betdan toyama,
Xizmatkorning ko‘rgan kuni zoyama,
Lo‘k ustida va‘da berding, Zebojon,
Bir bo‘sangni kal Yozidan ayama.

Zebojona, yuzlaringda xoling bor,
Lablaringda qandolatdan boling bor,
Kal Yozini zor qilmagin bo‘yingdan,
Dahaningda kumush yanlig‘ la‘ling bor.

Atlas ko‘ylak kiysang yana yonasan,
Sevgan bo‘lsang, sen mehrima qonasan,
Men o‘rgilay sening qaddi bo‘yingdan,
Quyoshbo‘lib ko‘zdan nurim olasan,

Mard yigitning har bir so‘zi ont ekan,
Yozi uchun Zebom qo‘yni band ekan,
Sadqa bo‘lay sening bo‘yi bastingdan,
Yuzi olma, yorim labi qand ekan.

Mehrim bilan seni olay panaga,
Ko‘targanda ozorim yo‘q tenaga,
Kelmay ketsang daryoqilay yoshimni,
O‘tolmayin zor bo‘lmasin xonanga.

Tog‘ boshida aylanadi kaldurchi,
Toshga tegar qanotining bir uchi,
Niyatimni anglab olgin, parizod,
Kal Yoziga tegsa bo‘lar bir muchchi,

Zebo, yursang quv yog‘ochlar gul bo‘lar,
Kulib boqsang yog‘iylar ham el bo‘lar,
Kal Yozini qaqqhatma-da, malagim,
Sevganingning bir niyati shul bular,

Shar qo‘ylar ham yuvosh bo‘lar so‘zinga,
Ko‘kda quyosh boqolmaydi ko‘zinga,
Ketayinmi, qolayinmi, Zebojon,
Yozi kaling mushtoq sening o‘zinga.

Oy Zebo shunda tovlaniб, yal-yal yonib, yuzi biroz qizarib, Yozini xafa qilgisi kelmay qoshiga bordi. Yozi ham bachchadan katta bo‘lib, o‘g‘il bolani ham o‘pmagan edi. Bu ham hayratdan qizarib, goh bo‘zarib Zeboning qo‘lidan biroz ushlab turdi. Yuragiko‘kragida ot choptira boshladi. Zebo ko‘zini yumdi. Yozi shunday enkayib borgan edi, Zeboning bo‘ynidan bo‘y yetgan qizlarning yoqimli hadi dumog‘iga gup etib urildi. Yozining butun vujudi o‘zini hur sezdi. Shu payt ikkovining ham qulog‘iga otning kishnashi ham, eshakning hangrashi ham, odamlarning baqir-chaqiri ham eshitilmadi. Tashqaridan kelgan Poyandaboyning oyoq dovuish ham zarracha chalinmadi. Bularni ko‘rgan boyning ikki ko‘zi chaqchayib, peshonaga bitib qoldi, tanadagi tomirlari o‘qlovday bo‘rtib qoldi. Shayton Poyandaboyni: “Ikkovini ham ur” -deb turtib qoldi. Lekin shaytonga hay berdi. Boy qanchalik darg‘azab bo‘lsa ham, bularning shirin onlarini buzgisa kelmadidi. Iziga jadallab qaytdi. Boy iziga burilgan

palla YoziZeboning o‘ng yuzidan ohista mehr bilan o‘pdii. Zebo iziga qarab, kulimsirab chopdi. Lekin uzoqqa bormay iziga qaradi. Tinch turgan butun qushlar ham, parranda-marrandilar ham charx urib sayrab yubordi.

Bulbul:

Shukur topdi gulini,
So‘zlaganda tilini,
Ikki oshiq ilk bora
Bog‘ladilar dilini.

Kaptarlar:

Bu tamonda bo‘z tursa,
Qarshisida qiz tursa,
Entikmasdan bo‘larmi,
Kiprik yoshni supursa?

Chig‘irchiqlar:

Yulduz tongda otdiyo,
Izlab yorga yetdiyo,
Zebojonning yuzidan,
Oshiq Yozi totdiyo.

Mo‘llato‘rg‘ay:

Hay-hay o‘lan, hay o‘lan
Bo‘sа olding yor-yor,
Gul Zeboni bir o‘pib,
Izza kilding yor-yor.

Cho‘ponallagich:

Poyandaboy ong qoldi,
Robiyagul tang qoldi,
Zeboni yor o‘pganda,
Atirgulday chayqaldi.

Ko‘kkaptar:

Kiyganimiz bo‘lib ko‘k,
Oshiqlardan ko‘ngil to‘q,

Yozi yorga yetishdi,
Endi bizda qayg'u yo'q.
Chigirkalar:
Chirillaymiz chorillab,
Goq uchamiz porillab,
Zebo gar o'ptirmasa,
Yig'lar edik zorillab.

Jizzillovuq:
Xursand bo'ldim jahonda,
Shodlik ko'rdim bu tongda,
Ikki yor yetishganda,
Rohat topdima tanda.

Kaklik:
Tog'u toshlar sang bilan,
Qushlar kuni jang bilan,
Qanday mazza odamlar,
Sevishada ong bilan.

Turnalar:
Sevish zavqin surmadik,
Kutib tonglar turmadik,
Mag'ribdan Mashriqqacha
Shunday onni ko'rmadik.

Ko'zigul:
Har bahorda o'samiz,
O'sib yerni to'samiz,
Muhabbatga kelganda,
Vo darig'a ko'samiz.

Boychechak:
Qo'shiq qildi bizlarni,
Bog'lab dona so'zlarni,
Olqishlaylik Yozijon,
Sevging Zebo qizlarni.

Lola:
Doim shunday kun bo'lsin,
Tanda issiq jon bo'lsin
Yozi bilan Zeboning
O'pishgani chin bo'lsin.

O'simliklar, qushu parrandalar baravariga,
Hay-hay o'lan, hay o'lan,
O'lan aytdik eshilip,
Yozi bilan Zebojon
Davron sursin qo'shilip.

Yozi yerga qaradi va boshini ko'tarib Zeboga bir so'z aytdi.
Ohularning ko'zları suzik bo'lar,
Bo'lar farzand suyagi buziq bo'lar,
Oy yuzingdan iymanib berding bo'sa,
Kal Yozinga olti oy oziq bo'lar.

Qiz bolani o'pmasang izza bo'lar,
Yigit o'lsa qizgina jizza bo'lar.
Oy yuzingdan Yoziga berding bo'sa,
Senga qiyin Yoziga mazza bo'lar.

Zebojon, dushmaniga harif bo'lar,
Oshiqlaring ko'paysa tarif bo'lar,
Yuzingdan berib bo'sa kasal bo'lsang,
Tuzatarga yorginam tabib bo'lar.

Zebojon, ko'ngling olayin do's bo'lib,
Tashlab ketsang ilasharman xas bo'lib,
Bergan bo'sang asal ekan, bol ekan,
Joyimdan turolmsyman masbo'lib.

Tovus bo'lsang, Zebo, meni tozi qil,
Enchi bersang, hammasini qo'zi qil,
Qachongacha intiqbo'lib yashaymiz,
Sevar yorim ota-onang rozi qil.

Alqissa, Zebo qaqirdab bir kului va iziga qarab chopqilab ketdi. Yozining esa ishi pitdi. Bir bo'sadan aqli yetib, masbo'lib o'zidan ketdi, orqasidan qarab qolaberdi.

Kechqurun Poyandaboyning qobog'idan qor yog'ib, dasturxon boshida Robiyaga o'qraydi, Robiya yerga tikildi.

— Bu deyman Zebomiz ham o'z tengini topganday. Kelib-kelib sho'ng'irti chiqqan bir kalga ko'ngil berganday. Endi eli-xalqoldida sharmanda bo'lamiz. Boy yolg'iz qiziga ham davlatini ravo ko'rmadi. Bir kalni topib, kuchkuyov qilib oldi desa, kim degan odam bo'laman. Qizing kecha kal bilan qo'l ushlashib turibdi. Bu qanday sharmandalik?" - dedi darg'azab Poyandaboy.

-Mening ham orzu-havasim bor. Tagli-tutli joyga bersam, yolg'iz bir qizbo'lsa, davar sursam deyman. Kal bizning tengimizbo'libdimi? -dedi Robiya xo'rsanib.

-Endi bunday, kampir. Elu-xalqqa sharmanda bo'lmay kalga javob berib yuboraman. Haq so'rasha, olsin haqini - dedi boy.

Zebo burchakda jim. Qaramaydi, hech kim. Boy tashqariga qoshong'ali chiqib ketdi. Robiya Zeboga yuzlanib:

-Qizim, senga nima bo'ldi, otang nima deyapti? Shu gaplar rostmi, gapir, -dedi bilmaganday.

-Ha, onajon rost - dedi Zebo yerga qarab.

-Sen bu kalning nimasiga qo'lingni berding? Gavharni loyga urchoqchimisan? Kim o'zi u, bir kal, hizmatkor bo'lsa, agar yana kal bilan uchrashsang, bergen tuzim senga harom. Ayt, nimasiga uchasan? -dedi Robiya. Zebo bir oz dadil bo'ldi. -Onajon, men otning to'rbasi emasman, ko'ringan otga ilib qo'ygali. Sevmagan kishi bilan yashashning har bir kuni zax, qora zindon. Kechiring meni.

Zebo Yozining yana bir xislatini ayrib yuborishdan tilini tiydi. Onasi: "Hayf senga" - deb ishga sho'ng'ib ketdi.

Ertalab Poyandaboy Yozini oldiga chaqirib oldi. Oldin Yozini maqtadi. Keyin Yoziga tikilibroq qarab: "Yoziboy ukam, mana kelganingha ham olti oy bo'ldi. Endi sen qiladigan ish bu yerda qolmadi. Bor bolam, endi kuningni ko'r. Agar so'rasang pastbaland haqingni berayin, - dedi.

-Boy bobo, zalal-zahardan achchiq. Men sizga zalal berayotganim yo'q, oldin sizga aytgan edim, Mening hech kimim yo'q. Ota-onam o'lib ketgan. Boradigan joyim ham yo'q. Menga haqingiz kerak emas. Faqat davlatingiz soyasida kun ko'rib yursam bo'ldi"-dedi Yozi.

-Agar haq kerak bo'limasa yana yaxshi. Kechqurun men qaytib kelguncha seni bu qishloqda ko'rmayin. Menga pismiq, ichidan pishib ketgan hizmatkor ikki dunyoda ham kerak emas, ket bu yerdan", - deb Poyandaboy shasht bilan joyidan turib, egarlangan otga tomon ketdi. Yozining gapi bo'g'zida qoldi.

Yozi ketmadni. Poyandaboy kelgandan keyin uni har qanday og'ir ishlarga soldi. Orqalatib mesh ko'tartirdi, tovdan do'ngak ovdartirdi, bekerak joylarni hakov bilan qazdirdi, lekin Yozi ketmadni. Yozining bu ahvollarini Zebo ko'zida yosh bilan kuzatdi. Ketkiza olmagan Poyandaboy oxiri kechga maslahat oshi qilib, cho'ponlarini, keksalarni chaqirdi. Oshdan keyin Poyandaboy Yozidan bezganini ayrib, bir o'g'ri ekan, deb ayib qo'yib, shuni qanday ketgizish kerak, deb maslahat soldi. Kimning aravasida bo'lsang shuning qo'shig'ini aytishing kerak. Odamlar ham Poyandaboyning gapini ma'qul dedi. Shunda bir keksa: "Ikki eshakka ikki ulov bug'doy ortib bering. Bog'dodda yaxshi tegirmon bor shuni un qilib tegirmonga tortib kel", - deb piyodalab haydasangiz ketadi, balki yetadi, balki yo'lba yutib dunyodan o'tadi." -deb maslahat berdi.

Ertalab Poyandaboy Yozini chaqirib olib. O'g'lim Yozi, dona jiyan dona, degan gap bor. Endi bug'doylarni un qilib, qishga g'amlab qo'ymasak bo'lmaydi", - deb kechagi masladatdan xulosa qilib, Yoziga yo'l-yo'riq ko'rsatib, piyoda jo'nativ yubordi.

Yozi ikki eshakni oldiga solib, piyoda: "Bog'dodqaydasan?" -deb jo'nab ketdi. Zebo zor yig'lab qoldi. Yozi yo'lida ketayotsa, bir bulbulning zavq bilan sayrayotganini eshitdi. Qarasa bodomchaning ximchasida o'zini Zeboga boshlab kelgan bulbuli turibdi. Shunda bulbul Yoziga qarab bir sayradi.

Kelayapsan, Yozijonim, poyma-poy,
Daryo toshsa chetga chiqar qora loy,
Og'ir ishga bo'yin berib kelasan,
O'lib ketsin, degan seni Poyanboy.

Bog'dod eli borguninchcha besh yuz yil,
Ko'p xatarga duch kelasan buni bil,
Poyandaboy senga qildiqasosni.
Qaytuningcha yerdan o'sar Zebo gul.

O'ng tomondan yoursang chiqar keksa chol,
Quloqsolar sen gapirsang arzuhol,
Xudoyimning nuri tiygan bu cholga,
Bug'doyingni unqib berar bermalol.

Ko'rganingda salomingni unutma,
Kelib qolsa bir oz to'xtamay o'tma,
Shu gapimni quloqqa qo'y, Yozijon,
Tuzin totgan boyingni sira sotma.

Qaytganingda Poyanboyga bildirma,
Do'st yig'latib dushmaningni kuldirma,
Zebojonga teziroq bor, Yozijon,
Toza gulni tikanaka oldirma.

Adolatni tutqa qilgin o'zinga,
Yolg'on so'zni zinhor qo'shma so'zinga,
Nima bo'lsa ehtiyot bo'l Yozijon.
Bu jahonda dushman xo'p dir o'zinga.

Shunday deb bulbul pir etib osmonga parvoz qildi. Yozi Poyandaboyning qing'irligini bildi va bulbul ko'rsatgan yo'nga ravona bo'ldi. Bir qir oshgandan keyin katta chinorning tagida o'tirgan keksa cholga duch kelib, egilib salom berdi va arzi holini birma-bir aytди. Bobo salomni alik olib joyidan turdi va bir dam soldi, chinor tegirmonga aylana boshladi. Yozi razm solsa, bir pasda chinorning tenasi tegirmon toshga aylandi, barglari do'l bo'ldi, katta bir tomir nav bo'ldi, yana bir parchasi besh ko'z, turum bo'lib parrak qog'iladigan joy bo'ldi, yana bir bo'лага baqa bo'lib toshni aylantirdi, bir parchasi cho'psa bo'lib, donni normallashtirdi. Shu payt boyagi chol tegirmon toshning u yoq -bu yog'ini teshib, yerda yotgan chinor barglarini yig'ib osmonga otdi. Bir parcha bulut paydo bo'lib tegirmonning noviga yomg'ir yog'di. Yozi bug'doylarni do'nga solib, bir pasda un qilib tortib oldi. Ikki qop unni jadal ko'tarib eshaklarga ortdi. Boboga ta'zim qilib, ming bor rahmat aytib iziga qaytdi.

Kechki peshin Poyandaboyning qishlog'iga qaytib keldi. Hamma hayron qoldi, Zebo xursand bo'ldi, Poyandaboy angrayib qolgan, burni tingrayib qolgan. Yozi qoplarni tushirib, boyga: "Yana qanday xizmat bor?", - deb egildi. Boy bu safar ham niyatiga yetmadi. Ertasiga Zebo Yozi tortib kelgan undan xamir qildi. Tandirga olov yoqib qizitdi. Yozi Zeboning qoshida kuymanglab yuruvbedi Poyandaboy shasht bilan kelib qoldi. Shoshib qolgan Yozi darrov qizib turgan tandirga tushdi. Shu payt yetib kelgan boy tandirga egilib: "Qizim noning pishdima?" - deb qarasa, qip-qizil cho'g'ning ichida Yozi qunishib o'tiribdi. Shu payt oshiqlarning piri yetib kelib, Yozini bir o'shqirib muzlatdi.

Tandirning ichidagi qip-qizil cho'g' Yoziga paxtaday to'shaldi. Issig'i tandirning betiga lovillab ura boshladi. Alqisa, jami sahabalar ko'zga ko'rinnmay Yozini olovdan saqlab turdi. Xo'jay Xizir bobo hozirbo'lib, Yozining og'ziga suv tomizib, chanqoqnlikdan saqlayvyerdi. Kalning ota piri, ona piri xudodan madat surab, qo'sh qo'llab duo qilib, "Omon saqla, yolg'izni", - deb yig'layvyerdi. Chor tarafдан qirq chiltan paydo bo'lib, olovning rangini borgilib, issig'ini jilovladi. Hatto issiq

tandirning issiqkesaklari oqarib, Zeboning hurmatiga issiqni o'ziga yuta boshladi. Olqishlagan jonivor qushlar tandirning ustida: "Yozi dadil bo'l, Yozi tangriga sig'in", - deb charx uring, charillab sayray boshladilar. Dala-dashtdagи jamiki o'simliklar, tog'lar, toshlar, daryolar bir nafas jimlikda qotdilar. Zero, butun borliq diqqatda edi. Boy hayron bo'lib boshini tandir dan sakrab chiqib atrofga alangladi, hech narsani hayoliga keltira olmadи. Hozirgi voqealarni xuddi tushida ko'rgandek, ko'zini uqaladi. Yaratganning o'ziga shukrona aytди. Zeboning toshdek qotib turganini ko'rdi. Poyandaboyning esa ko'zi olayib, og'zi ochilib, hayratdan yoqa ushlab turganini ko'rib boyga: "Shuncha oy xizmatingizni qilib yelkam terlamadi. Oxiri Zeboning tandiriga tushib, bir oz jibishdim, rahmat Zeboga" -dedi. O'zini tutolmay qolgan boy qo'lidagi qamchi bilan: "Mana yelkang jiyishmag'an bo'lsa", - deb yelkasiga bir-ikki oshirib soldi, Yozi yolg'ondan ovnab qoldi. Boy achchiqlanib uyiga qarab ketdi. Yozi arazlagan bo'lib Zeboga bir so'z aytди.

Zebojona, otang qamab ushladi.
Majbur qilib cho'g' tandirga tashladi,
Omon-esan kuymay chiqdim olovdan,
Och yelkani achchiqqamchi xushladi.

Turkmanlarda yuk ko'targan nor ekan,
Kuyganlarga keng dunyo tor ekan,
Yelkamizga ikki qamchi tashladi,
Kal Yozining ne gunohi bor ekan.

Poyandaboy aytgan gapda turmaydi,
Azob tortsa tulpor otlar yurmaydi,
Otangizga hayron qoldim, Zebojon,
O'zbeklarda ota kuyov urmaydi.

Shabnam tushsa toza gullar to'lgandar,
Atrofini chirmuqlar olgandir,
Otangizdan sira xafa bo'lmadim,
Kuyovini yana sinab ko'rgandir,

Majnun oshiq bo'lgan ekan Layliga,
Olib borolmabdi qizlar sayliga,
Qalingdan kechib urdi, Zebojon,
Shunday qilib rosa ursa mayliga,

Zebo ham hayratdan o'zini o'nglab oldi va bo'sh kelmay, Yozining kuymaganiga xursand bo'lib, gul-gul yonib, javob berdi.

Nor tuyaga temir ortsang bukilar,
Nomard odam yovni ko'rsa yiqilar,
Ota ursa xudo berdi, Yozijon,
Bo'sa olgan gunohingiz to'kilar.

Sizning bilan doim bo'lar parvoym,
Obod bo'lsin Maymonoqday keng joyim,
Yigit odam xafa bo'lmas tayoqqa,
Taqdirimni sizga qo'shsin xudoyim.

Bug'doy soling tegirmonning do'liga,
Alpday bo'lib mining tulpor beliga,
Ikki qamchi bugun bo'ldi nasiba,
Bundan keyin tushmang otam qo'liga.

Kalla omon bo'lsa telpagi bitar,
Yigit qizga doim talpinib o'tar,
Otam uchun xafa bulmang, Yozijon,
Yaxshi yigit yomon gapni unitar.

Nodon farzand ota tuzin oqlamas,
Yaxshi cho'pon qo'tonini qoqlamas,
Boy bobongiz hazil qildi, yo'lbarsim,
Ochiq odam yurakka kek saqlamas.

Poyandaboyqaytib chiqsa, Yozi yana Zebo bilan gaplashib turibi. Urib xaydayin desa: "Tandirga tushib yonmabdi, demak bu kaldabir gap bor", - deb qo'rqadi. Haydamayin desa, qishloqqa gapoyyla boshladi. Kel-e, shunga berib qo'yayin desa, haromdan iti yo'q.haldordan tovug'i yo'q, odamlarga aytayin desa, o'zing qilding,huzurqilding deb betiga aytadi. Nima qilishni bilmay hayron qoldi. Zebo otasidan qisinib uyga kirdi.

"Yozijon, kel bu yoqqa, senga bir maslahat aytayin o'tir", - dedi Poyandaboy. Yozi xo'p deb o'tirdi. Poyandaboy o'zicha: "Yolg'ondan kal bilan ota-bola bo'lsam, keyin Zeboden seskanadi" -deb fikr qilib - Mana sen ham tuzimni totding, uyimda

qancha yotding. Xuddi bolamday bo'lib ketding. Kel, ikkovimiz ota-bola bo'lib to'y qilaylik. Xudoni bir, Rasulni haq deb o'rtada butun non sindiraylik", - dedi mug'ombirona. Yozi darhol tushundi va javob berdi: "Ey boy ota, siz boy bo'lsangiz, men kambag'al bo'lsam, ikkovimizga ota-bolalik yarashmaydi. Eskilar aytadiku: boy-boyga boqar, suv soyga oqar. Men sizga o'g'il bo'lishga munosib emasman". Boy buni aldab ham bo'lmasligini bilib taqdiriga tan berib, Robiya opa ham joni halak bo'lib, qiziga ehtiyyot qarab yuraberdi. Boy bir kuni shaharga ketdi. Zebo chelak ko'tarib suvg'a chiqdi. Bostirmaning ustida chalqaraman yotgan Yozining ko'zi Zeboga tushdi. Qo'tondan sakrab tushib, Zeboning qo'lidan chelakni olib, buloqqa jo'nadi. Yo'lda ikkovi bir-biriga gap tashlab borayotir.

Yozi kal:

Suluv qizlar ichida yuzing anor,
Anorday qizil yuzda qoning tomar,
Anordayin yuzingdan bir o'ptirsang,
Jannat suvin ichganday mehrim qonar.

Zebooy:

Mard yigitlar ichida o'zing botir,
Ota-onang ruhini qilgin xotir,
Lovullagan yuzimning egasi bor,
O'polmayin Yozijon yig'lab yotir.

Yozi kal:

Sanam qizlar ichida sensan bahor,
Bahor desam bulbullar sayrar sahar,
Oy yuzingning egasi o'zim bo'lay,
O'ptirmasang chehrandan tomar zahar.

Zebooy:

Cho'ponlarning ichida noming Tursin,
Zebo tegmay Yozijon yig'lab yursin,
Qiz bolaning nozini yigit bilib,
Yetolmasa visolga tinchib tursin.

Yozi kal:

To'da qizlar ichida noming Laylo,
Yomongina odating yorim tayla,

Kal Yozini kamsitsang, bo'yginangdan,
Menden boshqa bor bo'lsa, mayli, sayla.

Zebooy:
Chavondozlar ichida noming Tog'ay,
Nima qilib ,Yozijon, sizga jog'ay,
Ota-onam bermasa xo'p yig'layman,
Ko'zginamning yoshini sut qib sog'ay.

Yozi kal:
Chaman qizlar ichida noming sharaf,
Bir bo'sani bermaysan boyga qarab,
Men g'aribni kuydirib, suluv Zebo,
Har saharda qaraysan soching tarab.

Zebooy:
Pahlavonlar ichida noming Ochil,
Sevgan bo'lsang ko'ksima gul bo'b sochil,
Menden boshqa kiming bor bu jahonda,
Quvatketsa, Yozijon, menga osil.

Yozi kal:
Dilbar qizlar ichida noming Olma,
Olma desam egilib beling tolma,
Yozining sendan bosha xudoyi bor,
Mening aytgan gapimni hazil bilma.

Zebooy:
Bo'z yigitlar ichida noming Quvvat,
Quvvatinga yarashar tog'day savlat,
Mening uchun,Yozijon, bo'lmang xafa,
Xudoyjonim sizga ham bersin davlat.

Yozi kal:
Pari qizlar ichida noming Zebo,
Izlab keldim izingdan seni debo,
Otang qo'yganismingni arloqlayman,
Men yurayin oldingda oshiqbo'bo.

Zebooy:
Sevganimming ichida noming Yozi,
Qish o'tganda keladi bahor,yozi
Sening uchun berayin tanda jonim,
Yuragimda jaranglar yorim sozi.

deb qiqardashib, buloqdan suv olibqaytib jo'nadi. Yozi Zeboga qarab: "Dunyoda hamma narsani juft yaratgan. Sen bilan men ham nasib bo'lsa juft bo'lamiz. To'g'rimi?", - dedi. "Nima bo'pti, juft bo'lsa", - dedi Zebo kulib. "Bu deganim, qo'tondagi bo'sa juftbo'lsindeymanda", - dedi Yozi dadillanib. "Bo'lmasa, dedi Zebo - topishmoq aytaman topsangiz aytganingiz bo'lsin", - dedi. "Mayli", - deb rozi bo'ldi Yozi.

Zebo:
Suruvli qo'y suvgaga endi,
Suluv yigit birga endi,

Yozi o'ylanib:
Suruvli qo'y suvgaga ensa,
Suluv yigit birga ensa,
Ikkovi ham boshma-bosh,
Cho'mich bilan kesgan osh.

Zebo:
To'g'ri.
Top-top elanadi,
Surpa unga belanadi.

Yozi xayol surib:
Top-top elansa,
Supra unga belansa,
Keyin keladi bahor,
Ochuvi ekanda qor.

Zebo yana:
To'g'ri.
Kiyimi qavat-qavat,
Tugmasi yo'qdir faqat.

Yozi barmoq tishlab.
Kiyimi qavvat-qavat,
Tugmasi yo'qdir faqat,
Yomonyo'lning ovlag'i,
U ekanda lavlagi.

Zebo yana:
To'gri.
Tog'dan tushsa shaldirar,
Oyna kabi yaltirar,
Asli bo'ladir suyuq,
Sovuqda qattiq quyuq,
Issiqliqdan uchar qochar,
Daryodan g'iz-g'iz uchar.

Yozi:
Issiqliqdan uchar qochar,
Daryodan g'iz-g'iz uchar,
Tushsang badan uv bo'lar.
Demak buning suv bo'lar.

Zebo qiyinirog'ini qo'yadi:
To'g'ri.
U yoqqanda dala qir,
Kuladi qiqir-qiqir.
Toping.

Yozi o'ylanadi, topolmaydi. Keyin Zebodan so'radi: "Kimda borda, kimda yo'q?" Zebo: "Hamma yerda, mavsumida bor". Yozi: "Joni borma, joni yo'q?" Zebo: "Joni yo'q, lekin jon bag'ishlaydi." Yozi o'yladi, lekin topolmadi. Zebo: "Topolmadingiz, shahringizni berasizmi?" Yozi: "Shahrimku yo'q, lekin otangning qishqo'tonini beraman"-dedi. Zebo: "Bo'lmaydi, bo'lmaydi," - dedi. Yozi bir past o'ylanib, turadi-da javob bermoqchi bo'ladi.

U yoqqanda dala qir,
Kuladi qiqir- qiqir,
Qurbaqa vaqir- vaqur,
Demak buningiz yomg'ir,

Zebo hoholab kulib yubordi. "To'g'ri, to'g'ri, to'g'ri. Yozi Zeboning qo'lini ushlab, "Yozi senga o'g'ri" deb bir quchoqlab, bir o'pdii, hech kim sezmay qoldi.

Shu payt ikkovi bamaylixotir kelaversa, uyning oldida Poyandaboy darg'azab, qahr bilan qo'ligatayoq olib, irrayib qarab turibdi, ikkovini ham endi xudoy uribdi. Yozichelakni Zeboga berib, iziga qaytmoqchi bo'ldi. Zebo ham xijolatdan chelakni yerga qo'yib, o'tirib qoldi. Boy Yozini chaqirib: "Hoy kal, sen karmasan, yo tentak pesmisan? Men senga allaqachon javob bergenman. Kettaysanmi, xaromi?" - dedi. Yozi ochiq aytishga majbur bo'ldi: "Boy ota, meni ursangiz ham, so'ksangiz ham ketmayman. Chunki Zeboni sevaman. Mayli, meni o'ldiring, dorga osing, roziman." Poyandaboy: "Eski paxta bo'z bo'lmas, Azali dushman el bo'lmas, Ket uydan, nomard. Zebo kimu, sen kim? Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan. Bor toshingni ter", - deb haydadi. Shunda Yozi: "Poyandaboy ham bilgan bo'lsa, endi kimdan yashiraman. Agar chini bilan bermaydigan bo'lsa, ochig'ini aytib ketayin", - deb baland ovoz bilan Zeboga bir so'z aytdi.

Yolg'on gapni xudoym urmaydimi,
Yaxshi elda davrini surmaydimi,
Uydan ket deb haydasa boy otangiz,
Jon qizini Yoziga bermaydimi?

Loy tomlarning ustidan o'tar chakki,
Sari moydir kubiga tushsa chakki,
Kuyovini haydadi o'z uyidan,
Qizini bermay sevganga qildi chakki.

Salom berdim otanga kelsa turib,
Qiyin ishin bajardim yengim turib,
O'z kuyovin haydasa tayoq bilan,
Zebo qanday yashaydi uyda turib.

Bo'rilar qo'yni ko'rsa muraladi,
Ongini topib olib yaraladi,
Ketayapman uyingdan ixtiyorsiz,
Oramizga bir zolim oraladi.

Poyandaboy kelganimda kulmadilar.
Tiriklay go'rga meni solmadilar,

Zolim desam xafa bo'lmang, Zebojon,
Sevishganning holini bilmadilar.

Ketib qolsam oramiz uzoq bo'lar,
Otangiz ikkimizga tuzoq bo'lar,
Ikkimizni ayrsa Poyandaboy,
Padaringiz oxiri do'zax bo'lar.

Yozi xafa bo'lib, alami ziyoda bo'lib, o'zi piyoda bo'lib, tiramaning sovuq kunida boshini olib, tovga tortib ketdi. Poyandaboy uyga kirsa, Zebo yig'lab o'tiribdi. Yolg'iz qizga bir narsa deyolmadi. Shu kundan boshlab Zeboning ahvoli yaxshi bo'lmadi. Ishtahasi bo'g'ildi. Qo'li ishga bormay, kun bo'yisi chuvoqda tovga qarab o'tiradi. Oxiri zerikkanidan Yozijonga atab, imorat keshtalarini ko'zining nuri bilan, qalbining qo'ri bilan, qo'lida kashta tilida ayriliq dardlarini to'ka boshladi:

Men tikama sanama,
O'tlar tushgan tanama,
Izlab borayin desam,
Qo'ymas ota -enama.

Goh tikaman ildirma,
Yozim g'amga to'ldirma.
Xudo yorim ayirib,
Dushmanlarim kuldirma.

Qo'lga olay zardevol,
G'amga soldi tanho hol,
Yorim ketsa orlanib,
Nonim zahar, suv uvol,

Gul qib tikay so'zani,
Yorim yayrasin tani,
Ikkimizni ayrdi,
Ilyon qani, shan qani.

Ipak gulli bo'g'jama,
Sen ham navbatdan qoma,
Mehr bilan tikayin,
Ko'zimdan nurim toma.

Zebo gul, Yozi bulbul,
Oqibati hozir shul,
Yerga bog'lab tikayin,
Paxta gulli tovusgul.

Yostiq tikay to'ldirib,
Chevarligim bildirib,
Muhabbatim oxiri,
Tinar meni o'ldirib.



Ko'rpa tikay gullatib,
Parchasini mo'llatib,
Shundan otam bermasa,
Men ketaman cho'llatib.

Qo'llariga qo'l ro'mol,
Javdar munchoq dasro'mol,
Yozijon kelsa beray,
Ko'rgan bo'lsin lol, behol.

Qora uyim bog'ishli,
Sariq gavmush sog'ishli,
Yorimga qalpoq tikay,
Har bir guli naqshli.

Belbog' tikay sochoqli,
Sochoqlari munchoqli,
Yor beliga bog'layin,
Yozim tog'day quchoqli.

Robiya bechora qiziga parvona. Yuragi tushganma deb qo'r ichirdi, bo'lmadi. Lekin dardini Yozi bo'lsa kerak deb gumon qildi. "Ha ko'nnigib ketar", - deb o'yladilar. Kunlardan bir kuni Poyandaboning uyiga boshqa o'raning katta boyinikidansovchi keldi. Poyandaboy paytavasiga qurt tushgan cho'ponday tipirchilab qoldi. Zeboning ko'ngli buzildi, xun tortgan avg'onday rangida qon qolmay, sovchilarni qanday qaytarish yo'llarini izladi, lekin qizlik iffati yo'l bermadi. Sovchilar maslahat kunini belgilab ketdilar. Nima dardi bo'lsa, ichidabo'lavyerdi.



Gapni Yozidan eshitig. Yozi shu ketishda tovga yetdi. Axiri yurib katta bir archaning kavagini topib, Zeboni o'ylab yotaverdi. Juda och qolganda tovdan yovvoyi mevalarni terib, oziq qildi. Oradan qirq kun o'tdi. Kavakda ertalab uqlab yotsa, tush ko'rdi. Tushida ko'p hangoma ish ko'rdi. To'y ichida yurgan emish. Goh kuyov bo'larmish, goh devona bo'lib, zor yig'lab yurarmish. Keyin Yozini bir kishi chaqirib olib: "Ey Yozi, sen yig'lab yurma, yig'lashdan foyda yo'q. Tushdan keyin Zebo yoringni olib ketadi. Chorasini top", -debdii. "Voh" deb Yozi joyidan chorillab tursa, archaning shoxida o'zining bulbuli zor qaqqash sayrayapti. Yozi bulbulga qarab: "Nima bo'ldi, nima gap bor?", - desa, bulbul undan battar sayrayverdi. "Ha Zeboga bir gap bo'libdi yoki ota-onasi boshqa birovgaga uzatayotgan bo'lsa kerak", -deb jon holatda qish qo'tonga qarab behol chopdi. Kelib qarasa, Poyandaboynikida katta to'y. Hovliqib, tanish cho'ponlardan so'rasha, "Bugun Zeboning joloq qizartar to'y bo'layapti", -dedi. Shunda Yozi ham achchiqdani, ham sog'inib, ham kuyib, chuvodqa o'tirgan qudalarga eshittirib, Zeboni izlab bir qo'shiq ayta boshladi.

Xo'ja Anbar tovi baland aylanma,
Chuvoq betda suruv-suruv qo'y borma?
Qish qo'tonda muncha shovqin bo'ladi,
Poyandaning yaylovida to'y borma?

Qishda taylang qo'y ostiga porini,
Dushmanidan yigit olar orini,
Kal Yozini ketdi demang, Poyanboy,
Sevgan yigit tashlab ketmas yorini,

Peshin bo'lsa izga qaytar podalar,
Insonliqni yerga urmas gadolar,
Yorim izlab keldim bugun yaylovga,
Kal Yozini o'ldi demang, qudalar.

Sarka kelar qo'ngirovi tog'inib,
Sipohilar joydan turar qog'inib,
Kal Yozini o'ldi demang, qudalar,
Bugun keldim Zebojonni sog'inib.

Zebo uchun jonin bergen Yoziman,
To'y berish ham qaynatamning nozima,
Har bir ishni kengashingda, qudalar,
Zebo sanam bu to'yinga rozima?

Lekin Zebodan darak bo'lmadi. Poyandaboyqudlarning oldidan kelib, Yoziga yaxshi gapirib to'rga taklif qildi. Lekin Yozi to'rga o'tmay, "Zebodan bir so'rayin, agar Zebo rozi bo'lsa, bu yerda turmay izga qaytayin", -deb boshqa uyga yura boshladi. Poyandaboy xijolatdan Yozini yetaklab, qudalardan pana joyga olib borib "To'yni buzganning tomiri ko'karmaydi, Zebo qudalarga rozi. Sen bu yerda nima qilasan to'yni buzib, ketaver", -deb jerkidi. Ammo Yoziga bu jerkish kor qilmay, "Zebo bor bo'lsa javob qilar", -deb qattiq tovush bilan Zeboning roziligin so'ray boshladi.

Yozi:

Soya bo'imas poxolning sobonidan,
To'ying bo'lar boylarning tomonidan,
Yozi kaldin kechibsanda, Zebojan,
Xushladingmi kuyovning yomonidan.

Zebo ichkaridan:

Xo'jaAnbar tog'i bilsang qor bo'lar,
Izganangga oyday Zebong zor bo'lar,
Qiz bolaning irodasi metin tosh,
Vijdonlining sevgan yori bir bo'lar,

Poyandaboy uyatdan ketib qoldi, buyog'i shunday bo'ldi:

Yozi:

Ahmoq odam gapis sa tavur bo'lar,
Dangasaning kekkayishi ovur bo'lar,
Qizg'aldoqday avaylab yurgan soching,
Sevmaganing qo'lida javur bo'lar.

Zebo:

Kim olovga egilsa tavob bo'lar,
Imo-ishoralar ham javob bo'lar,
Ajdar sochim havorda qolgan emas,
Yozijonim silasa savob bo'lar.

Yozi:

Haydalgan yer tortilsa poya bo'lar,
Mening qalbim boshinga soya bo'lar,
Tiramayi olmaday Zebo yuzing,
Qanday nomard labida zoya bo'lar.

Zebo:

Xumor ko'zim charaqlab yulduz bo'lar,
Suv ichsangiz chashmada qunduz bo'lar,
Har kishiga buyurmang o'zginamni,
Oy qarongi kechada kunduz bo'lar.

Yozi:

To'da kaklik charqillar tosh ustiga,
Zebomning har bir so'zi bosh ustiga,
Kunduz bo'lib yoritsangiz dilginamni,
Suluvginam o'sma qo'ysin qosh ustiga.

Zebo yorim qudaga non pishirsin,
Menga pishiq, qudaga xom pishirsin,
Sizning uchun yana qaytib kelmasin,
Qudalarning qornin meshday shishirsin.

Zebo:

Xom pishirsam otama yomon bo'lar,
Kecha sahar uyimiz tuman bo'lar,
Zebo uchun qayg'urmang, Yozijonim,
Xudo bersa boshimiz omon bo'lar.

Suruv qo'yda chayqalib sovliq turar,
O'roqchining belida bovliq turar,
Tanda jonim sadiqa ol, Yozijon,
Agar qaytsam so'zimdan xudo urar.

Shunda qudalar Poyandaboya qarab: "Bu nima gap, bizni el oldida sharmanda qildingiz. Bizning o'g'limiz ham yerda qolgan emas. O'z tengi topilar. Tolashgan erga tol pitmas deganday, talashli ekan nima qilasiz va'da berib", -dedi. Poyandaboy: "Bu bola mening xizmatkorim. Esi ham kirdi-chiqdi. Aqldan ozgan. Men buni allaqachon haydab yuborganman. Lekin har doimda ovushib keladi. Xafa bo'limgizlar. Zeboning to'y bo'lganiga bu ham xursand", - dedi. Shu payt Yozi yana kelib qoldi. Byekovul Yozini kurga o'tkazib, oldiga katta tol toboqda osh qo'ydi. Yozi go'shtni to'g'rashga pichoq so'radi. Poyandaboy yonidagi pichoqni chiqarib, g'azab bilan uzatdi. Go'shtni tug'rayotgan Yozi issiqliqdan yaxshi ushlay olmay, pichoq- bilan bosh barmog'ini kesib yubordi. Shu bahona Yozi baland ovoz bilan Zeboni chaqirdi.

Poyandaboy yegin dedi, osh qo'ydi,
Pichoq berib ikki qo'lim bo'sh qo'ydi,
Zebo, ko'rsat qudaning kattasini,
Seni bermay ko'zlarimga yosh qo'ydi.

Qudalarni rozi bo'lib o'stirdi,
Kal Yozini g'am-g'ussaga bostirdi,
Sevar yorim, kelgin deyman qoshima,
Pichoq berib bosh barmog'im kestirdi.

Yigitlikda alvon-alvon so'yayin,
Oqitbatni axir men ham o'yayin,
Barmog'imni kesdi otang pichog'i,
Ro'moling ber qo'Iginamni boylayin.

Pichoq berib qo'limni yaraladi,
Otangiz sizga kuyov saraladi,
Gar nasibang menga qo'shsa, oy Zebom,
Quloch soching bo'yninga o'raladi.

Qizil qonim tomchiladi tenadan,
Umid bilan keldim men ham jonadan,
Sevgimizni bilib qo'ysin qudalar,
Kim tug'ilgan tilla ushlab onadan.

Alqissa, Zebo ro'moli bilan yuzini yashirib, Yoziga yaqin keldi va qo'l ro'molini tashlab ketdi. Buni ko'rganqudalar Yozining gapi rost ekanligini bilib: "Tag'i qalinimizga kuyib qolmaylik, bir qizbo'lsa topilar", - deb achchiqlanishib, hamma olib kelgan narsalarini qaytarib olib, kelgan tomoniga ketdilar. Poyandaboy el ichida sharmanda bo'lib qola berdi. Yozini urib o'ldirayin desa, duo ketgan bolaga o'xshaydi, tandirga tushib belgi berdi. Urmayin desa, qiling'i o'rtayotir. Nima qilishini bilmay Poyandaboy qishni ham o'tkazdi.

Yana bahor keldi. Poyandaboy bahorgi yurtga ko'chishga tayyorlana boshladи. Yozi: "Bouning ishi ko'payadi, endi xizmatga buyurar", -deb xursand bo'lib, u yoq-bu yoqlarni jiysishtirasha berdi. Ertasiga Poyandaboyqancha suruv qo'yi bilan, qancha cho'pon-cho'lig'i va oilasi bilan tov bag'irlariga, chorva yaylovga ko'chib jo'nadi. Yozi piyoda, Zebo yel moyada ko'ch bilan jo'nay berdi. Shunda, Yozi

Poyandaboyning: "Yozi sen ham yur biz bilan", - demaganiga ta'sirlanib, Zeboga qarab so'z qotdi, Zebo esa Yozini gap bilan yupatdi.

Yozi:

Yozi kaling baland dorga osilar,
Sening uchun ko'kaylari kesilar,
Ko'nglim uchun bir og'iz so'z demasa,
Cho'g' yuragim sovuq suvgaga bosilar.

Zebo:

Boy otamning qitig'i bor, shashti bor,
Toqqa chiqing balandi bor, pasti bor,
Poyandaboy qolib ketar orada,
Qiynalmoqning beginm bir kun gashti bor.

Yozi:

Tog' boshida chayqaladi sedana,
Sedanaga jo'r bo'ladi bedana,
Parvo qilmay nima qilay, Zebojon,
Shu ketishda bo'lmaymanma devona.

Zebo:

Devonaga yaylov bo'lsin to'shlarim,
Qamchisiga buram bo'lsin qoshlarim,
Mening uchun xafa bo'lmanang, Yozijon,
Bulut bo'lib soya bersin sochlarim.

Yozi:

Qalbim bilan qal'a bo'lay o'zinga,
Chaman bo'lib gul sochayin izinga,
Sening uchun hadya bo'lsinjahonim,
Gavhardayin tovlanayin ko'zinga.

Zebo:

Sizning uchun sadqa bo'lsin tilagim,
Yo'lingizga soqchi bo'lsin yuragim,
Simob bo'lib suzilayin, Yozijon,
Bo'yingizga tasma bo'lsin bilagim.

Yozi:

Jilg'alardan suv oqadi sharillab,
Sel kelganda baliqchochar dirillab,
Oyday chehrang aqlim olib boradi,
Bulbul bo'lib aylanmadim pirillab.

Zebo:

Baland tovning qorlari erib yotar,
Chanqoq joyga mehrini berib yotar,
Bulbul bo'lib aylansangiz guliga,
Ko'rib qolsa otamiz urib yotar.

Yozi:

Sevgan yoring so'zlari asal bo'lar,
O'lguningcha bo'sasi masal bo'lar,
Bulbullarni boz qo'ymasa otangiz,
Gul bo'lmasa Yozingiz kasal bo'lar.

Zebo:

Qish qo'tondan kelaman bovrim terlab,
Yel moyaga qo'shilib soydan o'rlab,
Boy otamga qo'yiamsiz sovchilarni,
Qanday qilib tegaman otam zo'rlab,

Yozi:

Toshning ketsa quvvati bo'linadi,
Qars etganda burchagi tilinadi,
Faqat xudo rahbarim nima qilay.
Shunday kunda sag'irlik bilinadi.

Zebo:

Dam shu damdir, boshqa damni dam dema,
Xudo desang davlatingni kam dema,
Oyday Zebong tovlanadi qoshingga,
Yolg'izman deb bekday yorim g'am yema.

Ko'ch oldida ketayotgan Poyandaboy orqasiga o'girilib qarasa, Yozi Zeboning tuyasining goh u yoniga, goh bu yoniga o'tib, gohida tuyaning bo'yniga osilib kelayapti. Boy: "Xech qutilmadim, qutilmadim shu kaldan. Hamsoyalarning oldida yerga soldi", - deb ot jilovini tortdi. Ko'chni o'tkazib yuborib, Yozini oldiga chaqirdi. "Yozi, o'tgan yilgi bahorgi yurtni bilasana", - dedi boy. "Ha" - dedi Yozi.

Agar bilsang bu yil ham shu yurtga joylashamiz. Sen ham endi o'zimiznikiday bo'lib ketding. Chorva yaylovga kechga yetadi. Ko'ch ertaga peshinlarda nasib bo'lsa yetadi. Sen qirdan oshib o'ta solib, bahorgi yurtga yetsang-da, uy tashlanadigan joylarning o'tini tozalab, buloqlarning ko'zini ochib, kechasi cho'ponlar bilan yotsang. Ertaga Zebo bilan bizni kutsang qaytadi, bolam", - deganiga sarimoyday erib, "O'zi bolam deyapti, demak bir gap bor. Axiri bo'yin bo'ladi-da", - deb o'ylab Yozi: "Roziman", - deb yubordi. "Rozi bo'lsang, bor bolam", - dedi boy.

Yozi bolag'ini tizzasigacha turib, yo'lni kesib o'tib, shiramga tirmashib jo'nadi. Yana bolam degani kuchiga kuch qo'shib, holiqlab, charchaganini ham bilmay, qirdan oshib o'tib, kun arqon bo'yi qolganda bahorgi yurtga yetdi. Charchaganiga ham qaramay eng avval Zeboning o'tovi tikiladigan yurtni yaxshilab tozaladi. So'ng boshqalarini tozalab, buloqqa tushgan tosh kesaklarni terib tashlab, Zebo bilan uchrashgan damlarini bir-bir eslab, so'ng cho'ponlarni kutib, ko'rpaday tushalgan rang o'tning ustiga cho'zildi. Shirin xayollar surib, gullolaning kechki issig'i eltib, Yozi uyquga ketdi.

Poyandaboy Yozi pana bo'lgandan keyin shum niyat o'ylab: "Hoy cho'ponlar! Hey ko'chda ketayotgan xotin-xalajlar! Ko'chning boshini kun botishga buringlar. Oldindi yurtga bormaymiz. Yozi xabar olib kelishga ketib qaytmadi. Demak, bir gap bo'lgan. Ko'nglimga bir gap keldi. Ochig'ini aytasam irim qildim. Bu yil Sho'r daryoning narigi betiga yaylov taylaylik. Yurtni yangilab tursa, davlatga davlat qo'shiladi. Chaqqon-chaqqon bo'linglar", - deb o'zi ko'chning oldiga o'tib yo'lni boshladi. Gapni anglamay qolgan Zebo ko'chning burilishini tushunmadi. Angrayib ketib borayotgan edi, otasining dovushi eshitildi: "Robigul, ko'nglimiz bir oz tinchiydigan bo'ldi. Nega desang, Yozi kal bizni peshvoy tepib boshqa boy axtarib ketdi. Joniga tegibmiz", - dedi boy. Tuyaning ustida borayotgan Zebo bu gapni chin bilib, ro'molini yuziga tashlab, kimga dardini aytishni bilmay, oxiri ostidagi tuyaga bo'zlab, jim-jim yig'lab borayotgan joyi:

Men yig'layman qora sochim yoyilib,
Sho'r peshonam o'rtasidan o'yilib,
Qizil qonim chashma suvday suyilib,
Yel moyajon, Yozim meni tashlab ketdi.

Yozi ketib boshqa kimga ovunay,
Armon bo'lsam, aytgin kimga sig'inay,
Yorim ketsa, kimni kutib sog'inay,
Bu ketishda birovlarни xushlab ketdi.

Zebojon, deb kechalar zor yig'ladi,
Og'zidan muz otilib zor yig'ladi,
Qish qo'tonda qo'shilib mor yig'ladi.
Ketganbo'lsa, peshonaga mushtlab ketdi.

Ibo saqlab otamga aytolmadı,
Orzu bilan umidga yetolmadı,
Ketishida bir imlab ketolmadı,
So'z aytolmay tilini tishlab ketdi.


Sahar-sahar poylab turar yo'limni,
Ota yurt deb kelgan edi elimni,
Ushlagandi ayab, suyib qo'limni,
Yozi yorim ko'zini yoshtaglab ketdi.

Naylay otam sevganimni yo'q qildi,
Bo'stonima bir qarg'ani bek qildi,
Oy Zeboning mozorini toq, qildi,
Xayolimni Yozijon boshlab ketdi.

Men yig'lamay kim yig'lasin, yel moyajon,
Ketayapman senga minib uyalmaya,
Men o'layin o'rkachinga suyalmaya,
Gulday bo'lgan sevgimni g'ashlab ketdi.

Yaxshilardan elga bo'lar adolat,
Yomon o'lsa undan qolar adovat,
Sulton otam menga qildiqiyomat,
Otamingku borini toshlab ketdi.

Yolg'iz edi, yolg'izligi bilindi,
Mo'kki kiyib burboyulari tilindi,
O'lganimda sevgim gulga ilinsin,
Ketar choqda qo'limni ushlab ketdi.




Zebo dardini yel moyaga ayrib, zor yig'lab, kuygan bag'rini dog'lab, tuyaning o'rkachini quchoqlab, noiloj ko'chga ergashib ketaverdi. O'lsam ham izlab o'layin desa, "Ota rozi-xudo rozi, ena rozi-payg'ambar rozi", - degan gaplar bor. Yana qarg'ishdan qo'rqadi. "Otaning qarg'ishi o'q, onanining qarg'ishi do'q". Endi nima bo'lsa ham ketaverayin, agar boshqaga bersa joni miq qurban qilayin", - deb boraverdi. Katta ko'ch uch kun yo'l yurib, Sho'rdaryodan o'tib, Ko'kmiorning bergi betiga yaylov tayladi.

Alqisa, gapni Yozidan eshitit. Yozi shu yotishda uch kun yotdi. Shunda tovning betidan bir to'da otlilar nishablab kelaverdi. Bu otlilar shu muzofotning podshosi Abdullaxon edi. U merganlari bilan shikordan kelayotib, Yozining ustidan kelib qoldi. Qarasa boshida bir bulbul sayrab turibdi, qo'lida bir lola suvgi tiymasa ham yayrab turibdi, belbuvardan yuqorisiga soya tushib turibdi. Bu qanday soya bo'ldi ekan deb, yuqoriga qarasa, oymomoday bir pacha bulut quyoshta barobar yurib soya berib turibdi. Yigitning bosh tomonida sarg'ayib, kir chalib ketgan jumur yotibdi. Lekin yigitning yuzi tovlanib, nur taratib ikki haydar kakuli ikki tarafga tirqirab gul sochilganday sochilib yotibdi. Abdullaxon "Bola tillo quchoqlab yotibdimi ekan", - deb o'ngilib qarasa, hech narsa yo'q, yuzining nuri ko'kragining soyasida kamalakday tovlanayapti. Navkarlar podshodan o'tib, hech narsa deya olmay turibdi. Podsho ko'nglidan o'tkazdi: "Saroya olib borsam, qo'liga shohkosa berib kosagul qilsam yoki ko'z oldimda tursa bu ham bir xazinada", - deb otni Yozining ustiga do'ndirdi. Ot tuslanib, guldirab kishnab yubordi va burnidan hil tomchilari Yozining yuziga sochilib ketdi. Yozi joyidan sachrab turib, yerdan jumurni olib, boshiga bostirdi. Qip-qizil kalga aylandi. Bir pacha bulut chor tarafga tarqalib ketdi, Yozi Poyandaboy bo'lsa kerak, deb tiklab qarasa, suvoriylar. Shunda Abdullaxon Yozidan manzil-makonini so'rayotgan joyi:

Kakullaring tovlanadi nur sochib,
Ko'kda bulut aylanadi gul ochib,
Makoningni bayon ayla, qalandar,
Kelarmisan ota-onangdan qochib?

Yerga tushding qanday gavhar tanadan,
Uchib chiqding obod manzil xonadan,
Ota-onang bayon ayla, qalandar,
Rost so'zlasang ozod qilay gunadan.

Qora jumur yotar sening boshingda,
Tanho bulbul tengsaladi qoshingda,



Uzgan lolang issiq kunda so'lmasa,
Javza oyda soya tursa to'shingda.

Yo bo'lmasa qilarmisan karomat,
Eshonmisan, mo'llamisan, valamat,
Ota-onang, yurtingni ayt, qalandar,
Haydar kakullaring qilar qiyomat.

Shahzodaga o'xshab ketar kelbating,
Qahrlansang toshni ezar g'ayrating,
Insonmisan, ins-jinsmisan yo qalandar,
Yomonliqqa yo'l qo'y mayda simbating.

Yolg'on so'zning oqibatin o'ylagin,
Hayolinga dona so'zni joylagin,
Ko'k maysada olovlanib yotasani,
Aniqqilib rostdan sen so'ylagin.

"Kimsan?", - dedi yana podsho. "Yozi kalman" - dedi Yozi. "Bu yotishingning sababi nima" - dedi Abdullaxon. "Men devonaman, bir qalandarman. Qayer ko'nglimga yoqsa yotib ketaveraman. Joyim tov, ovqatim qoqi bilanismaloq. Otingizning juvani, egarning qoshi, qamchingizning dastasi va uzangingiz tillami deyman, ko'zimning nurini oldi, quyosh nuriga tovlanib yuzimga urdi, shundan ko'zimni ocholmadim, kimsiz, podshomisiz? - dedi Yozi jumurini tuzatib. Podsho yana hayron qoldi va "Bu gaplari to'g'ri, podsholigimni bildi, tag'in sehrgar bo'lib, navkarlarim oldida meni sharmanda qilmasin", - deb, fikrlari boshidan uchib, "Qani ketdik, yigitlar", - deb tulporlarga qamchi bosdi. Yozi bir pas u yoq-bu yoqqa alanglab hayron qoldi. Necha kun o'tganini bilmaydi. Poyandaboy ham, chorvalar ham yo'q. Faqt bir bulbul sayrab turibdi.

Shunda bir keksa chol bir otar qo'y haydab o'taverdi. Yozi salom berdi. Bobo alik oldi va ahvolini so'radi. Yozi hamma voqealarini yonib gapirdi. Bobo: "Ha, qiyin kunga qolibsani. Sening bu yerda uxlاب yotganingga uch kun bo'ldi. Poyandaboy seni bu tomonga boshqarib, o'zi yo'lini teskari burib ketgan. Senga pand berib, Sho'rdaryoning bo'yidan yaylov taylagen bo'lsa kerak. U tomonning yo'li o'rli-qirli. Yo'lda har narsa uchraydi. Kel, yaxshisi borma, Zebodan boshqa qiz yo'qma?! Boshing omon bo'lsa, xotin yo'lda, ul belda. Boshqa topib beraman", - dedi cho'pon. Yozi: "Bobojon, meni yo'ldan qaytarmang. Zebosiz menga dunyo tor, unga shirin

jonimni hadya qilaman, otasi bermasa ham, husni-jamolini ko'rib yursam bo'ldi. Lekin yo'ldan qaytish yo'q. Bobojon, menga yo'l ko'rsating", - dedi. "Eshonlar -deb gap boshladi bobo - avlodi sayid bo'ladi, oqsuyak deb hurmatlanadi. Mana senga bir hikoyat. Ilgari bir chavandoz bor ekan. U ko'pkaridan ayirgan zotlarini eshon-piriga berib, duo olib yurar edi. U eli-xalqqa mashhur bo'lib ketdi. Uning dushmanlari ham ko'payib qoladi. Bir kuni ko'p chavandozlar til biriktirib, haligi chavandozni yurt osha bir to'yga olib, ot bilan oshib ketadilar. Shu kuni mashhur chavandoz ko'pkariga taylangan zotning uchdan ikki qismini ayirib oladi. Qaytishda o'zaro gapni chalkashtirib, chavandozlar janjal chiqarib, katta chavandozni o'ldirmoq uchun quvlaydilar. Ot bilan kelayotgan chavandoz kela-kela katta bir g'orning ustidan kelib qoladi. Orqaga qaytsa o'lim, jarga sakrasa ham o'lim. Shunda: "Yo pirim", -deb ot bilan jarga sakraydi. Ot hech qayoqqa qiyshaymay, pastgatezliz bilan kela-kela, ohista yerga tushadi va chavandoz omon qoladi. Butun sirni eshoniga kelib aytadi. "Ha, seni qutqaraman deb og'zimdan qon otildi. Sen ot bilan sakranganingda yelkamni tutib saqlab qoldim. Mana yelkamni ko'r", -deb eshon yelkasini ko'rsatadi. Chavandoz qarasa, eshonining yelkasida otning to'rt oyog'inining izi qip-qizil qontalashib turganini ko'radi. "Bundan ko'ra suvni chappa oqizdirish yuz marta oson edi", -deb eshon yana chavandozga duo berib yuboradi. Ko'rdingmi, bolam. Eshonlar ana shunday. Yaxshiyomon kuningda saqlaydi, duosini ol. Egilib borsang, noumid qaytarmaydi. Mana bu qirdan ohsang, Taham degan qishloqbor. Bu qishloqning eshonini Valixon deydi. Ko'pqo'li ochiq odam. Shundan maslahat so'ra, zora yordam bersa", - dedi chol. Yozi bobo bilan xushlashib, qirdan oshib, Valixonning uyini topib bordi.

Valixon qibлага qaragancha joynamoz ustida tasbeh o'girib o'tirgan ekan. Yozini eshon bachalar ichkariga boshlab bordilar. "— Kel, Yoziboy, - dedi eshon. - Oxiri aylanib keldinga, qoshima o'tir. Endi Zeboni mendan so'ra" - deb kuldi. Yozi Valixonning bu so'zlariga hayron bo'ldi. Karomat qilayapti deb o'ylab jim qoldi. "Ha, Poyandaboy seni aldab, Sho'rdaryo bo'yiga ketdi. Zebo sendan ayrilgandan beri qayg'uda. Yo'lingga intizor bo'lib seni kutmoqda. Bilaman, sen mendan yordam so'rab kelding. Mayli senga yordam berayin. Bolam, oshiqlik savdosi boshinga tushibdi. Seni bu yo'ldan qaytarib bo'lmaydi. Sen sag'ir ekansan, sag'irning boshimi silash hajga borgan bilan teng bo'ladi. Otxonadan senga bir oq ot beraman. Sho'rdaryoning bo'yi shu yerdan otda bir kecha kunduzlik yo'l. Boynikiga borgandan keyin otni qo'yib yubor. Juvanini olib egarning qoshiga qistir-da, ustidan uzangini ildirib qo'y. Keyin o'zi kelaveradi", - deb otni egarlatib, yo'lni ko'rsatib, oq duo berib jo'natdi.

Alqissa, Yoziboy oq tulporni minib, jonivor – jondorlardan, tog'i-toshlardan, yerda o'sgan giyohlardan, cho'li qirdan ko'ringan odamlardan Zebosini so'rab, Sho'rdaryoni qarab, bo'taday bo'zlab ketib borayotgan joyi:

G'amda qolsa aziz boshlar,
Ko'zdan oqar selob yoshlar,
Haybat bergen polvon toshlar,
Zebo sanam o'tmadimi,

Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Esda qolar g'urbat chog'lar,
Bog'bon bo'lsang qolar bog'lar,
Savlat to'kkан qorli tog'lar,

Zebo sanam o'tmadimi
Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Och bo'rilar cho'zib uvlar
Odam ko'rsa qaytmay quvlar,

Achchiq , shirin ko'lmak suvlar,
Suvساب Zebo o'tmadimi?
Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Dardim dostondir yoysalar,

Samoni bosar qo'ysalar,
Qo'y o'tlagan ko'k maysalar
Bosib Zebo o'tmadimi,
Oh,Yozim, deb ketmadimi?

Dardimni bilarmi barcha,
Ming yil yashagan ko'k archa,
Qoshida tikan bodomcha,
Zebo sanaam o'tmadimi,

Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Qonga botara qo'yjoloq,
Yomon xotindir uch taloq,
Ismaloq bilan quvg'aloq,

Zebo sanaam o'tmadimi,
Oh, Yozim, deb ketmadimi?

Eski nuragan qal'alar,
Qizg'aldoq bilan lolalar,
Kucha ko'targan xolalar,
Zebo sanaam o'tmadimi,

Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Bormi menday devonalar,
Izlab yonadi tenalar,
Beqanayu duvdonalar,

Zebo sanaam o'tmadimi,
Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Sel pishqirgan toshqin soylar,
Osmondagi to'lin oylar,

Qo'y haydagan o'zbek boylar,
Zebo sanaam o'tmadimi,
Oh, Yozim, deb ketmadimi?
Arpapoya , bug'doyzorlar,

Qisirpoya bedavorlar,
Ko'pchib yotgan bo'liq yerlar,
Zebo sanaam o'tmadimi,
Oh, Yozim, deb ketmadimi?

Yozi, otni bir terga tushuncha haydadi. Shunda asta yo'rg'alatib ketayotib, bir to'da ko'chning ustidan bordi. Ongishlab -ongishlab qaradi, ko'chni taniy olmadi. Shunda ko'chdag'i bo'z bolalardan, norg'ul yigitlardan, xotin-xalajlardan Zeboning ko'chini so'radi. Hech kim javob bermadi. Nor tuyada ketayotgan bir kelinchak shunday javob berdi:

Jona betda tulpor otlar yotmaydi.
Agar yotsa uloq chovib ketmaydi.
Zebo deysan qaqlaysanda yo'lovchi,
Tomog'ingdan bilsam oshing o'tmaydi.

Mard yigitlar olar yovdan o'chini,
Kelinchaklar ushlar ro'mol uchini,
To'rt kun oldin ko'rgan edim, yo'lovchi,
Keng yobonda oy Zeboning ko'chini.

Suluvgili yel moyada bilinar
Jamoliga yurak-bovrim tilinar,
To'rt kun oldin o'tgan edi oy Zebo
Nor ustiga quygandayin urinlar.

Nor tuyasi baxmal bilan yopilgan,
Ko'rpachasi ipak ipda qobilgan.
Jilov ipga kumush suvi urilib,
Chirozlari Bog' Eramdan topilgan.

Zar kakuli tovlanadi har yona,
Meni qo'shsang bo'lar edim dugona.
Javob berolmadni bilsang yigitlar,
Bir ko'rishda bara bo'lgan devona.

Yozi bu gaplarni eshitib, shu yerdan o'tgan ekanda, deb boshqa gaplarga parvo qilmay bo'z otni qichab hayday berdi. Yozi bo'z tulporga qamchi taylab, qalbiga gap joylab Zeboni izlab ketib borayotgan joyi:

Ot ipakday cho'zildi,
Bosgan joylar buzildi,
Tuyog'i tekkan joylar,
Loy handakday qazildi.

Ot boradi yarqillab,
So'm go'shtlari irkillab,
Kiyikdayin o'ynaydi,
Toshdan-toshga dirkillab.

Shamol kabi yeladi,
Bulutdayin to'ladi,
Chin bilan qamab quvs'a ,
Hatto qushlar qoladi.

Shiboqlarni oralab,
Yo'l topadi saralab.
Yozi kal izlab borar.
Zebosini muralab.

Oldi enish kelganda,
Qamchi quvat bo'lganda,
Sernavlab taylab borar,
O'mgan kuchga to'lganda.

Soynoqlardan shaqirdab,
Tekis joyda dikirdab,
Yo'rg'a qilsa tulpor ot,
Yozi kular qoqirdab.

Qir –adirlar pastidan,
Necha qishloq ustidan,
Yozi shunqor yo'l tortdi,
Ot Zeboning qastidan.

Gaho quvar burgutdi,
Kesib o'tar bulutdi,
Oq tulporni Yoziboy,
Achchiq qamchiga tutdi.

Qarang Yozi ishiga,
Mushkul tushdi boshiga.
Jaladay qamchi taylor,
Bo'z tulporning to'shiga.

Soy, chuqurlar qolmadi,
Qir –adirlar qolmadi,
Goho kecha yo'l tortdi,
Lekin tulpor tolmadi.

Tikka –tikka joylardan,
Taylab ketib boradi,
O'r kelganda o'rmalab,
Pishnab ketib boradi.

Jona betdan jonalab,
O'tib ketib boradi,
Cho'qqilardan qirlardan,
Oshib ketib boradi.

Oldi tekis kelganda,
Toshib ketib boradi,
Oq badanga oq changni,
Qo'shib ketib boradi.

Kishnaganda tovlarni,
Teshib ketib boradi,
Archalarni oralab,
Eshib ketib boradi.

Faqat botqoq joylardan,
Shoshib ketib boradi,
Suv muzlasa par borma,
Tog' boshida qor borma.

Poyandadan qo'rqmadi,
Yozi kalday zo'r borma.
Nur otilib ko'zidan,
Totib boyning tuzidan.

Yozi kal umid qildi,
Noqirsning qizidan.
Xudoni yodga olar,
Qirq chilton quvvat bo'lar,

Barcha aziz avliyo,
Horisa madat qilar.
Qarong'i kechalardan,
Qishloqda ko'chalardan,

O'zi ketar aralab,
Hayiqmay bachalardan.

Yorning ishq o't misol,
Yetmasang qilar kasal,

Yozi ham qaytmayotir,
Ko'ngli bo'lmayin o'sal.
Ot shamoli hurillab,
Joli esa pirillab,

Dumg'o'za tovush qilar,
Ot shashtiga shorillab.
Tulporning yo'qdir kami,
Olamga ketgan nomi,

Yetti tovni eritdi,
Burnidan chiqqan dami.
Xezlagandan xezlatdi,
Yozi otni tezlatdi.

Bo'z tulporning shamoli,
To'qqiz qo'lni muzlatdi.
Ot bulutday urindi,
Goh kechasi surindi,

Erta bilan tong otib,
Katta o'ra ko'rindi.

Shiboqli joyga borib, bir oz otga dam berdi. Qarasa katta bir buloqning atrofida qulpi yashil bo'lib o'tovlar tikilgan, suruv-suruv qo'ylar ajiriqlarda o'tlab yetibdi. Yozi bu ovul Poyondaboyникинеканиниани билди. Otning peshonasiga boshini qo'yib, rahmat ayтиб, eshon aytganday qilib, bo'z otni iziga qaytarib haydab yubordi. Bir maydon cho'zilib yotdi. Zeboni tusmoldan kuzatdi. Poyondaboyning, Zeboning o'tovini chamalab bilib oldi. Kun gavjum bo'laverган payt asta enib bordi. Suruv qo'ylarni josqamoy bir chetidan aylanib o'tib, katta yalpoq toshning harraligiga uzala tushib yotdi. Zebo ham gaza-gazaga qaray "Kelmadida", - deb kunni kech qildi. Shu payt chonggaroqqa bulbuli kelib qo'ndi. Chunonam berilib sayradiki, Zeboning yuzlari yorishib, xuddi Yozini ko'rganday gavarasi kengishdi. Bulbulining sayrashidan Yozining kelganini bilganday bo'ldi. Bulbulning qaysi tomonga qarab sayrayotganini

firosat bilan kuzatdi va ko'ngli bir oz to'q bo'ldi. Hammaning oyog'i tinganda, barcha tol uyguga ketganda, onasi Robiya ham otasi Poyondaboyning oldiga yetganda, Zebo joyidan turib, bir sut patirni qo'ltig'iga uring, shobir chiqarmay, qop-qorong'ida bulbul sayragan tomonga tavakkalda deb chamalab ketdi, yalpoq toshga yetdi. Yozi ham kutib turgan ekan quchog'in ochdi, uning quchog'iga o'zinii Zebo ham otayotgan joyi:

Bulbul charoqqos aylab,
Bag'riga gulni joylab.
Zebo esa oh, voylab,
O'zin otdi Yoziga.

Qulochlari ochilib,
Yuzidan nur sochilib,
Zebo guldan pichilib,
O'zin otdi Yoziga.

Kamon qoshlar egilib,
Xalqumga suv tig'ilib,
Zebo moydoy jog'ilib,
O'zin otdi Yoziga.

Oppoq badan hurillab,
Siyinalari durillab,
Charos ko'zlar pirillab,
Zebo otdi Yoziga.

Tobonlari qichishib,
Ho'l joylari achishib.
Tog' ko'chgandan ko'chishib,
Zebo yetdi Yoziga.

Xumor ko'zda ma'no bor.
Bir-biriga intizor,
Oh, deb yetdi zulfakdor,
Shunday qilib Yoziga.

Dillar -dillarga mushtoq,
Lablar lablarga chanqoq,

Tuymalar misli yong'oq,
Oshiqlar yetishdilar.

Kalning dardi bor edi,
Bir ko'rmoqqa zor edi,
So'zlar oltin-zar edi,
Qarshi oldi Yozijon.

Chig'irchiqlar chirillab,
Maysa o'tlar pirillab,
Bulbul ,mayna girillab,
Olqishladi har yona.

Zulmay bugun egildi
Harsang toshlar chog'ildi,
Borliq yorga bog'ildi,
Shirin damga intiqliqdir.

Tog'lar ham egildilar,
Qoyalar bugildilar,
Archalar tiqildilar,
Havas bilan termular.

Qushlar ochdi ko'zini,
Qo'yalar olmay qo'zini,
Tulki quvmay tozini,
Havasda qaradilar.

Kapalaklar parvona,
Turna mast bo'y devona,
Burgut esa har yona,
Suyunchiga jo'nadi.

Hatto itlar jim bo'ldi,
Sayoz joylar gum bo'ldi,
Otlar boshi xum bo'ldi,
Oshiqlarning ishiga.

Quvonch yoshlar ko'zidan,
Hamda xursand o'zidan,
Yozijon ham quchoqlab,
O'pdii Zebo yuzidan.

Yozi Zeboga:"Ey Zebo gulim, joni-dilim, tokaygacha iti-pishak bo'lib yuramiz. Mening yoshim o'n to'qqizga, sening yoshing o'n oltiga yetdi. Otang Poyondaboy baribir seni menga bermaydi. Agar meni desang yur ketdik. Turkman taraflarga, Oysha daralarga ketamiz. Turkmanlarda yaxshi bir odat bor. Agar yigitdan qizga sovchi kelsa, ota-onasi yigitga bermasa, qiz-yigit sevishgan bo'lsa, ikkovi rozima-rozi qochadi. Agar qiz tomon qochganlarga yetsa, qiz tomon taqdiriga ko'nadi. Agarda bilmay yoki yetolmay qolsa, qiz tomon taqdiriga ko'nadi va rozima-rozi to'yni belgilab o'tkazadi. Sevishganlarni ko'p qadrhaydi. Kuygan tomonlarga yayov ketamiz",-dedi. Oldin Zeboning ko'zi ota-onasini qiymadni. Lekin yuragidagi muhabbat Zeboning roziliginini bildirdi. Shu kecha ikkovi qo'l ushlashib, turkman tomonlari oshib ketdilar. Kechasi yo'l unadi deb, tong otguncha yo'l bosdilar. Axiri ertalab bir daraga yetib, ancha dam olib, patirni yeb, ancha yengil tortdilar. Zebo bilan Yozi bir-birining husni-jamoliga mahiliyo bo'lib, goh toshlarga chiqib, goh o'tloqlar oralab, goh yovvoyi jiydalarga suyanib, goh taqir joylarga chiqib, goh bir-birini quvalashib, zavq-shavqqa yuraklari to'lib, o'zlarini toza erkin bilib, endi aslo ayrlmaydiganday bo'lib, bu omaddan baxtiyor kulib, qo'shiq aytib o'ynadilar:

Yozi:

Qizgina qirmizgina,
Qoshlari kunduzgina,
Dahani kunduzgina,
Ko'zlar yulduzgina,
Zor qilsa Zebogina,
Termular Yozigina.

Zebo:

Tog'da o'sar bug'doyiq,
Bug'doyiqda besh oyiq,
Muncha siz laylo demang,
Qoshginam oyday yoyiq,
Nasibani, Yozijon,
Bugun sizga qo'shayiq.

Yozi:
 Zebojon qosh qo'yadi,
 Qo'yib qoshin uyadi,
 Qancha qahrlansang ham,
 Yozi seni suyadi.
 Yetolmasa vaslingga,
 Alanggada kuyadi.

Zebo:
 Ko'cha-ko'chda kuydirdim
 Sochim yerga tiydirdim,
 Yozi qo'shig'ing aytib,
 Qo'y echkini suydirdim.
 Yorim sendan o'rgulay,
 Norim sendan o'rgulay.

Yozi:
 Maymanog'i dasht ekan,
 Sarka qo'yga bosh ekan,
 Qayerga ko'chsa Zebo,
 Yozi unga esh ekan.
 Jamolginanga borman,
 Kulishginangga zorman.

Zebo :
 Shu'la tushdi yuzimga,
 Yozi sulton izimga,
 Sendan boshqa pahlavon,
 Ko'rinnmaydi ko'zimga.
 Pahlavondan o'rgulay,
 Bahodirdan o'rgulay.

Yozi:
 Haykal taqqin bo'yningga,
 Baxmal yopay iyningga,
 Qush handalak yarashar,
 Jannat misol qo'yningga

Men ham sendan o'rgulay,
 Bozma -bozga o'rgulay.

Zebo:
 Tovlarga tushar tuman,
 Tumanda qolsang yomon,
 Ko'p bekclarining ichida,
 Mening Yozim pahlavon.
 Sevgan malaging bo'lay,
 Orzu tilaging bo'lay.

Yozi:
 Qaynarning men toshiman,
 Boyning tayyor oshiman,
 Pahlavon dema yorim,
 Kallarning men boshiman,
 Qomatingdan, oy Zebom,
 Bo'yginangdan, oy Zebom.

Zebo:
 Tog'da o'sgan lolaman,
 Sizga sodiq bo'laman,
 Qaytsam agar so'zimdan,
 Qirchinimdan o'laman
 Ushla davroning bo'lay,
 Qo'ysang armoning bo'lay.

Yozi :
 Yigitning ham mardi bor,
 Baxmalning ham gardi bor.
 Izlab topgan Yozining,
 Yurakda ishq dardi bor,
 Turishingdan, oy Zebom,
 Yurishingdan oy Zebom.

Shunda Yozi bilan Zebo kecha onadan tug'ilganday, g'am-g'ussasiz, bir-birlarini quvalashib yurgan edi, chopqilab kelayotgan Yozi katta uyurtmakning ustidan

kelib, qirqi ko'rib qoldi. Qoqidan qirqi yulib olib, Zeboga bildirmay, qabotiga borib, qirq-qirq deb boshidagi ro'molning ustiga tiygzidi. Zebo ko'rsa haqiqatdan ham qirq. Zebo rozi bo'lib, har qoqidan uyurtmak terib, qirqtaga yetkazdi va Yoziga berdi. Yozi uyurtmaklarni sanab olib, yarmini Zeboga qaytari berib, ikkovi mazza qilib qarsillatib yeb, qo'l ushlashib chiroyli gullarga chopishib, oralab, qizg'aldoqlarga qo'shilib ketdilar.

Qo'zigul:

Oshiqliging rost bo'lsin,
Quchog'ing gulga to'lsin.
Dil beribman,Yozijon,
Yoring o'ynasin, kulsin.

Boychechak:

Zebojon, hoy Zebooy,
Tong yig'lading necha oy,
Bugun yetding yoringga,
Quvalashgin poyma-poy.

Chuchimomo:

Yorni hidla mast qilib,
Sevganliging rost qilib,
Quvalashgin Yozijon,
G'anamlarni past qilib.

Qizg'aldoq:

Farzand otaga chiroq,
Mardning yo'ldoshi firoq,
Intiq qilmay yoringni,
Zebo, o'ptir ertaroq.

Chirich:

Tong shamolda joynanglar,
G'am -g'ussani haydanglar,
Bizga esa yurish yo'q,
Sizlar chopib o'ynanglar.

Qoqigul:

Tomirim tortib borar,
Tuymacham bo'rtib borar,
Zebo sadoqatingga,
Havasim ortib borar.

Jupar:

Tengsalaman tolmadim,
O'ynamayman , kulmadim.
Yerda qoldim mixlanib.
Yozi, senday bo'lmadim.

Tuyato'rpoya:

Dunyo keng berilgan,
Bizlarga teng berilgan.
Zebojon , o'yna-quvna,
Sizlarga ong berilgan.

Lola:

Yulinib qolsam dodman,
Qo'ylar tishlasa qatman,
Zeboga bersang,Yozi,
Gul bo'lsamda men shodman.

Kapalak:

Yomg'ir yog'sa yashnayman,
Hamma gulga oshnaman,
Barcha gulni qoldirib,
Zebo , senga tashnaman.

Bug'doyiq:

G'uj-g'uj bo'lib o'samiz,
Yer yuzini bosamiz.
Yozi, senga kim dushman,
Ko'kayini kesamiz.

No'xatak:

Biz ham ko'pmiz dunyoda,
Qastimiz bor tuyada.
Oy Zeboning jamoli,
Barcha guldan ziyoda.

Tak-tak:

Bo'ylar cho'zib to'lmadim,
Yor ishqini bilmadim,
Zebo olsa quchoqlab,
Quchog'ida o'l madim.

Jami gullar tengsalib, tebranib:

Yozi , Zebo bor bo'lsin,
Dushmanlari zorbo'lsin,
Ikkovi unashganda,
Qo'shig'imiz yor bo'lsin.

Endigi gapni Poyandaboydan eshitting.

Ertalab turib qarasa Zebo yo'q. Onasiga qatinqi tulupga ko'tarishayotgandirda, deb boshqa uyga entikib borsa, u yerda ham yo'q. Robiya bodomchani sindirib, chaydashni qaynatyapti. "Robiya, hoy Robiya, Zebo qani?"-dedi Poyandaboy. Robiya chopqillab Zebo yotadigan uyni ko'rsa, o'rni bo'sh. "Yengillashgani chiqqandi-da", -deb jilg'a-soylarga razm soldi, hey daragi yo'q. Birov-yarimdan sekin so'rab ko'rdi, bilmaydi". Ha, buni Yozi olib qochib ketgan", -dedi Poyandaboya. "To'g'ri aytasan, kaldan boshqa hech kim olib qochmagan,-dedi, Poyandaboy xo'rsinib-Kalning yaxshisi ham ko'priknig ostidan turib, yo'lovchininig eshagini hurkitadi."

Shunda Robiya dod deb yig'lay boshladı. Poyandaboy ha deb Yozini burab so'ka boshladı."Ha nima bo'ldi, ha nima bo'ldi",-deb hamsoya cho'ponlar ham kela boshladı. Hech kim bilmaydi. Ko'rdim yo'q, keksa bir chol:"Hoy Poyandaboy! Sizda o'zi insof bormi? Yozining kelganiga hutni qo'shsak ikki yil bo'ladi. Shuncha yildan beri bir Zebo deb eshigingning oldida egasiz itday sanqib yuribdi. Zeboning ham ko'ngli bor. Kuch kuyov qilib olda qo'y.Oyog'i yengil, chopson yigit ekan. Ha kallasi kal bo'lsa nima qibti. Qo'y moylasang tuzaladi ketadi"-dedi. Hamma "Ma'qul, ma'qul"-deb bosh irg'adilar. Lekin Poyandaboy uyatning zo'ridan bo'kirdi:"Hey nodon xalq, bu kal bachcha menga pitini sanab beradimi? Omonatning beli quvvatlari deb har narsani gapira bermanglarda. Men ham qiz katta qildim.Bu kal menin qizimni

tengi emas. Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan.Eskilar aytadi:Teshik munchoq yerdal qolmas, yerda qolsa kimlar olmas. Mening qizim havorda qolgan emas. Endi choponimmi teskarı kiyaman.Podshoga borib, bu kal bachchani zindonband qilmasam Poyanda otimni chappa qo'yaman",-deb xalqni tarqatib, bir piyola choyni zo'rg'a ichib, otlanib Abdullaxonning sultanatiga arzga jo'nadi. "Pora-mora berayin deb",-bir qo'sh xaltaga tilla solib olgan edi. "Ko'nmayversa ikkovini ham beraman, ko'nsa birovini berib, birovini qo'ltiqqa uraman",-deb ikkovini ikki qo'ltiqqa urib, podsholikka jo'nadi. Abdulaxonning arkiga borib, uning oldiga kirish uchun necha joylardan o'tib, goh qon yutib, kal Yozini jonib, oqibat Abdullaxonning arkiga kirib bordi. Podsho Poyandaboyni ko'rib, salom-alikdan oldin uning qo'ltiqlariga, qo'lining harakatlariga, og'zini qay holatda qimrdatib, nima deyishimi poylab, Poyandanining nima pora olib kelganini alang-jalang o'ylay boshladi. Poyandaboy ham tezda poraning birovini berib, kalning ustidan dod, deb bo'zlay boshladi.

Tovlar boshi yashin tushsa bukchayar,
Yomon xotin sodda erga chaqchayar.
Adolatni bilib bering, sultonim,
So'zingizga hadya qilar aqchayar.

Yig'lay -yig'lay bu dunyoda adoman.
Moldan emas ayrliqdan gadoman.
Haqiqatni izlab keldim, amirim,
Yolg'izimdan yolg'onchidan judoman.

Musurmonlar qoyil bo'lar ishima,
Qayiq suzar ko'zdan oqqan yoshima,
Katta boshim kichik qildim, sultonim,
Odamzotdan qayg'u tushdi boshima.

Zor yig'lasam xarsang toshlar yorilar,
Ko'z yoshima qizigan qum qorilar.
Ko'rар ko'zim yolg'iz qizdan ayrildim,
Sahar -sahar so'rab kelar parilar.

Tanilbedim Maymanoqning eliga,
Farzand quvvat bo'lar ota beliga.

Zebojonim tushib ketdi, sultonim,
Sanqib kelgan kal Yozining qo‘liga.

Tarat qilib dastar salsa o‘rayman,
Poyi tarat Zebo qizim qarayman,
Yolg‘izimdan judo bo‘ldim, naylayin,
Shul yordamni, shohim, sizdan so‘rayman.

Ko‘zda yoshim mesh suviday chayqalar,
Yig‘lay –yig‘lay kiprigimda loyqalar,
Shundan qizim topmasangiz, sultonim,
O‘lgunimcha yuragimda voy qolar.

Dona bo‘lib tushdi gavhar tenadan,
Tovus bo‘lib chiroy ochdi xonadan.
Men yig‘lamay kim yig‘lasin, haqonom,
Kali Yozi ob qochibdi panadan.

Omoch yursa yer bovriga suqilar,
Farzand ketsa biling ota yiqilar.
Shundan qizim toptirsangiz, valamat,
So‘zingizga tanda jonom tikilar.

Alqissa, podsho u yoq-bu yoqqa qaramay, xaltadagi tilloni olib, qo‘yniga solib, o‘ylangan kishiday bo‘lib, xafa bo‘lganday qo‘lqasi to‘lib, “Ha Poyandaboy, og‘ir ish bo‘libdi, og‘ir ish. Ha endi siz kelibsiz yordam beramiz. Qayerda bo‘Imasin toptiramiz, bo‘ynini qilichga choptirarmiz”, -dedi va qo‘lini shappatlay boshladi. Shu payt devday yigit chaqqon kirib kelib “Xizmat sultonim”, -dedi. Bugundan e’tiboran mening qo‘I ostimdagи butun tog‘u toshlar, daralar, yaylovlар birma-bir qarab chiqilsin. Agarda bir yigit bilan bir qiz xilvat joylarga tanho yurgan bo‘lsa ushlansin, yigit dorga tortilsin”, -deb amr farmon berdi va zap qirchillama yigitlardan qirqtasini Poyandaboya qo‘shdi. Poyandaboydan Taham ham, Ko‘kmiyor ham, Bo‘risoy ham, xullas tog‘u-toshlar, joltir boshlar, dara-soylar qolmadi. Ko‘rdim, bildim yo‘q. Boy bu qarashda Yozi bilan Zeboni qirq kecha-kunduz axtardi. Tomog‘idan non ham, suv ham o‘tmadi. Yolg‘iz farzandning dog‘i boyni charchatdi. Ikki kun dam olib, G‘uzor o‘rasini qarab ko‘rdi. Bu yerda ham yo‘q. Undan o‘tib Tangriharamning usti bilna Xo‘jamahmud qishlog‘ining pasti bilan To‘ychining darasidan o‘tib, Laylimkan oshib ketdi. Oxirgi umidi shu

qishloq bilan Quytang tog‘lari qolgan edi. Poyondaboy yurib-yurib oxiri Laylimakondan Yozi bilan Zeboni topdi. Shunda navkarlar Yozini otning oldiga solib quvdi. Lekin bir pasl Yoziga yetolmadilar. Chunki Zeboning bulbuli uchib kelib, Yozining yelkasidan tishlab hil bergan edi. Zebo Poyondaboyni qo‘lida zor yig‘lab qoldi. Shunda chopib kelayotgan Yozi Zeboni tashlab, jon saqlab, nomardlik qilmayin, nima bo‘lsa ham Zebo bilan birga bo‘layin”, -deb iziga qaytib, chopib Zeboga keldi. Izidan otilar ham yetib kelib, Yozini mahkam ushlab, qo‘lini orqasiga bog‘lab, otga tongdilar. Poyandaboydan “Abdullahon kalni nima qilsin”, -dedi navkarlar. “Menga desa dorga tortilsin, ishqilib ko‘zimdan yo‘qotsin”, -dedi Poyondaboy. Zebo bir-ikki talpinib, yulqinib ko‘rdi, bo‘lmadi. Zorillab yig‘lab qolaverdi. Navkarlar Yozini poyiyoda qamchiga tutib, tog‘u-toshlardan oshib, xon saroyiga olib keldi. Podsho so‘roq qilmay, yuzi-yuziga tushmay, poraning kuchi bilan Yozini zindongan buyurdi. Yozi tor zindonda, zax yerda, nam havoda, qop-qora chakda Zeboni yod qilib, sevnining kuchi bilan qo‘shiq vytib yota berdi.

Shamol tursa gurillab,
Suv chayqalar porillab,
Men kutaman zorillab,
Zebojondan ayilib.

Xumor ko‘zli ziragim,
Qalbi metin diragim.
Zaxda qoldi ko‘kragim,
Zebojonday ayilib.

Abdullahon poshshamas,
Haqonlarga o‘xshamas.
Sulton menday qaqschemas,
Davlatidan ayilib.

Qosh –qabog‘im tov bo‘ldi,
Ko‘zim buloq suv bo‘ldi.
Burnim yoshga zov bo‘ldi.
Zebojondan ayilib.

Yolg‘iz boshda xushim yo‘q,
Boshqa bilan ishim yo‘q.

Xabar berar kishim yo'q,
Zebojondan ayrilib.

Boshim toshga urilar,
Ohdan og'zim turilar.
Ko'zim kimga termular,
Zebojondan ayrilib.

Zebom yurar irkillab,
Qo'y sovganda dirkillab.
Men yig'layman chirqillab,
Zebojondan ayrilib.

Ayvon oldi yo'ng'ichqa,
Yo'ng'ichqada qumursqa,
Meni ursin kim ursa,
Zebojondan ayrilib.

Zebojon tong yulduzi,
Tanco cho'lpontir yuzi,
Yig'lay kecha-kunduzi,
Zebojondan ayrilib.

Bilaklari par yostiq,
Olib bo'ynimga osdik,
Bovurni zaxga bosdik,
Zebojondan ayrilib.

Tong shamoli yax bo'lar,
Yorim yuzi oq bo'lar.
Mening uyqum soq bo'lar,
Zebojondan ayrilib.

Sochbov yerga tiydirib,
Qo'y sovardi iydirib,
Qoldi meni kuydirib,
Zebojondan ayrilib.

Sochi qunduz majnuntol,
Qirmiz yuzlari yal-yal.
Endi yig'lay bemalol,
Zebojondan ayrilib.

Kunlar o'taverdi, Yozi zindonda xudo deb yotaverdi. Abdullaxon zindonbonlarni chaqirib:" Qani yigitlar, o'g'ri kal zindon azobini tortib musurmon bo'lib qolgandir. Mulla mingan eshakday sesi chiqmay yotibdimi yoki tolg'ashovliq qilib chakni changitayaptima?", - dedi. Shunda navkarlardan birovi:"Otim Yozi deydi, men oshiqlarning sozi deydi, ikki oshiqni ayirgan bo'lsa oqib tushsin Abdullaxonning ko'zi deydi, Zeboning oldida ko'rmasam ham oyog'iga patak bo'lmaydi podshoning qizi deydi", -dedi xushomad bilan. Podshoning mo'ylovi bulkilladi, qahri keldi."Og'zi katta, gapi baland, podshoni podsho bilmaydigan kimsaga jazo o'lim! Minoradan tashlanglar", -dedi qahr otiga minib. Chunki shu davrda Abdullaxon minoradan odam tashlattirib, nom chiqargan bo'lib, bu axmoqligidan o'zi ruhlanar, shodlanar, kezi kelsa bu jazosi bilan el-ulus ichida maqtanib, og'zi ko'pirib, "Minoradan tashlatmayin", -deb do'q urar edi. Zero, "Urib bo'lmas xo'jani, so'kib bo'lmas xo'jani, xudoy ursin xo'jani" degani kabi, uni xudo elu xalqning quvonchiga sherik bo'lib shodlanishidan qisib qo'ygan edi. Navkarlar chopdi, jazo askarlarni topdi. Yozini zindondan chiqarib, ko'cha-ko'chaga chaqirtirib, xabarchilarni baqirtirib, qo'l-oyog'iga zanjir tashlab haydab jo'nadi. Podsho ham ko'nglining chigalini yozish, bir miriqtb dam olib, tamosha ko'rish uchu navkarları bilan otda borib minoradan yarim chaqirim berida saflanib turdi. Poyondaboyning Buxori tillolarining kuchi hatto Abdullaxonday podshoni o'z girdbiga tortib, Yozini ko'rish va so'roq qilishdan mahrum qildi. Shuning uchun ko'ngli to'q bo'lib, yana ko'ngli tilloda bo'lib, arang tomoshaga keldi. O'nta yasovul Yozini qirq gaz minoraga chiqardilar. "Zebodenayrilib qoldimmi, yoki minoradan otsa o'ldimmi?", -deb Yozi kal minorani kuzata boshladi. "O'lar chog'da Zeboni bir ko'rmadimda" deb ko'zi to'y may atrofga suqlanib qaray boshladi. Bir qo'lidan besh yasovul, yana bir qo'lidan besh yasovul ushlab Yozini minoradan ro'baro' qilaverdi. Ular Abdullaning amrini kuta boshladi. Minorani chir aylanib Yozi va Zeboning bulbuli mungli xonish qilib sayrab uchaberdi. Abdullaxon otning ustida qo'lini yuqoriga ko'tarib belgi berdi. Shunda bulbul bu so'zlarni aytib Yozini dadillashtiraberdi:

Abdullaxon elatida zolimdi,
Azroildan olgan ekan talimdi.
Qonxo'rlikda yurtda bo'lib yagona,
Bu sohada dong'i ketgan olimdi.

Ushlaganni zindonida siylagan,
Zolimlikning dutorida kuylagan,
Qamalganga to'kib yurak qo'rini
Itdan qolgan yuvindini taylagan.

Tomiridan oqqan qoni poradi,
Tilla bersang toshni chaynab joradi.
Shuncha davlat kam ko'rini ko'ziga
Kambag'alning kissasiga qaradi.

Pora olish zolimlikdan oshadi
Chaqa olsa toshqin selday toshadi.
Tilla berib xotinini so'rasang,
Ol deyolmay uyatidan tushadi.

Davralarda bo'sh qo'yadi soqini,
Abdullaxon doim xoxlar naqini.
Kal Yozini o'ldir dedi valomat,
Poyandadan olgan edi haqini.

Abdullaxon adolatsiz poshshadi,
Kal yozini minoradan tashladi.
Zo'r edida kal Yozining pirlari,
Yerga tushmay kokilidan ushladi.

Shunday deb charx urib sayrab aylanayotgan bulbul yasovullar Yozini minoradan itarib yuborayotganda uchib kelib qo'ltig'iga kirdi va qanotini qirq gaz yozib Yozini yerga qattiq tushurmay, ohista tushurdi va pir etib havolandi.

Hamma kal o'ldi deb yugurib kelsa, Yozi tirik. Soqchilar Abdullaxonga xabar yetkazdilar. Podshoning qahri kelib: "Yana otin minoradan", -deb buyurdi. Ikkinchisi marta Yozini minoraga chiqarib otmoqchi bo'lganda, Yozi ikki qo'lini siltab yubordi. Yasovullarning o'zi do'l joyganday pasga taylab ketti va nom nishoni qolmadi. Podsho yigirmata navkar chaqirdi. Yozi: "Podsholaringda adolat bormi? Bir marta tarladi omon qoldim, yana taylamoqchi. Meni deb o'n odam o'ldi. Endi nima deysizla", -deb qarshilik ko'rsatdi, bo'lmadi. Yana Yozini minoradan tayladi. Bu safar ham bulbul omon saqlab qoldi. Qahridan tushmagan "adolatl" podsho Abdullaxon minoraning

tagiga kelsa shikorga chiqqanda tog' yon bag'ridagi bahorgi yurtda ko'rgan kalbachcha "ha" dedi. Podsho bu bola nazarkarda yigitga o'xshaydi, lekin tili juda achchiq ekan. Shu minoradan o'lmay qoldi, demak, bu bolada bir gap bor. Ozod qilayin desam, Poyandadan pora olganman, o'ldirayin desam, buning bilimi ko'p. Buni zindon odam qilsin", -deb yana zindonga buyurdi. Yozi zindonda yotaversin, endi gapni Poyandaboyning yaylovida yurgan Zeboden eshitting.

Alqissa, Zebo Yozidan ajralganidan keyin tongni tongga, kunni kunga ulab yig'lab yotaverdi. Tomog'idan non, suv o'tmay Yozini o'ylay boshladidi. Chunki, Abdullaxonning zolimlikdan nom chiqorganini ham eshitgan edi. Otasi Poyandaboydan andisha qilib hech kimga hech narsa deyolmadi. Nima alami bo'lsa ichiga yutdi. Oqibatda vujudida sog'inish degan bir dard paydo bo'ldi, rangida rang qolmadi. Ozib to'zib, sarg'aygan gul kabi sarg'ayib jo'nadi. Buning bu ahvolini ko'rgan ota-onasi: "Kalning ishqida yonayapti, kunlar o'tgan sayin Yozini unutib, o'zin tiklab oladi", -deb umid qildilar. Lekin ularning aytganlari bo'lmadi. Zebo kunma kun ozsa ozdiki, ammo o'z holiga kelmadi. Quralay ko'zlarga mung egalik qildi, xayollar parishon, vujudda sog'inish hissi hukmron. Oxiri Zebooy Yozidan xabar bo'lmayotganidan keyin: "Eh attang-a, Yozim yolg'iz edi, yolg'izligi bilindi-da, orqasidan borolmasam, mushtiparlik qurisin. Bulbulimdan ham xabar bo'lmadi, Kele, bulbulimni chaqirib ko'rayin qani, kelarmikan", -deb uyining bo'sag'asidan tashqariga qarab, bulbulni chaqirib, zor qaqshab chaqirayotgan joyi:

Sovuq tushsa yerning beti muzlaydi,
Chechan odam har davrada so'zlaydi.
Qay elatda qolding, nechun bulbulim
Zebo sanam Yozisini izlaydi.

Noqirsni ruhlantirar oltin-zar,
O'z eliga dushman qaytar badkirdor.
Qanotingni yozib uchgin bulbulim,
Menday egang sevganiga intizor.

Kelarmisan tog'-toshlarga to'g'indim,
Iflos joydan turar bo'lsam qog'indim,
Zor kunimda yo'ldosh bo'lgin, bulbulim,
Sevganimni zor intizor sog'indim.

Kim dorishar bilsang eli boyliga,
O'lim kelolmaydi mingta qo'yliga.
Chechan bo'lib zavq bag'ishla, bulbulim,
Kelbatini bir ko'rsatsang mayliga.

Tushlarimga kirmay qo'ysa xo'rланib,
Kelmani deb ag'nab yotsam terlanib,
Hatto sen ham sayramasang, bulbulim
Kimga aytay dardimni men to'rланib.

Qush bo'sangda muhabbatni sezasan,
Yozim uchun keng jahonni kezasan.
Shunday kunda bir sayragin, bulbulim
Ko'nglimdagi armonimni buzasan.

Zebo qancha qon qaqshab, eshilib, ko'kayi teshilib yiglasa ham bulbuldan darak bo'lmadi. Shunda otasi Poyandaboy nima qilishini bilmay, qizining yuziga termilib o'tirganda, ikki jo'gi ayol to'rvasini bo'yniga osib, badani go'ng sasib, qo'liga uzun tayoq olib, qadamini katta bosib: "Xayr qiling, xayr qiling", -deb kelib qoldi. Robigul jo'gilarga bitta non chiqarib berdi. Shunda jo'gilarning ko'zi, yuzi zafaron bo'lган Zeboga tushib: "Shu qizgina kasalga o'xshaydi, shunga bir fol ochay, bir fol ochay, ha demay tuzalib ketadi. Faqat nazirini katta bersanglar bo'ldi", -deb javray berdi. Zeboning tuzalishini intiq bo'lib kutib turgan Robigul: "Mayli, fol ochag'ay", -deb jo'ra sum tashladi. Jo'gining keksarog'i to'rvasidan dapini olib, bir-ikki aylantirib, nimalarnidir pichirlab, bemorning ismini so'radi. Shunda ismini bilgan jo'gi momo: "Rost suyla momolarim", -deb doirasin dukkullatib, kallasini likkillatib, taqinchoqlarni shiqillatib, oy Zeboni inqillatib fol ocha ketdi.

Baxtingdan ochaymi, bolam,
Taxtingdan ochaymi, bolam,
Yuzing gulday ochilsin hey,
Ahdingdan ochaymi, bolam.

Tushundingmi, oy Zebo.
Rano gulday ochilbsan,
Oy nuriday sochilbsan.
Bir guli ham to'kilmagan

Oldin qushday qochilbsan.
Tushdingmi, bolam.
To'da jiniga duch bo'libsan,
Yura-yura ko'p tolibsan,

Bir insonga ko'ngil berib,
Iziga zor bo'b qolibsan.
Shugina holing, jin ham ko'rindi, bolam.
Chorshanba kun desammi yo,

Payshanba kun desammi yo.
Qonjaloqdan hakkallabsan,
Senga qurbon bo'lsammi yo.
Qon jaloq ham ko'rindi, bolam.

Kun botishin o'ylasammi,
Kun chiqishdan so'ylasammi,
Suq tegibdi boshginangga,
Mahkam qilib boylasammi.

Suq ham ko'rindi, bolam.
Seni ko'plar ko'rolmaydi,
Tayoq bilan urolmaydi.
Ko'z tegibdi yuragingga,
Chappa qilsam turolmaydi.
Ko'z ham ko'rindi, bolam.
Boshginangga havo qibdi,
Bu ishni bir beva qipti.

Ko'rolmayin dushmanlaring,
Seni qattiq duo qipti.
Duo ham ko'rindi, bolam.
Jinlarga bir jonliq so'ygin,

Nazr pulni ko'proq qo'ygin.
Rozi bo'lsa ota-onang,

Ketarimda ulush tuygin.
Tushundingmi, bolam.

Jinlaringni baylab beray,
Bir boshidan qamab uray,
Kasalliging yuragingdan,
Simobdayin sermab suray.

Tushundingmi, bolam.
Ko'zi borning ko'zin o'yay,
Suqi borning suqin so'yay.
Jonlig'ingni jolpillatib,

Uyga borib o'zim so'yay.
Anglading, oy Zebo.

Jo'gi momo yayray berdi, iyagini qayray berdi. Robigulning qo'ygan naziriga qayta-qayta qarayberdi. Bir chekkada Robigul: "To'g'risini aytadi, Zeboda ko'z ham bor, suq ham bor, jinlar chalgani ham rost. Chunki kal olib qochganda jin urgan", -deb girdikapalak bo'laberid. Robigulning ishonganini sezgan jo'gi momo undan battar javrab ko'proq narsa undirish maqsadida ko'z, suq, jinga chiroq ham joqsam, toyday tosirdab ketadi", -deb Robigulning galini olaberdi. "Yolg'iz qizim darddan forig' bo'lsin", -deb Poyandaboy ham o'zidan kechaberdi. Jotoqda jotgan suruv echkilardan bir jolpollojni cho'poniga oldirib kelib, og'ziga tuz soldiraberdi. Jo'gi momoning ham oyoq qo'li yengil bo'lib: "Zebojonne xuddi oyday qilib, badanida dard qoldirmayman. Lekin qizim darding og'ir ekan, gul lolaning issig'iga borguncha, suyaging bilan eting qolar ekan. Jinlar ko'p yomon bo'ladi, ular arvochlarga o'xshaydi, Xudoy ursa o'ngariladi-da, arvoh urgan o'ngarilmaydi. Arvoh rozi, Xudo rozi degich edi momolar. Jinlarni o'zim boplاب haydayman", -deb qamishlardan har xil chiroqlar o'ray boshladi. Jo'gining chiroq yoqishiga Robigul ham, Poyandaboy ham rozi. Nega deganda yolg'iz qizi Zebo tuzalsa bo'ldi. "Dard ketaman desa, tabib o'z oyog'i bilan kirib keladi degani rost ekan", -deyishib qushnochning aytganlarini muhayyo qilayapti. Alikul cho'pon Jalohni jongirtib, jolpollojni bo'g'izlayotir. Jolpolloqning bo'g'zidan oqayotgan qoniga botirib, moyga aralashtririb, qulpi-yashil qilib chiroqni o'rayotir. Ora-orada Robigul dasturxonga qo'ygan to'ng moyining eritmasini nonga qorib urayotir. Avji kelib Poyandaboya buyruq berayotir, boyga ham qushnochning aytganlarini hozirlab,

piyoda savara yurayotir, Xudo jo'gi momoga qo'sh qo'llab berayotir, "Kasbimga baraka", -deb bir pasllik davrini meyorini oshirib surayotir.

Lekin Zeboni boshqa dard o'rtayotir. Ko'z oldidan Yozi kali bir bir o'tayotir. Halagan sayin dardiga dard qo'shilayotir. Jo'gi momoning qiliqlari oy Zeboga qattiq hotayotir. Ammo ota-onasini o'ylab, noiloj nima desa ko'nayotir. Jo'gi momo jolpinning go'shining yarmini qozonga qaynoq deb soldirdi, yarimini qushnochning haq deb toza surpga baylattdi. Keltirib to'rvasiga taylatdi. Qora uydan hammani chiqarib yubordi, lekin Zeboni olib qoldi. Qo'liga xalos lattani olib, yoqqa botirib, oldin bir xaloslab tashlayin deb, lattani yoqib, Zeboning boshidan aylantirdi, so'ngra har xil o'ralgan chiroqni yoqib joyravverdi:

Jinlar jonini qiynama,
Mening bilan o'ynama.
Hozir ketgin Zebodan,
Yolg'iz qizga innama.

Yo Xudo, yo ali, yo pirim.
Eshonima siyindim,
Azizlarga tiyindim,
Bunda nima qilasan,

Ketar bo'sang suyundm.
Yo Xudo, yo ali, yo Bohovuddin.
Biring qosang bilarman,
Bosib iching tilarman.

Aytganima ko'nmasang,
Qilg'iligg'imni qilarman.
Yo Xudo, yo ali, yo Balogardon.
Sharqiragan soyga bor,

Olchanglagan boyga bor.
Bunda nima qilasan
Senga intiq joyga bor.
Yo Xudo, yo ali, yo avliyolar.

Qon jalog'im qassobga,
Jinga botgan asbobga,

Buni tashlab yetaver,
Shohlar qizi erkaga.

Yo Xudo, yo Movlon, yo Egam.
Suruv suruv qo'yni top,
Qo'y haydagan boyni top.
Yolg'iz qizni qiynama,

Sutga to'ygan toy ni top.
Yo Xudo, yo Egab, yo kasbim.
Ushlab go'rga tiqaman,
Suqni senga tiqaman.

Agar shundan chiqmasang,
Damim bilan boqaman.
Yo Egama, yo Jabbara, yo pirima.
Madad berar qirq Chilton,

Jinni hayda bu xildan.
Oy Zebomni qiynama,
Tangin topsin bu eldan.
Ko'tarilgin, parilar-ey.

Zebo o'zi gul ekan-a,
Kasali ham mo'l ekan-a,
Haydamasam menga lanat,
Oxirginagn shul ekan-a.

Ko'tarilgin gala jinlar
Orom olsin shirin jonlar
Madad bering avliyolar.

Alqissa, jo'gi momo oy Zeboni rosa orqa-oldiga do'pposlab, qulog'ini qisirtadib, barmog'ini shiqirdatib, yuziga bir-ikki suv purkab, uch kun paranjiga solib, og'zi to'Iganicha nazrini olib, ishidan ko'ngli to'lib, kovushini egilib kiyib, cho'ponlarning itini hundirib, ketdi-da bordi.

Poyandaboy bilan Robigul Zaboning yuziga qarab har kuni uch mahal qanday bo'layapti deb so'rab, "endi tuzaladi", -deb yotabersin, kunlar o'tabersin. Gapni yurt podshosi Abdullaxondan eshitir.

Kunlardan bir kuni Abdullaxon zindonbonni chaqirib: "Ey Toshqul, minoradan o'lmay tushgan Yozi kal zindonda qanday ahvolda yotibdi. Aqlga kirdima, yo hamishagiday og'ziga kelganini qaytarmay sandiroqlayaptimi? Agar hamishagidek bo'lsa noni bilan ovqatini kamaytir", -dedi.

Ulug' sultonim, kalbachcha sahar-sahar oy Zebom, oy Zebom, meni sendan ayirganning nechta bo'lsa ham xotini uchta loq bo'lsin deb duo qiladi. Tushdan keyin to yarim kechagacha Zebo haqida qo'shiq to'qiydi. Qo'shig'ida Zeboning birligina kulishiga Abdullaxonning butun sultanatini va o'zini almashmayman deb sayrab yotadi. O'shak qilganim uchun kechiring, -dedi Toshqul siniq ovozda yerga egilib. "Bu odam bo'lmaydi, devona ham bundan yaxshi. Anglamay gapirgan og'rinmay o'lar degan gap bor. Bu mening zulmimni anglamayapti. Kel, kalning duo o'qiyotgan va qo'shiq to'qiyotgan payti menga xabar ber, o'z ko'zim bilan ko'ray, o'z qulog'im bilan eshitay", -dedi Abdullaxon. Ertasi ertalab Toshqul xabarga keldi. Abdullaxon borib qulqolsa, Toshqulning gapi rost. Tushdan keyin qo'shig'ini eshitay qani, nima deydi ekan deb borsa, Yozi chalqaraman yotib, usti changga botib, badaniga zax o'tib, shunday deb qo'shiq to'qib yotgan ekan:

Yolg'iz bo'lib sag'irlikdan yedim non,
Mehnat nima, rohat nima bilmayman.
Qayga borsam yerda qoldi shirin jon,
Ko'rpa nima, to'shak nima, bilmayman.

Qo'sh haydadim gavron ushlab qo'lima,
Xirmon yanchdim chizim boylab belima,
Oy Zeboni Xudo soldi dilima,
Vafo nima, jafo nima bilmayman.

Tug'ilganda jumir kiymay gul bo'ldim,
Yorni izlab, eshigida qul bo'ldim.
Molni boqib, poda kabi mol bo'ldim,
Eshak nima, sigir nima, bilmayman.

Yolg'iz Xudo yolg'iz qilding o'zimni,
Oy Zeboga termultirding ko'zimni,

Chakda yotib kimga aytay so‘zimni,
Ziyo nima, zindon nima, bilmayman.

Abdullaxon hayvonligin bildirdi,
Pora olib Poyandani kuldirdi.
Yuragimni qon zardobga to‘ldirdi.
Xachir nima, tulpor nima, bilmayman.

Abdullaxon zolimlikda yagona,
Oxiratda u ham bo‘lar devona.
Oxiratda bir kun tomadi qon-a,
Aql nima, maql nima, bilmayman.

Oy Zeboning mehri menga sang emas,
Yozi kal ham muhabbatda ong emas,
Abdullaning o‘zi menga teng emas,
Zolim nima, olim nima, bilmayman.

Tulpor minib otni maydon yelmadim,
Uch oy o‘tib yordan xabar bilmadim,
Abdullaning tandan boshin julmadim,
O‘lim nima, zulm nima, bilmayman.

Abdullaning xotinlari it bo‘lar,
Tuvgan qizi itdan tushgan pit bo‘lar,
Rost so‘ylasam sulton menda xit bo‘lar,
Yolg‘on nima, rosti nima, bilmayman.

Yozi shunday sayrab yotib edi, Abdullaxon “Voh”,-deb iziga qaytdi. Jallodlarga shu gapni aytdi: “Mening qo‘l ostimda bo‘lgan kal Yozi shu bugun dorga tortilib, podshohga qilgan adovati uchun osib o‘ldirilsin. Toki boshqa fuqarolarga ibrat bo‘lsin”. Mirzosi farmoni oliyni tezda tayyorlab, qonxo‘rlar begi Murdashovbekka tutqazdi. Bekning yuziga qon yugurib, ancha o‘zini yengil tortib, har ko‘chaga chopar yubordi. Dorning ostiga suv septirib, karnay-surnaylarni chaldirib, Yozini zindondan chiqarishga ruxsat oldi. Yozi bechora: “Abdullaxon mengaadolat qilibdi-da. Bu ham insonga o‘xshab sevishganlarni dardini tushunibdi, inson axir insonda”,-deb, chiroyi ochilib, zindondan chiqib kelayotsa, yo‘lda yigirmaga yaqin mirshablar saf tortib kutib

turibdi. “Itni yo‘lbars demang, u baribir itlik qilar ekanda”,-deb Yozi mirshablarning qo‘liga tushib, lekin bosh egmay, gavdasini g‘oz tutib dorga tomon jo‘nadi. Podshoning xizmatkorlari Abdullaxonning baxmal chodirini dorning shappat joyidan o‘rnatdilar. Ko‘cha-ko‘chadan odamlar to‘lib: “Qanday inson o‘limdan qo‘rqmay podshoga adovat qildi ekan?”,-deb kela boshladilar. Qonsirab yotgan dor kamalak kabi tovlannerberdi. Shahar chekkasidagi go‘shani g‘ala-g‘ovur bosib ketdi. Yozini yo‘lda mirshablar haydab kelayotsa, o‘zining bulbuli chirillab sayrab kelayotibdi. Buni ko‘rgan Yozi: “Endi meni Abdullaxon o‘ldirsa kerak, o‘larimda Zeboni bir ko‘rayin”,-deb bulbulga qarab: “Xabar bergin yorimga”,-deb bir qo‘sishq aytdi:

Bulbulim, bulbulginam-ey,
Bir xabar bergin yorimga,
Sensan joni dilginam-ey,
Bor xabar bergin yorimga.

Oyday Zebom unda zor-a,
Yuraklari cheksiz pora,
Dorda Yozi intizor-a,
Bor xabar bergin yorimga.

Oy jamolin ko‘rib o‘lay,
Kamoliga qurban bo‘lay.
Bulbul, sening darding olay,
Bor xabar bergin yorimga.

Kokillari shona-shona,
Munchoqlari dona-dona,
Men Zebojonga devona,
Bor xabar bergin yorimga.

Ajdar sochi to‘lg‘anar-ey,
Gul tenasi tengsalar-ey,
Yozining ko‘zi yonar-ey,
Bor xabar bergin yorimga.

Qoshin kerib, labin burib
Goh o‘tirib, gohi turib,

Kuydiradi xayol surib,
Bor xabar bargin yorimga.

Yozi jonin sotadi de,
Kunlar kutib o'tadi de,
Axir qancha kutadi de,
Bor xabar bargin yorimga.

Mehrim ortib, qalbim zordir,
Gar kelmasa dunyo tordir,
Yordan boshqa kimim bordir,
Bor xabar bargin yorimga.

Bulbuljonim gullar sayla,
Shu xizmatim javob ayla,
Qanotingni yozib tayla,
Bor xabar bargin yorimga.

Shoirlarning g'azalisan,
Sevishganlar timsolisan,
Zebojonimning bolisan,
Bor xabar bargin yorimga.

Abdullahxon dorga tortar,
Dorga tortib qalbim o'rtar,
Zebom meni zor bo'b kutar,
Bor xabar bargin yorimga.

Tanda jonio olsin, mayli,
Cho'g' tandirga solsin, mayli
Lekin dardim bilsin, mayli
Bor xabar bargin yorimga.

Zebom kelsa oyday to'lay,
Olchanglagen boyday bo'lay,
Yuzini bir ko'rib o'lay,
Bor xabar bargin yorimga.

Shunda bulbul Yozini bir aylanib uchib, havoga parvoz qildi. Uzoq yo'lni yaqin qilib, Poyandaning qoshiga yetib bordi. Oy Zeboning baxmal o'tovi chong'arag'iga qo'ndi. Zebo Yozini eslab, yig'lab-yog'lab uqlab qolgan ekan. Poyandaboy qo'shni qo'shga gurungga ketibdi. Robigul esa "Zebo uxladi, qushnochning chirog'i em bo'ldi. Dard ketsa uyqu kelar", -deb ishga urnab ketgan edi. Bulbul changroqda turib sayray boshladi:

Pir duosi tiysa yigitga davlat,
Davlat bilan baland bo'ladi savlat.
Zebo sanam, qolma bugun armonda,
Yozi yoring dorga boshlar adovat.

Yaxshi odam bilar elning qadrini,
Pand beradi otga maysa, shudringi
Zebo sanam, qolma bugun armonda,
Yozing qoni bo'yarr shahring adrini.


Sigir molni ura ko'rma mo'rt bo'lar,
Nomard odam ongni ko'rsa mard bo'lar.
Zebo sanam, bugun qolma armonda,
Yozing ko'zi senga qarab to'rt bo'lar.

Sipoiylar pilab ichar choyini,
Yomon xotin erta solar joyini.
Zebo sanam, turgin deyman chorillab,
Olib keldim senga Yozi voyini.

Dasta bo'lar do'mbilg'aning o'tini,
Xotin chiqaradi elning otini.
Shul Yozidan xabar olgin, Zebojon,
Borib eshit dor tagidan dodini.

Dor tagida Yozi yig'lar zoru zor,
O'lar choqda senga bo'ldi intizor.
Zaifa ham qilar mardning ishini,
Yozi uchun joningni tik zulfakdor.

Archa o'tin quriganda tilinar,
Ko'zlab ursang qars ikkiga bo'linar.
Sevgan yoring bo'zlab tursa seni deb.
Sodiqliging shunday kunda bilinar.



Shunda Zebo joyidan turib, tushummi yoki o'ngimmi deb, gir atrofga alanglab qarasa, chong'araqda bulbuli ko'kmak tusda sayrab turibdi. Yozi yorimga kun qiyomat bo'libdida, men vafodor sevishgan bo'lib, ne kuniga yaradim. Kele, bugun sharmayoni yig'ishtirib qo'yib, yorimdan bir xabar olayin deb onasining tang kiyimlarini kiyib, sochini boshiga tuyib, ustidan qunduz telpakni bostirib uyib, chorvadorning bolasi emasmi, boylovda turgan otasining bo'z otini egarlab shaylanaverdi. Buni ko'rgan Zumrad dugonasi hayron qolib, nima gapligini so'radi. Voqeani eshitgandan keyin u ham "dugona bo'lib, ne kunlarga yaradim", -deb, erkak libosini kiyib u ham To'ri otni egarlab tayyorladi. Zebo bilan Zumrad otlarni minib jo'nagan palla, Robigul opa oldidan chiqib qoldi. Robigul nima gapligini so'raganda Zebo javob berayotir:

Onajonim, bugun qiling adolat,
Sevganimni dorga osar adovat.
Bo'z tulporni minganima yig'lama,
Shunday kuya soldi meni muhabbat.


Qarchig'ayim tuyog'ini toydiray,
Suyganimni dor tagidan ayiray,
Meni desang hafa bo'lma, onajon
Yozim olib xonning ko'zin o'ydiray.

Bulut buzar charaqlagan havoni,
Yolg'iz Xudo bersin menga davoni.
Yozim uchun tanda jonim berayin,
Meni desang bostirib ber duoni.

Ayoz qissa yerning beti sang bo'lar,
Qo'y-echkining ahvollari tang bo'lar.
Onajonim, duoga och qo'lingni,
Gar kechiksam Yozim hangu-mang bo'lar.

Sog'inchima torlik qilar ko'kragim,
Muhabbatga mezon bo'lar yuragim.
Har narsaning jufti bo'lsin, onajon,
Bir yigitga bordir mening keragim.

Menga monand Yozijonning qo'shig'i,
Gar qo'shilsam qo'shsha bo'lar beshigi.



Kalmi,sovmi menga kerak, onajon,
Suluv qizning ko'p bo'larkan oshig'i.

Muhabbatga ana bo'ldim giriftor,
Yetolmasam, qolgan kunim darbadar.
Quv yog'ochday quvratmagan qizingnii,
Gul ochilsin yorga yetib zulfakdor.

G'uncha bo'lib yaproqlarim ochilsin,
Quyosh bo'lsam nuri elga sochilsin.
Yozijonga yetolmayin o'lsamda,
Kafanlarim qizg'aldoqdan bichilsin.

Kamalakday egma mening tarzimni,
Eshon kelsa guldan tutqaz nazrimni.
Padarimga aytolmasam, onajon,
Sendan boshqa kim aytadi arzimni.



Sozandalar sozin to'yda chaldi de,
Oy Zeboning sabrлari to'ldi de.
Otam kelib so'rab qolsa, onajon,
Yozi uchun dor tagida o'ldi de,-

deb Zebo Bo'z tulporga qamchi bosdi. Zumrad ikovi otlarni qistab haydab shaharga yetdi. Qarasa tumonat odam. Shunda Zebo bilan Zumrad otlardan tushmay bir chekkadan dorga yaqin borsalar, Yozining qo'lini boylab, yelkasiga taylab, podsho Abdullaxonga ro'baro' qilayotgan ekan. Shunda podsho el oldida adolatli ko'rinniq uchun o'zining haqiqatini aytolmay, Yozini so'roqqa tutibdi.

-Ey kal, sen nima uchun elingni boyi Poyandaboyning qizini olib qochding?
-Men Zeboni sevaman,-dedi Yozi.

-Sen kal bo'lsang, Poyandaboy Maymanoqning katta boyi bo'lsa, sening aqling bormi?,- deb podshoh kului. Navkar beklar qo'shildi.

-Abdullaxon, siz podshosiz, yoshligingizdan mol-dunyo va tilloga maxliyo bo'lib ketgansiz. Men Zeboni qanday sevsam, siz ham tilloni shundan o'n baravar ortiq sevasiz. Mol dunyoga, tilloga o'z qalbingizda muhabbat nima qilsin? Sevgi, boy kambag'allikni tanlamasligini, u faqat bir biriga intiq otashni, mehr-muhabbatni, parvarishlashni sizning Azroil qalbingiz qayoqdan bilsin,-dedi Yozi dangallik bilan.



-Dorga torting,-dedi podsho ko‘zidan o‘t chaqnab. Shu payt Zebo chiday olmay otni Zumratga berib, podshoning oldiga kelib: “Ey muruvvatli sultonim, men Yozini sevaman. O‘z xoxishim bilan kelganman. Yozigaadolat qiling, sizdan o‘tinib so‘rayman”,-dedi Zebo qahrlanib. Zahrlanib turgan Abdullaxon Zeboga e’tibor qilmay jo‘nayberdi. “Ey maxluq”,- deb haqoratladi va jallodga “tort” deb buyruq berdi. Podshoning itligini bilgan Zebo yugurib borib, Bo‘z tulporga mindi va dorga yaqin bordi. Zeboning tovushini eshitgan Yozi Zeboga qarab: “Ey yorim, ilonga yalinma, yalinsang Xudodan qolma”,-deb qichqirdi.

Abdullaga egiltirmagin boshni,
Mehring bo‘lsa sharbat qilarsan toshni,
Bir armonim seni ko‘rdim, Zebojon,
Yaratgandan faqat tila bardoshni.

Dor boshida sayrar qara bulbulim,
Yonboshida tursa Zebodoy gulim,
Seni ko‘rdim, endi yo‘qdir armonim.
Meni eslab qo‘ysin fuqaro, elim.

Tulpor minib ololmadim orimni,
Bir qonxo‘rga egiltirdim yorimni,
Qo‘lim boylab dorga tortar Abdulla,
Bo‘shtsaku, qirar edim barini.

O‘ylovsizning gapi elga porimas,
Yo‘lbars yurgan joyga kuchuk dorimas,
Abdullaxon o‘lmay yursa bu elda,
Sevishganning ko‘zda yoshi qurimas.

Maymanoqqa kelib bo‘ldim darbadar,
Abdullaxon odam so‘yar har bozor,
Qonxo‘rlarga yalinmagin, Zebojon,
Senu menga Xudo bo‘lsin madadkor.

Abdullaxon, porang norga ortaver,
Tuv baytalday saltanatga yo‘rtaver.
Zebojonim ko‘rdim, yo‘qdir armonim,
Qonxo‘r jallod, endi dorga tortaver.

Alqissa, jallodlar Yozining boshini sirtmoqqa solib tortayotganda, Zeboga Xudo kuch berdi. Boshidagi telpagini sermab otdi. Tubaga jiyilgan soch jovdirab, sharsharaday sochilib ketdi. Ikki chakkadagi zulfak eshildi, tirqirab joyilgan soch Zebo bir tengsalganda, bir-biriga jamirab qo‘shildi. Atrofga nur taralganday kamalak hosil bo‘ldi. Abdullaxonning ovzi ochilib, angrayib, burni tangrayib, yelkasi ungrayib, ko‘zi chaqchayib tiklab qoldi. Shoshib qolgan jallodlar Yozini dorga tortib yuborayotganda, buni ko‘rgan Zebo bir Xudoga yolvorib: “Sendan boshqa kim tushunadi dardimni?”,-deb, kuch tilab, ham Xudoga, ham sochiga qarab qichqirayotgan joyi:

Xudoyimdan bugun bo‘lar karomat,
Menday sanam hech tortmaydi nadomat.
Adolatga yemish bo‘lsin adovat,
Yozijonga cho‘zil deyman, gul sochim.

Kuygan banda sahar-sahar jilaydi,
Omonliqni bir Xudodan tilaydi.
Sevgan yorim, seni hitlab silaydi,
Yozijonga cho‘zil deyman, gul sochim.

Ipakdayin eshilasan tarasam,
Mehrim ortar seni o‘rib qarasam.
Tanirmisan yorim sendan so‘rasam,
Yozijonga cho‘zil jonim, gul sochim.

Qoralikdan javohirga o‘xshaysan,
Tarayversam tog‘ loladay yashnaysan,
Menden battar sen ham hozir qaqshaysan,
Yozijonga cho‘zil jonim, gul sochim.

Aziz bo‘lib tengsalasan boshimda,
Bir bo‘laging erkelaydi to‘shimda.
Kokillarim oshno ko‘zu qoshimda,
Yozijonga cho‘zil jonim, gul sochim.

Ne yigitlar oshiq edi ko‘chamda,
Yuragimdan tomir olding muchamdan.
Ajdar bo‘lib tebranasan uchamda,
Yozijonga cho‘zil jonim, gul sochim.

Bol chakkamda kamalakday joylanding,
 Ajdar bo'lib ximchi belga boylanding.
 Oq yuzimga suqing ketib o'ylanding,
 Yozijonga cho'zil jonim, gul sochim,

-deb sochini yumaloqlab otdi. Sochi qirq gaz cho'zilib dorga yetdi. Yozi ushlab ola solib, dorga berkitdi. Zebo iziga qarab otini haydab, yo pirim deb sochini tortdi. Yozi osilib turgan dor nuradi ketdi. Hamma hayron qolib, yoqasin ushladi. Bir xillar "bu nima mo"jiza" deb ichiga tufladi, chollar ufladi. Zebo yerdaga yotgan telpagini olib, ichiga jumaloqlab sochini solib, boshiga bostirdi. Yozi Zeboga qarab jo'nab edi, mirshablar yo'lin to'sdi va podshoga qaradi. Abdullaxon Zeboning go'zalligiga lol bo'lib, boshidan xayoli uchdi, o'zicha fikr qildi: "Zebo – zebo deganicha bor ekanda kalning. Poyandaga o'zim kuyov bo'lmasam bo'lmaydi. Kalga yaxshi gapirib, qizim Dastagulni bersam ovunadi qoladi. Abdulla Zeboga egalik qiladi. Oppoq qorday to'shidan mustahkam joy oladi. Six ham kuymaydi, kabob ham kuymaydi", -deb elga qichirtirdi: "Yozi shu bugundan ozod bo'lidi, Zeboning arzi inobatga olindi va saroy ixtiyoriga o'tadi. Zebo uyiga ketadi".

Poyandaboy ham ot bilan yetib kelgan ekan, o'rtada turgan Zebo qizining otini jilovini ushlab, chakkaga tortdi. Uyalganidan yelkasiga bir ikki turtdi. "Yozijon" deganiga ham qaramay, yurtga Zumrat bilan birga olib ketdi. Abdullaxon ham Yozini saroya oldirib kelib, rosa izzat-ikrom qildirdi. Nonushta vaqtida go'zal Dastagulni ham bir ikki davraga keltirdi, Yoziga ko'z-ko'z qildi. Yozi qaramadi ham, ismi nima deb so'ramadi ham. Bundan izzalangan Abdullaxon reja tuzdi: "Agar Yozi Dastagulga ko'nsa ko'ndi, ko'nmasa toabad zindonda chiritaman, izi bilan quritaman", -deb o'yładi.

Ertalab nonushtada Abdullaxon Yozini chaqirtirdi. Dastagul ham o'ziga zeb berib, ikkoviga izzat-ikrom bilan choy qo'yib, ovqatlanishga taklif qildi. Dastagul ketgandan keyin Abdullaxon Dastagulni qizim deyishga uyalib, sir bermay, Yoziga bildirmay: "Yozijon, hozirgina chiqqan bu qiz mening muzofotimda yagonadir. Qancha bahodirlar ishqida yonib ado bo'lidi. Lekin men bu qizni saroyning ko'rki uchun hech kimga ravo ko'rmadim. Kecha senga mening mehrim ortdi. Agar xo'p desang Zeboning o'rniga shu Dastagulni nikohlab beray. Zebo go'ngga botgan bir qizda. Dastagulga uylansang saroyda qolasan, men bilan birga bo'lasan, nima deysan?", -dedi podsho mug'ombirona. Chidab turolmagan Yozi Abdullaxonga qarab atirgulga qizg'aldoqni mengzamang deb so'zlab turibdi.

Nomard o'zin mard biladi panada,
 Boshga ish tushganda farqi bilinar,

Odam degan bilan hamma teng emas,
 Mart yigitlar g'oz a kuni bilinar.

Osmonda uchadi ming turli qushlar,
 Lochinu, burgutu hamda boyqushlar,
 Kimning hayolidan kechar bu ishlar,
 Bulbul esa bir say rashda bilinar.

Har alvonda bedov otlar chopilar,
 Izlaybersang har xil turi topilar,
 Lekin topilmaydi G'irkok'k kabilar,
 Chin tulporlar otpoygada bilinar.


Sulton bo'lsang borla baland-pastingdi,
 Mart yigitga tikka so'yla qasdingni,
 Oltin-zarga tenglashtirma do'stingni,
 Asli do'stlar og'ir kunda bilinar.

Bu dunyoda turli-tuman ellar bor,
 Odamzotda o'zbek-qirg'iz xillar bor,
 Bog' chamanda qizil, yashil gullar bor,
 Nuqra gullar yonma-yonda bilinar.

Toza narsa tiniq bo'lar qizlarga,
 Qora bo'lsa upa tortma yuzlarga,
 Ko'ngil berma har ko'ringan qizlarga,
 Suluv qizlar bir qarashda bilinar.

Dastagulni mudom ta'rif aylading,
 Yosh yurakni yer qa'riga taylading,
 Bu fikrni, shohim, qachon o'ylading,
 Maqtaganing megajinday ko'rinar.

Oy Zeboning bir kulishi jannatdir,
 Dastagulning har boqishi kulfatdir,
 Ikkovini tenglashtirsang ofatdir,
 Yonma-yonda qizing xarcha ko'rinar.



Yozi shu so'zlar deganidan keyin, Abdullaxon podshoning ko'zi shopiyoladay kattarib, chin achig'i kelgandan keyin tili g'uldirab gapirolmay qoldi. Og'zidan arang "Jallod" degan so'z otildi. Oybolta ko'targan ikki jallod hozir bo'ldi va qoni qotgan oyboltaning yuzini yalab: "Kimming kuni bitdi, azroyil yetdi, amirdan farmon kutdi", - deb qonsirab alanglayvyerdi. Abdulla Zeboni o'ylab: "Agar Yozini o'ldirsam, Zebo meni dushman bilib, sira ham menga o'z hohishi bilan tegmaydi", -degan fikrga borib "Zindon", -deb yubordi. Ikki jallod Yozini samara ko'tarib, zindonga yetdi va sermab otdi, Yozi zindonning qora burchiga gildirab ketdi. Abdullaxon: "Poyandaning zorillaganicha bor ekanda, tili mening "asal" tilimdan o'n chandon "asal ekan", -deb o'yadi. Yozidan qutilganiga qulhollovlia o'qib, Zeboni o'ylab ketdi.

Shu kecha yotdi, kecha yarim kechadan o'tdi. Abdullaxon tush ko'rdi. Tushida bir qariya: "Ey Abdullaxon, men sening ota-bobo piring bulaman. Men xudoning amri bilan shunday karomatga egamanki, hatto o'n yil oldin nima bo'lishini aniq ayta olaman. Agar sen Yozini zindonda chiritmoqchi bo'lsang, xalqning qarg'ishiga uehrab, oxirating kuyadi. Bu dunyongku zolimligidandan kuyib ado bo'layozdi. Yozini qo'yib yuborsang senga xudodan bir misqolcha mehri-shafaat bor", - deb g'oyib bo'ldi, Podsho yarim kecha uyqudan uyg'onib, tushining ta'birini bilolmay, uyqusи uchib, mazasi qochib, tongni ko'z bilan orttirib to'lg'onib chiqdi. Ertalab Yozini zindondan chaqirtirdi, lekin Yozi kelmadi. Podsho yana odam yuborganda Yozi: "Podsho menga kerak emas, men unga kerak bo'lsam o'zi kelsin. Maboda podsholigini ro'kach qilib kelmasa, bir shartim bor, shuni bajarsa o'zim chiqib boraman", -dedi. Kelgan yasovul hamma gapni xonga yetkazdi. Abdullaxon kechagi tushidan qo'rqib "Ayt Yoziga, shartiga roziman", -dedi. Yasovuldan gapni eshitib Yozi: "Agar podsho meni ko'rmoqchi bo'lsa, zindondagi hamma yotganlarni chiqarib yuborsin. Keyin oldiga boraman", - dedi. Podsho bir kun bo'lsa ham Yozidan qutilishini hohlab, hamma zindondagilarni ozod qilib, Yozini keltirdi. Yozi qarasa, Abdullaxon ancha salqi tushib, yuzlari hovutqib, lablari qotib, rangi oqarib, ko'zi qolpoqlanib, garang qo'yday tengsalib turibdi. Yozi ham ko'pni ko'rgan, shaytonni yo'ldan urgan, ayyor Poyandaboya pand bergen emasma, Abdullaxonning bu turishini ko'rib: "Bir sir o'tibdi-da", - deb o'zini dadil oldi. Shunda Abdullaxon: "Yozijon, kecha senga aytdimku, mening mehrim senga tushgan deb. Shu sabab seni zindondan, aytganingga ko'nis, chiqarib oldim. Mayli, Dastagulni olmasang ham olma, lekin menga achchiq, yomon va yolg'on gapirma. Shu bugundan boshlab seni batamom zindondan ozod qildim. To'rt tomoning ham qibla. Qayoqqa qarab nomoz o'qisang o'qiyver. Senga javob", -dedi xazin ohangda. Yozi ham fikrini chamalab: "Yo'q sultonim, meni saroydan haydamoqchimisiz? Mening ham mehrim sizga tushib qoldi. Zeboga

ulanishimga yordam bermasangiz, o'zim borib zindoningizda yotib olaman. Keyin afsuslanmang", -dedi tavakkaliga.

- Mendan nima yordam kerak? - dedi podsho.

- Menga yaxshi ot, qimmatbahо kiyim-kechak qarzga bersangiz. Keksa odamlardan birini ham shunday kiyintirib otlanirasiz. Keyin hamisha menga saroy ochiq bo'lsa, mening iltimoslarimni rad etmasangiz, shuning o'zi menga katta yordam", -dedi Yozi. Yozidan qutilishini o'ylab turgan Abdullaxon "Roziman", - dedi.

Yozi eshon bo'lib, qoshidagi Toshboy aka eshonga xalfa bo'lib, Poyandaboyning qo'shiba otlanib jo'nadi. Zeboning jamolini ko'rmagan Yozi intiq bo'lib, shu kunlarga yetkazganiga xudoga ming marta shukur deb, otlarga qamchi bosib, xoliqlab jo'nadi.

Alqissa, Poyandaboy: "Eshon kebdi. Eshonning yo'g'ida ham chaqmoqning o'ticha bor. Pirga tiyinma qoshing ketadi, zo'rga tiyinma boshing ketadi", - deb chopqillab eshonni qarshi oldi. Yuziga razm soldi, yuzi tiniq, oq suyakligi bilinib turibdi. Shunda eshonning oldiga madrat qo'yib, cho'ponlarning biroviga shirboz qo'zilardan so'ydirib, eshonning qornini rosa to'ydirib, uyg'a borib yeysiz deb oq ro'molga qolganini tuydirib: "Qani, eshonim, bu kecha mehmon bo'lasizma yoki safaringiz qaridima?", - dedi hurmat bilan Poyandaboy, "Ishning yo'nalishiga qarab ko'ramiz", - dedi eshon yerga qarab. "Agar unday bo'lsa menga bir muddat javob bering. Kecha Saman yo'rg'aning oyog'iga suv tushgan edi. Shundan bir xabar olib kelayin, arqonda yotibdi. Sizlar choy ichib, dam olib o'tiringizlar", -deb Poyandaboy, duo olib jo'nab ketdi. Tavakkalning ishini o'ngga boshqarar deganday, bezovta bo'lib turgan Zeboga o'zini bildirib, Yozi qo'shiq ayta boshladи.

Yozi eshon:

Rostgo'ylik ham mart yigitning nishoni,
Aqlsizning so'zida bo'lar kishani,
Oq suyaklar bo'lar sayyid avlodи,

Bugun keldi oy Zeboning eshoni.
Yaxshi eshon duo bersa davlatdir,
Gar ovrunsa har bandaga mehnatdir,
Donolardan doim bo'lar sharofat,

Bizdan eshon Zebojonga rohatdir.
Oy Zebo ham chiday olmay qo'shildi:
Eshon kelsa murid do'nar har yog'a,
Duo bersa oltin eshik, bo'sag'a,

Bo'z tulporda bo'z yigitim kelganday,
Bu eshondan oyday Zebo sadag'a.

Eshon bo'pti dedi ko'plar Yozini,
Tor zindonda ko'p chalibdi sozini,
Naziriga nima bersam bo'ladi,
Qabul qilarmikan Zebo nozini.

Yozi eshon:

Tov betini qishda tuman chaladi,
Shunda mengan yurolmasdan qoladi,
Zebojonim qiynalmasin mayliga,
Oy yuzini bir ko'rsatsa bo'ladi.

Xotin bo'lar er yigitning vaziri,
Nasiya bo'lmay ishning bo'lsin hoziri,
Oq o'tovdan chiqib bersin ko'rinish,
Qabul bo'lar oy Zeboning naziri.

Oy Zebo:

Sevishganning hech qolmasinn armoni,
Yaxshilikka bo'lsin xudo farmoni,
Sizning uchun tanda jonim berayin,
Kela-kela qolmas Yozim darmoni.

Bir xudodan bo'lsin deyman adolat,
Har yigitni charchatadi dodi-dod,
Mushtiparman ish kelmaydi qo'limdan,
Eshon bo'lib bir ko'rsating karomat.

Yozi eshon:

Yolg'izlik ham pand beradi kishiga,
Yolg'iz o'lsa kim keladi qoshiga,
Xo'rsinganda orqa tovim bo'lmasa,
Kuchi yetar ekan ko'zda yoshiga.

Beray desam suruv qo'yim bo'lmasa,
Xudo deyman, qopim zarga to'lmasa,

Sovchi bo'lib keldim bugun Zebojon,
Sevgimizni Poyandaboy bilmasa.

Yozi Zeboga: "Sevikli yorim o'tovdan birgina chiq, qaddi-bo'yingni, husni jamoliningi bir ko'ray", -deb zorillaybergandan keyin Zebo tashqariga chiqib, eshonning oldiga chinni choynakda achchiq choy qo'yib ketdi. Xalfadan iymanib ko'risha olmadi. Yozi bir oz paysal topganday bo'ldi. Shu payt Poyandaboy otdan kelib qoldi. Hamma jim bo'ldi. Kelishuvga muvofig xalfa gapni boshladi. O'rtaga eshon tushganini ham gapirdi. Abdullaxon yubordi deb ham ko'rdi. Yozidan Zeboga sovchi kelibdi deb eshitgandan keyin Poyandaboy qashqa tayoq bo'ldi-qoldi. Oxiri rostini aytdi: "To'ram, Yozi dirday kambag'al bo'lsa, og'a-ini, ota-onasi bo'lmasa, sanqib yurgan bir devonada. Agar o'lsa ham bemozor, bekafan o'ladi. Buning ustiga qip-qizil kal bo'lsa, odam uning shamolli tomonidan o'tib bo'lmasa. Yolg'iz birgina qizim bor. Men uni axir qanday qilib kalga beraman. Mening ham orzu-havasim bor. Bu sohada aralashmangizlar", - deb gapni cho'rta kesdi. Bir gap chiqmasligini sezgan Yozi joyidan irg'ib turib, xalifani ergashtirib, otlanib Abdullaxonning oldiga qaytdi, hamma gapni aytdi. Oradan o'n besh kunlar o'tganda Yozi Abdullaxonga qarab: "Ey sultonim! Sizga oxirgi marta iltimos qilaman, Agar shuni bajarsangiz sizga umrbod duo qilib, shahringizdan ketaman. Shu iltimosimni bajarmasangiz o'lgunimcha zindoningizda yotaman", -dedi Yozi. "Ayt bajaraman", - dedi podsho xursandlik bilan. "Men Poyandaboynikiga sovchi bo'lib borganimda. "Yozining og'ayin-qarindoshi bo'lmasa, men uning nimasiga Zeboni beraman", -dedi. Agar meni desangiz shu marta Poyandaboynikiga Zeboga men uchun sovchi bo'lib borsangiz bo'ldi", - dedi Yozi. Podsho o'yga toldi. O'ylab-o'ylab yuzi yorishdi. "Xa, - dedi Abdullaxon, -borsam mendan nima ketdi. Birlamchi, Zeboning jamolini yana bir marta ko'raman, ikkilamchi Poyandadan oz-moz tilla undirib, barra go'shtlardan tandir kabob yeb, chiroyimni bir ochib, dam olib kelaman. Zebo mening dovi-daskamni, saltanatimni ko'rgandan keyin kaldan ayniydi", - deb rozichilik bildirib: "Mayli borsam borayin, bu ishlar ko'p savob ish. Senga yana bir yaxshilik qilayin", -deb sayislarga otlarni hozirlashni buyurdi.

Ikki chopar Abdullaxondan bir chaqirim oldin ketib, Poyandaboya: "Abdullaxon podsho sizga mehmonga kelayapti", - deb xabar berdi. Abdullaxonni eshitgandan keyin Poyandaboning uyida chopa-chop boshlanib ketdi. O'tovlarning aylanasini tozalab, suv sepdilar. Har narsani o'z joyiga tartib bilan qo'ydirib chiqdi. Chashma buloqdan meshlarga yaxtay suv keltirib, ko'zalarga soldirib, ustini yopti. O'choq boshlari toza qilib supirildi. Podsho kelganda tezak yoqmaylik deb bodomcha tenalaridan, oqquraylardan terdirib keldi. Abdullaxon kiradigan uyg'a hazarsumat tutatib, og'zini yopib qo'ydi. Poyandaboy oldin kelgan ikki

navkar bilan bir chaqirim yo‘lga chiqib turadigan bo‘ldi. O‘zi ham barcha oila-a’zolariyu, cho‘pon-cho‘liqlarigacha toza kiyimlardan kiydirib, top-to‘ynakday qildi. Abdulaxon uchun qo‘raga axta qo‘ylardan, shirboz qo‘zilardan to‘rtta-beshtasini qamatib qo‘yib, o‘zi podshoga peshvoz chiqib kutib oldi va so‘ng o‘tovga soldi. Duo fotihadan keyin Poyondaboyning mehmondorchiligi boshlandi.

Mehmonga reja tuzildi,
Sochoqning taxi buzildi,
Bismilloh, deb taylaganda,
Baxmal dasturxon yozildi.

Hech bir o‘tkazmay onini,
Izzat qilib mehmonini,
Dasturxonga taylayotir,
Yer tandir, issiq nonini.

Obodlab qo‘shon joyini,
Damda eslab xudoyini,
Xum choynaklarda obkeldi,
Kiyik o‘t, olqar choyini.

Yong‘oq, mayiz, pistalarni,
Xomchi piyoz dastalarni,
Olib kelib taylayberdi,
Ruhlantirib xastalarni.

Olma, anor, zardolini,
Asal, shirin bollarini,
Navbat bilan qo‘yayotir,
Bosib-bosib mo‘llarini.

Har kelganda oling, deydi,
Yana mehmon bo‘ling, deydi,
Poyandaning qo‘tonida,
Shohim, o‘ynab kuling deydi,

Eslashib yoshlik chog‘ini,
Maqtashib yorning bog‘ini,

Boz ustiga olib keldi,
Kesilgan qorin yog‘ini.

Abdullani mehmon bildi,
Dasturxoni limma to‘ldi,
Chanqoqingiz bosadi deb,
Moyi bilan chalob keldi.

So‘rashib urug‘ zotini,
Silashib tirish betini,
Sirli kosada keltirdi,
Pishilgan echki sutini.

O‘qishib arab bitikni,
Goho maqtashib etikni,
Do‘qilashib olib keldi,
Likibi kosa qatiqni.

Jalokda shirboz so‘yildi,
Qizil o‘ngachi tugildi,
Bu tomonda dasturxonda,
Oq shirin qimiz qo‘yildi.

Kim qilar bugun dakkini,
Xo‘roz ham quvmas makkini,
Dasturxonga qo‘yayotir,
Tulupdan olib chakkini.

Dasturxon to‘ldi tig‘ilib,
Yong‘oqlar ketdi chog‘ilib,
Boz ustiga qaymoq qo‘ydi,
Xizmatkorlari egilib.

Qarang Poyanning ishini,
Obod qib qo‘ton dashini,
Tol toboqlarda ob keldi,
Shirbozning tandir go‘shini.

Qo'chqor qo'ylardan so'yildi,
Go'shti qozonga uyuldi,
Tandir kabobning ustidan,
Qaynatma sho'rpa qo'yildi.

Xizmatkorlari tolmadi,
Kapkirt qozonga chalmadi,
Oxiriga ob keb qo'yidi,
Quvurdoq go'sht ham qolmadi.

Dasht ko'tonda davron qildi,
Abdullani mehmon qildi,
Olib keldi bori-yo'qni,
Qob ketgani armon qildi.

Mehmon ko'nglin xushladilar,
Yeb yostiqqa tashladilar,
Kekirishib, nos otishib,
Qorinini qashladilar.

Shu kuni Poyandaboy Abdullaxonni izzat-ikrom bilan ko'nglidagidan ham ortiq mehmon qildi. Tushdan keyin Abdullaxon Poyandaboya qarab nima sababdan kelganligini aytib, Zeboni Yoziga so'rab shunday dedi:

Bo'ri kelsa shanak qiling daraga,
Ovdar itlar qarab hurar qoraga,
Oy Zeboni so'rab keldim Poyanda,
Yozi uchun tushib bugun oraga.

Poyandaboy, Yozini ham kam dema,
Qalinini bermaydi deb g'am yema,
Yozi uchun tushdim bugun oraga,
Kuyovingni sasib yotgan kal dema.

Xizmatingni qilgan ekan oyma-oy,
Jamlab ketsa xizmat haqi bo'lar toy,
Bo'y qizlarning zominiga qolmagin,
Ko'p gunohni ortib ketma, Poyanboy,

Xachir eshak nor tuyani tortmaydi,
Yo'lbars ko'rsa tulki zoti jo'rtmaydi,
Yozi uchun tushgan edim oraga,
Mayli desang Zebo mendan ortmaydi.

Ko'rgan tushim yaxshilikka jo'radim,
Dor tagida oy Zeboga qaradim.
Hurmatiga ozod qilib Yozini,
Sultanatga Zebojonni so'radim.

Aqili bor anglab olar so'zimni,
O'n yigitdan kam demasman o'zimni,
Har bir so'zim hazil bilma, Poyanda,
Yurakdag'i dardni aytmoq lozimdi.

Zamin yashil bo'lar fasli bahorda,
Darding bo'lsa asal yegin nahorda,
Oy Zeboni so'rab keldim, Poyanda,
Bir qo'nishing bo'lsa qanday shaharda?

Erka qizlar odat qilar sholoqni,
Har bir qassob yangirtirar joloqni,
Boshqa xotinlarni, Poyan, o'ylama,
Zebo uchun beray mingta taloqni.

Qizning mehri yigitga qo'ldan o'tar.
Erning mehri xotinga beldan o'tar,
Har narsaning bir narsasi bo'lsinda,
Hamma zot teng bo'lmasa kuyib o'tar.

Poyandaboy Abdullaxonning bu gaplariga hayron qoldi. "O'ziga so'rayaptimi, Yoziga so'rayaptimi?", - deb o'yladi. Lekin obro'yini o'ylab hech narsa deyolmadni. Oxiri Abdullaxon qistay bergandan keyin Poyandaboy: "Qizning o'zi biladi", - deb qutulmoqchi bo'ldi. Bu gap Abdullaxonning ertali beri o'ylab o'tirgan xayolini qo'llab-quvvatladi. Darhol Abdullaxon: "Poyandaboy, qizni chaqiring, bir so'rab kuray, yuragidagi o'ylarini eshitay, armonlari bo'lsa o'zim haloskor bo'lib yordam beray. Uyalsasin, xalq otasidan uyalsala, dardini kim eshitadi", - deb temirni qizig'ida

bosdi. Hamma gapni anglab o'tirgan Zebo otasidan yana bu gaplarni eshitib "Abdullaxon bizning qancha noni-tuzimizni yeb, sarpolar kiyib, izzat-hurmatimizni ko'rib, eshak podshoning gapirgan gapiga qarang. Yozi uchun jonioymi berayin, tikkatikka so'zlab, taqdirimdagini ko'rayin, podsho meni yesa-esin. Eshakni qancha tarbiyalasang ham, u borib kulga ovnaydi. Bu ahmoq Yozi yorimni ko'z qilib, o'zining niyatini amalgaloshirmoqchi ekan. Kel, buni bir kulga ovnatayin", -deb otasi bilan birga kelib, lekin uyga kirmay, qora uning tashqarisi chiydan turib Abdullaxonga Zeboning javob berayotgan joyi.

To'ri otning peshonasi qashqadir,
Yo'rg'a otning bir qiligi boshqadir,
Abdullaxon, tinglang mening arzimni,
Tor zindonda Yozi yorim qaqlashi.

Qamchi tiymay tulpor otlar o'zadi,
Yaxshi bedov minganidan sezadi,
Tilim bor deb so'zlayberma, sultonim,
Har bir so'zing yuragimni ezadi.

Sovchiman deb har maqomda terlamang,
Tulpor minib dasht-qo'tonga o'rlamang,
Sevganengiz oltin bo'lar, zar bo'lar,
Menga qarab qalbingizni xo'rlamang,

Yaxshi qizning bir qiligi hayoda,
Mehnat tushsa yigit yurar piyoda.
Kal Yozini yerga urmang, sultonim,
Uning muhabbatni sizdan ziyoda.

Qiz bo'lsamda qaytolmayman izima,
Diqqat bilan quloq soling so'zima,
Taxtingizning tillolari, zarlari,
Shotmoqdan ham past ko'rinar ko'zima.

Maymanoqning keng havori chang emas,
Boyning qizi erka emas, ong emas,
Yozi yorim pastga urmang, sultonim,
Sizday beklar joltiriga teng emas.

Sizday shohga begonadir adolat,
Qahringizdan shaharingiz dodi-dod,
Oltin-zarga almashmayman Yozimni,
Yuragida bordir hali diyonat.

Yozi yorim kal sochlari o'silsin,
Majnuntolday yelkasiga osilsin,
Sevganimdan boshqa olsa tiliga,
Menga kelganlarning tili kesilsin.

Yozi uchun shohim tushmang oraga,
Yozim munosibdir taqir, daraga,
Qiz bolani sevolmaysiz, sultonim,
Sevgingizni almashmangiz poraga.

Alqissa, Abdullaxonning ko'p niyatlarini puchga chiqib, shirin orzu-hayollari o'ziga dashman qaytib, kimdan xafa bo'lishini bilmay, dasturxonga duo qilmay, joyidan irg'ib turib, qabog'ini mushtday qilib uyib, xayr-xo'shni ham unutib, navkarlari bilan ot-otiga minib, kelgan tomoniga izza bo'lib qaytib ketdi.

Poyandaboyni esa g'am bosdi. "Qizi qurg'ur Abdullaxonni hurmat qilmadi. U endi menga dashman qaytadi. Har narsani bahona qilib, menden oladigan o'nimatini ko'proq oladi yoki boshimga g'ovga soladi. Nima bo'lsa ham shundan olisroq ketayin, qishlog'imga yetayin", - deb, o'tning uchi qaytmasdan, kun o'nglamasdan ertasiga hamma cho'pon-cho'liqlarini jiyib, qish-qo'tonga ko'chib ketdi. Oy Zebo: "Otama sira ko'nim yo'q ekanda. Yozim nima bo'ldi, endi nima qilaman", - deb yig'lab-yig'lab yelmayoga minib, orqasiga qaray-qaray, Yozi yorini bir xudoga topshirib, yukka ergashib ketdi.

Ana endi gapni Abdullaxonidan eshiting. Shu ketishda arkka borib, hech kimni qabul qilmay yer bovurlab yotdi. Yozi: "Nima bo'ldi ekan?", -deb, kechasi bilan endi meni chaqirar deb, shohning oldiga borolmadi. Ertalab podsho Yozini chaqirtirib: "Yoziboy, senga anig'ini aytay, Poyandaboy tiri tursa senga Zeboni ikki dunyoda ham bermaydi. Seni kal dedi, unda yo'q mol dedi. Zebo ham sendan bezganday, Senga boy qizini bermaydi, hatto menga ham bermadi.", - deb yubordi. Yozi Abdullaxonning gap ulomidan nima deyotganini anglab yetdi va kulbasiga bir og'iz ham gapirmay, xafa bo'lib ketdi. "Sag'irga kun yo'q ekan, Podsho borsa ham, eshon borsa bu Poyandaboy Zeboni menga bermas ekan-da. Endi nima qilaman", -deb non ham yemay yotdi. Qabatidagi hamroyi Maxim bobo hamma gapni Yozidan so'rab bildi. Uning ko'nglini ko'tardi va shunday dedi: "Yozi o'g'lim sen kelib-kelib shu Abdullaxonidan

yordam kutdingmi? Men senga bir voqeani aytib beray. Abdullaxonning uch o‘g‘li bor. Farmon, Do‘rman va O‘rmon degan. Podsho bundan besh yil oldin: “Uch o‘g‘lim qanday voyaga yetibdi, shularni bir sinab ko‘rayin”, - deb aqlli kishiday bo‘lib oldiga chaqirtirdi.“Endi o‘g‘illarim sizlar ham odam bo‘ldilaringiz. Men ham qarib qolayapman.Taxtimni o‘lganimda birovning olishlaringiz kerak. Shuning uchun sizlarga uch yil muhlat, uch viloyatimga borib, robot quringizlar, kimning roboti diliimga yoqsa, shunga taxtimni beraman”,-deb, uchovini uch viloyatga jo‘natib yubordi.

Oradan uch yil o‘tdi. Abdullaxon besh-olti beklarga o‘g‘illarining ishlarini ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lib, ularni ergashtirib viloyatlarga jo‘nadi. Shularning orasida otlarga qarash uchun men ham bor edim. Shunda birinchi Farmon yashayotgan viloyatga bordik. Farmon shahzoda butun aysh-ishratga berilib, mayxo‘rlik bilan kun o‘tkazib, fuqarolarning qizlariga tolg‘oshovlik qilib, shahar o‘rtasidan katta mayxona qurdiribdi. Abdullaxon hamma voqealarni eshitib o‘g‘li Farmondan: “O‘g‘lim roboting qani?”, - deb so‘raganda Farmon shahzoda mayxonani ko‘rsatdi. Shoh beklarning,oldida mulzam bo‘lib, “Muxtasar”, - deb o‘tib ketdi. Ikkinchı o‘g‘li yashayotgan viloyatga bordik. Ko‘zimizga hech qanday robot ko‘rinmadı. Lekin hamma odamlar xursand edi. Qayerga borsak: “Keling, keling, mehmon bo‘ling”,-degan odamlarning soni yo‘q. Podsho Do‘rmon shahzodani chaqirib: “O‘g‘lim qurban roboting qani?”,- deb so‘radi. Shunda Do‘rmon shahzoda: “Ey padari buzrukvor, menin robotim elu xalq, men shularning ko‘nglini ko‘tardim,kambag‘aliga yordam berdim, ko‘plari bilan do‘st tutindim. Ana shuning o‘zi menin qanotlarim”, -dedi.

Podsho tetiklanib “Mo‘tabar”, - deb o‘tib ketdi. Uchinchi o‘g‘li O‘rmon shahzoda Qashqa viloyatining Kattapoy o‘rasida ekan. Bir kecha G‘uzor to‘rasining marhamatida mehmon bo‘ldik. Ertasiga otlanib Tangiharam tumaniga borib, Kattapoya o‘rladik. Borsak, O‘rmon shahzoda butun elu-xalqni, och-yalong‘ochni, kambag‘alning dod-voyiga qaramay urib-so‘kib yuzini Kattapoya qaratib robot qurib yotibdi. Zada bo‘lgan xalq O‘rmon shehzodaning zahar qamchisidan qo‘rqib arang ishlayotgan ekan. Shunda podsho robotni yaqin borib kuzata boshladi. Tosh qalayotgan usta Abdullaxonqa qarab, alam ustida,lekin tanimay: “Loy bergen loyini oladi, g‘ish bergen g‘ishini oladi, tosh bergen toshini oladi, O‘rmon shahzodaga farmon bergen, elu-xalqni qaqqatgan Abdullaxon bu robotdan nimani oladi? Oxiratda Abdullaxon o‘lganlarning ko‘z yoshiga oqib o‘ladi, nariroq turing, ustingizga loy sachraydi”,-deb toshini qalayberdi. Podsho uyalganidan yer yorilmadi, yerga kirmadi. Shu payt O‘rmon shahzoda: “Ota menin robotim sizga yoqdim”, - deb so‘raganda, Abdullaxon “Dardisar”, - deb qaytadan otlandi va bu oq robot bo‘lmabdi, oxirgi robot bo‘libdi deb barcha xaloyiqqa javob berdi. Shunday Yozijon, it bolasi it bo‘lar ekan. Birgina

Do‘rmon shahzoda bebit chiqdi. Qolganlari Abdullaxonning o‘ziga o‘xshab it chiqdi. Sen sag‘ir shulardan marhamat kutib yuribsama? Agar Abdullaxon seni ozod qilgan bo‘lsa, o‘z kuningni o‘zing ko‘raber”, - deb maslahat berdi chol.

Yozi qarasa tong otibdi. Bir pasidan keyin Abdullaxon dan butunlay javob olib, Yozi: “Zebo yorim, qaydasan?”, -deb Poyandaboyning yurtiga jo‘nadi. Borib qarasa hech zot yo‘q. Boy ko‘chib ketgan. Yozining xayolidan har qanday fikrlar o‘tdi. Lekin iloji nima ekanligini bilmadi. “Hech qo‘risa Zebomning yurtini bir ko‘ray”, -deb Zeboning o‘tovi tikilgan yerni ko‘rib, bir oz xo‘rsindi. O‘tovning o‘rtasi bir oz qazilib, yana o‘yilganday. Oyog‘i bilan bir turtib qarasa, Zeboning ro‘moli chiqdi. Yana kovlayberdi bir xaltada talqon, 2 ta qaymoq patir chiqdi. “Ha, - dedi Yozi, - Zebo yorim menga belgi berib ketibdi-da”, -deb bir oz tamaddi qilib, ko‘chning izidan ketayotverdi boyning bir juvona va bir g‘unajini shoshganidan esidan chiqib qolibdi. Buni ham oldiga solib haydab jo‘nadi. Shunda Sho‘rdaryoga yetib kelsa, daryo toshgan, haddidan oshgan, qirg‘oqni soyga qo‘shgan. Yozi kemachilarni topib, yordam beringlar deb, so‘rab turgan joyi:

Bahor kelsa suv toshadi soylardan,
Jabr kelsa el ko‘chadi joylardan,
Shu joylardan katta karvon ko‘chdiman,
Xabar bering Poyandaday boylardan.

Kal bo‘lsamda nomusim bor, orim bor,
Odamsotda uyut bilan sharim bor,
Belgisini aytay sizga, akalar,
Yel moyada Zebojonday yorim bor.

Zebom uchun tanda jonim sotayin,
Yordam bersang sevganimga yetayin,
Kemachilar hozirlagin kemangni,
Poyandaning ko‘chlariiga yetayin.

Shirin bo‘lar ekan mehnatning noni,
Butun bo‘lsin har yigitning iyemoni,
Kemachilar, yordam bering o‘zima,
Ketib qoldi kal Yozining sevgani.

Ushoq mollar aralamas g‘arovga,
Esing bo‘lsa ko‘ngil berma birovga,

Ko'ngil berib ado bo'ldim, akalar,
O'tkazsangiz jonim beray garovga.

Sevganimning bahridan o'tolmayman,
Boshim olib uzoqqa ketolmayman,
Abdullaning saroyin tashlab keldim,
Oy Zeboni ko'rmasam yotolmayman.

"Qirq tanga olsa poraga qirqib gapiradi, yuz tanga olsa qozilar uzib gapiradi", - deganlariday kemachilar ham Poyandaboydan Yozi uchun haq olgan edi. Shu sabab uni daryodan o'tkazmadilar. "Bo'lmasa sayoz kechuvni kursat", -dedi Yozi. Kemachilar boy tayinlagandek unga eng chuqur joyni kursatdilar. Yozi ikki tanani haydab, Zeboning ro'molini bo'yning boylab, talqonni qultiqqa joylab, kemachi ko'rsatgan guzarga yetganda sodiq va mehribon bulbul hozir bo'ldi va Yozini eng sayoz joyga boshladi. Hech narsa bo'Imaganday Yozi daryodan o'tib ketdi. Kemachilar o'zlarining ishlariga uyalib, "olsang pora yuzi qora" deganlariday yuzlari qora bo'lib qolaberdi. Yozi yo'lda Zeboning sha'niga bir qo'shiq ayтиб ketayotir:

Oyday bo'lgan Zebomning jamoli bor,
Yigirmaga yetmagan kamoli bor,
Chuvoq betda soya qilib bir uxlashga,
Jannatdayin huzurli ro'moli bor.

Xudo qilgin yo'limni to'g'ri, ravon,
Boydan qoldi ikki tana menga tavon,
Oy Zeboning ishqida yonib kuyib,
Oxir bo'ldim tanasiga podavon.

Oh deganda harsang toshni yoraman,
Tirik yurgan bilan ichi poraman,
Poyondaboy oy Zeboni bermadi,
Ko'chib ketar izidan men boraman.

Tavakkal bosgan qadam yo'limmikan,
Yerda yotsam yostig'im qo'limmikan,
Qanday qilib Zebojon danayrilay,
Sevganimdan ayrilsam o'limmikan.

Ko'zdan oqqan yoshima o'zim oqay,
Oy Zebomning yuziga kulib boqay,
Yolg'onchida ayrilmay sevganimdan,
Go'zalimning yo'liga jonim tikay.

Yozi ikki tanani haydab, Toshbuloqning ustidan kelib qoldi. Yetilgan yerning hidi gurpillab Yozining dimog'iga uraberdi. Dehqonchilikdan xabari bor yigit emasma: "Bu yerga quruq yog'ochni tiqsang gullaydi, men ham Zebojonga atab gullar, handalaklar eksam qanday bo'lar ekan", - deb xayolidan o'tkazdi, lekin urug'i yo'qligi hovrini bosdi. Shu payt odoqdan bir to'da bozorchilar o'tib ketaverdi. Yozi chopqillab yetib borib salom berdi va "Har urug'dan soting", -deb iltimos qildi. Bozorchilar rosa berilib kuldilar. Yozi hayron bo'ldi. Shunda bir bozorchi: "Ey uka, palonchilarning oldi palagi tuydi, keyingisi gulladi. Sen qachon yerni tayyorlaysan, qachon urug'ni jibitib, yana qachon ekasan? Biz shunga kulayapmizda", -dedi. Shunda Yozi: "Akalar, hamma narsa mehrda va parvarishda. Zebojonga atab eksam, sizlar qaytguncha albatta handalaklar yeguday bo'ladi", -dedi. Boyagi bozorchi: "Sen Poyandaning qizi Zeboni aytayapsanma, sen kal Yozimisan, ma unda", - deb har xil urug'lardan berib ketdi. Yozi hunarini ishga solib, zarangdan omoch, toldan bo'yinturiq qilib, ikki tanani ishga solib, kechki peshingacha yerni tayyorladi. Kechasi salqinda urug'larni Zebom uchun deb ekdi. Parvarish qilib yotaberdi. Kunlar shamolday o'taverdi. Qirq kundan keyin bozorchilar ham iziga bozorlik qilib qaytaberdi. Shunda Yozining palagining ustidan kelib, qarasa, xandalaklar pishib, orqasi to'rlab, kenjasni ham tanob tortib qolibdi. Urug' bergen bozorchi bir palakda qo'sh xandalakni ko'rib, uzmoqchi bo'ldi, lekin sekin tortib uzolmadi. Yozi kelib: "Ey bozorchi, aqling bormi? Bu xandalak Zebojonga atalgan. Qo'sh xandalagiga qo'sh xandalak ekdim. Buni faqat Zebojon uzishi mumkin. Sizlar esa boshqa tuynakdan olib, yo'ldan qolmangizlar", - deb uyaltirdi. Bozorchilar uyalib ketayotganda: "Men, shuncha yil Zebojonning orqasidan bordim, ne savdolar boshimdan o'tmadi. Hatto itlar ham mening kumimni ko'rmadi. Axiri Abdullaning zindonidan chiqib, Zeboni yana izlab keldim va unga atab tol o'smaydigan joylarda palak ekdim. Endi Zeboga bozorchilardan bir xabar yuborayin qani, meni chini bilan sevsu, bu safar ham keladi, agar sevmasa kelmaydi, Zebo kelmasa nima qilaman orqasidan sanqib ergashib yurib, yana bir sinab ko'rayin", - deb orqasidan Yoziqichqirib bir so'z aytadi.

Palak ekdim Toshbuloqning toshiga,
Ko'kartganman ko'zginamning yoshiga,
Zebojonga borib aytung, akalar,
Ko'chib kelsin palagining boshiga.

Maymanoqda turli-tuman ellar bor,
Osha ketsa egri-bugri yo'llar bor,
Zebojonga aytinq kelsin qoshima,
Sevganimga qancha intiq gullar bor.

Sadaf munchoq yarashadi to'shiga,
Mayli qo'ysin tishxolini tishiga,
Xabar berib Zebo yorim kelmasa,
Poda qo'yay palagining loshiga.

Jumur botdi necha yillar boshima,
Zebo sanam sohib bo'ldi xushima,
Agar kelsa tortib olay bovrima,
Munchoqlari mayli botsin to'shima.

Oy Zeboga toza gullar saralab,
Ko'rib qolsam xandalakdan muralab,
Yorim kelsa ushlab olay qo'lidan,
Palagiga birga-birga oralab.

Ravshan qilsin osmondag'i oylarni,
Yer yutmaydi Poyandaday boylarni,
Toshbuloqqa kelsin aytinq Zeboga,
Minib ko'rsin chapcha yegan toylnari.

Poyondaboy hech qilmadi adolat,
O'tgan ishga mayli qilay salovat,
Palagini kelib ko'rsin , akalar,
Poyandan dan o'tolmagan parizot.-

deb Yozi qolaberdi. "Ey borey", -deb boshidagi jumurini ham otib yubordi. Asl holiga qaytib, ekkan gullarni kuydirib, bulutning qabog'ini uydirib, kechki palaklarni tuydirib, qattiq toshlarga mehr bilan qarasa, toshlarni iydirib, Zeboning yo'liga qarab yotavyerdi.

Ana endi bozorchilar qishloqlariga qaytib, yo'lda ko'rgan mo'jizalarni erinmay hammaga aytib tarqatdilar. Gap og'izdan-og'izga ko'chib, Poyandaboyning qishlog'iga ham yetib keldi. Zebo bu gapni eshitib, oldingi kasali qo'zib, non yemay

goldi. Poyandaboy ham Robiya ham bu savdoning sirini tushunmadilar. Kechqurun dugonasi Zumrad kelib, voqeani Zeboden eshitib, Yozining chin oshiq ekanligiga ishonib, Zeboga: "Yozi shuncha yo'ldan kelib, Toshbuloqqa yetib, sen uchun palak eksa-yu, sen kasalman deb yotib olsang bo'lmaydi. Kel, gapni biriktirib, otingga yolg'on gapirib, Yozining palagini ko'rgani, o'zi bilan diydot qurgani Toshbuloqqa boraylik", -dedi. U ham jonlanib rozi bo'ldi. Zumrad Poyandaboya borib: "Ey ota, Zebo yana kasal bo'libdi, buning ko'nglini ko'taraylik. Ertaga tog'-toshlarni sayohat qilish orzusi bor. Xo'p desangiz dugona qizlardan to'rtta-beshtasini olib, otlanib Zeboning yuragi chigalini yozib kelaylik", -dedi. Poyandaboy rozi bo'ldi. Qizlar shu kecha Zeboning uyida o'zlarini rosa bezadilar, qiyshiq joyini tuzadilar. Ertalab sholining orqasidan kurmak ham suv ichibdi deganlariday boshqa qizlar ham Zeboning orqasidan yuvosh, egarlangan otlarga minib, qiqirdashib, shaqirdashib, pari uchganday bo'lib, Toshbuloqqa otlanib jo'nadilar.

Zebo jo'nar cho'lni bo'ston etgani,
Toshbuloq toshini sayron etgani,
Yozi yorni izlab borar to'liqsib,
Oshig'inming bag'rini qon etgani.

Yozi kutar oy Zeboga bo'lib zor,
Hur qizlarni boshlab borar zulfakdor,
Erka yurak ot chopganday uradi,
Bir-biriga qattiq bo'lgan intizor.

Satta qizlar nozlanadi ot bilan,
Mergan ovlar o'bir-do'qqi bet bilan.
Pari ko'chdi, Toshbuloqning toshiga,
Ot tengsalar ustida xom et bilan.

Oy Zeboning chiroylari ochildi,
Atrofida har xil gullar sochildi,
Yozijonga yetayin der gulbadan,
Shobiridan kiyik, jayron qochildi.

Ot haydaydi Toshbuloqning toshiga,
Sochin tuyib oldi Zebo boshiga,
Ot minmagan edi satta sanamlar,
Mo'nchok terlar tomchiladi to'shiga.

Endi qizlar borabersin, gapni Yozidan eshitting. Jumurni taylagan Yozining rangiga rang qo'shilib, zumrad kokillari bir-biriga eshilib, katta toshning soyasida "Zebo kelarmikan, holimni bilarmikan", -deb yotgan edi. Shunda gazaning bovridan gala otli yashinday yarqillab chiqdi, chang falakni tutdi. Yozi jiyron otdagi Zebo ekanini aniq bildi, Yashirinayin qani, bular nima ish qilar ekan, deb o'zini toshning panasiga oldi. Yetib kelgan qizlar chamanni ko'rib, ancha hayratlanib, gulzorni, palakpoyani tamosha qildilar. Qizlar charos boylab ochilgan gullarni tamosha etgani ot-otidan tushib, chopqilashib ketdilar. Zebo otdan tushmay, tevarak-atrofga alanglab Yozini izladi. Kela-kela Yozi ekkan qo'sh handalakning ustidan chiqib qoldi. Otdan tushib palakni kuzata boshladи. Yozi bildirmay otni yetaklab, oyog'iga tushov ipni solib qo'ydi. Sekin kelib Zeboning orqasidan kuzatib turdi. Zebo ham shobirni sezganday bir oz sergak tortdi. Shu payt Yozi Zeboning qo'lidan ushlab aytishuvniboshlab yubordi.

Yozi:

Mehr bilan chaldim sevgi sozini,
Gul anglarmi bulbulning ovozini,
Betingizdan oling yetti pardani,
Shuncha kuydirdingiz yetar Yozini,

Zebo:

Chanqoqlikda chaldim Yozi sozini,
Bilmaysizmi qiz bolaning nozini,
Salom bermay nega qo'lim ushlaysiz,
Begin farqlang odam bilan tozini.

Yozi:

Girdob joyda suv aylanib oqadi,
Yorga boqsam, yorim gulga boqadi,
Salomimni eshitmasa sevgilim,
Noz qilishi naylay menga yoqadi,

Zebo qo'lini tortib olib, palak oralab qochadi,
Otga minsam otim beli toladi,
Otning joli menga navo chaladi,
Qo'lim ushlab entikasiz, Yozijon,
Er yigitlar mendan dog'da qoladi.
Yozi Zeboni quvlab:

Qoboq o'yib yomg'irni qor etasiz,
Go'zallikdan yo'qlarni bor etasiz,
Orqangizdan ergashaman, Zebojon,
Kal Yozini qo'llamay xor etasiz.

Zebo noz bilan:

Oqqina kiyik edim ovlamaysiz,
Cho'pon bo'lib tayoqni jovlamaysiz,
Izingizdan izlab keldim, Yozijon,
Qiz qochganda izidan quvlamaysiz.

Ikkovi palakni oralab chopdi, so'ngqo'l ushlashib, tuynaklardan, handalaklardan uzib, bir-biriga marhamat qildi va yana bir-biriga bo'lgan mehrni, yuraklariga sig'dira olmay quvalashib aytishdi.

Yozi ochilib:

Nazar solsang bandi etar ko'zlarin,
Bir umirga xumor qilar so'zlarin,
Bir gapimni aytolmayman uyalib,
Aqling bo'lsa anglab olgin o'zlarin.

Zebo uyalib:

Toshbuloqqa ekkan guling ochilar,
Atrofiga marjon-marjon sochilar,
Yigit bo'lsang ishora qib gapirgin,
Sen gapirsang bahri-dilim ochilar.

Yozi xursand:

O'ttizgacha sonda ko'rgin ko'sani,
Tetik odam qo'lga olmas hassani,
Bahri-diling gar ochilsa, Zebojon,
Oy yuzingdan jo'ra qilay bo'sani.

Zebo nozlanib:

Bo'sa desang yorginam men beholman,
Alpomishday savlatiga ko'p lolman,

Ola-ola oringiz qolmadi-ku,
Bulbuli yo‘q ochilmagan gulzorman.

Yozi anglamay:
Toshbuloqqa ekkan edim ko‘p handalak,
Erka qizni chaqirtirdim bo‘ldi halak,
Barakalla bulbulsiz bu gulzoringga,
Qo‘ltig‘ingga ekibsan qo‘shandalak.

Zebo chopib gulni oralab ketadi:
Boyboboning tanasini kim haydagan,
Belida belqarsi yo‘q xas boylagan,
Qo‘sh handalak orzumming irisqisi,
Moli bo‘lmay Yozijon qiz saylagan.

Shunda Yozi yetib borib, Zeboga gul dastalaydi:
Qo‘lingizdan ushlasam tolmaysizmi,
Dardim aysam hazilga burmaysizmi,
Tanda jonim berayin mol o‘rniga,
Yuzingizdan bir o‘psam urmaysizmi?

Zebo:
Toshbuloqqning toshiga dirak kerak,
Qizlarni ushlashga ne so‘roq kerak,
Yigitman deb lof urasiz, yo‘lbarsim,
Yor bilan o‘ynamoqqa yurak kerak.

Yozi:
Qizgina so‘zing buzildi, soz qil,
Kal Yozini kuydirib noz qil,
Yurak kuyib, tenam muzlab boradi,
Kel bovrima,sovug‘imni yoz qil.

Zebo:
Tilning yo‘qdir foydasi so‘z bo‘lmasa,
Ovqat tahamga enmas tuz bo‘lmasa,
Yerga urmang sevganim qizaloqni,
Yozi qanday yashaydi qiz bo‘lmasa.

Yana quvlashib bu safar Yozi yetib olib, Zeboni mahkam quchoqladi, yetti pardani kutarib, lovillab yonib turgan qizil yonoqdan bo‘sma oldi, Zebo ham: “Yarimi naq bo‘lsin”, - deb Yozining yuzidan arang bir bo‘sma oldi. Shunda ikkovi katta atir gulning yonboshiga o‘tirdilar. Zebo Yozining tizzasiga bosh quydi. Yozi Zeboning zeboligiga qarab bir qo‘shiq aytdi.

Qiz deganing misli hurday bo‘lmasa,
Oq tishlari sadaf durday bo‘lmasa,
Qizga bergan qalinginang kuyadi,
Qoshi, ko‘zi bari birday bo‘lmasa.

Qiz deganing ochilgan gul bo‘lmasa,
Taraganda sochi sunbul bo‘lmasa,
Qizga bergan qalinginang kuyadi,
Yorni ko‘rib tili bulbul bo‘lmasa,

Siynalari tarang mushtday bo‘lmasa,
Badanlari ohu go‘shtday bo‘lmasa,
Qizga bergan qalinginang kuyadi,
Yurish-turishlari qushday bo‘lmasa.

Qiz deganning qizil guli bo‘lmasa,
G‘iybat-vo‘shaklarga xoli bo‘lmasa,
Qizga bergan qalinginang kuyadi,
O‘ng betida dona xoli bo‘lmasa.

Shunda ikkovi gulzorlarni, palakpoyalarni va Toshbuloqning past-balandochni aylandi. Aylanib-aylanib qizlarning ustidan kelib qoldi. Zumrad zehn bilan qarasa, Zebo butunlay begona yigit bilan yuribdi, qizlar qimtindi. Barcha qizlar Zeboning bu ishiga “orsiz” deb baholamoqchi bo‘lib og‘iz juftlaganlarida, Zebo qizlarga qarab: “Zumradjon Yozi pochchangni tanimadingmi, boshidagi jumurini tashlabdi. hayron bo‘Imanglar”, - dedi. Hamma qizlar Yozining husniga mahliyo bo‘ldilar. “Yoziga ko‘z tegmasin”, -deb Zebo ham yuzidan yetti pardani ko‘tarib yubordi. Qizlar Zeboning go‘zalligiga hayron qoldilar va: “Ikkoviga ham xudo husndan beribdi, tag‘in baxt ham bersin”, - deb ikkovini oraga olib o‘yin qurdilar. Kechga yaqin qizlar qaytmoq uchun otlarni hozirladilar. Yozi Zeboni ko‘zi qiymay, bir oz bo‘lsa ham tursin deb, otining bir uzangisini yashirdi. Uni topib berib, qamchisini yashirdi, qamchini ham topib berib,

Zeboning bir qo'sidagi gavhar uzugini olib qo'ydi. Zebo yolg'ondan arazlab yig'ladi. Qizlar o'rtaga tushib, uzukni ham olib berdi, Shunda qizlar jo'nadi. Yozi Zeboga, Zebo Yozi qo'shiq aytib xayrlashdilar.

Yozi.

Toshbuloqning kakligi xil boyladi,
Oy Zeboga qarab toshlar til boyladi,
Sanam qizlar qoshida tayyor bo'lib,
Bizning go'zal ketishga bel boyladi.

Zebo.

Toshbuloqning tog'ida qori bordur,
Qiz bo'lsa ham Zeboning ori bordur,
Men ketmasam qo'y maydi Yozi to'ram,
Oy yuzimning, qizlara, sho'ri bordir.

Hamma qizlar.

Zebo sanam qizlar ichra bo'y bo'libdi,
Yozi to'ra ko'p yasharib toy bo'libdi,
Toshbuloqning toshiga keling, qizlar,
Ikkoviga xo'p yarashgan joy bo'libdi.

Yozi:

Toshbuloqning soyida bir to'p chinor,
Tenasiga osilsam shoxi sinar,
Shundan kelmay ketsangiz, jonim Zebo,
Bog'ingizga qarg'a bilan quzg'un qo'nar.

Zebo.

O'n beshida oylar ham to'lgan bo'lar,
Gulga bulbul sayramasa so'lgan bo'lar,
Har narsani hayolga olmang, to'ram,
Zebo tegsa boshqaga o'lgan bo'lar.

Hamma qizlar.

Gar G'uzorga borsangiz har kunbozor,
Qarshi bilan Kitobda qirq besh guzar,

Zebo sizga qaramay ketib qolsa,
Payg'ambaru farishta bundan bezar.

Yozi.

Zebojon, kelmay ketmagil qoshima,
Shuncha savdo solding yetar boshima,
Xudoyim ikkimizni qo'shsa agar,
Bulut bo'lib joylashay oq to'shinga.

Zebo.

Sochingizni taray bo'lib taroq,
Agar tushsa qo'lingizga qilmang so'roq,
Kechalari kelsangiz Zeboni deb,
Yuragimning yog'idan yoqay chiroq.

Hamma qizlar.

Husningizga Yozi, Zebo quvonamiz,
Baxtingizni bersa xudo gul yonamiz,
Poyandaboy qilar bo'lsa gar qarshilik,
Hammamiz ham sizlar kabi devonamiz.

Alqissa qizlar xo'shlashib, otlarga qamchi bosib, kelgan tomonlariga ketdi, uyuyiga yetdi. Robiya Zeboning yuziga razm solsa, ancha oydinlashgan, ruhi tetik, ancha yengil, otdan tushib onasi bilan ko'rishi. Poyandaboy ham juda xursand. Kechqurun Zumradning dugonasi Oyo'ti hamma gapni Poyandaboya yetkazdi. Boyning ichidan zil ketdi. Ertalab baxtiga yana bir boydan Zebogasovchi keldi. Poyandaboy: "Kaldan qutilmadim qutilmadimda. Qizimniham yolg'iz deb ko'ngliga qaraganim shuncha yetar. Elu xalqning, hatto podshoning og'ziga tushganim ham meni kuydirdi. Endi sabrim chidamaydi. Qizimning qo'lidan kelsa, endi meni tosh qilsin", -deb sovchilarga rozilik bildirdi. Ertasiga: "Ham non sindirish, ham joloq qizartar, ham tushirib ketish to'yini haydab kel", -deb javob berdi.

Ertasiga gurillagan to'y boshlandi. Karnay-surnaylar tilga kirdi. Ikki boyning oldida kelin to'y nima degan gap. Och ham to'ydi, kambag'al ham sarpo kiydi. Zeboning shuncha qarshiligiga qaramay, to'y juda avjiga chiqdi. Nikoh qiyar mulla olib kelindi. Kuyov to'ralar ham intiqbo'lib, kutib yotavyerdi. Katta chashkada Poyondaboyning qishlog'inining kengish xavoriga oltita tako'pkariga chiqarilib, katta ko'pkari ham boshlanib ketdi, Bedov otlar kishnashdi, arg'umoqlar tepishdi,

chavandozlarning bilagi, yelkasi shishdi. Alqisa o'yin avjiga chiqdi. Mis baytallar ayg'ir otlarning izdan kishnayberdi. AYG'IR otlar devlar yanglig' osmonni to'ldirib kishnay berdi. Ba'zi ayg'iri kattiq otlarni qontarib, pana joylarga qoqib tashladilar. Chavandozlarning jandasi jolpillab, oyog'idagi no'g'ay etiklari torpillab, otdan-otga ovushib ko'pkariga taylayotir. Otlarning kishnashi, bir-biriga urilishi, uzangilarning shaqirdashi, chavandozlarning baqiriq-chaqiriqlari, taka taylanib, otlarning taka ustiga do'nishlari, qo'raning o'rtasidan issiq suv qo'yilganday bug' va chang ko'tarilishi qiziqarli ko'rinoqda edi. Katta ko'pkarida Kirshaklik Panji chavandoz zotning yarimiga egalik qilib, barcha chavandozlarga bosimlik qilmoqda.

Panji haydar otini,
Qarang siyosatini,
Devlarni lol qiladi,
Maqtasang g'ayratini.

Qo'ralarni oralab,
Ot tuyog'in yaralab,
Katta zotni ayirar,
Yaxshisidan saralab.

Hay-haylashib nechalar,
Toy minishgan bachalar,
Taka desa taylaydi,
Janda kiygan qanchalar.

Ot boradi pishirib,
Bir-birini qichqirib,
Chavondozlar takani,
Qo'ymay tortar ishqirib.

Chang osmonga o'rladi,
Oq otlarni to'rladi,
Otni boqqan sayislari,
Chavandozni zo'rladi.

Har urug'ning zo'rlarin,
Qo'llab eshon-pirlari,

Sho'ng'ib taylor qo'raga,
Elning aydaharlari.

Ot chopar dasta-dasta,
Qamchilar chaparasta,
Zo'rlari zot oladi,
Ko'zni ochmay bir pastda.

Bekavuli baqirar,
Xo'rijinchini chaqirar,
Bir-biridan tulporlar,
Qo'sh oyoqlab hayqirar.

Maymanoq ham ko'p ovul,
O'yinda bo'lar dovul,
Gohida "Halol" deydi,
Ot choptirib bekovul.

Har gazada qo'shxona,
Qo'shga sayis parvona,
Goh sovutib otlarni,
Yana haydar mardona.

Nechov beti tilinib,
Qancha homchi bilinib,
Chavandozlar ot haydar,
Or-nomusga bo'linib.

Surdov kelar gurillab,
Toychi qochar chirillab,
Necha cholning sallasi,
Tushib qolar girillab.

Ot jilovin qayirib,
Chetkir kelsa uyirib,
Xursand bo'lar kelganlar,
Qo'zi, uloq ayirib.

Endi otlar shaylandi,
Bellar mahkam boylandi,
Ayni chashgoh vaqtida,
To'y egasi taylandi.

Ikki ko'zi besh uloq,
Uchta tana bir bo'lak,
Bosh zotiga tir tuyu,
Chavandozlar, bo'lhalak.

Deb taylaydi zotini,
Qo'shib bitta otini,
Qichqiradi bakovul.
Qopday qilib urtini.

Panji mindi Samanni,
Tashlab boshqa yomonni,
Qo'raga kirib bordi,
Bir tarqatib tumanni.

Takani tovib oldi,
Egarga sovib oldi,
Hay-haylab jo'nab ketdi,
Ayirib quvib oldi.

Alqissa to'y egasini kimsan kirshaklik Panji chopog'on ayirdi deb shov-shuv bo'ldi. To'y egasining zotiga sheriklar ko'paydi. "Men otingni qayirdim", "Men julovidan ushladim", "Otinga qamchi urdim", "Yerdan ko'targaniningda men ham ko'tarishdim", - deb Panji chopog'onni o'rtaga oldilar. Panji ham bari bilan ozmi-ko'pmi sobiqa qilibtinchita berdi. Yana qaytadan ko'pkariga taqa taylayvyerdi. Xullas,shunday qilibbu o'yin qizigandan qizib ketaverdi.

Ana endi gapni Yozidan eshititing. Qizlarga qo'shib Zeboni jo'natib, kayfi choqbo'lib, gullarni kechgacha parvarish qildi. Shu kecha yotib, erta bilan palaklarni oralab yursa, Poyandaboyning bahorgi yurtida ko'rgan va Yoziga yo'l ko'rsatib maslahat bergen bobosi kelayapti. O'ng qo'lida o'zining bulbuli sayrayapti. Shunda Yozi chopib borib, boboga salom berdi. Salom-alikdan keyin bobo: "Yozijon yur, Poyandaboynikida bugun katta to'y bo'layapti", - dedi. Yozi : "Bobojon qanday to'y,

yoki boy payg'ambar yoshi berayaptima? Kechadan beri o'ng ko'zim va chap yelkam uchayotgan edi. Yaxshilikka bo'lsin", - dedi.

-Shunda bobo: "Hali xabarling yo'qma. Poyandaboy Zeboni senga berib, elga osh-non berayapti, yur ertaroq boraylik", -deb Yozini olib, Poyandaboyning qishlog'iga jo'nadi, Bulbul esa osmoni-falakka ko'tarildi.

Ana endi gapni Zebodan eshititing. Qizlar Zeboni kiyintiraylik deb, o'rim sochini tarqatmoqchi bo'lib, issiq joyi, uyga boshladi.

Qizlar ko'nglin xushlashib,
Oy Zeboni ushslashib,
Bo'lak uyga boshlashib,
Ro'molini tishlashib.

Zebo esa yig'laydi,
Nozik qalbin dog'laydi,
Yozi kalga qayg'urib,
Bog'in mahkam bog'laydi.

Qizlar esa qaytmadi,
To'xtang deb ham aytmadni,
Sovuq suvni ilitib,
Issiqni ko'paytmadi.

Tinglab tilaklarini,
Ushlab bilaklarini,
Oy Zeboni yig'latib,
Yechdi ko'ylaklarini,

Qizlaroyday to'ldilar,
Qiqirdashib kuldilar,
Oy Zeboni yig'latib,
Tog'oraga soldilar.

Aziz qilib jonini,
Lorsillatib sonini,
Suvga pishib sanamlar,
Gulday qildi tanini.

Sochin yuvib taradi,
Gul sochiqqa o‘radi,
Oy Zeboning jamoli,
Kundai to‘lib boradi.

Aldab qoboq, uydirdi,
Aziz joyin suydirdi,
Oq badanga avaylab,
Ichki ko‘ylak kiyirdi.

Qizlar qizni shayladi,
Sochin gul qib joyladi,
Lozimani kiydirib,
Bovin mahkam boyladi.

Bo‘g‘jomani ochdilar,
Bor ko‘ylakni sochdilar.
Xon atlasni tanlashib,
Zebojoni quchdilar.

Oy Zeboga boqdilar,
Marjon sirg‘a taqdilar,
Vaskachani kiydirib,
Belin mahkam siqdilar.

Kam-ko‘stini bitkazdi,
Qizni gulga yetkazdi,
Hapamatni bo‘yniga,
Taylab tuyma o‘tkazdi.

Yelkasiga qoqdilar,
Nima kam deb boqdilar,
Past deyishib ko‘krakni,
Qo‘shib paxta tiqdilar,

O‘tib ketar bu choqlar,
Kuyib o‘tadi toqlar,

Bir shaharga teng bo‘lgan,
O‘tkazildi munchoqlar.

Yor-yor qo‘sish quylandi,
Zeboyni aylandi,
Bilaguzik oltindan,
Oq bilakka taylandi.

Kam joyini o‘stirdi,
Uzun joyni kestirdi,
Vaskachaning ustidan,
Oq ko‘ylakni bostirdi.


Sochin yerga tiydirdi,
Turmayman deb kuydirdi,
Zumrad sochning ustidan,
Qasobani kiydirdi.

Ro‘mol tushdi hilpillab,
Har bir uchi jimillab,
Qirmiz jelak kiyganda,
Jengi qoldi qimillab.

Yig‘ishtirib uyatni,
Kuylab orzu niyatni,
Olib kelib tutatdi,
Qarang hazasumatni.

Kam joyini qo‘ymadi,
Qizlar qoboq uymadi.
Zebo bo‘ldi kelinchak,
Uzun sochni tuymadi.

Tur deyishib tuzuklar,
Ichi kuyib buzuqlar,
Oy Zeboga yarashdi,
Nuqra marjon uzuklar.



Shu tarzda, qizlar oy Zeboni gulday qilib kiyintirdilar. Oy Zebo ham dunyoning qimmatiga teng bo‘lgan kelinchak bo‘ldi. Lekin xayoldan Yozi bir qadam ham nari ketmadi. “Endi nima qilsam ekan, zahar ichib o‘lsammi, yo bo‘lmasa o‘zimga pichoq ursammi, yoki bo‘lmasa eshikka otlib chiqib, dunyodan kechib, Yozijonimni izlab ketsammi?”, -deb turgan paytda uyning darchasiga kelib o‘zlarining bulbuli qo‘ndi va to‘xtovsiz, mungli sayray boshladi. Zebo buni tushunib, qizlarni silkib tashlab, tunovi kiygan kiyimlarini kelin libosining ustidan kiyib, sochini boshiga jiyib, bulbulni suyib: “Kel, endi o‘lsam, Yozining yo‘lida o‘layin”, - deb tashqariga chiqdi. Hamma ko‘pkarida, qishloqda faqat xotin-qizlar qolgan. Zebo bora solib egarlovli turgan To‘ri qashqani minib, bulbuluchgan tomonga jo‘nay berdi. Onasi Robiya: “Bolam senga yo‘l bo‘lsin”, -deganda, Zebo: “Onajon bergen oq sutingga rozi bo‘l, men kuyoving bilan bir daqiqa ham yashay olmayman. Agar meni desang xafa bo‘lma, hozir ko‘pkariga borib kuyoving bilan uloq tortishaman”, - deb otga qamchi bosdi. Ko‘pkariga Yozi keldimikan, deb Zebo otlanib, ko‘pkarini aylanib hech kimga bildirmay yura berdi.

Yozi Poyandaboy ko‘pkarisining ustidan kelib qoldi. Gap nimadaligini sezgan Yozi qiz-juvonlar ichidan Zeboni qaray boshladi. Qabotida na bulbul bor, na bobosi bor. Ketib qolibdi. Tevarakka alanglab, Zeboni qarayotgan edi, chekkada bir otliqning sarson bo‘lib yurganini ko‘rdi va shu tomonga yurdi. Qarasa Zebo otlanib yuribdi. Kimning kim bilan ishi bor. Hamma ko‘pkarida uloq bilan ovvora. Ikkovi imlashib odamlardan panaga o‘tdilar. Hamma gapni eshitgan YOzi Zeboga qarab ko‘nglingda qanday gaping bor deganda, Zebo: “Siz mardona, avval gapni siz boshlang. Erkak ulug‘ bo‘ladi, xotinlar uchun er yarim pir hisoblanadi”, - dedi dadillik bilan. “Agar meni desang yur endi ketaylik bu joylardan. Otang bari bir seni menga bermaydi. Otni ham tashla. Otang Yozi mening qizimdan ko‘ra mol-dunyomga oshiq edi, demasin. Otni boylayin, qamchisini qoshiga taylayin”, - deb, aytganini qilib, Zeboning qo‘lidan ushlab, Xo‘jamarmar tog‘iga qarab qochib jo‘nadi. Yuraklarida bir-biriga bo‘lgan muhabbat darmonlariga darmon qo‘shti. Charchashni bilmay Xo‘jamarmar tog‘iga yetdi.

Zeboning izidan ko‘pkariga chopib kelgan Robiya erini topib: “Bolamdan ayrilib qoldim”, - deb so‘ylayotgan joyi.

Mergan yurar tov betida betlanib,
Sigir turar emchaklari sutlanib,
Men yig‘layman yolg‘izimdan ayrildim,
Zebo chiqdi hozir uydan otlanib.

Chilla kelsa tog‘lar boshi bo‘ktar qor,
G‘arib odam dod deb yig‘lar zoru-zor,

Yolg‘iz qizim naylay mendan ayirding,
O‘lganimcha men bo‘laman intizor.

Ota bo‘lib otga qamchi ursangiz,
Kuyov bilan tog‘lar osha yursangiz,
Yolg‘izimdan qolmayinda armonda,
Ikkovlashib qizim topib bersangiz.

Qudalarning tashlagani zarmidi,
Qaliniga sakkiz tuyu normidi,
Qayga borarini naylay aytmadni,
Ko‘pkarida Yozi kal ham bormidi.

Tez-tez bo‘ling o‘tirmsandan mung‘ayib,
Zebo ketsa vatan qolar besoyib,
El ichida yurgilim qolmadi,
Xudoyimning o‘zi faqat beayib.

Kecha demay, kunduz demay choppinglar,
Oy Zeboni kechiktirmay topinglar,
Ushlab olib kal Yozini, kuyovjon,
Ayamayin to‘g‘ri kelsa choppinglar.

Poyandaning ham, qudalarning ham rangida qon qolmadi, kim ko‘ringandan so‘rab-surishtira boshladi. Ko‘rdim ham yo‘q, bildim ham yo‘q. Shunda bir keksa kishi: “Bundan bir pasil oldin bir go‘zal yigit Toshbuloq tomondan oshib keldi. Ko‘pkarida yurgan yosh yigit bilan topishdi. Birozdan keyin Jarko‘chgandan normon oshdi. Lekin hali qaytgani yo‘q. Mening bilganim shul”, - dedi. Hamma chopqilab Jarko‘chganning sirtiga chopib borsa, To‘ri qashqa arqonli turibdi. Egariga qamchisi ham ilingan. Poyandaboy otni darhol tanidi va voqeani tushundi. Hamma chor tarafga qarab ketdi. Poyandaboy qudalardan kuchlirog‘ini va kuyovni jo‘ralari bilan olib, hammasiga har xil tayoq berib, Xo‘jamarmar tog‘iga jo‘nadi. Alqisa Poyandaboy Xo‘jamarmar tog‘iga yetib borib, yigitlarga buyurayotgan joyi.

Bu tog‘larning daralari salqin joy,
Suruv-suruv qo‘y haydayber poyma-poy,
Tirik kuyov yorin kalga berama,
Zebo uchun sotgin joningni, kuyov.

Kal Yozini ushlab olsang mayda qil,
Qo'lin tovda, kallaxumin soyda qil,
Men ham ko'rsam tandan julay boshini.
Keyin hunaringni, kuyov, to'yda qil.

Ushlab olib ayamanglar Yozini,
Qoziq bilan o'yib ongalar ko'zini,
Qochoqlarga shunday bo'lsin ibirat,
Harsang toshga mahkam qiling yuzini.

Tenasini uloq qilib chopinglar,
Yelkasiga achchiq-achchiq tepinglar,
Uchasisiga qamchi bilan savalab,
Yorig'iga nordon tuzdan sepinglar.

Kuyov bo'lsang quloq solgin so'zima,
Ikki dunyo ko'rinxaydi ko'zima,
Nima qilsang qilabergin Yozini,
Bir misqol ham tegimanglar qizima.

Alqissa kuyovlar har bir zovlarni, shiramlarni va qatlarni birinma-birin qaray boshladi. Poyandaboy ham qo'lida qamchisi bilan ot yuradigan joylardan yurib, izlay-izlay ketaverdi. Yozi bilan Zebo shu qochishda qochib, Xo'jamarmar tog'iga yetib kelib, bir g'orga duch bo'ldi. Lekin chiqib ketish joyini hech topolmadi. Shu payt haligi bobosi va sayroqi bulbul hozir bo'ldi. Shunda bulbul bir shaylanib Zebodan ham o'n chandon ortiq dilbar qizga aylandi. Shunda haligi qiz Yozi bilan Zeboga qarab: "Chin sevgi va chin muhabbatni odamlarga singdira olmadim. Sizlarni shuncha sarson qilgan ham men edim. Endi meni kechiringlar", -deb bir qo'shiq aytidi.

Farishta-yu malikalar jam bo'ldi,
Quloq solgin, Yozi bilan Zebojon,
Ishni boshlab ahvolganam tang bo'ldi,
Tinglab eshit, Yozi bilan Zebojon.

Tushlaringda bir-biringni suydirdim,
Yozijonga gul qalpog'ing kiydirdim.
Oy Zeboning sochin yerga tiydirdim,
Zehningni sol, Yozi bilan Zebojon.

Chin sevgida Yozi qurding imorat,
Zebo sendan qizlar olsin ibirat,
Hayot ekan chalkashlikdan iborat,
Mangu qolding, Yozi bilan Zebojon.

Zebo, sening ruhing otay qizlarga,
Yozi, sening mehriq otay ko'zlarga,
Necha asr qo'shiq bo'lsin izlaring,
Qo'shiq bo'lding, Yozi bilan Zebojon.

Gullar o'sib sizlar kabi sochilsin.
Yaproqlari, Yozijon, deb ochilsin,
Har bir guli Zebo bo'lib osilsin,
Gul bo'ldinglar, Yozi bilan Zebojon.

Sevganlarning yuragida bo'linglar,
Baxshilarning ko'kragini bo'linglar,
So'zlaganda tilagida bo'linglar,
Doston bo'lgan, Yozi bilan Zebojon.

Sizlar bilan doim bo'ldim barobar,
Endi ketay tog'u-toshga darbadar,
Sizlar uchun duo: Ollohu akbar,
Boqiy bo'nglar, Yozi bilan Zebojon,

Shunday deb haligi qush qiz Yozi bilan Zeboni bag'riga bosdi. Ikkovini ham mehr bilan peshonasini siladi, balki qalbidan yig'ladi. Ikkovining yuzidan o'pib, yerga yotib bulbulga aylandi. Keyin shunday chinqirib sayradiki, hatto toshlar ham, archalar ham suv bo'lib eridi. Bulbul yana bularni bir marta aylanib osmonga ko'tarildi va ko'zga ko'rinxaydi. Ulardan berida Poyandaboy ot bilan g'orning ustidan kelib qoldi. Qarasa uch kishi: birovi keksa chol, birovi Zebo va unisi Yozi. Poyandaboy Yozini bu ahvolda ko'rmagan edi. Qiyoq qildi qizi Zebodan Yozi o'n barobar ortiq go'zal. Nima deyarini bilmay, tilini tishlab, hangu-mang bo'lib, ikkoviga tiklab qotib qoldi. Shu payt to'satdan kuchli chinqiriq eshitildi va Xo'jamarmar tog'ini zulmat qopladidi.

Karvon yursa Xo'jamarmar yo'l endi,
Harsang toshlar bo'shab ketib tilindi,
Yolg'onchida kun ko'rmadi ikki yosh,
Poyandaning ahmoqligi bilindi.

Zebo uchun Yozi shunqor zorladi,
Muhabbatdan so'm yuragi porladi,
Yolg'onchida kun bermaydi Poyan deb,
Sahobalar chin dunyoga chorladi.

Yig'lay-yig'lay xumor ko'zlar ko'r bo'ldi,
Yolg'onchida peshonalar sho'r bo'ldi,
Malaykalar quchog'iga olganda,
Yozi Zebo kun tiymagan hur bo'ldi.

Sevganlarga bironqa jon kuymadi,
Sarson ular bir-biriga to'ymadi,
Yomon bilan ahmoq sig'ib dunyoga,
Sevishganlar bu dunyoga siymadi.

Kim ishonar yolg'onching sha'niga,
Yozi sho'rni bo'yar sevgi joniga,
Ikkovini nur qildida xudoyim,
Sochaberdi sevishganlar qoniga.

Nur qib sochib keng olamni to'ldirdi,
Gul o'stirib bulbullarni kuldirdi,
Yolg'onchida Yozi bilan Zabodan,
Sadoqatni, e'tiqodni qoldirdi,

Bunday nurga qora gullar g'ubordi,
Suv ilonlar suvdan chiqib chibordi,
Ishqni olib Yozi bilan Zebodan,
Yigit-qizning yuragiga yubordi.

Yomon qursin yo'ldoshini allaydi,
Dona odam savob tovib gullaydi,

Xudoyimdan quvvat tilab ikki yosh,
Yolg'onchida sevganlarni qo'llaydi.

Ayg'ir otlar o'rli-qirli chopilar,
Sernav kelsa qayroq toshlar tepilar,
Suluv qizlar sevgisidan Zebojon,
Yigit sevsu undan Yozi topilar.

Ot boylangssovimoqa urinar,
Shapoq otlar nur tiyganda surinar,
Yozi bilan oy Zeboni qarasang,
Sevishganlar yuragida ko'rinar.

Bir daqiqadan keyin olam yana munavvar bo'ldi. Poyondaboy ko'zini ochib qarasa, g'orda hech kim yo'q. Faqat boyagi chol Poyondaboyning qoshidan qo'shiq aytib o'tib ketaverdi.

Ikki yaxshi qo'shilsa,
Farzand qolar zot qolar.
Ikki yomon qo'shilsa,
Irillagan it qolar.

Yomon bo'lsa xotining,
Kiyimingda pit qolar.
Yalqov bo'lsa olganing,
Kadi-kadi sut qolar.

Yomon kelsa bahoring,
Soylar to'lib put qolar.
Pismiq bo'lsa hamsoya,
Yuragida xit qolar.

Chaqqon bo'lsa cho'ponlar,
Oriq qo'yda et qolar.
Ikki g'anim urushsa,
Bir-biriga zit qolar.

Qushlar uchsa qiyodan,
Uchgan joyda pat qolar.
Lochin qushlar ketadi,
Qo'zg'almasdan qat qolar.

Yozi bilan Zeboden,
Ming asrlab ot qolar.
Poyandaday boylardan,
O'gunicha dod qolar...

Poyandaboy yugurib: "To'xtang bobo, Zebo bilan Yozi qani?", - desa, chol allaqachon g'oyib bo'libdi. Poyandaboy o'zining gumroh insonligini, farosatining yo'qligini, yolg'iz qizi va bir kimsaning farzandiga shuncha jabr qilganligini anglab, Abdullaning nayrangiga uchganligini, sevgi-muhabbatni paymon qilganligini bilib, dunyo tamom bo'lgunicha yomon otliqqa chiqqanligini anglab, peshonasini toshlarga urdi. Ikki yoshning sevgisidan mol-dunyoni ustun qo'yib, adashganini bilib, soqollarini yuldi, bag'rini zardob bilan tildi. G'orga yetib borib, ikki yoshning bosgan joylarini ko'ziga surtdi. Boshidagi sallani bir tomonga, beldagi hamiyonni bir tomonga otdi. G'orning og'zini poylab bir hafta yotdi. Yozi va Zeboni zoriqib kutdi. Oqibat kelmagandan keyin oxirgi pushaymon, o'zinga dushman, deb qo'liga zarang tayoqni olib, boshi oqqan tomonga ketdi. Balki jonini tog'u-toshlar ichida sotdi.

Shu bilan sevgi dostoni ham tamom bo'libdi. Necha sevishganlar ketib, necha sevishganlar kelibdi. Lekin chin sevishganlarga "Yozi bilan Zebo" dostoni orqali yigitlarning yuragiga Yozi mehri, qizlarning yuragiga Zeboning sadoqati bilan madat solibdi, Qahhor baxshiyam dostoniga shunday xulosa qilibdi.

Qodir baxshi, do'stlar, otam-ustozim,
Yonboshida charxlangandir ovozim.
Ham padarim, ham rahnama elima,
Qolgan ishlariga chorlaydi sozim.

"Yozi-Zebo" dostonin ham kuylardi,
Sevishganlar taqdirini o'yldari.
El ichida kuylab kecha, saharlar,
Eldan-elga ma'no qo'shib joylardi.

Bu dostonni aytib elni shoshirdi,
Sevishganlar qismatidan jo'sh urdi.

O'zbek elda Yozi bilan Zeboning,
Qadrini, qiymatini oshirdi.

Qarang, endi ustozimning ishiga,
Yozi-Zebo kelaverib hushiga.
Chala qoldik, to'ldiring deb, Yozijon,
Yig'lab kirgan ekan otam tushiga.

Ikki yoshning oh-vohini g'amladn,
Ustozidan eishtganin jamladi.
"Yozi-Zyebo" dostonini aytarkan,
Rozi bo'larmikan deb ko'z namladn.

Abdiolnm, yozaylnk deb qo'ymadn.
Qancha aytса eli tinglab to'ymadi,
Goho-goho sahar turib aytardi,
Oy Zeboning ko'z nuriga kuymadn.

Charchaganda goh do'mbira chalardn,
Shodon bo'lsa, uni kuya solardi
Takdirimiz, attang, nnma bo'lar, deb,
Tushlarnda Yozi xabar olardi.

Dono odam elda bo'lar mo''tabar,
Axmoqlarning shon-shuhrati muxtasar.
Yozi bilan Zebo kuylar berilib,
Baxshisiga hech kim qilmas e'tibor.

Aytabersam qora kunlar o'tgandir,
Ikki oshiq ustozga jon sotgandir,
Qadringiz bilmas hech kim, baxshim, deb,
Ikkalasi zo'rim olib ketgandir,

O'z dostonin tinglamoqchi eshilnb,
Shoh bo'lmoqchi g'am pardasi teshilib.
Aytganlari chala qolib izida,
Beixtiyor baxshi ketli qo'shnlib,

Shundan beri Yoei qaytib kelmadi,
Ustozimnnng niyatlar bo‘lmadi.
Bu dostonni tugatolmay, Ergashev,
Kim aytar deb o‘ynamadi kulmadi,

Qodir baxshi co‘z joyladi dilima,
Bir xudoyim quvvat berdi belima.
Yozganlarin olib kelib Ergashev,
Ayt ukam. deb, quloq tutdi tilima.

Yaxshi chiqsa otagini shod bo‘lar,
Yozijonga tayoq bersam ot bo‘lar,
Bo‘lganicha aytib berdim, yoronlar,
Yomon aystsam sevishganlar xit bo‘lar.

Bu doston ham ajdoddardai xotira,
O‘qiganlar ko‘ngln bo‘imasii xira.
Aytganlaru yozganlarga duo deng,
Boshingizdan sog‘lik ketmasii sira.

Shundan beri Yoei qaytib kelmadi,
Ustozimnnng niyatlar bo‘lmadi.
Bu dostonni tugatolmay, Ergashev,
Kim aytar deb o‘ynamadi kulmadi,

Qodir baxshi co‘z joyladi dilima,
Bir xudoyim quvvat berdi belima.
Yozganlarin olib kelib Ergashev,
Ayt ukam. deb, quloq tutdi tilima.

Yaxshi chiqsa otagini shod bo‘lar,
Yozijonga tayoq bersam ot bo‘lar,
Bo‘lganicha aytib berdim, yoronlar,
Yomon aystsam sevishganlar xit bo‘lar.

Bu doston ham ajdoddardai xotira,
O‘qiganlar ko‘ngln bo‘imasii xira.
Aytganlaru yozganlarga duo deng,
Boshingizdan sog‘lik ketmasii sira.

Jahon pahlovoni

(majoziy doston)

Qadim o'tgan zamonda biz yashagan makonda, azob berib ko'p jonga, yalmog'iz bo'b imonga, bir Qora dev yasharkan. Yer talab, tovni talab yer ekan, daryolarni bir boshidan icharkan, kunma-kun nafsi osharkan, kunda qahrin socharkan, uning oldida ayyor va mastonlar, qancha yalmog'izlar, yana xizmatkorlar bor ekan, o'z kayfin surar ekan, qaddini urar ekan, yaxshilikni bilmas ekan, yomonlikdan qolmas ekan, qorong'uga hamroh ekan, yorug'likni dushmani ekan, ovullarni talar ekan, odamlar zulmidan yig'lar ekan, kechani kecha demas, kunduzni kunduz demas, odamlarni ezar ekan, hamma undan bezor ekan. Shunday qilib Qora dev qilmishidan kayfi choq bo'lib yotbedi, bir tush ko'rdi. Tushida ariqlardagi suvlar toshayotgan emish, dalalar gullab, daraxtlar o'sib borayotgan mish, odamlar shodlikdan qiyqirib o'ynayotgan mish, bir bola ularga baxt berayotgan mish. Dev tushidan g'uldirab baqirdi, odamlarini chaqirdi. Bir pasda odamlari keldi, qavog'i tovning qoyasiday uyulib, ko'ziga qon quyilib, qulqlari dikkayib, har tishi ovzida terakday zinkayib, labi tushib shalpayib, o'zining odamlariga qarab tushini bayon qilayotgan joyi:

Bugun kecha yotib men bir tush ko'rdim,
Bu tushimdan ko'zlarimda yosh ko'rdim,
O'tirgan mastonlar xabar beringlar,
Gulday bo'b o'sayotgan tosh ko'rdim.

Bu tushimdan bo'ldim o'zim hayrona,
Boz ustiga ko'nglim bo'ldi vayrona,
O'tirgan ayyorlar xabar beringlar,
Gulga to'lib borar emish har yona.

Do'sti kelib dushmanliklar yig'ladi,
Ozodlik keldiyu kulfat quladi,
Bu narsalar meni hayron qoldirdi,
Yuragimni parra-parra tiladi.

Quyosh chiqib yorug' bo'ldi har tomon,
Elu yurt dashlarda bo'ladi shodon,
Buni ko'rib o'pkam to'lib boradi,
Bilasiz bu narsa menga ko'p yomon.

Daraxtlar o'sarmish tog'larda lola,
Gumburdap qulabdi bu eski qual'a,

Bir chertsam jahondan yo'qolib ketar,
Odamlarga baxt berarmish bir bola.

Bu tushimdi menga qilinglar bayon,
Qahrimdi sochaman bugun har tomon,
Folbinlarim, kitoblarni ko'ringlar,
Endi insonlarga bermayman omon.

Alqissa, qancha ayyor, qancha maston, qancha mirg'azabu jallod yig'ilgan, hammasi har xil gapirayotir, bir bunday desa, ikkinchisi unday deyotir. Shu mastonlarning ichida Olong'ir degan maston bor edi, Yoshi anchaga brogan edi, nafsi juda yomon edi, o'z ko'nglini xushlar edi, bir tangaga o'zini tomdan tashlar edi, ber desa qochar edi, ol desa yugurar edi, oti Olong'ir edi, o'ziyam uncha-buncha bilang'ir edi, Qora devning bir yonida indamay turgan edi. Qora dev g'uldirab-shaldirab: "Qani Olang'ir, sen gapir, rostingni ayt, mening tushimdi jo'rab ber, bu nima ekan?", dedi. Shunda Olang'ir yo deb ko'zini ochib, kitobini qo'liga olib, avval kitobiga hiyli qarab, rostini aytayinma deb so'rab, Qora devning tushini jo'rab bir so'z aytibdi:

Mayli aytay rostini,
Keching qoshiq qonimdan,
Achchig'ingiz kelmasin,
Qutulmayin jonimdan.

Kecha ko'rgan tushingiz,
Ey sultonim, rost ekan,
Kuyarkanmiz barchamiz,
Bu bolaning dastidan.

Hozir o'zi chaqaloq,
Turolmaydi joyidan,
Kambag'allar, dehqonlar,
Aylanarkan bo'yidan.

Onasi kim bilmayman,
Ko'rsatmadi kitobim,
Otasini izlasam,
Qochib boradi tobim.

Lekin yo'qchil odamlar,
Bir-bir ko'rib ketarkan,
Xursand bo'lgandan so'ngra,
Telpagini otarkan.

Hamma dehqonlar borib,
Boshin silar ekanlar,
Kamchiligi ne bo'lsa,
Topib berar ekanlar.

Hali o'zi chaqaloq,
Gohi turkab ketarkan,
Ushlasa daraxtni,
Birda silkib otarkan.

To'xta desa suvlar ham,
Taqqa taqqa to'xtarkan,
Qaysi yo'lni ko'rsatsa,
Shu tomonga oqarkan.

Kelgin desa tog'lar ham,
Yurib kelar ekanlar,
Gul bo'lib ketar ekan,
Qo'li tiysa tikanlar.

Otibaxt deb odamlar,
Unga ism qo'yibdi,
Bari uning o'zini,
Baxtimiz deb suyibdi.

Tilsimlangan yetti so'z,
Qo'shilip ot bo'libdi,
Otin qo'ygan oqshomi,
Oy osmondan kelibdi.

Osmondag'i quyosh ham,
Nurdan ko'rpa to'sharkan,

Yer ko'tarib bag'riga,
Yuzlaridan o'parkan.

Ismining boshi "O" dir,
U ozodlik degani,
Undan keyin kelar "T",
Tinchlik bo'lsin degani.

Undan keyin kela "I"
O'zaro izzat hurmat,
"B" harfi birlik ekan,
Birodarlik ham odat.

"A"si esa abadiy,
"X" xursand bo'lib yashamoq,
Oxirgi "T" tenglikdir,
Tenglikda xalq yashamoq.

Bu so'zlarni bilasiz,
Kesib bo'lmas tilsimot,
Bo'ladigan o'xshaydi,
Ey sultonim qiyomat.

Soat sayin u bola,
Tez-tez o'sib boradi,
Shu bola odamlarga,
Kattarsa baxt beradi.

G'ulduradi Qora dev,
Sholdiradi Qora dev,
Momaqaldiroqday bo'b,
Guldiradi Qora dev.

To'xtat, bas qil so'zingdi,
Emassanku o'zing ko'r,
Bolaning ayt joyini,
Qaydaligin aytib ber.

Men uchib borib uni,
Boshini maydalayin,
Kesolmasa qilichim,
Bug'ib yerga taylayin.

Unday narsa kelmagan,
Bundan keyin kelmaydi,
Insonga hech bir baxtni,
Tiri tursam bermaydi.

Baxt beratgan qo'lini,
Burda-burda qilayin,
So'ng xoxolab ustidan,
Qanot qoqib kulayin.

Tilsimotli so'zlarni,
Aslo aytib bo'lmaydi,
Endi aytса bu so'zni,
Aslo darmon qolmaydi.

Osmondagi oylar ham,
Kelar emish qoshiga,
Keb unga ta'zim qilsa,
Kulfat solgay boshiga.

Olg'ir joyin ayt menga,
Men ertaroq borayin
Oyoqtirab ko'ksiga,
So'ng xoxolab kulayin.

Olg'ir mana kitobni,
Yana qo'lga olgandi,
Hayron bo'lib ko'zları,
Shaqshayishdan qolgandi.

Endi aytgan savoli,
Qiynar deydi jonimdi,

Ey sultonim aytayin,
Keching qoshiq qonimdi.

Aytar edim avvaldan,
Bilganda qayda joyi
Menday sho'rni sultonim,
O'zingizni panoyi.

G'arbu sharqqa qarayman,
Ko'rinadi Otibaxt,
Janub bilan shimolda,
Ko'rinadi bo'lib naqd.

Yer ostiga qarasam,
Undan ham ko'rinadi,
Tikka osmonga boqsam,
Shundan ham ko'rinadi.

Men qayoqqa qaramay,
Mana men deb turadi,
O'zi hali yoshgina,
Har tomonga yuradi.

Aytolmay qoldim endi,
Oldingizda gunohkor,
Menday baxti qaroga,
O'zingizda ixtiyor.

Bu gaplarni eshitib, Qora devning achchig'i kelib, Olg'irning qulqlaridan olib, kallasiga bir chertdi. Olg'ir tizzasigacha yerga botdi, uch kun esi ketdi, qulqlari chippa bitdi, bilmay qoldi har qanday isi duddi. O'lmasayam o'lganday bo'lib, yana ustiga olti kun yotdi. Qora devning achchig'i kelib, ikki ko'zi lovillab yonib, tishlaganda qoziqday tishlari bir-birini yorib, tili qonni qorib, oh deganiga daryolar qurib, o'tirgan joylari zarbidan chirib, sochlari tikka bo'lib, olti botmon telpagini ko'tarib, bir xil qiliqlari bir qarich teshib, qahri qattiq kelib, qahriga saroylar muzlab, o'tirganlarga qarab: "Endigi maslahat nima? Nima qilsak Otibaxtni topamiz, tilsimni yechamiz, Boshini kesib, go'shlarini sochamiz"-dedi. Shunda Ofat degan xizmatkori joyidan

turdi. Qora devning o'ng tomonida Oolangir tursa, chap yonda Ofat turar edi. Ofat ham ko'p hiylalarni bilar edi. U juda darg'azab edi, yuragi toshdan edi, rahm-shafqatdan qochar edi, ko'chadan bir o'tsa shu ko'chadan olti kun g'am-kulfat ketmas edi. Shu Ofat joyidan turib, kallasini qashib: "Myenda bir maslahat bor, xo'p desangiz aytayin", dedi. "Ayt", -dedi Qora dev. Shunda Ofat bir so'z aytib turgani:

Otibaxtning o'zini,
Aslo topib bo'lmaydi,
Qancha axtargan bilan,
Mana men deb kelmaydi.

Yashiradi odamlar,
Ko'rsatmaydi bizlarga,
Aslo ular uchmaydi,
Aytgan shirin so'zlarga.

Odamlarning o'ziga,
Top deb farmon beraylik,
Ko'rganim yo'q deganni,
O'lgunicha uraylik.

Topib bermaganlarning,
Borin tortib olaylik,
Bolalarin sag'ir qib,
Molday qilib haydaylik.

Uning biror harfini,
Aytganni sog' qo'yaylik,
Elga ko'rsatib uni,
Xalq ichida osaylik.

Ko'rdim deganlarini,
Top deb ko'zin o'yaylik,
Uning yo'lin kim to'ssa,
Molday qilib so'yaylik.

Topib bergenlariga,
Oltin vada qilaylik,
Tog'lar daryolardan ham,
Ko'rdingmi deb so'raylik.

Shu yerda deb eshitsak,
Birdan olib boraylik,
Yong'inda o'lib ketsin,
So'ng shod bo'lib kulaylik.

Ey sultonim mayliga,
Farmon bering o'zimga,
Bo'ynida ipin solib,
Sudrayin izimga.

Qachon ushlasam uni,
Bog'lab olib kelayin,
Farmoningiz ne bo'lsa,
Jazosini berayin.

Qora dev bu gaplarni eshitib, qahri bosilib, og'zi ochilib: "Hov Ofat, mayli, uni ixtiyorini senga berdim, topib kelsang yana ko'nglingdagi niyatlariningdi beraman. Topib kelmasang jazonqdi beraman. Janozangda o'zim turaman, go'ringdayam kelib uraman. Lekin ertaroq yugur, bilganlariningdi qil, u bola soat sayin o'sib borar emish, agar oradan yillar o'tsa bo'yi o'sib ketsa, bilagiga kuch, beliga quvvat kirsa so'ng sen bilan menga talab qilar. Polvon bo'lsa kunimizni berar, oldiga solib surar, bizlardi shu yurtimizdan yo'q qilar. Tezroq top, janubdan shimolga, sharqdan g'arbgaga tez yurib chop, nima bo'lsayam olib kelgin", -deb Ofatga duo berib, Qora qo'rg'ondan chiqarib yubordi. Ofatning yugurib izlab yurgani:

Shu chiqqandan shu Ofat,
Izlagandan izladi,
Hech ham asta yurmaydi,
Kunma kunga tezladi.

Sahrolarga borganda,
Otibaxt deb bo'zladi,

Hay attang, deb gohida,
Ikki ko'zin yoshladi.

Qancha yurmasin Ofat,
Aslo uni topmadi,
Xo'rsinadi bechora,
Uning baxti chopmadi.

Tog'lardan ham so'radi,
Yulduzlarga qaradi,
So'ragananning bir ham,
Bilganini aytmadi.

Topmagansan Ofatning,
Xo'p achchig'i keladi,
Ofat endi qahrini,
Odamlarga soladi.

Duchor kelgan odamni,
Uni top deb so'radi,
Ko'rganim yo'q deganni,
Ayamaydi, uradi.

Shaharlarga kirganda,
Uni vayron qiladi,
Qishloqlarning ichiga,
Olov yoqib boradi.

Qancha qancha odamni,
To'da qilib qamadi,
Chollar bilan momolar,
Ul ham chetda qomadi.

Ota ketib bolalar,
Sag'ir bo'lib boradi,
Ona degan sag'irdan,
Ko'cha to'lib boradi.

Bilamanu aytmayman,
Deganlarni otardi,
Bilganlarning jasadi,
Qo'shilishib yotardi.

To'l bo'b qolgan xotinlar,
Qarg'ab qarg'ab yig'lardi,
O'zining taqdirini,
Otibaxtga bog'lardi.

Bolalar yig'laganda
Yer titrab borardi,
Otalar Otibaxtni,
Yuragida boqardi.

Jabrini ko'pligidan,
Quyosh yuzin berkitdi,
Ofat qancha odamni,
O'txonaga irg'itdi.

Qancha jabr qilmasin,
Uni topib bo'lmadi,
Pulga uchib birovi,
Men topdim deb kelmadi.

Gohi gohi kunlari,
Bir zo'r tovush kelardi,
Ofat uni eshitsa,
Esi ketib qolardi.

Qayerdan keldi tovush,
Buni aslo bilmasdi,
Gohi izlab ketardi,
Inning ichi qolmasdi.

Qancha yillar o'tsada,
Aslo topib bo'lmadi,
Muddaosiga Ofat,
Endi yeta olmadi.

Alqissa, Ofat ham Otibaxtni topa olmay, xorib, charchab, labi shalpayib, ovzi jolpayib, bellari bukrayib, misoli bo'lganday bo'lib mayib, ranglari sarg'ayib, oyog'i toyib, Qora dev endi meni o'ldiradi deb mung'ayib, bo'yni kirib ketib, yelkasi xumpayib, Qora devning qoshiga salom berib kirib bordi. Betining suyagi chiqib, dumjayib indamay turaverdi, iyagi cho'zilib, beti yalpayib, Qora dev ham qahri kelib, changalini yozib, ushlagan narsasini uzib: "Qani topib kelganing?", -dedi. "Ey sultonim, meni kechiring, bir qoshiq qonimdan o'ting, harchand qaradim, topolmadim", -deb ko'ziga yosh kelib, bo'ynini xam qilib, ming bor ta'zim qilib, devning oyog'ini o'pib turaverdi. Qora devning jahli chiqib, Ofatga qarab: "Syen badavlat odamlarni ayading, azob uqubat bermading, so'rab bilmading, endi nima bo'ladi noshud", -deb Ofatning qulog'iga bir chertdi. Qulog'i sakkiz chaqrin nariga otolib ketdi. Qora quzg'unlar sakkiz kun yeb yotdi. Ofat bir qulog'idan ayrilib, Ofat puchcha degan nomga egalik qilib qoldi.

Alqissa Qora dev ming bir hiyla qilib, goh o't yoqib, goh odamlarning qoshiga balolar yuborib ko'rdi, bo'lmadi. Tobora Otibaxtning tovushi kelaverdi, endi Qora dev o'zining hamma balolarini urushga shaylayverdi. Bir kuni tong vaqt Qora dev dahshatlari tovushdan chirchirab uyg'ondi. Sakson botmon kaltagini qo'liga oldi. "Kim meni uyqumdan bezovta qildi, yerga qoziqday qilib qoqmasam, suyagini chaqmasam, ustiga o't yoqmasam", -deb joyidan turib, g'uldiraganiga yerlar dirillab, achchig'i kelib, xezlab, xezlaganiga tog'lar muzlab: "Qani meni kim uyg'otdi, kim jur'at etdi, o'zini menga ko'rsatsin", -deb baqiraverdi. Shunda to'satdan qo'rg'oning kiytidan bir tovush keldi: "Qani mal'un, chiq bu yoqqa, senga odamzot farzandi Otibaxt keldi", -deb bir nara tortdi, devning quloqlari chippa bitti, babalab qoldi, esi ketdi. Avval yotgan joyiga kirib ketdi, yana bir irchib chiqib ketdi. "Odamsot bolasida buncha tovush yo'q edi, o'zi kamkuch bo'lsayam tovushi yomon ekan", -deb qarsak chaldi. Barcha mulozimlarni jiyib keldi. "Ey mulozimlar, -dedi Qora dev, Otibaxt keldi, men jang qilaman, bir pasda ahvolini tang qilaman, agar menga kuchlilik qilaversa, hammang qarab turma, har yonidan ot qo'y. Ofat, sen kulfat yog'dirasan, Olg'ir bor yo'g'ini shilib olsin, hammangning vazifang bor, shuni qilaverasan. Och yalang'och, darmonsiz bo'lib qolsa, men tezroq g'alaba qilaman", -dedi. Hammasi rozi bo'ldi. Qora dev kaltaagagini ko'tarib tashqari chiqdi, ko'rdi, qaddi basti kelishgan, nechovlar qarab vahmidan adashgan sheryurakli, arslon bilakli bir yigit qo'lida quroli yo'q, vujudida kuch yog'ilib turibdi. Qora dev ichida aytdi: "YO tovba, odamzotdan ham shunday pahlavonlar ham bo'larkanda, lekin buni aldab-suldab yo'liga solsa bo'ladi. Buning ichi kovakka o'xshaydi, buni ushatib maydonga yuborsam bo'lar ekan. Qani avval uning muddaosini so'rab, undan keyin nima qilsam qilay", -deb bir ikki og'iz so'z aytilib turibdi:

Qani polvon berman kel,
Muddaongni so'rayin,
Nima tilasang mendan,
Yo'q demayin, berayin.

Istasang ol qal'amni,
Oltinlar ham seniki,
Otibaxt ham ismmi,
Boshqa ism qo'yayin.

Bo'lsa agar dushmaning,
Ikki ko'zin o'yayin,
Qani kirgin o'rdamga,
Mehmon bo'lgin bu kecha.

Senga bo'lsin xizmatkor,
Qancha kelinu checha.
Otibaxt bu so'zlarni,
Dim eshitib turadi,

Qahri qattiq kelgandan,
Ikki qadam yuradi.
-Menga aytma Qora dev,
Bu bema'ni so'zlarni,

Qancha urunganingda,
Aldab bo'bsan bizlarni.
Meni sening dunyoying,
Oltinlaring kerakmas,

Yig'ishtir bu gaplarni,
Chek qo'y gapga, endi bas.
Ikkimizning qonimiz,
Qo'shganda qo'shilmaydi,

Oqqan bilan suvlar bo'b,
Eshganda eshilmaydi.

Mayli sening bilan men,
Urushib qon to‘kmaylik,

Erkin turgan yurakka,
Bunda xanjar tiqmaylik.
Mening muddaom shuldir,
Biz ozodlik istaymiz,

Senga tobe bo‘lmaymiz,
O‘zimizcha yashaymiz.
Yomon ko‘pga qo‘silsa,
Keng dunyo tor bo‘lar,

Odamzotning hammasi,
Bir-biriga yor bo‘lar.
Agar birov och bo‘lsa,
Hamma birday och bo‘lar,

Agar birov shoh bo‘lsa,
Hamma birday shoh bo‘lar.
Biz qayerda ishlasak,
Sen ham birga ishlaysan,

Yaxshi-yaxxshi ishlasang,
To‘yib-to‘yib osh yeysan.
Oltinlaring, mollaring,
Bular bari xalqninki,

Yeru osmon boyligi,
Bari bo‘lar bizniki.
Agar shu gapga ko‘nsang,
Birga birga yashaysan,

Elga xizmatkor bo‘lib,
O‘z ko‘nglingni xushlaysan.
Agar gapga ko‘nmasang,
Qayga bo‘lsa ketaver,

Bu yurtlarda turmaysan,
Boshqa joyga o‘taver.
Bu gapdan so‘ng Qora dev,
Bir xoxolab kuladi,

Qoshidagi gurzusin,
Asta qo‘lga oladi.
-Sening bunday gaplaring,
Uxlab tushga kirgan yo‘q,

Bu viloyat, joylarga,
O‘zim xonu, o‘zim bek.
Shuncha ayttim bo‘lmadi,
Kuning to‘lib kelibsan,

Bu gaplarni osamchi deb,
O‘ylab dashda yuribsan.
Zo‘rligimni bildirib,
Yo‘q qilayin o‘zingni,

So‘ngra o‘yib olayin,
Ikki birday ko‘zingni.
Tilka, tilka, tilayin,
Suyagingni, belingdi,

Ozodlik deb aytasan,
So‘ngra kesay tilingni.
Qora devning shu zamон,
Rosa qahri keladi,

Qo‘lidagi gurzusin,
Osmonga ko‘taradi.
Qochib borar tirqirab,
Yer ostidagi suvlar,

Oqaverdi shirqirab,
Ochilib turgan gullar.

Ko‘p bargidan to‘kildi,
Tikka o‘sgan daraxt ham,

Bu dahshatdan yiqlidi,
Baland-baland tog‘lar ham.
Tuba bo‘ldi so‘tilib,
Yer ustidagi toshlar,

Borayotir otilib,
Sayramay qoldi qushlar.
Yer bag‘irlab uchadi,
O‘ynab yurgan hayvonlar,

O‘qday bo‘lib qochadi.
Yorug‘ edi bu jahon,
Qorong‘u bo‘b boradi,
Oy ham qo‘rqib tog‘lardan,

Asta pisib qaradi.
Qo‘rqib ketib boradi,
Jamiki tabiat,
Bilmadim bu urushda,

Kimga boqaradolat.
Gurzusini ko‘tarib,
Shu Qora dev uradi,
Gurzusidan chiqqan o‘t,

Ses berib ishqiradi.
O‘ti tushgan joylari,
Loppa yonib boradi,
Bir birining zarbiga,

Imoratlar nuradi.
Otibaxt ham shu devning,
Holi nima biladi,
Qo‘l uzatib mal‘unning,

Yoqasidan oladi.
Siltab otdi Otibaxt,
Bir silkindi ona yer,
Yengil bo‘lganday bo‘ldi,

Rahmat senga bolam der.
Qora dev ham falakka,
Tikka chiqib boradi,
Berman kelma deb quyosh,

Nayzasini tiradi.
Shundan beri Qora dev,
Osmonda yotar ekan,
Yerga tushayin desa,

Yer tayoq otar ekan.
Oy ham arqonin olib,
Qo‘l oyog‘in bog‘labdi,
Ilid taylabdi ko‘kka,

Devning qalbin dog‘labdi.
Shundan beri toabad,
Osmonda qolgan ekan,
Qilmishidan pushaymon,

Bo‘lib yig‘lagan ekan.
Quyosh, oy tutilganda,
Dev yuzini qoplar ekan,
Quyosh ham achchiq bilan,

Olovga toblar ekan.
Olg‘irlaru ofatlar,
Ne qilarin bilmadi,
Borsak o‘lqidarmi deb,

Qavotiga kelmadi.
To‘rt tomonga qochishib,

Qilaverdi qiliq'in,
Otibaxt ushlab oldi,

Barini birin-birin.
Ularni sermab otdi,
O'chdi devning chirog'i,
Shundan beri ularning,

Ko'rinxmaydi daragi.
Qora dev ketgan zamon,
Quyosh charaqlab chiqди,
Gullar sirg'alarini,

Qulqlariga taqdi.
Dashda yurgan hayvonlar,
Shod bo'lqandan o'ynadi,
Ona yerning ko'ksida,
Buloqdan suv qaynadi.

Kunlar o'tib boradi,
Yillar o'tib boradi,
Ozodlikning jahonga,
Nomi ketib boradi.

Alqissa, bu elatning boyligi ortaverdi, Qora devdan nishon qolmadi. Otibaxt o'z xislatlarini xalqqa berdi, ular ozod bo'lib yashayverdi, tenglik, qardoshlikni ham berdi, bir-biri bilan ayrilmas do'st bo'ldi, oshini oshayberdi, yoshini yashayverdi, ota-bobosi ko'rmagan, tushiga ham kirmagan davru davronlarni suraverdi. Temirdan ot qildi, po'latdan qanot qildi. Biri biriga xizmat qildi, baxtiyor bo'lib dildagi murodiga yetib yashayverdi.

Qancha tovlar narida, dengizlarning ketida, ufqlardan tumanda, quyosh botar tomnda bir ajdar yashardi. Ko'ziga nima ko'rinsa, tortinmasdan oshardi, och qolganda tog'ni ham birdan damga tortardi. O'rmonni toshi bilan ayamasdan yutardi, odamu hayvonlargacha, qumursqayu qushgacha undan zorillardı, qo'rqib dirillardi. Bu ajdarning o'n ikki boshi bor edi, biridan birining nafsi juda zo'r edi, u elatdan bu elatga o'tib hamma joyni vayron qilib yurar edi. Bir kuni qo'liga qo'rasini olib, qayerda mendan qo'rqmagan el bor bo'lsa deb qaradi, ozod diyorni ko'radi, odamlaru qushlaru

Vayron bo'b ketgan tog'lar,
Boshini ko'taradi,
Otibaxt hay, deb o'tsa,
Bo'ston bo'lib boradi.

O'rga qochdi qo'yamadi,
Qirga qochdi qo'yamadi,
Quvar edi Otibaxt,
Iniga kirdi qo'yamadi.

Qocha-qocha ajdahar,
O'z joyiga boradi,
Kechdi o'n bir kalladan,
Bitta boshi qoladi.

Ajdahar qocha-qocha o'z yurtiga borib qoldi. Yurgani darmoni qolmadi, turgani quvvati bo'ljadi, o'zini yerga tashlab, itday xoliqlab, dunyodan umidini uzib turdi. Otibaxt boshiga kelib: "Ey mal'un, tur, armonda o'ldim dema, men qoshingdaman", dedi. Shunda, ajdahar boshini qimillatib: "Ey Otibaxt, men sening sehrli so'zlarining shunchaki ahmoqchilik degan edim. Ular shunchalik kuchli ekanki, uni hech qanday narsa yengolmas ekan. Men ajdarman, ajdar odamzotga do'stlik qilmaydi, buni bilasan, hozir ham ilojim yetsa senga zahar solgim kelib turibdi. Qo'y endi, o'zimni o'zim o'Idiray"-, deb, bir chirani, boshin toshga urdi. Boshi julinib, Otibaxt oyog'i ostiga tushdi. Shu vaqt Otibaxt qo'lini bir silkigan edi, hamma yoq bo'ston bo'lib ketdi. Jami jonzot shod-hurram bo'lib, dalalardan qo'shiqlar yangray boshladilar. Otibaxt bir qo'li bilan sehrli so'zlarini ularning ustiga ham tashladi, undan keyin bir-biri bilan do'st, qadrdon bo'lib, bir-biriga yordam berib, baxtli, saodatli bo'lib yashay boshladilar.

Alqissa, Otibaxt ozodlik qilichini gul qilib, tinchlik qalqonini baland ko'tarib kaptar qilib, ular ustiga uchirdi, ular ozod va baxtiyorlik gashtini suraverdi, tinchlik kaptarları jahon bo'ylab uchaverdi.

Ana endi Otibaxt o'z eliga kelib yana bo'stonlar oralab xalq bo'lib, bog'ustiga bog'i bo'ston yaratib yashayverdi. Bir kuni Otibaxtning qoshiga bir donishmand chol kelib, Otibaxtg'a qarab, ikki ovuz so'z ayтиб turibdi:

Ey Otibaxt, qulq sol,
Mening aytgan so'zimga,
Issiqliq qovjiradi,
Bir qaragin yuzimga.

Sen ko'rmagan joylarda,
Bir sariq dev yashaydi,
Sariq devning ham ishi,
Qoradevga o'xshaydi.

U yashagan joylarda,
Odamzot yurolmaydi,
Ko'zga ko'rinxmaydi u,
Hech kimsa ko'rolmaydi.

Qancha odamzotlarni,
U yalmog'iz yutgandi,
Qanchalik moli mulki,
Unda qolib ketgandi.

Qancha inson bolasin,
Tiriklayin ko'mgandir,
O'zini qilmishidan,
Qah qah urib kulgandir.

Qancha cho'li sahrolar,
Sariq devga makondir,
Ilon bilan chayonlar,
Faqt unga yoqqandir.

Goh yuborib shamolni,
Qumdan ustun ko'tarar,
Agar o'ssa bir ko'kat,
Yulib osmonga otar.

Havo yog'ib suv bo'lsa,
Yerga tortib quritar,
Tuba-tuba qumlarni,
Ustiga to'kib ketar.

Gap ko'tarib o'kirib,
Qishloqlarni bosadi,

Ko'rgan daraxtlarini,
Cho'rtta-cho'rtta kesadi.

Goh gohida olovni,
Bo'stonlarga tashlaydi,
Qancha qancha dehqonning,
Ko'zlarini yoshlaydi.

Yer yuzini cho'l qilib,
Olsam deydi niyati,
Aslo yo'qdir u devning,
Nomus bilan uyati.

Bundan avval ne erlar,
Yengaman deb bordilar,
Qaytib kelmadni omon,
Hay attang deb qoldilar.

Qancha-qancha karvonlar,
Yo'qoldilar bedarak,
Sariq dev ko'mgan uni,
Kim qilar uni so'roq.

Qushlar uchsa xohlamas,
Qovjiratib kuydirar,
Odam yursa olovin,
Tubasidan endirar.

Tilsimlidir nomlaring,
Balki sendan qo'rqaadi,
U quturgan itday bo'b,
Faqt suvdan hurkadi.

Shu zahoti Otibaxt,
Qadam taylab jo'nadi,
Yuz ming botmon ketmonni,
Silab qo'lga oladi.

Katta-katta tog'larni,
Yulib qo'lga oladi,
Kattadaryolarni ham,
Burib yo'lga soladi.

Suvlar bundan shod bo'lar,
Oqar edi o'ynoqlab,
Tog'lar hursand bo'lgandan,
O'zin taylardi qalab.

Suvlarg'a yo'l ko'rsatib,
Otibaxt tez boradi,
Boshqa barcha daryo ham,
O'z suvini buradi.

Gursillatib qadamin,
Otibaxxt boraverdi,
Xursand bo'lib maysalar,
Bo'y cho'zib turaverdi.

Otibaxt cho'l ishiga,
Tobora yuraverdi,
Sariq dev ham hayron bo'b,
Osmondan qarar edi.

-Vaho,- dedi Sariq dev,
Bu ham cho'lga keladi,
Bundan chiqolmay endi,
Mangu shunda qoladi.

Qancha odamlar keldi,
Ular bunday emasdi,
Hech qachon suvlar oqib,
Orqasidan kemasdi.

Yo tavba odamzotda,
Bunday polvon bo'lmaydi,

Tuba-tuba tuproqni,
Kesakdayin otmaydi.

Qadami yetgan joyda,
Oltinlar chiqmas edi,
Hech zamonda ko'rmadim,
Suv o'rga oqmas edi.

Baribir odamzotku,
Teng kelolmaydi menga,
Bir sichqonning inini,
Ming tanga qilay unga.

Zerikib qolgan edim,
Endi xursand bo'layin,
Ko'ksiga oyoq qo'yib,
Bir xoxolab kulayin.

Alqissa, Sariq devning achchig'i kelib, badandagi tuklari terakday bo'lib, murudi tovoniga tushib, achchig'i kelganda osmonga qarab, qirq quloch o'sib, ikki ko'zi yonib, qovog'i tubadan uyulib, qulog'ini yozib, qulog'i u sahrodan bu sahroga yetib, o't olgan tog'day bo'lib, ichi yonib, ho'l o'tinday tutaqib, o'zicha har narsa deb g'uldirab, g'ulduraganiga ham tog' nuraganday sholdirab: "Bu odamzotni ham bir ko'rayin, buni nobud qilayin, gavdasini qum ostiga olayin, kelmasday qilib tazirini berayin", -deb, qo'lini bir silkitdi. Labbay deb shamol, o't, olov, to'polon, quyun, garmsel kabi askarları esnab joyidan turdi. Devning achchig'i kelganini bildi. Hammasi joyidan cho'pchib tushaverdi. Kimning ajali yetdi, kimning kuni bitdi deb, vaxshat bilan gir-gir aylanaverdi. Sariq dev ularga qarab bir so'z aytib turgani:

Qani keling burxonlar,
O'tdan nayza qilinglar,
Qani kyeling shamollar,
Qumdan gurzi qilinglar.

Qani keling garmsel,
Dashga olov sochaver,
Quyun sen ham qilichman,
Boshin ko'zlab uraver.

Qo'l oyog'in ip bilan,
Mahkam qilib bog'layver,
Olov sen ham cho'llarda,
Chug'dan o'q qib otaver.

Odamzotni bu joyga,
Ajal tortib kelibdi,
Tilsimgarga o'xshaydi,
Suvdan qurol olibdi.

Sariqlik menda turib,
Bu qo'lini silkidi,
Bor adovat azoblar,
Cho'l yobonda izg'idi.

Quyun o'ynab, uyrilib,
Yasayverdi qilichni,
Olaman der g'ovlillab,
Bu odamzotdan boshni.

Olov oldi har yondi,
Qumlar ham qizib ketdi,
Devning tiysa oyog'i,
Yobondi qazib ketdi.

Tog'day-tog'day qumlarni,
Osmonga sermab otdi,
Ko'tarildi to'zonlar,
Kun yuzini berkitdi.

Saksovullar oh deya,
Boshin yerga tayladi,
Xushtak chalib to'polon,
Cho'l yuzida o'ynadi.

Otibaxtning qoshiga,
Bari o'ynab keladi,
Ha halab, hu hulab,
Atrofini oladi.

Otibaxt ham suvlardan,
Qalqon qilib oladi,
Ketmoni qo'lda qilich,
Ayamaydi soladi.

Tuba tuba o't qumlar,
Qalqonida yo'q bo'ldi,
Otibaxt ketmonidan,
Rosa ko'ngli to'q bo'ldi.

Quyunlar kelganida,
Aslo pisand qilmadi,
Olov yonib kelardi,
Uni ko'zga ilmadi.

Kelganini kelganday,
Ushlab yerga uradi,
Voh o'ldim deb nechovi,
Birday ochib boradi.

Pisand qilmay oqibat,
Cho'lga yurdi mardona,
O'tgan joy bo'ston bo'lib,
Qushlar sayradi yana.

Sariq dev ham qaradi,
Yuborgani yo'q bo'ldi,
Hammasi taslim bo'lib,
Uning xizmatin qildi.

Olov bilan quyunlar,
Jilov bo'ldi otiga,
O't, shamol salqin bo'lib,
Taskin berar betiga.

Bir oh urdi Sariq dev,
Cho'llar larzon beradi,
Barin nobud qilay deb,
Endi o'zi yuradi.

Xop etib kelib qoldi,
Otibaxtning qoshiga,
Aylanib kulaverdi,
Shu botirning boshida.

Ey Otibaxt, o'zingni,
Men nobud qilay dedi,
Yoki seni o'ldiray,
Yo o'zim o'lay dedi.

Chopib keb har yog'idan,
Shunday daxshat soladi,
Cho'llar ketti yorilib,
Otibaxt yoqasidan.

Ushlar chanchoqday qilib,
Otibaxt ham qo'lini,
Uzatdi ushlab oldi,
Boshidan aylantirib,

So'ng yerga sozlab soldi.
Yorilgan ora cho'llar,
Bir-biriga ushlashdi,
Ilonlaru chayonlar,

Endi ko'zin yoslashdi.
-O'lirma der Sariq dev,
Bir kuningga yarayin,
Ey jahon pahlavoni,

Sendan bir gap so'rayin.
Odamsotni der edim,
Gavda bor ichi puchda,
Rostin ayt qaydan oling,

Bunday yengilmas kuchdi.
Otibaxt asli oting,

Sehrlidir bilaman,
Bunday kuch qaydan kelgan,

O'zim hayron bo'lamан.
"Aha" dedi Otibaxt,
Endi esga kiribsan,
Hayron bo'libsan menga,

Mendan so'rab turibsan.
Sen bilibsan otimni,
Otim turli-turlikdan,
Mayli senga aytayin,

Pahlavonlik birlikdan.
Sariq dev der birlikni,
Menga tushuntirib ber,
Agarda kuchli bo'lsa,

Men ham senga to'kay ter.
-Eshit dedi Otibaxt,
Mayli aytay sirini,
Bilsang bizda ko'p millat,

Og'a der bir-birini.
Birining xizmatiga,
Biri tayyor bo'ladi,
Agar kerak bo'b qolsa,

Tanda jonin beradi.
Mayli aytay boshidan,
Bari menga qo'shilgan,
Misli qattiq po'latday,

Bir-biriga eshilgan.
Mana qo'llar, tanalar,
Butun xalqning birligi,
Kundan kunga oshadi,

Baxt-iqbol ham zo'rligi.
Meni qilgan ishlarim,
Bilsang ularning ishi,
Hech vaqt aniqlanmaydi,

Menday polvonning yoshi.
-Yana bir gap so'rayin,
Aslo og'ir olmagin,
Goh odam qarimayma,

So'raydida bilmagan.
Sen ham bilgin odamzot,
Yashamaydi abadiy,
Yaqinda chol bo'lasan,

Bu so'zim mening qat'iy.
Ko'krak kerib Otibaxt,
Bir xoxolab kuladi,
Yomon gap ayttimma deb,

Devga qo'rquv keladi.
E, esi past Sariq dev,
Men axir zaminmanku,
Bilarmisan zamindi,

U ku yashaydi mangu.
O'lsa agar bir kishi,
Uni farzandi qoladi,
Bir kishining o'rnida,

O'nlab quvvat bo'ladi.
Ul ham o'lmaydi aslo,
Farzandi uning o'zi,
Yuragi yuragiyu,

Ko'zidir uning ko'zi.
Shuning uchun har doim,

Men yasharib boraman.
Yer kurra tug'ilmaydi,

Men ham mangu qolaman.
Mening bilgin qadamim,
Bil yoshlikdan yoshlikka,
Yoshlikdan yigitlikka,

Doim abadiylikka.
Dev endi taslim bo'lib,
Unga bo'ldi xizmatkor,
Ne qil desa qiladi,

Otibaxtga madadkor.
Shunday qilib Otibaxt,
Murod maqsadga yetdi,
Osmonga oltin sochib,

Mana do'stlar tong otdi.
"Otibaxt" dostonini,
Mana Qodir ham aytdi,
Abdiolim tinmayin,

Mashin bo'b tolmay bitdi.
Bir yonimda o'tirar,
Qarang Malik Muroddi,

Qamishday to'lg'ab boshin,
Goho haydar G'irotti.

Qodir baxshining shogirdlariga o'gitlari***1 (Do'mbira haqida)**

-Do'mbira bir quloch yog'och, agar uni mahorat bilan chala bilsang, bulbuldan o'ktam sayraydi. Agar chala bilmasang bir quloch o'tin nima, do'mbira nima? Shuning uchun baxshi bo'lsang do'mbirani hovorga taylama, undan hech kim hakkalamasin.

- Baxshi bo'lsang, do'mbirani o'zingga yo'ldosh, sirdosh va quvvatim deb bil.
- Do'mbiraning torini o'z vaqtida almashtir.
- Do'mbirani qo'ling yuvilgan bo'lsa ushla.
- Do'mbirani chermagan vaqtingda g'ilofga saqla.
- Hamsoyalarнига va boshqa joyga xizmatga berganingda do'mbirani sira tashlab kelma.
- Do'mbirani yangi olgan bo'lsang, eskisini shogirdlaringga tekinga ber.
- Do'mbirani shogidlaringga berayotganingda hamma shartlarini tushuntirib ber.
- Do'mbirani xor qilib yoki zor-zorlatib chalma, ustasiga ko'rsatib tur.
- Do'mbirani fokishaga ushlatma.
- Qo'ng'irot odamning uyida bittadan do'mbira turgani ma'qul.

2. To'ychilarni qabul qilish haqida.

- Uyingga kelgan har bir insonni ochiq chehra bilan qabul qil.
- Uyingga kirib bir tuyir non yeb chiqmasa, ruxsat qilma.
- Bemor yurgan bo'lsang ham, uyinga to'ychi seni so'roqlab kelgan bo'lsa, iloji boricha joyindan turib, istiqboliga chiq.
- Agar turolmaydigan bo'lsang, uzringni aytib, kechirim so'ra.
- Ular seni to'yga aytib kelgan, qo'shig'ingni savdolashma. Borsang kamini xudo to'ldiradi.
- Ularga mensimay qarama.
- To'ychilardan foydalanish yo'lini izlama, agar ularning o'zları marhamat qilsa, chegaradan oshma.
- Agar to'yiga borolmasang, uzuringni ayt.
- To'ychilarni yolg'on gapirib jo'natma, agar shunday qilsang, obro'yinga putur yetadi.
- Bir kunda ikki kishiga va'da berma.

-Bir kishining to'yiga bormoqchisan, lekin davlat seni boshqa tomonga lozim topdi. Sen iloji boricha to'y egasiga xabar berishga shoshil. Ana shunda yuzing oq bo'ladi.

-Bir kunda g'ajirday uchta-to'rtta to'yni kezma.

-To'ychini uydan jo'natayotganda qo'ling ko'ksinda bo'lsin. Bu holat sening tarbiya topganiningni bildiradi.

-to'ychi jo'nayotganda unga oq yo'l tila.

3. To'yga borishda

- To'yga jo'nashdan oldin yaxshilab uxbab ol.
- Uyqudan turib, soqol mo'y lovingni ol va sochingni tozalab yuv.
- Tirnoqlaringga etibor ber
- Yaxshilab qorningni to'ydir.
- Kiyinishiga katta e'tibor qil.
- To'yxonaga juldur-juldur kiyinib borma.
- Iloji bo'lsa to'yxonaga to'nda bor.
- Hech qachon to'yxonaga yalangbosh borma.
- Baxshiga ko'proq sur telpak va ola do'ppi yarashadi.
- Qabotingda yo shogidlaringdan, yo og'ayinlaringdan birov bo'lsin. So'ppayib yurma.

-To'yxonaga borganingda avvalo salom ber va istiqbolinga chiqqanlar bilan ko'rishib chiq.

-To'yxonaga ochiq chehra bilan kirib bor.

-Baxshilarga uzun soch qo'yish yarashmaydi.

4. To'yxonada xizmat qilish haqida.

- To'y egalari lozim topgan joyda o'tir.
- O'tirgan joying toza bo'lsin.
- "To'y qulli bo'lsin" ni o'zingdan kattar o'tirgan bo'lsa, oldin aytma.
- Taomni manmanlikka berilib, oldin boshlama. Oldin yoshi ulug'lar boshlasin.
- Dasturxonga duo qilish ham ulug'lardan bo'lsin.
- Bobolarning ichiga kirib borganingda salom ber, qo'ling ko'ksingda bo'lsin.
- Ular ko'rsatgan joyda o'tir.
- Bilmagan dostoningni hech qachon aytma.

*O'gitlarni Qahhor baxshi yozib olgan

-Dostonni boshlashdan oldin nasihat va yaxshilikka yetaklovchi termalardan boshla.

-Bobolarning ichida bilgan dostoningni aytib, ko'nglini ko'tar va duosini ol. Ular talab qilsa, zeriktirmasdan kuyla.

-Bobolar rozi bo'lgandan keyin qo'shiqni to'xtat va duolashib jo'na.

-Iloji bo'lsa to'yxonada yotma, chunki ularni tashvishga qo'yasan.

-Mabodo, seni konsert bo'layotgan davraga taklif qilsa, kamtarlik bilan bilan kirib bor.

-Chorpoyada o'tirganingda artistlar bilan quyiq so'rash, oliftalik qilma.

-O'yinchi qizga tegajonlik qilib, obro'yingni ketkazma.

-Davra raisiga itoat qil.

-Davrada xalqning talabiga qarab, xizmat qil.

-Mikrafonda kuylayotganda hech qachon odamlarga o'zingni ko'z-ko'z qilma.

-Qo'shiq aytayotganingda xotin-qizlarga tikilib boqma. Agar boqsang sening sha'ningga har-xil gap bo'lishi mumkin.

-Agar sen baxshi bo'lsang, davrada bekorchi so'zlarni termada ishlatma.

-Davrada eng go'zal so'zlarni ishlat.

-Agar xalq senga og'ib turgan bo'lsa ham, artistlarni esdan chiqarma, ularga ham odob bilan navbat berib tur.

-Agar xalq sening qo'shilg'inga qiziqmayotgan bo'lsa, o'zingni urib yotma.

-To'yga borganingda to'y egasining ko'nglini ol, kelgan barcha xalq sendan rozi bo'lsin.

-Xizmat tugagandan keyin to'y egasining rozilagini va duosini olib, jo'na.

-Bergan haqiga talashma.

-Agar u nomard bo'lsa, sen duo berib ket.

5. Ustozni hurmatlash haqida

-Ustoz yetti otaga tengdir.

-Birorvni ustozim deb ushlama, agar ushlasang, uning hurmatini joyiga qo'y.

-Ustozingni tez-tez so'roqlab tur.

-Davrada, to'yda ustozing bilan birga bo'lsang, chechanlik qilma.

-Birga yursang, do'mbirasini ko'tarib yur.

-Ustozing oldida aroq ichma.

-Ustozing ruxsat bermay, sen termani boshlama.

-Bilmagan narsangni odob bilan so'ra.

-Ustozing senga o'z farzandiday ishonsin.

-Hech qachon ustozing haqiga xiyonat qilma.

-Ustozni otam deb bil.

-Ustozing sendan rozi bo'lsa, ikki dunyong obld bo'ladi.

-Ustozing gapini ikki qilma.

-Ustozing turganda sen to'ychiga oldin javob bermen.

-Ustozingni birov yomon desa, sen o'shang aq'shilib yomonlama.

-Ustozdan ozroq narsani o'rganib, baxshi bo'ldim, dema.

-Qorning to'ysa, ustozingni yoddan chiqarma.

-Mabodo obro'ying baland bo'lib ketsa, ustozingdan minnatdor bo'l.

-Qancha ulug' bo'lsang ham ustozingga bosh eg.

-Hech qachon ustozing bilan bellashma, davrada tillashma, mabodo shunday qilsang oqibating kuyadi.

-Ustozing oilasini hech qachon yoddan chiqarma.

-Izida qolganlarni rozi qil.

-Agar imkoning yetsa, haqiga quron tilovat qildirib tur.

-Ko'ringanni ustozim deb izzatingni qochirma.

-Sendan ulug'larning bari - ustozdir.

-Shogird bo'lsang ustozingga munosib bo'l. Agar eplay olmasang, boshqa hunar o'rgan.

-Ustoz ko'rgan shogird xudoning nuridan bahramanddir.

6. Doston va termani kuylash haqida.

-Dostonni to'liq bilmasang, aytma.

-Dostonni kuylayotganingda unning har bir so'ziga e'tibor ber.

-Dostonni ta'sirli so'zlar bilan boyit.

-Dostonni hikoya qismi iloji borichauyqashsin, she'riy qismi esa qoidaga bo'yunsin.

-Doston davraga moslab kuylansa, tez ta'sir qiladi.

-Dostonni boyitaman deb, buzib tashlama, uning kuchini qochiras.

-Doston epizodlarga boy bo'lsin.

-Doston voqealari tabiat manzarasi bilan qorishsa yanada go'zallahadi.

-Dostonning qayg'uli joylarini og'ir kuylarga, sho'x joylarida yengil nag'malarda, ot choptirish, jangga kirishish joylarini shularga mos sozlarda aytasang, doston ta'sirli bo'ladi. Tinglovchini zeriktirmaydi.

-Dostonda bosh qahramonni zaif qilib ko'rsatma, agar qahramon zaif bo'lsa, eshituvchilar esnay boshlaydi.

-Davralar dostonni maroq bilan tinglayotgan bo'lsa, qoldirmay ayt.

-Agar ular zerikayotgan bo'lsa, dostonning qiziq-qiziq joylarin ayt.

- Dostonni qanday aytdim deb so'rama, ularning o'zi senga baho bersin.
- Doston katta bir dengiz, uni harom qilib ichma.
- Dostonning yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Agar aytuvchi mohir bo'lsa, yomonni ham yaxshi qilib kuylaydi, tinglovchiga yetkizadi. Mabodo aytuvchi muxtal bo'lsa, yaxshi dostonni ham qorib taylaydi, tinglovchining ixlosini qaytaradi. Shuning uchun mohirlikka intil.
- Terma aytish o'ta chechanlikni talab qiladi.
- Bir insonni ta'riflasang, uning yaxshi tomonini axtar.
- Ustozlar termasini buzib kuylama.
- Har bir terma har-xil nag'mada aytilgani ma'qul.
- Termaning siri uning bir hissiyotga bog'lanishida, ta'sirida va ravonligida.
- Terma ko'proq yetti-sakkiz yoki to'qqiz bo'g'inda bo'ladi.
- Aytayotgan termang odamlarning kayfiyatini ko'tarsin.
- Yetuk baxshi bo'lish uchun yozma adabiyotni ham chuqur bilmoq lozim.
- So'zga chechan bo'lish uchun she'riyatni sevishi kerak.
- Nag'ma chalish uchun o'tkir zehn, so'z boyligini oshirish uchun yozma va og'zaki adabiyotni biladigan qobiliyat, so'z va sozni bir-biriga jamiratishchun yuksak mahorat kerak. Ravo ovoz esa – bu xudoning bandasiga bergan in'omi.
- Baxshining obro'yini oshiradigan yana bir buyuk narsa borki-bu o'ta kamtarlik va samimiyyat.

- Manmanlik-zavol, topgani-uvol.
- Rozilik bilan topilgan mol-halol.

7. Baxshilarning bir-biriga munosabati haqida.

- Xudo har kimga har xil talant beradi. Ana shu har xillik bir xil kasb egalari orasida nizo chiqaradi. Bu nizoni esa donolik bartaraf etadi. Shunday ekan har kim holiga yarasha, dangana ko'r puliga yarasha.
- Baxshilar bir-birlari bilan uchrashganda, bir ota-onaning bolasiday quchoq ochib ko'rishsa, qanday chiroyli bo'ladi.
- Sen baxshilarni ko'rganingda, ularning obro'yini hisobga olmay, bari bilan teng ko'rish.
- O'zingdan past baxshilarni ham tingla, ularni o'rgan, ulardan balki sen bilmaydigan iboralar, so'zlar chiqib qolishi mumkin.
- Baxshilarni bir-biriga yomonlama, izzating qochadi.
- Yosh bo'lsang, ularning xizmatini qil.
- Baxshilardan birontasi sendan yaxshi aytса, hasat qilma, balki havas qil. Ana shunda sen kamolotga yetasan.
- Baxshilar bir-birlarini izlab tursa, el ichida hurmati oshadi.

- Baxshilar to'uda birikkanlarida bir-birlariga izzat-hurmat bilan navbat bersalar, olam guliston bo'ladi. O'rtada xafagarchilik chiqmaydi.
- Agar sen bir tumanga to'ya borsang, u yerda keksa baxshi bor bo'lsa, sen uni borib ko'rgin yoki davraga olib keltirgin. Bu ish sening donoligingni bildiradi.
- Sen baxshi bo'lgan bo'lsang birinchi qishlog'ingning ko'nglini top. Bu ish qishlog'ingdag'i obro'yingni oshirib, ular senga qanot bo'ladi.
- Hamkasbing qo'shiq aytayotganda sen uning qo'shig'in bepisid qilma yoki gurung bilan bo'lma. Bu unga bo'lgan hurmatingni bildiradi.
- Katta baxshi bo'lsang shogird tayyorla. Daraxt ham mevasi bilan qadrli.
- Bo'sh vaqting bo'lsa, doston kitob o'qi.
- Xizmatda yurganingda aroq ichma.
- Baxshi bo'lsang, harom yo'lga yurma.

MUNDARIJA:

O.Nazarbekov Qodir baxshining ijodiy merosi	4
A.Ergashev Ulkan salohiyat sohibi.....	6
Termalar.....	9
An'anaviy termalar.....	9
Do'mbiram.....	9
Nima aytay.....	9
Bo'lmasin-1.....	12
Bo'lmasin-2.....	12
Ohuva-1.....	13
Ohuva-2.....	14
Ayrilsa.....	15
Yaxshidir.....	16
Yigitga.....	17
Qolmadi.....	18
Tabib va giyoh.....	20
Kelar Kuytanning kelini.....	22
Na foyda.....	25
Ne yomon.....	26
Zamonaviy termalar.....	28
Dehqonobodsan	28
Qarshi cho'lin.....	30
Qashqadaryo.....	31
Go'zal Qashqadaryo.....	33
O'zbekistonimsan.....	34
Mening O'zbekistonim.....	35
Muborak.....	36
Yig'lamagin onajon.....	37
Keladi.....	37
To'rtliklar	42
Toshkentim	43
Qaynarbuloq bulbulim	44
Mehmondir.....	45
Samarqandim-qandim.....	46
Suvning qadri.....	47
Qorako'limni maqtayin.....	49
Ustozdir	51
Ustozimga.....	52
Oy Kamola-Kamola.....	53
Janbul bilan Obay ikkov.....	54

Cho'lni qiling guliston.....	55
Obro'yingdan ayrilma.....	57
Sayrob kuya.....	58
Hajviy termalar	58
Sen benzinimsan.....	58
Qizmisan yo o'g'ilmsan.....	59
Yomon qaynona.....	61
Stilyak.....	62
Ferma mudiri.....	63
Ishdan qocha.....	65

Dostonlar:

Kelinoy dostoni.....	67
Yozi bilan Zebo dostoni	158
Jahon pahlavoni (majoziy doston)	309
Qodir baxshining shogirdlarga o'gitlari.....	342

RESPUBLIKA BAXSHICHILIK SAN'ATI MARKAZI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qodir baxshi Rahimov

SAYLANMA

(Xalq dostonlari)

1 kitob

Muharrir: I. Ayniddinnov
Musahhih: S. Ayniddinov
Saxifalovchi: M. Nusratov

“KITOB NASHR” nashriyotri
Termiz shahri Islom Karimov
ko’chasi 62-uy

Tasdiqnomma: № 5300 (10.05.2021)
Terishga 20.04.2023 yil berildi.
Bosishgga 22.05.2023 yil ruxsat etildi
bichim 84/60 80/rp ofesni bosma usuli
22 shart b.t. adadi 250

“ILM” мечх bosmaxonasida chop etildi.
Termiz shahri, Nodir ko’chasi, 6-uy.



ISBN 978-9943-7735-5-4

A standard linear barcode representing the ISBN number 9789943773554.

9 789943 773554